SAYHUN

ISSN 2992-9164 (P)
E-ISSN 3030-3990 (E)

ILMIY AXBOROTNOMASI

Scientific bulletin of Sayhun

GULISTON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
GDPI-2022







2025/1

Guliston davlat pedagogika instituti
“Sayhun ilmiy axborotnomasi” ilmiy-uslubiy jurnali
2025-yil 1-son

Bosh muharrir: J.X.KARSHIBAYEV – b.f.d., dotsent
Mas’ul muharrirlar: A.A.QALANDAROV – f.-m.f.b.f.d, dotsent
N.A.AYAQULOV – f.f.b.f.d, dotsent

TAHRIR HAY’ATI:

01.00.00-Fizika-matematika fanlari:
1. Aripov Mirsaid Mirsidikovich, f.-m.f.d. prof. (O‘zMU)
2. Xaldjigitov Abduvali Abdisamatovich, f.-m.f.d. prof. (O‘zMU)
3. Rahmonov Zafar Ravshanovich, f.-m.f.d., dots. (O‘zMU)
4. Xajiyev Ikrom Ozodovich, f.-m.f.d., dots. (O‘zMU)
5. Matyaqubov Alisher Samadovich, f.-m.f.d., dots. (O‘zMU)
6. Niyozov Muhamad Bahronovich, p.f.b.f.d., dots. (GulDPI)
7. Fazilova Surayyo Abdumalikovna, k.f.n. (GulDPI)

02.00.00-Biologiya fanlari:
1. Qo‘shiyev Habibjon Xojiboboyevich, b.f.d., prof. (GulDU)
2. Pazilov Abduvayeit, b.f.d., prof. (GulDU)
3. Abduraxmanova Ugiloy Koxxorovna, b.f.d., prof. (GulDU)
4. Gaibnazarova Feruza Pardabayevna, b.f.b.f.d., prof. (GulDU)
5. Yunusov Oybek Xabibullayevich, b.f.b.f.d., dots. (GulDPI)
6. Maxmudjonov Zafar Murodjon o‘g‘li, b.f.b.f.d. (GulDPI)

07.00.00-Tarix fanlari:
1. Asqarov Ahmadali, O‘z.FA akademigi. t.f.d., prof.
2. Egamberdiyeva Nigora Azadovna t.f.d., dots. (ToshAFU)
3. Abdullayev Diyorjon Nodirjon o‘g‘li, t.f.d., dots. (UrDPI)
4. Kurbanov Eldar Ermamatovich, s.f.b.f.d. (GulDPI)

09.00.00-Falsafa fanlari:
1. Tulenova Karima Jandarova, f,f,d., prof. (TDPU)
2. Saifnazarov Ismail, f.f.d., prof. (ToshDIU)
3. Shermuhammedova Nigina Arslonova, f.f.d., prof. (O‘zMU)
4. Saitkasimov Akbar Isaxanovich, f.f.d., prof. (JizDPU)

10.00.00-Filologiya fanlari:
1. Djumanova Dilbar Rahimovna, fil.f.d., prof. (O‘zDJTU)
2. Lixodziyevskiy Anatoliy Stepanovich, fil.f.d., prof. (O‘zDJTU)
3. Bakiyeva Gulamdon Hakimovna, fil.f.d., prof.
4. Sabirova Gulnoza Sadikovna, p.f.d., dots. (TIQXMMI)
5. Rahmonov Azizxon Bositxonovich, p.f.d., dots. (O‘z DJTU)
6. Muratkasimova Kamola Shuhratovna, p.f.d., dots. (O‘zDJTU)
7. Kurbanov Bahrom Shukriyevich, fil.f.b.f.d., dots. (GulDPI)
8. Nasrullayev Elmurod Jumaboyevich, fil.f.d., dots. (GulDPI)
9. Abdukadirova Nasiba Alimjanovna, p.f.b.f.d., dots. (GulDPI)

13.00.00-Pedagogika fanlari:
1. Djurayev Risbay Xaydarovich, O‘zFA akademigi, p.f.d., prof.
2. Ergasheva Gulruxsor Surxonidinova, p.f.d., prof.(TDPU)
3. Djamilova Nargiza Nuritdinova, p.f.d., prof. (TDPU)
4. Qo‘ysinov Odil Almurotovich, p.f.d., prof. (NordikU)
5. Komilov Jamoliddin Karimjonovich, p.f.b.f.d., dots. (GulDPI)
6. Qulmamatov Sindorqul Ibragimovich, p.f.n., dots. (GulDPI)
7. Samatova DilraboYusufovna, p.f.b.f.d., dots. (GulDPI)
8. Nurumbekova Yarkinay Anormatova, p.f.b.f.d., dots. (GulDPI)

23.00.00-Siyosiy fanlar:

1. Rajabov Habibullo Ibodullayevich, s.f.d., dots. (Tosh.DTU)
2. Musayev Mansur Tursunpo‘latovich, s.f.d. (IMTI)
3. Mo‘mimov Alisher G‘afforovich, s.f.d., prof. (O‘zMU)
4. Saidkulov Nuriddin Akramkulovich, s.f.b.f.d. (GulDPI)

“Sayhun ilmiy axborotnomasi” ilmiy-uslubiy jurnali elektron to‘plam sifatida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi (AOKA) ning 2023-yil 9-martdagi № 067833 raqamli guvohnomasi asosida chop etiladi.

O‘zbekiston Milliy kutubxonasiga 2023-yil 11-oktabrdagi murojaat asosida ISSN 2992-9164 tartib raqami berildi. 2024-yil 20-iyunda (online) E-ISSN 3030-3090 raqamini oldi.

OAK Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5 qaroriga muvofiq **“Pedagogika”** fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiya ishlari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

Jurnalda ilmiy-tadqiqot ishlarining natijalari, bugungi kunning dolzarb muammolari, ta’limdagi innovatsiyalar, fan va texnikaga oid yangiliklar aks etgan ilmiy xabarlar chop etiladi.

Jurnal professor-o‘qituvchilar, mustaqil izlanuvchilar, doktorantlar, magistrantlar, iqtidorli talaba-yoshlarning ilmiy hamda uslubiy maqolalarini chop etishlari uchun mo‘ljallangan.

Jurnal uchun maqolalar o‘zbek, rus va ingliz tillarida qabul qilinadi:

Maqolalar ***sayhunaxborotnomasi@mail.ru*** elektron pochtasi yoki ***@MavludaAlmamatova,*** telegram manzili orqali yil davomida qabul qilinadi, jurnal nomerlari har kvartalda bir marta chop etiladi.

TEACHING FOREIGN LANGUAGES AND SOME WORK STRATEGIES TO MIXED-ABILITY STUDENTS IN TECHNICAL UNIVERSITIES

Madieva Gavhar Abdulazimovna – senior teacher Jizzakh polytechnic institute
e-mail: gavharmadiyeva@gmail.com

Annotation. In the given article the problem of teaching English at mixed classes and its solution is studied. One of the greatest challenges experienced by teachers teaching students who learn English as a foreign or a second language is teaching a class consisting of fast learners and slow learners commonly referred to as mixed-ability classes. In our days every student requires an individual approach according to the abilities shown. One should get an extra task so as not to be bored, another barely manages to follow the lesson, yet another needs a lesser task and some extra attention.

Keywords: mixed-ability class, instructional methods, discussions, problem-solving tasks, personality, student's nomination, extra task, fast learners, slow learners;

ОБУЧЕНИЕ ИНОСТРАННЫМ ЯЗЫКАМ И НЕКОТОРЫМ СТРАТЕГИЯМ РАБОТЫ СТУДЕНТАМ С РАЗНЫМИ СПОСОБНОСТЯМИ В ТЕХНИЧЕСКИХ УНИВЕРСИТЕТАХ

Аннотация. В данной статье изучается проблема преподавания английского языка в смешанных классах и ее решение. Одной из самых больших проблем, с которыми сталкиваются учителя, обучающие студентов, изучающих английский как иностранный или второй язык, является обучение в классе, состоящем из быстро обучающихся и медленно обучающихся, обычно называемых классами со смешанными способностями. В наши дни к каждому ученику необходим индивидуальный подход в соответствии с проявленными способностями. Кому-то нужно дать дополнительное задание, чтобы не скучать, другому едва удается уследить за уроком, третьему нужно задание поменьше и дополнительное внимание.

Ключевые слова. разно способный класс, методы обучения, дискуссии, проблемные задачи, личность, номинация учащегося, дополнительное задание, быстро учащиеся, медленно учащиеся;

TEXNIK UNIVERSITETLARDAGI TALABALARNING ARALASH KOBILIYATLARIGA TEXNIK XORIJIY TILILAR VA AYRIM ISH STRATEGIYASI

Annotatsiya. Ushbu maqolada aralash sinflarda ingliz tilini o'qitish muammosi va uning yechimi o‘rganilgan. Ingliz tilini chet tili yoki ikkinchi til sifatida o‘rganayotgan talabalarga o‘rgatuvchi o‘qituvchilar duch keladigan eng katta qiyinchiliklardan biri bu tez o‘rganuvchilar va sekin o‘rganuvchilardan iborat sinfni odatda aralash qobiliyatli sinflarda dars o‘tkazishdir.

Hozirgi vaqtlarda har bir talaba ko‘rsatilgan qobiliyatiga qarab individual yondashuvni talab qiladi. Birovi zerikmaslik uchun qo‘shimcha topshiriq olishi kerak, boshqasi esa darsni zo‘rg‘a kuzatib boradi, boshqasiga esa kamroq vazifa va qo‘shimcha e’tibor kerak.

Kalit so‘zlar: aralash qobiliyatli sinf, o‘qitish usullari, muhokamalar, muammoli vazifalar, shaxsiyat, talaba nominatsiyasi, qo‘shimcha topshiriq, tez o‘rganuvchilar, sekin o‘rganuvchilar;

An understanding of and a command over English language is the most important determinant of access to higher education, employment possibilities and social opportunities. Education has been the primary element in the more formal transmission of English around the world. English is a symbol of learners’ aspirations for quality in education and it plays the major role in the field of communication globally. Language learning is a natural procedure for the natives. One of the greatest challenges experienced by teachers teaching students who learn English as a foreign or a second language is teaching a class consisting of fast learners and slow learners commonly referred to as mixed-ability classes. But for the students of other languages, deliberate efforts are required to learn a foreign language. The students of rural and semi-urban areas in Uzbekistan face such problems because English is not their mother-tongue. Presently, the most of the institutions are with mixed ability students of different levels of attention, interest, learning styles, speed, maturity, types of intelligence which pose challenges to teachers. Now in the rural and semi-urban areas, study of English language begins at an early age. In Mixed ability level teaching, the teacher has to follow different strategies of teaching to every learner, who have different potentialities, skills, interests and learning needs. It is well known that every student has a different way of learning, and learns and progresses at different speeds. Though most institutions are usually multi-ability level, teachers find teaching such classes a very difficult and demanding task as it involves planning lessons which include a rich diversity of tasks corresponding to a variety of learning styles and abilities. It is very difficult to teach a class with clearly different levels of language competency. They may have different starting levels of English or they may learn at very different speeds.

Nowadays, the English language teachers throughout the world keep on buzzing a word that their students are in mixed level. In the past teachers may well have said that the problem was just that some students were cleverer or simply 'better' than others in the class. But we now understand that the situation is more complex than that. Our students are indeed mixed in many ways. They are different in terms of their levels of: Attention, Interest, Motivation, Learning styles, Types of intelligences, Physiological needs, Speed, Maturity, World knowledge.

The classroom is the only environment for the learners, where they should use this chance as much as possible. However, some of the students find it difficult to speak in the target language for many reasons, ranging from interest to confidence, from age to knowledge. Other students, however, would like to express everything they think or feel by using the new language.

- While some students follow the lesson and are able to answer questions and do well in tests, others fall behind, don't seem to understand and do badly in tests.

- While some students pay attention and are cooperative, others 'misbehave' and seem disinterested.

- Teachers feel concerned that they are not challenging the high-achievers enough and at the same time are not giving enough help to those who are not doing as well.

- Teachers find it hard to 'pitch' their lessons at a level where all students can be engaged.

As a result, some students may take many turns, while others do not speak for the entire lesson. Teachers need to identify the problems of mixed ability classes and try to come out with the solutions of eliminating them.

There are several strategies that a teacher can use to deal with the situation. This paper attempts to highlight the level of learning of English language, and the problems of teaching English at polytechnic level in India and some suggestions also have been advocated in order to improve the overall English language learning and teaching situation in mixed ability classrooms.

Every student has the right to be involved in the classroom activities irrespective of his or her personal capabilities. On the one hand, we don't have the right to neglect the pupils with little capabilities and, on the other hand, the lesson shouldn't be boring for the smart pupils.

Realizing the importance of setting different demands for the pupils of mixed abilities, new three level standards for listening, speaking, reading and writing have been worked out in our country lately. Some strategies of work in classes of mixed abilities:

- The teacher should adapt some of the materials to make the language simple.

-Design own teaching materials. Use visual teaching materials to grab the students' attention and to motivate them to get interest in the subject.

- Vary the level of tasks to the slow learners. (eg) reduce the number of choices or should not give the more difficult choices in multiple level exercises.

-Form groups of weaker and stronger students separated from each other and give different tasks to these groups. (eg) Stronger and quicker students work with more complicated tasks, whereas the weaker students deal with a simpler task or work with the teacher as a group member.

- Try to know the learners, their language level and interests. Try to find every single student's strength by offering a variety of activities.

- Try to find the strengths and preferred learning style of everyone. Involve and encourage the shy learners. Extra work should be given of something that the students would enjoy doing on their favorite topic. They would be more enthusiastic to work on such projects.

- Help students, learn to respect diversity in terms of skills and abilities.

Apart from such practices, the following methods can also be adopted in the English language learning class.

- Self – respect: The attitude of a teacher who constantly corrects him may destroy the student's self-esteem. A teacher is more effective when she or he is able to highlight the positive qualities of a student. It is important to point out the small success of the student, which may lead to big successes of tomorrow.

- Non – Correction Methods: In developing the skill of communication in English. If someone corrects a person as soon as he starts speaking, he will not be able to speak in front of other people for fear of making mistakes again. The best thing is to allow the person to speak at least the wrong English, so that he develops the habit of speaking the language.

- Word – Building : Every person who has to speak a language has three levels of word power built in gradually and steadily through experiencing the language. The first set of words is that which a person will be able to identify but may not know the correct meaning of, and hence hesitate to use while speaking or writing. These words are generally large in number. The second set of words is that which a person will be able to identify and understand the meaning of, but is unable to call to mind or use as the situation demands. The third set of words may be the half the number of second set. Care has to be taken to build up the word power of the student.

Experiential approaches to learning: Information, knowledge and wisdom reach us best through experience. Experiential learning is helpful in the case of

linguistic skill development. When a person experience a language, it becomes easy for him to learn or speak it. When one considers teaching spoken English, one has to think of providing learning situations that will help the learner experience the language. The number of such opportunities to experience the language will decide the progress of learner's skill in Speaking English.

Reading Comprehension : It is necessary to give an opportunity for each student to read loudly, so that it will be possible for the student to hear that words spoken by him. As the letters are identified and words recognized, student may continue to read but may not comprehend, so it is not essential that reading should be practiced after testing whether a student can comprehend what he reads. And this will help the student to identify the answer easily for the leading questions.

Listening: These would include several types of conversations and speeches. The best available methods of recorded conversation can be provided. The conversations will be an imitation initially, but gradually, through repetitions, the student will outgrow the imitative method and attempt to speak by using his/her own words, structures and patterns.

Mind Skill Exercises: The connection between thought and expression is an important aspect that has to be considered whenever a student has to be helped in learning a language. A long with all such practices in the classrooms, the students should also be given exposure. There can be no learning without exposure. Group Discussions can be arranged. Texts should be read loudly by the students. The zeal for learning will help them in their own advancement. The problems of the learners and the teachers are inter-related. It is necessary to assure that the learner makes a tremendous contribution in the process. Some strategies of work in classes of mixed abilities:

The first strategy involves creating or providing different tasks for different levels. For example, the teacher can use a number of comprehension questions for a text. The teacher may have two sets of questions-A and B. Perhaps all students have to complete set A, the stronger ones also have to complete set B, or they even have an extra reading text. This obviously increases the amount of lesson preparation. For example, the teacher gives the students the text to read.

Financial Management

Henry Ford, a famous engineer and car producer, was grown up in a poor American farmer family with a very small budget. Eight children had to survive working hard in the farm. Being an intellectual, willing boy he coped with problems and took up producing cars: having produced the first automobile going by petrol Ford created a conveyer system of producing cars. Henry Ford paid a great attention to financial management by improving his car industry. He spent his money on the productive, essential processes in car manufacturing. His famous motto "a car for everybody!" denied the idea that only the richest people could own cars! Ford made out a special technique to produce an automobile in a cheaper price by decreasing amount of money spent on it. As a result a proper financial management brought him and his company fame. Later Henry Ford had become one of the richest men in the world as well. After reading this text the stronger students have to do detailed dictionary work on the vocabulary of the text. With the stronger students spending 10 minutes working with dictionaries the teacher has time to monitor and help the weaker ones with the text. Then the teacher can go through the shared comprehension tasks for the class and perhaps the stronger students can make a presentation about the words they have researched. Now I want to speak about the extra work and homework. It is straightforward to give different students different homework. The teacher should give weaker students homework which really consolidates the class work and should give the stronger students work that will widen their knowledge. When teaching mixed ability classes the weaker students will be missing things

during the lesson or failing to understand. And the teacher should use homework to address this. When nominating, the teacher should:

1. Ask the question before she gives the name of the student. In this case everyone has to listen;

2. Consider how easy it is for the student to answer. If a weak student will struggle, perhaps she should ask a stronger student. If a weak student should be capable, then she should ask them;

3. Avoid making students seem foolish, and yet also avoid patronizing them by only asking super simple questions;

4. Nominate with variety. The teacher should be careful to avoid nominating the same selection of students.

In a mixed level class the teacher can have different expectations of the language that the different students produce. Sometimes it can push the stronger students if the teacher corrects them heavily-although she should be sensitive about this.

Teachers mustn't neglect the pupils who are less capable than others. There are a great variety of classroom activities by means of which they can overcome the difficulty of mixed ability classes.

If we take into consideration the role of teacher and learner in acquiring the knowledge of a language, the problems can be solved effectively. Only then the students will realize the practical use of English language. English will be used by them as medium of expression. They will be able to use English as a language of communication. Fluency in the speech, proper knowledge of sentence structure, confidence of speaking in the public will make them able to keep their pace with the developing world. It will help in raising the standards of English as a language at the college level. Thus, the role of teacher at first is to identify and find out the effective strategies and to implement an active, interesting and interactive process of learning for the learners with different levels of ability. Teachers must have a healthy and congenial relationship with the students and it is always advisable to strike a balance between emotional and intellectual relationship with them. The teachers must teach, shape, motivate and recreate minds capable of facing challenges and to overcome the problems in the modern scenario.

Reference:

1. Якубов, Ф. У. Лингвистический принцип в теории перевода во взглядах немецких лингвистов. In Актуальные вопросы современной науки 2014. – С. 237-241.

2. Yakubov, Fazliddin Utaganovich. “Improving communicative language skills through role playing activity”. Science and Education 3.2. 2022. – P. 1006-1010.

3. Yakubov, F. U. . Improving communicative language skills through role playing activity. Science and Education, 3(2), 2022.

4. Qo‘ychieva, Zuxra Isaqulovna. “Talabalarda liderlik qobiliyatini rivojlantirishning ayrim metodologik masalalari”. Science and Education. – P. 908-913.

5. Qo‘ychieva Z. I. Talabalarda liderlik qobiliyatini rivojlantirishning ayrim metodologik masalalari. Science and Education, 3(2). – P. 908-913.

6. Dusbayeva, Nazira Narimanovna. “Ingliz tilida mintaqaviy lug‘atlarni o‘rganishning ahamiyati”. Science and Education, 2022. – P. 706-709.

7. Madiyeva, Gavhar Abdulazimovna. “Ta’limda yangi innovatsion modelni tatbiq qilishning ahamiyati”. Science and Education, 2022. – P. 777-780.

MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDA OTA-ONALAR HAMKORLIGINING AHAMIYATI

Bolibekov Alisher Abdusalomovich, Guliston davlat pedagogika instituti “Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim metodikasi” kafedrasi dotsenti
e-mail: alisher1960pc@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqola maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ota-onalar hamkorligini rivojlantirishning ahamiyati, asosiy yo‘nalishlari va samaradorlikni oshirish bo‘yicha ilg‘or yondashuvlarni o‘z ichiga oladi. Xususan, xorijiy tajribalardan foydalanish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish hamda pedagog va ota-onalar o‘rtasidagi aloqalarni mustahkamlashning samarali usullari yoritilgan. Shuningdek, oilaviy ta’lim muhitini yaratish bo‘yicha amaliy tavsiyalar keltiriladi.

Kalit so‘zlar: maktabgacha ta’lim, ota-onalar hamkorligi, oilaviy ta’lim, xorijiy tajriba, zamonaviy texnologiyalar, samarali muloqot;

ЗНАЧЕНИЕ СОТРУДНИЧЕСТВА РОДИТЕЛЕЙ В ДОШКОЛЬНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ОРГАНИЗАЦИЯХ

Аннотация. В данной статье рассматривается важность развития сотрудничества с родителями в дошкольных образовательных учреждениях, основные направления и передовые подходы к повышению его эффективности. Особое внимание уделено использованию международного опыта, внедрению современных технологий и укреплению взаимодействия между педагогами и родителями. Приведены практические рекомендации по созданию семейной образовательной среды.

Ключевые слова: дошкольное образование, сотрудничество с родителями, семейное образование, международный опыт, современные технологии, эффективная коммуникация;

THE IMPORTANCE OF PARENTAL COOPERATION IN PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATIONS

Annotation. This article discusses the importance of developing parental involvement in preschool educational institutions, highlighting key directions and advanced approaches to enhancing its effectiveness. Particular attention is given to leveraging international experience, implementing modern technologies, and strengthening communication between educators and parents. Practical recommendations for creating a family-centered educational environment are also provided.

Keywords: preschool education, parental involvement, family education, international experience, modern technologies, effective communication;

Kirish. Maktabgacha ta’lim tashkiloti tomon otlanayotgan farzandlarimiz bugunning baxtli chechaklari. Yorug‘, keng va eng zamonaviy rusmda ta’mirlangan xonalarda qora ko‘zi eng zamonaviy o‘yinchoqlar bilan mashg‘ul bo‘lsa, ikkinchidan ilg‘or tajribaga ega malakali pedagoglar mashg‘ulotlarida o‘z bilimini, bolalik dunyo qarashini rivojlantiradi. Avvallari devori suvog‘idan nurab, boshiga chakki tomgan

mashg‘ulotxonalaru, kosasiga sanoqli go‘sht mahsuloti yo‘q solingan yoki solinmagan yegulikni nari beri iste’mol qilib qish kunlari aqalli miriqib uxlashga ham imkoni bo‘lmagan.

Muhtaram Prezidentimizning Yangi O‘zbekistonning uchinchi ming yilligi ostonasida bugungi farzandlarimiz kelajagini oldindan ko‘ra bilib ularning taqdirini o`ylab maktabgacha ta’lim sohasida yangi qarorlarni ham chiqarib ham ijrosi uchun tezkorlik bilan yeng shimarib kirishgani biz pedagoglarni ham quvontirdi.

Avvalo, ta’lim yo‘nalishimiz vazirlik darajasiga ko‘tarildi. Prezidentimizning 2017 yil 30 sentyabr PQ-3305 qarori asosida O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta`lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risidagi qarori barcha maktabgacha ta`lim tizimi xodimlarining yillar davomida kutgan natijasi bo`ldi. Shuningdek, Prezidentimizning 2017-yil 9-sentyabr ПҚ-3261-son Maktabgacha ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to`g`risidagi hamda 2017-2021 yillarda maktabgacha ta`lim tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to`g`risidagi qarorlari barcha islohotlarning imkoniyat eshigini ochdi.

Darhaqiqat, maktabgacha ta`limda qator yutuqlarga erishildi. Jumladan, 7 ta normativ-huquqiy hujjatni qabul qilish orqali maktabgacha ta'lim tizimining huquqiy bazasi yaxshilandi;

Maktabgacha ta’lim tashkilotlari moddiy-texnik bazasi mustahkamlanmoqda va tarmog‘i kengaytirilmoqda. 2018-yilda ta’mirlanayotgan maktabgacha ta’lim muassasalari soni 2017 yildagiga nisbatan qariyb 3 barobarga (105 taga nisbatan 298 ta), yangi qurilish obektlari soni esa 2 tadan 40 taga oshdi;

Nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarmog‘i kengaymoqda, ularning soni 568 taga yetdi;

Davlat-xususiy sektor sherikchiligi tamoyili asosida tashkil etilgan maktabgacha ta'lim muassasalari soni jadal ortmoqda – bugungi kungacha davlat-xususiy sektor sherikchiligiga doir 741 ta kelishuv imzolandi;

Pedagoglar va tarbiyachilar malakasini oshirish ishlari o‘tkazilmoqda. 2018 yilda 9 mingdan ziyod xodim qayta tayyorlandi;

“Bolani maktabgacha ta'lim muassasasiga navbatga qo‘yish” interaktiv xizmati yo‘lga qo‘yildi;

Maktabgacha ta'lim pedagoglari bazaviy tarif stavkalari 2 barobarga oshirildi;

Hisobotlar hajmi sezilarli darajada qisqartirildi; Maktabgacha ta'lim boshqaruvi axborot tizimi (EMIS) joriy etildi

MTM bilan ota – onalarning bir-biriga bog’liq jihatlar MTM bilan ota-onalar burchlari va vazifalari, maqsadi bir-biriga o`xshaydi. MTMning asosy maqsadi bolalarni o’qitish, tarbiyalash, qarab turish va parvarish qilish jarayonida paydo bo’ladigan tomonlarning huquqlari, majburiyatlari va javobgarligini sezishlari amalga oshiruvchi ta’lim – tarbiya jarayonini olib borishdan iborat bo`lsa, ota-ona bolalarni ma’naviy barkamol qilib shakllant-irishdagi asoslarni hosil qilishda MTMdan samarali foydalanish va bola aqliy kamolotini ma’naviy kamolot bilan uyg’un holda rivojlantirishga erishishdir. Bolalarning MTM dagi hayot kechirishini tashkil etishda faol ishtirok etish.

Maktabgacha ta’lim tizimida bolalarning ta’lim va tarbiyasida ota-onalarning faolligi va ishtiroki muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolada ota-onalar hamkorligining ta’lim jarayonidagi o‘rni, uning samaradorligini oshirish bo‘yicha innovatsion yondashuvlar va xorijiy tajribadan foydalanish imkoniyatlari haqida so‘z boradi.

Ota-onalar hamkorligining ahamiyati.

Ota-onalar maktabgacha ta’lim tizimining ajralmas qismi hisoblanadi. Ularning faol ishtiroki quyidagi ustuvor yo‘nalishlarda muhim ahamiyatga ega:

1. Bolalarning ta’limga bo‘lgan qiziqishini oshirish**.** Ota-onalar farzandlarining ta’lim jarayoniga jalb qilinganda, bolalarda o‘qish va o‘rganishga nisbatan ijobiy munosabat shakllanadi.

2. Pedagoglar va ota-onalar o‘rtasidagi muloqotni mustahkamlash. Hamkorlik asosida ishlash bolalar uchun mos o‘quv va tarbiya muhitini yaratishga yordam beradi.

3. Oilaviy ta’lim muhitini yaratish**.** Oila a’zolari ta’lim jarayonida ishtirok etganida, farzandlar tarbiyasiga ko‘proq e’tibor qaratiladi.

4. Psixologik qo‘llab-quvvatlashni ta’minlash. Ota-onalar bilan muntazam hamkorlik bolalarning o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshiradi.

5. Mahalliy hamjamiyatni jalb qilish. Ota-onalar jamiyatdagi boshqa oilalar bilan tajriba almashish orqali ta’lim jarayonida faollik ko‘rsatadi.

Xorijiy tajribalar va zamonaviy texnologiyalar

Dunyoning rivojlangan mamlakatlarida ota-onalar bilan ishlash tizimli yondashuv asosida yo‘lga qo‘yilgan. Masalan:

- AQSh: Ota-onalar maktabgacha ta’lim muassasalarida ko‘ngilli faoliyatlarda ishtirok etadi va o‘quv dasturlarni ishlab chiqishda o‘z hissasini qo‘shadi. Bundan tashqari, oilaviy ta’lim muhitini yaratish uchun onlayn vositalar keng qo‘llaniladi.

- Finlyandiya: Oila va ta’lim muassasasi o‘rtasida doimiy muloqot platformalari mavjud bo‘lib, ular orqali ota-onalar o‘z farzandlarining ta’lim natijalari haqida muntazam axborot olishadi. Bu, ayniqsa, bolalar rivojlanishidagi uzviylikni ta’minlashda muhimdir.

- Yaponiya: Zamonaviy texnologiyalar, jumladan, onlayn dasturlar yordamida ota-onalar ta’lim jarayoniga masofadan turib jalb qilinadi. Virtual maktablar orqali ota-onalar uchun interaktiv o‘quv dasturlar tashkil etiladi.

- Singapur: Ota-onalar uchun maxsus seminar va treninglar tashkil etilib, ular bolalar rivojlanishining har bir bosqichida faol qatnashadi. Bunga qo‘shimcha ravishda, ekologik tarbiya va barqaror rivojlanish mavzulariga ham katta e’tibor qaratiladi.

Innovatsion yondashuvlar

Ota-onalar bilan ishlashda quyidagi innovatsion yondashuvlar samarali hisoblanadi:

a) Onlayn platformalar va mobil ilovalar**.** Masalan, elektron kundaliklar, vebinarlar va boshqa raqamli vositalar orqali ota-onalar farzandlari faoliyatidan xabardor bo‘lishadi.

b) Oilaviy trening va seminarlar**.** Pedagoglar tomonidan o‘tkaziladigan treninglar ota-onalarni ta’lim jarayoniga jalb etishda muhim rol o‘ynaydi.

d) Interaktiv tadbirlar**.** Teatr ko‘rinishidagi darslar, sport va ijodiy tanlovlar ota-onalar va bolalarning faol ishtirokini ta’minlaydi.

e) Ma’lumot almashish tizimlari. Mobil ilovalar orqali pedagoglar ota-onalarga individual maslahatlar beradi va ta’lim jarayonidagi yutuqlarni baham ko‘radi.

f) Bolalarning rivojlanishini kuzatish**.** Zamonaviy diagnostika vositalari orqali ota-onalar farzandlarining qobiliyatlarini aniqlashda ishtirok etadi.

g) Oila va maktabgacha ta’lim muassasalari o‘rtasida loyiha asosida ishlash**.** Loyiha faoliyati orqali ota-onalar va pedagoglar bolalarning ijodiy va ijtimoiy ko‘nikmalarini birgalikda rivojlantiradi.

Qo‘shimcha mavzu: Barqaror rivojlanish ta’limida ota-onalar ishtiroki

Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda ota-onalar ishtirokini ta’minlash maktabgacha ta’lim tizimining muhim jihatidir. Quyidagi yo‘nalishlarda ishlash samarali natijalar beradi:

1. Ekologik loyihalar. Bolalar va ota-onalar uchun tabiatni asrash mavzusidagi amaliy mashg‘ulotlar.

2. Mahalliy hamjamiyat loyihalari. Ota-onalarni ijtimoiy loyihalarga jalb qilish orqali bolalarda ijtimoiy mas’uliyat hissini oshirish.

3. Barqaror iste’mol va ishlab chiqarishni targ‘ib qilish. Uy sharoitida ekologik mas’uliyatni oshirishga qaratilgan treninglar.

4. Barqarorlikka oid trening va seminarlar. Ota-onalar va pedagoglar o‘rtasida ekologiya, iqtisodiy barqarorlik va ijtimoiy mas’uliyat bo‘yicha bilim almashish.

Tavsiyalar.

1. Ta’lim muassasalarida ota-onalar uchun maxsus trening va seminarlar tashkil etish.

2. Zamonaviy texnologiyalar orqali ota-onalar bilan doimiy aloqani yo‘lga qo‘yish.

3. Ota-onalar hamkorligini kuchaytirish maqsadida innovatsion yondashuvlarni ishlab chiqish.

4. Xorijiy tajribalarni o‘rganish va amaliyotga tatbiq etish.

5. Barqaror rivojlanish ta’limiga oid mavzularni ota-onalar bilan birgalikda amalga oshirish.

6. Oilaviy loyiha asosida interaktiv mashg‘ulotlar tashkil etish.

Xulosa. Maktabgacha ta’lim muassasalarida ota-onalar bilan hamkorlikni rivojlantirish bolalarning har tomonlama rivojlanishi uchun muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy texnologiyalar, xorijiy tajriba va barqaror rivojlanish ta'limidan foydalanish bu jarayonni yanada samarali qiladi. Shuningdek, ota-onalarni ta’lim jarayoniga jalb etish bolalarning psixologik va ijtimoiy ko‘nikmalarini rivojlantirishda hal qiluvchi omil bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdurahmonov A. “Ota-onalar bilan ishlashning innovatsion usullari”. – Toshkent, 2022.

2. Karimova D. “Oilaviy ta’lim muhitining ahamiyati”. – Toshkent, 2021.

3. UNESCO. “Parental Engagement in Early Education”. – Paris, 2020.

4. Brown T. “Technology and Family Involvement in Education”. – London: Sage Publications, 2021.

5. Smith J. “Sustainability in Early Childhood Education”. – New York: Routledge, 2022.

6. Lee M. “Family Dynamics in Preschool Education”. – Seoul: KAPF, 2021.

7. Johnson R. “Early Education and Community Development”. – Cambridge, 2021.

XALQARO BAHOLASH DASTURI ASOSIDA O‘QITUVCHILARNING KASBIY KO‘NIKMA VA MALAKALARINI SHAKLLANTIRISH

Bayzakova Malika Abdukayumovna, Guliston davlat pedagogika instituti “Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim metodikasi” kafedrasi katta o‘qituvchisi
e-mail: mbayzakova@umail.uz

Annotatsiya. Ta’lim jarayonida o‘qituvchilarning kasbiy ko‘nikmalarining rivojlanib borishi, unga ta’sir etuvchi omillar salmoqlidir. Ayniqsa, xalqaro baholash dasturlarining roli va ahamiyati e’tiborga molik. Ushbu maqolada xalqaro baholash dasturlarining o‘qituvchi kasbiy ko‘nikma va malakalarini shakllantirishdagi roli va ta’siriga alohida to‘xtalib o‘tilgan. Xalqaro baholash dasturlari qisqacha tasniflangan.

Kalit so‘zlar: Ko‘nikma, malaka, xalqaro baholash dasturi, tafakkurini shakllantirish, kasbiy o‘sish, xalqaro tadqiqotlar.

ФОРМИРОВАНИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ НАВЫКОВ И КОМПЕТЕНЦИЙ ПЕДАГОГОВ НА ОСНОВЕ МЕЖДУНАРОДНОЙ ПРОГРАММЫ ОЦЕНКИ

Аннотация. Развитие профессиональных навыков педагогов в процессе обучения, факторы, влияющие на него, значительны. В частности, следует отметить роль и важность международных оценочных программ. В этой статье особое внимание уделяется роли и влиянию программ международной оценки на формирование профессиональных навыков и компетенций учителя. Кратко классифицируются программы международной оценки.

Ключевые слова: навыки, компетенции, международная программа оценки, формирование мышления, профессиональный рост, международные исследования.

FORMATION OF PROFESSIONAL SKILLS AND QUALIFICATIONS OF TEACHERS BASED ON THE INTERNATIONAL ASSESSMENT PROGRAM

Annotation. In the process of education, the development of professional skills of teachers, the factors affecting it are significant. Of particular note is the role and importance of international assessment programs. This article highlights the role and impact of international assessment programs on the formation of teacher professional skills and competencies. International assessment programs are briefly classified.

Keywords: skills, Qualifications, International Assessment Program, formation of thinking, Professional Growth, International Studies.

Kirish. O‘qituvchilar mamlakatimizning kelajagini yaratuvchi asosiy kuchdir. Ularning fidokorona mehnati, bilimdonligi va tarbiyasi tufayli yosh avlod munosib ta’lim oladi va jamiyatga foydali a’zo bo‘lib yetishadi. Shuning uchun, o‘qituvchilarni qo‘llab-quvvatlash, ularning maqomini oshirish va ularga munosib sharoit yaratish - davlatimizning eng muhim vazifalaridan biridir. Yurtimizda o‘qituvchilarning mehnatini qadrlash va ularning maqomini oshirishga katta e’tibor qaratilmoqda. Shunday ekan O‘qituvchilar o‘zlarining xulq-atvori, bilimdonligi va madaniyati bilan jamiyatda o‘rnak bo‘lishlari kerak. Ular o‘quvchilarga milliy

qadriyatlarni o‘rgatadilar, ularni saqlash va rivojlantirishga hissa qo‘shishlari, o‘quvchilarga kasb tanlashda yordam beradilar, ularning qiziqishlari va qobiliyatlariga mos keladigan kasblarni tanlashga yo‘naltirishlari, har bir o‘quvchining individual qobiliyatlarini aniqlashi va ularni rivojlantirish uchun sharoit yaratishlari lozim [1, 25-b.]. Zero, o‘qituvchilar jamiyatning kelajagini shakllantiruvchi asosiy shaxslardir. Ularning faoliyatida xalqaro baholash dasturlari muhim rol o‘ynaydi, o‘qituvchilarga o‘zlarining o‘qitish amaliyotini baholash, takomillashtirish va o‘quvchilarning bilim olish sifatini oshirishga yordam beradi. o‘qituvchi faoliyatida o‘qitish amaliyotini baholash, o‘quvchilarga individual yondashuvni amalga oshirish, o‘qitish metodlarini takomillashtirish, kasbiy rivojlanishni qo‘llab-quvvatlash kabi muhim rollarni o‘ynaydi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. O‘qituvchining kasbiy ko‘nikma va malakalari uning o‘quvchilarga samarali ta’lim berishi va ularni har tomonlama rivojlantirishiga imkon beradigan bilim, ko‘nikma va xususiyatlar majmuasidir. O‘qituvchi o‘z fanining o‘quv dasturini mukammal bilishi, uning maqsad va vazifalarini tushunishi, turli xil o‘qitish metodlari (interaktiv, muammoli, loyihali, hamkorlikda o‘qitish) va zamonaviy ta’lim texnologiyalarini (multimedia, internet resurslari, dasturiy ta’minot) qo‘llay olishi, O‘qituvchi darsning maqsadini aniq belgilashi, o‘quv materialini tanlashi, darsni tuzilmasini rejalashtirishi va vaqtni to‘g‘ri taqsimlashi kerak. O‘quvchilarning bilimini baholashning turli usullarini (testlar, so‘rovlar, loyihalar, kuzatuvlar) qo‘llay olishi va baholash natijalaridan o‘qitish jarayonini takomillashtirish uchun foydalanishi, turli xil qobiliyatga ega bo‘lgan o‘quvchilarga individual yondashuvni amalga oshirishi, ularning ehtiyojlarini hisobga olishi maqsadga muvofiqdir. Imkoniyati cheklangan bolalarni ta’limga jalb qilish, ularga moslashtirilgan sharoit yaratish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi lozim. O‘qituvchi bolalar yosh xususiyatlarini, ularning kognitiv, emotsional va ijtimoiy rivojlanishini tushunishi, o‘quvchilarni o‘qishga qiziqtirish, ularda ichki motivatsiyani shakllantirish usullarini bilishi ahamiyatga molik hisoblanadi. O‘quvchilar, ota-onalar va hamkasblar bilan samarali muloqot qilish, konstruktiv fikr bildirish va eshitish qobiliyatiga ega bo‘lishi, Sinfdagi nizolarni hal qilish, o‘quvchilar o‘rtasida ijobiy munosabatlarni o‘rnatish ko‘nikmalarini o‘zida mujassamlashtirishi kerak. O‘z fanini mukammal bilishi, sohadagi yangiliklardan xabardor bo‘lishi, fanini boshqa fanlar bilan bog‘lay olishi, o‘quvchilarga bilimlarni yaxlit holda taqdim eta olishi o‘qituvchining o‘z fani bo‘yicha chuqur bilimga ega ekanligini ko‘rsatadi. O‘qituvchi kompyuterdan erkin foydalana olishi, ofis dasturlarini bilishi, ta’lim uchun mo‘ljallangan onlayn platformalar, vebinarlar, video darslar va boshqa resurslardan foydalana olishi, darslarda multimedia vositalaridan (proyektor, interaktiv doska, audio va video materiallar) foydalana olishi komyuter bo‘yicha savodxonligini ko‘rsatadi [2, 62-b.].

Xalqaro baholash dasturlari (PISA, TIMSS, PIRLS, TALIS va boshqalar) o‘qituvchilar uchun juda ko‘p ahamiyatli jihatlarga ega. Dasturlar o‘qituvchilarga o‘zlarining o‘qitish usullari va amaliyotini xalqaro standartlar bilan solishtirish imkoniyatini beradi. Bu esa o‘zlarining kuchli va zaif tomonlarini aniqlashning imkonidir. O‘qituvchilar o‘z tajribalari va baholash natijalari asosida ta’lim siyosatini takomillashtirish bo‘yicha takliflar berishlari mumkin. Xalqaro baholash dasturlarida ishtirok etish va yaxshi natijalarga erishish o‘qituvchilarda o‘z kasbiga nisbatan faxr tuyg‘usini oshiradi, o‘qituvchilarni hamkasblari bilan tajriba almashish, o‘qitish usullarini muhokama qilish va birgalikda muammolarni hal qilishga, o‘qituvchilar uchun kasbiy o‘sish, o‘qitish usullarini takomillashtirish, ta’lim siyosatida ishtirok etish, o‘quvchilarning yutuqlarini oshirish va o‘z kasbiga sadoqatni oshirish kabi ko‘plab imkoniyatlarni yaratadi. Bu dasturlar o‘qituvchilarni doimo o‘z ustida ishlashga, yangi bilimlarni o‘zlashtirishga va o‘z kasbiy mahoratini oshirishga undaydi [3, 29-b].

Tadqiqot metodologiyasi. Xalqaro baholash dasturlari, masalan, PISA (O‘quvchilarning ta’limiy yutuqlarini baholash bo‘yicha xalqaro dastur), TIMSS (Matematika va tabiiy fanlar bo‘yicha xalqaro baholash tendentsiyalari) va PIRLS (O‘qish savodxonligini o‘rganish bo‘yicha xalqaro progress) juda katta ahamiyatga ega[4, 86-b]. Quyida ularning asosiy ahamiyatlarini keltiramiz. Ushbu dasturlar turli mamlakatlardagi ta’lim standartlarini solishtirish imkoniyatini beradi, chunki baholash metodologiyasi va topshiriqlar standartlashtirilgan. Dasturlar o‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini (matematika, tabiiy fanlar, o‘qish savodxonligi va boshqalar) baholaydi va turli mamlakatlar o‘rtasidagi farqlarni aniqlashga, baholash natijalari ta’lim sohasidagi muammolarni aniqlash va ularni hal qilish uchun ma’lumotlarga asoslangan yo‘nalish ishlab chiqishga yordam beradi. O‘quv dasturlarini, o‘qitish usullarini va ta’lim resurslarini takomillashtirish uchun ishlatilishi mumkin. Yuqori natijalarga erishgan mamlakatlarning tajribasini o‘rganish orqali boshqa mamlakatlar ham o‘z ta’lim tizimlarini yaxshilash uchun foydali saboqlar olishlari mumkin. Xalqaro baholash dasturlari mamlakatlar o‘rtasida ta’lim sohasida hamkorlikni rivojlantirishga, Baholash natijalari ta’lim sohasidagi resurslarni (mablag‘lar, o‘qituvchilarning malakasini oshirish, o‘quv materiallari) eng muhtoj bo‘lgan sohalarga yo‘naltirishga, Baholash natijalari maktablar, o‘qituvchilar va boshqa ta’lim muassasalarining javobgarligini oshirishga yordam beradi. Ta’lim sifatini oshirishga qaratilgan sa’y-harakatlarni qo‘llab-quvvatlaydi. Natijalar jamoatchilikka ta’lim tizimining holati haqida ma’lumot beradi va ta’lim sohasidagi muhokamalarni rag‘batlantiradi. Xalqaro baholash dasturlari ta’lim sohasida amalga oshirilgan islohotlarning samaradorligini monitoring qilish va baholash uchun muhim vosita hisoblanadi.

Xalqaro baholash dasturlari o‘qituvchilarning bilim va ko‘nikmalariga nisbatan xalqaro standartlarni belgilaydi. Bu standartlar o‘qituvchilarga o‘zlarining kasbiy faoliyatini baholash va takomillashtirish uchun yo‘nalish beradi. Turli mamlakatlardagi o‘qituvchilarning ko‘rsatkichlarini solishtirish imkoniyatini beradi. Bu orqali o‘qituvchilar o‘zlarining kuchli va zaif tomonlarini aniqlashlari va eng yaxshi amaliyotlardan o‘rganishlari mumkin [5, 47-b].

Tahlil va natijalar. Xalqaro baholash dasturlari natijalari o‘qituvchilarning qaysi sohalarda yaxshi ekanliklarini va qaysi sohalarda ko‘proq yordamga muhtojligini aniqlashga yordam beradi. Kasbiy rivojlanish dasturlari asosida o‘qituvchilarning kasbiy rivojlanish dasturlarini (treninglar, seminarlar, mentorlik) ishlab chiqish va amalga oshirish mumkin. Dasturlar o‘qituvchilarning aniq ehtiyojlariga moslashtirilgan bo‘lishi kerak. Xalqaro baholash dasturlarida yuqori natijalarga erishgan mamlakatlar o‘qituvchilarining o‘qitish metodlarini o‘rganish va ulardan o‘rnak olish mumkin, dastur natijalari ta’lim siyosatini ishlab chiquvchilarga o‘qituvchilarning malakasini oshirish, ularni qo‘llab-quvvatlash va ularning ish sharoitlarini yaxshilash bo‘yicha siyosiy qarorlar qabul qilishda yordam beradi. Dasturlar o‘qituvchilarni yangi o‘qitish texnologiyalari, interaktiv metodlar va boshqa innovatsion yondashuvlarni qo‘llashga undaydi. O‘qituvchilar xalqaro baholash dasturlari natijalarini o‘zlarining o‘qitish amaliyotini baholash va takomillashtirish uchun ishlatishlari mumkin. Bu jarayon ularni o‘z kasbiy o‘sishiga e’tibor qaratishga undaydi. PISA (O‘quvchilarning ta’limiy yutuqlarini baholash bo‘yicha xalqaro dastur): PISA natijalari o‘qituvchilarga o‘quvchilarning o‘qish, matematika va tabiiy fanlar bo‘yicha qobiliyatlarini oshirish uchun o‘qitish usullarini takomillashtirishga yordam beradi. TALIS (Ta’lim va o‘qitishni o‘rganish bo‘yicha xalqaro dastur): TALIS o‘qituvchilarning ish sharoitlari, kasbiy rivojlanishi va o‘qitish amaliyoti haqida ma’lumot to‘playdi. Bu ma’lumotlar o‘qituvchilarning malakasini oshirish uchun maqsadli dasturlarni ishlab chiqishga yordam beradi.

Xulosa va takliflar. Xalqaro baholash dasturlari o‘qituvchilarning kasbiy ko‘nikmalarini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Ular o‘qituvchilarga o‘zlarining

kasbiy faoliyatini baholash, o‘qitish metodlarini takomillashtirish, kasbiy rivojlanish dasturlarida ishtirok etish va ta’lim siyosatini shakllantirishda yordam beradi. ta’lim siyosatini shakllantirishda ishtirok etish va o‘quvchilarning bilim olish sifatini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli Farmoni.

2. Azizxo‘jaeva N. N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat.
– Toshkent, Fan, 2006.

3. Gustafsson J.E., Hansen K.Y., Rosén M. PISA va PIRLS: To‘rtinchi sinfda o‘qish, matematika va fan yutuqlari o‘rtasidagi aloqalar -Implications for erta Learning PISA & PIRLS International Study Center, Boston College. 2018. – B. 432.

4. Ismailov A. A., O‘quvchilarning ta’limdagi yutuqlarini o‘rganish uchun xalqaro talablar asosida ta loyihaning nazariy va institutsional asoslari, Ta’lim va innovatsion tadqiqotlar. No 2. 2022.

5. Jumaev M.E. O‘qituvchining ijodiy shaxs sifatida rivojlanishida bo‘lajak Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining metodik matematik tayyorgarlik. Monografiya. – Toshkent: “Fan” nashriyoti, 2009.

XALQARO BAHOLASH DASTURI ASOSIDA BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARINING METODIK TAYYORGARLIGINI TAKOMILLASHTIRISHNING AMALIYOTDAGI HOLATI

Bayzakova Malika Abdukayumovna, Guliston davlat pedagogika instituti “Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim metodikasi” kafedrasi katta o‘qituvchisi
e-mail: mbayzakova@umail.uz

Annotatsiya. Maqolada bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarning PIRLS xalqaro baholash dasturi asosida metodik tayyorgarligini rivojlantirishning mohiyati va mazmuni, pedagogik shart-sharoitlari, vazifalari, texnik ta’minoti shartlari, ta’lim jarayonini xalqaro tadqiqotlar uchun zarur o‘quv axborotlari bilan ta’minlash mexanizmi bayon qilingan.

Kalit so‘zlar: PIRLS, o‘quvchi, o‘qituvchi, metodik tayyorgarlik, pedagogik shart-sharoitlari, matematik va tabiiy-ilmiy savodxonlik, xalqaro tadqiqotlar;

THE PRACTICAL STATUS OF IMPROVING THE METHODOLOGICAL TRAINING OF FUTURE PRIMARY SCHOOL TEACHERS BASED ON THE INTERNATIONAL ASSESSMENT PROGRAM

Abstract. The essence and content of the development of methodological training of future primary school teachers based on the PIRLS international assessment program, pedagogical conditions, tasks, conditions of technical support, the educational process with the necessary educational information for international studies are described in the article. The provisioning mechanism is developed.

Keywords: PIRLS, student, teacher, methodological preparation, pedagogical conditions, mathematical and scientific literacy, international research;

ПРАКТИЧЕСКАЯ СИТУАЦИЯ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ МЕТОДИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВКИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ НА ОСНОВЕ МЕЖДУНАРОДНОЙ ОЦЕНОЧНОЙ ПРОГРАММЫ

Аннотация. В статье описаны сущность и содержание разработки методической подготовки будущих учителей начальной школы на основе программы международной оценки PIRLS, педагогические условия, задачи, условия технического обеспечения, учебный процесс с необходимой образовательной информацией для международного обучения. Описан механизм обеспечения.

Ключевые слова: PIRLS, студент, преподаватель, методическая подготовка, педагогические условия, математическая и естественнонаучная грамотность, международные исследования;

Kirish. Mamlakatimizda ijtimoiy sohaga alohida e’tibor berib borilayotgan bir davrda pedagog kadrlarning, ya’ni boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarning metodik

tayyorgarligini xalqaro baholash dasturlari (PIRLS) asosida takomillashtirish, zamonaviy ta’limni shakllantirish talab etilmoqda.

Shuningdek, bugungi kunda boshlang‘ich ta’lim tizimi oldiga yangicha metodik tayyorgarlikka ega bo‘lgan o‘qituvchilarni tayyorlash vazifasi qo‘yildi. Chunki boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi bolalarning psixologik, fiziologik o‘ziga xosliklarini hisobga olishi, shakllantirish va rivojlantirish tajribasini egallashi lozim. Ma’lumki, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining ta’lim jarayonidagi metodik tayyorgarligini takomillashtirish texnologiyalarini ishlab chiqish ustuvor o‘rin egallaydi. “Buning uchun pedagog kadrlardan, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilaridan zamonaviy talablarga javob beradigan, mustaqil fikrlaydigan, intellektual salohiyat, chuqur bilim, zamonaviy dunyoqarashga va puxta metodik tayyorgarlikka ega shaxs bo‘lish talab etiladi” [1, 13-b.].

Bir qator pedagog olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarida olib borilgan fikr mulohazalarga ko‘ra, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarning metodik tayyorgarlik darajasiga qo‘yiladigan bir qancha asosiy talablar qo‘yilgan. Xususan, P.V.Amosova yuritgan fikr-mulohazalarga ko‘ra: “o‘z kasbining shaxsiy va ijtimoiy ahamiyatini xis qilish;ilmiy-insonparvar dunyoqarashga ega bo‘la olish; ilmiy bilishning shakl va metodlarini hamda ularning evolutsiyasini bilish, tevarak olamni bilish va uni o‘zlashtirishning turli metodlariga ega bo‘lish;jamiyat taraqqiyotida ilm-fan ahamiyatini tushunish; axborotlarni qidirish, qayta ishlash va foydalanishning innovatsion metodlaridan xaardor bo‘lish, axborot oluvchi uchun ularni moslashtirish va sharhlash qobiliyatiga ega bo‘lish; ilm-fan taraqqiyoti va o‘zgarib borayotgan ijtimoiy amaliyot sharoitida o‘z nuqtai nazarini qayta ko‘rib chiqish, ishlashning innovatsion shakl va metodlarini tanlashga qodir bo‘lish; turli fanlararo bilim sohalarida ishlashga psixologik va metodik tayyorlangan bo‘lish; odam shaxsi rivojlanish davrida o‘ziga xos davr sifatida bolalikning ahamiyatini xis qila olish” [2, 76-b.].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.

Oliy ta’limda o‘qitish amaliyoti ilmiy metodik adabiyotlarda yoritilgan mavjud an’naviy pedagogik ta’lim tizimida qator muvoffaqiyatlar qo‘lga kiritlgan bo‘lsada, undagi kamchiliklarni ajratib ko‘rsatish mumkin. Bizning fikrimizcha, unda turli darjalilik, mobillik, moslashuvchanlik, uzluksizlik, uzviylik, ko‘pqirralilik yetishmaydi.

N.V.Amosova so‘ngi yillarda oliy va o‘rta maxsus pedagogik o‘quv muassassalari “ko‘p fanlilik” deb nom olgan illatga duchor bo‘lganini qayd etib o‘tadi, bunda talabalar bir vaqtning o‘zida ko‘pincha bir biri bilan yaxshi bog‘lanmagan, ba’zan esa bir birini takrorlovchi o‘n ikkitagacha mustaqil o‘quv fanlarini o‘rganishga to‘gri keladi [2, 89-b.].

Bunday tayyorgarlik amaliyotda shaxsning butun ijodiy saloxiyati yuzaga chiqishini ta’minlamaydi, “chunki talabalar tomonidan turli fanlar bo‘yicha o‘zlashtirilayotgan bilimlar ko‘pincha yaxlit ilmiy manzara xosil qila olmayapti, chunki o‘zaro boglangan emas, balki alorxida elementlar ko‘rinishida taqdim etiladi” [2, 93-b.].

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini metodik tayyorlashning mavjud tizimini boshlang‘ich ta’limda sodir bo‘layotgan innovatsion jarayonlarga mos ravishda isloh qilish, metodik tayyorgarlikni takomillashtirish texnologiyalarini ishlab chiqish lozim.

Tadqiqot metodologiyasi. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarning psixologik pedagogik va metodik tayyorgarlik bo‘yicha ba’zi tadqiqot ishlarida keltirilgan qarashlarni ko‘rib chiqamiz.

Qator tadqiqot ishlarida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini tayyorlashning psixologik pedagogik asoslari yoritib berilgan: metodik tayyorgarlik jarayonida talabalrining bilish faolligini shakllantirish, ijodiy o‘sishga asos sifatida

hayotda o‘z , pedagogika oliy ta’lim sharoitida boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini tayyorlashning o‘ziga xos xususiyatlari, o‘qituvchilarni boshlang‘ich sinfdagi iqtidorli o‘quvchilar bilan ishlash faoliyatiga tayyorlash va hokazolar.

Davlat ta’lim standartiga muvofiq boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini metodik tayyorlashga quyidagi talablar qo‘yiladi:

- mutaxassis boshlang‘ich sinf o‘quvchilarni o‘qitish va tarbiyalashda individual differensial yondashuvni tashkil etish metodlariga ega bo‘ladi;
- boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga matematik amallarni bajarish va masalalarni yechish asoslarni o‘rgatish metodlariga ega bo‘ladi;
- boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari tomonidan dastur materiallarini o‘zlashtirish darajalarini belgilash, ularni individual xususiyatlarini aniqlash, o‘quvchilarda mustaqil bilim olish bo‘yicha birlamchi malakalarni shakllantirishni amalga oshira oladi;
- ta’lim va tarbiya bo‘yicha o‘quvchilarning samarali o‘quv foliyati, faolligi, mustaqilligi, bilishga qiziqishni ta’minlovchi optimal metodlarni tanlay oladi;
- o‘quvchilarga individual yondashishni, dars va darsdan tashqari ishlarda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining individual, guruxli va jamoaviy faoliyatini uygunlashtirishni amalga oshira oladi;
- sinov dasturlari va darsliklar mazmunini tahlil qilish, o‘rganilayotgan material mazmuniga o‘zgartirish kiritish, didaktik materiallarni saralash va ishlab chiqishni amalga oshira oladi.

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini metodik tayyorgarligini rivojlantiruvchi ta’limni amalga oshira olishni ta’minlash maqsadida ularni o‘qitish mazmuni hamda metodlarini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy metodik tadqiqotlar olib borgan pedagog olimlarimiz ishlariga nazar solish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Tahlil va natijalar. O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi vazirligi, Respublika ta’lim markazi hamda UNICEF tashkiloti tomonidan 2021-yil “Umumiy o‘rta ta’limning Milliy o‘quv dasturi” (Matematika) yaratildi. Milliy dasturni yaratishdan asosiy maqsad sifatli ta’lim-tarbiya, ilg‘or tajribaga ega bo‘lgan Milliy va xorijiy yekspertlarni ta’lim mazmunini takomillashtirishga jalb etish va ilg‘or xorijiy tajribalar, xalqaro baholash dasturi talablari va sipralsimon o‘qitish metadologiyasi asosida XXI asr ko‘nikmalarini rivojlantirish nazarda tutilgan. Ilg‘or xorijiy baholash dasturlarida PISA, PIRLS xalqaro baholash dasturlari asos qilib olingan. Milliy o‘quv dasturi natijasida XXI asr ko‘nikmalariga ega raqobatbardosh, vatanparvar, kreativ shaxslarni tarbiyalab borish ko‘zda tutilgan. Milliy o‘quv dasturi mazmuni quyidagilardan iborat: “matematika fani tavsifi, umumiy o‘rta ta’limda matematika fanini o‘qitish, o‘quvchilarda rivojlantiriladigan kompetensiyalar, matematik mazmun standartlari(bilim va ko‘nikmalar), sinflar kesimida aniqlashtirilgan ta’lim standartlari, matematika fani o‘quv dasturlari” [3, 42-b.].

Milliy o‘quv dasturi asosida o‘quvchilarda quyidagi 4 ta ko‘nikma shakllanadi: tanqidiy fikrlash, ijodkorlik, xamkorlik, muloqat qilish. Bu Milliy dasturni yaratishda fanlararo intergratsiyaga katta ahamiyat berilgan ya’ni matematika fanini informatika, tabiiy fanlar, texnologiya, iqtisod, tadbirkorlik, ona tili va tarix fanlari bilan integratsiyasiga alohida e’tibor berilgan. Milliy dasturda umumiy o‘rta ta’limda matematika ta’limini rivojlantirish konsepsiyasi berilgan.

“Konsepsiya” (lot.conceptio – majmua, tizim) biror sohaga oid qarashlar, tamoyillar tizimi, fakt va hodisalarni tushunish, anglash va izohlashning muayyan usuli, asosiy nuqtai nazar; adabiyotda esa biror narsaning asosiy g‘oyasidir[4,5-b.]. Konsepsiya quyidagi hujjatlarga asoslanadi: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 9 iyuldagi “Matematika ta’limi va fanlarni yanada rivojlantirishni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining V. I. Romanovskiy nomidagi matematika instituti faoliyatini tubdan

takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4387-son Qarori [5,17-b], 2020 yil 7 maydagi “Matematika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-4708-sonli Farmoni [6,8-b.].

Milliy o‘quv dasturlariga yangi o‘zgarishlar kiritildi ya’ni matematika darsliklaridagi geometriya bo‘limi alohida ajratildi va 1-sinfdan boshlab har bir sinflarga “Ma’lumotlar bilan ishlash” bo‘limi kiritilgaO‘zbekiston Respublikasi Xalqa ta’limi vazirligi, Respublika ta’lim markazi hamda UNICEF tashkiloti tomonidan 2021-yil “Umumiy o‘rta ta’limning Milliy o‘quv dasturi”(Tabiiy fanlar) yaratildi. Tabiiy fanlar o‘z ichiga biologiya, geografiya, fizika va astronomiya, kimyo, matematika predmetlarini qamrab oladi hamda ularning o‘zaro integratsiyasini ta’minlaydi. Tabiiy fanlar Milliy dasturini tuzishda tajribali amaliyotchi o‘qituvchi va mutaxassislardan iborat ishchi guruh tashkil yetildi, ilg‘or xorijiy tajribalar, xalqaro baholash dastur talablari va spiralsimon o‘qitish metadalogiyasi bo‘yicha seminar-treninglar tizimli ravishda o‘tkazildi, rivojlangan davlatlarda “Science” dasturlari, darsliklari va ta’lim standartlari o‘rganildi, STEAM texnologiyasini dasturga singdirishga e’tibor qaratildi, xalqaro baholash dasturlari (PISA, PIRLS)ga tayyorgarlik ko‘rish maqsadida mantiqiy fikrlashga oid topshiriqlar kiritildi. Tabiiy fanlar Milliy dasturini yaratishda rivojlangan davlatlarning (Finlandiya, Singapur, Yaponiya, Buyuk Britaniya, AQSh, Rossiya, Belorussiya) tajribalari mutaxassislar va amaliyotchi o‘qituvchilar tomonidan o‘rganildi va tahlil qilindi. Rivojlangan davlatlarning “Science” darsliklari va o‘quv dasturlari o‘rganilib, tabiiy fanlarning 1-6 sinflar uchun o‘quv dasturi yaratildi. Tabiiy fanlar Milliy dasturining asosiy maqsadlari o‘quvchilarda XXI asr ko‘nikmalarini shakllantirishdir. Tabiiy fanlar dasturida amaliy mashg‘ulotlar uchun alohida soatlar ajratilgan bo‘lib, bu amaliy mashg‘ulotlar fanni chuqur o‘rganishga yordam beradi, muammoni hal qilish uchun o‘quvchilar bilimi mustahkamlanadi, o‘quvchilarning ijodkorlik qobiliyatini namoyon qiladi, nazariy olgan bilimni real hayotda qo‘llashga o‘rgatadi. Bundan tashqari, dasturga loyiha ishlari ham kiritilgan bo‘lib, bunda o‘quvchilar nazariy olgan bilimlarini amaliyotda qo‘llaydilar.

Xulosa va takliflar. Tadqiqotimiz davomida 4-sinf darsliklarining O‘zbekistondagi holati va PISA 2019-yilda yuqori natija ko‘rsatgan davlatlardagi holatlarini tahlil qildik. Darslikda 150 ta mavzuni mustahkamlash uchun savollar, 25 ta amaliy ish va 24 ta topshiriqlar berilgan. Darslik DTS talablariga javob beradi. Darslikdagi topshiriqlarning shartida tushunmovchiliklar mavjud yemas.

4-sinf Tabitashunoslik darsligi 3 ta bo‘limdan iborat. Ular quyidagilar: “Er-Quyosh sistemasidagi sayyora”, “Yer yuzi tabiatining xilma-xilligi” va “Vatanimiz bo‘ylab sayohat”. Darslikda 30 ta mavzu bo‘lib, har bir mavzu to‘liq va tushunarli berilgan hamda 150 ta mavzuni mustahkamlash uchun savollar, 26 ta topshiriqlar, 24 ta amaliy ishlar berilgan. Darslikdagi mavzular rasmlar bilan tushunarli qilib yoritilgan, topshiriqlar va amaliy ishlarning shartlarida tushunmovchiliklar mavjud emas.

Finlandiyaning 4-sinflar uchun “Science” kitobi [7.] 6 ta bo‘lim va 13 ta mavzudan hamda har bir mavzuning multimediyali elektron resursi mavjud. Bo‘limlari: “O‘simliklar”, “Hayvonlar”, “Odam salomatligi”, “Bizning olam”, “Tabiat hodisalari”, “Harakatlanuvchi narsalar”. Har bir bo‘lim boshlanishida o‘quvchilar bu bo‘limda nimalarni o‘rganishlari haqida qisqacha ma’lumotlar berilgan (Let Us Learn about). Har bir yangi mavzu boshlanishida “warm-up” topshiriqlari, mavzuga oid qo‘shimcha qiziqarli va hayratlanarli ma’lumotlar (Do You Know- Gives The Extra Edge), har bir sahifada yangi so‘zlar (vocabulary-Listing The New Words), o‘rganilgan tushunchalarga oid topshiriqlar (Let Us- Learning By Doing), har bir mavzu tugagandan so‘ng “Time yo Answer” deb nomlangan topshiriqlar berilgan bo‘lib bunda o‘quvchilar mavzu yuzasidan berilgan savollarga javoblar yozadilar va ularning o‘rganilgan tushunchalarni

tushunganliklari tekshiriladi. Kitobdagi har bir mavzuda tayanch so‘zlar berilgan va bitta bo‘lim tugagandan so‘ng “Men bilaman” (Now I Know) deb nomlangan topshiriqlar berilgan, bo‘limda o‘rganilgan mavzular yuzasidan har xil testlar, mantiqiy fikrlashga oid (HOTS- Think Harder) topshiriqlari, “The Creative Zone” nomlangan qiziqarli topshiriqlar va loyihalar, “Life Skill” deb nomlangan real hayot tushunchalari haqidagi ma’lumotlar berilgan bo‘lib, bu ma’lumotlar o‘quvchilarni mas’uliyatli fuqaro bo‘lishga va atrof-muhitga yehtiyotkorona munosabatda bo‘lishga o‘rgatadi. Bundan tashqari har bir bo‘lim tugagandan so‘ng mavzuga oid foydali saytlar ro‘yxati hamda o‘qituvchi uchun dars jarayonida qiziqarli o‘yinlar o‘tkazish uchun maslaxatlar berilgan. Bu kitobning multimediyali elektron resursida esa har bir mavzularga oid videoroliklar va topshiriqlar berilgan.

Finlandiyaning 4-sinflar uchun Science fanidan mashqlar kitobi

2 qismdan iborat bo‘lib har bir o‘quvchi uchun beriladi. Har ikkala qismda 4 tadan bo‘limlar mavjud bo‘lib, har bir mavzuga rasmli, mulohaza qilinadigan va dastlabki tuwunchalarga oid topshiriqlar, o‘quvchilarning o‘zi va guruh bilan muhokama qiladigan topshiriqlar hamda “Find out” deb nomlangan topshiriqlar bo‘lib, bu topshiriqlarda o‘quvchilar mavzuga oid qo‘shimcha ma’lumotlarni topib yozishadi. Shuningdek bu kitobda, jadvallarni to‘ldirishga, grafiklarga qarab ma’lumotlarni yozish, tushib qolgan so‘zlarni joyiga qo‘yish, yopiq turdagi va ochiq turdagi testlar yechishga oid qiziqarli topshiriqlar o‘rin olgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konseptsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-son Farmoni.

2. Gustafsson J. E., Hansen K. Y., Rosén M. PISA and PIRLS: Relationships among reading, mathematics, and science achievement at the fourth grade Implications for early learning PISA & PIRLS International Study Center. – Boston: College.2018. – B. 432.

3. Ismailov A. A. O‘quvchilarning ta’limdagi yutuqlarini baholash tizimini xalqaro talablar asosida takomillashtirishning nazariy va institutsional asoslari, Ta’lim va innovatsion tadqiqotlar DOI: 2022. https://doi.org/10.53885/edinres.

4. Маркова А. К., Деркач А. А. Профессиограмма специалиста кадровой службы: Учебно-методическое пособие . – Москва: Изд-во РАГС, 2001.

5. OECD [Elektron resurs, manba]. – Kirish rejimi: https:G‘G‘ www.oecd.org. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (ingliz tilida: The Organisation for Economic Co-operation and Development (OECD).

6. Ruzikulova N.Sh. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining axborotlar bilan ishlash kompetentsiyasini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish. Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya.
– Toshkent. 2020.

TALABALARNING HUQUQIY MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK JIHATLARI

Xolnazarova Dildora Mamatmuratovna, Guliston davlat pedagogika instituti
Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent v.b.
e-mail: xolnazarovadildora1987@gmail.com

Annotatsiya. Talabalarning huquqiy madaniyati shunchaki huquqiy bilimlarga ega bo‘lish emas, balki ularni hayotda samarali qo‘llash qobiliyatini ham qamrab oladi. Oliy ta’lim muassasalaridagi ta’lim jarayonlari talabalarning huquqiy madaniyatini rivojlantirish uchun muhim jarayon bo‘lib, pedagogik va psixologik yondashuvlar bu jarayonda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Mazkur maqolada talabalarning huquqiy madaniyatini rivojlantirishning pedagogik-psixologik jihatlari o’rganiladi.

Kalit so‘zlar: talabalar huquqiy madaniyati, huquqiy madaniyat, ta’lim tizimi, huquqiy ta’lim, huquqiy tarbiya;

ПЕДАГОГИКО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ФОРМИРОВАНИЯ ПРАВОВОЙ КУЛЬТУРЫ СТУДЕНТОВ

Абстрактный. Правовая культура студентов охватывает не только владение правовыми знаниями, но и умение эффективно применять их в жизни. Образовательный процесс в высших учебных заведениях является важным процессом формирования правовой культуры студентов, и педагогические и психологические подходы играют в этом процессе решающую роль. В статье рассматриваются педагогические и психологические аспекты формирования правовой культуры студентов.

Ключевые слова: правовая культура обучающихся, правовая культура, система образования, правовое образование, правовое воспитание.

PEDAGOGICAL-PSYCHOLOGICAL ASPECTS OF DEVELOPING STUDENTS' LEGAL CULTURE

Abstract. The legal culture of students includes not only the possession of legal knowledge, but also the ability to effectively apply it in life. Educational processes in higher educational institutions are an important process for the development of students' legal culture, and pedagogical and psychological approaches play a decisive role in this process. This article studies the pedagogical and psychological aspects of the development of students' legal culture.

Keywords: legal culture of students, legal culture, education system, legal education, legal upbringing.

Kirish. Dunyo mamlakatlari ta’lim va ilmiy-tadqiqot muassasalarida talaba yoshlarning huquqiy madaniyatini shakllantirishning pedagogik-psixologik imkoniyatlarini kengaytirish, talaba-yoshlarning huquqiy madaniyatini yuksaltirish tizimi samaradorligini ta’minlash, huquqiy xabardorligini oshirishning ta’sirchan mexanizmlarini yaratish bo‘yicha ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Shu bilan birga, talaba yoshlarning ijtimoiy-siyosiy hayotga ta’sir darajasini oshirish, ularni jamoat va davlat ishlariga keng jalb etish, turli institutlar orqali talabalarning huquqiy

savodxonligini kuchaytirishning optimal yechimlarini topish, bu boradagi xalqaro huquq normalarini milliy qonunchilikka tatbiq etish bo‘yicha ilmiy-tadqiqot ishlariga alohida e’tibor berilmoqda.

Respublika oliy ta’lim muassasalarida so‘ngi yillarda yoshlarning huquqiy ongi va madaniyatini rivojlantirish, raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning dasturiy-metodik va moddiy-texnik bazasini shakllantirish, jahonning nufuzli oliy ta’lim muassasalari tajribasi asosida bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashda milliy, madaniy va tarixiy an’analardan foydalanishning me’yoriy asoslari yaratilmoqda. “Jismonan sog‘lom, ruhan va aqlan rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, Vatanga sodiq, qat’iy hayotiy nuqtai nazarga ega yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida ularning ijtimoiy faolligini oshirish”[1] vazifalari ustuvor etib belgilandi. Bu borada talaba-yoshlarning huquqiy madaniyatini yanada rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish maqsadli tadqiqotlardan hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili. Yoshlar huquqiy madaniyatini rivojlantirish, talaba yoshlar huquqiy madaniyatini rivojlantirishning pedagogik-psixologik va huquqiy jihatlari B. S. Abdullayeva, A. Azizxo’jayev, M. L. Aripova, A. R. Aripdjanova, H. Boboyev, Z. Islomov, N. U. Mahkamov, G. I. Maxmutova, O. Musurmonov, X. Odilqoriyev, N. N. Djamilova, D. Ro‘ziyeva, A. Saidov, U. Tojixonov, G. J. Tulenova, B. Sh. Shermuxammadov, G. J. Shamaribxodjayeva, Sh. Shodmonova, Z. Saliyeva, S. Nishonova, M. Maxmudovalarning ilmiy ishlarida muayyan darajada tadqiq qilingan.

X. M. Tojiboyeva[2] ilmiy tadqiqot ishida ijtimoiy faollikni shaxsning maqsadga yo’naltirilgan faoliyati bo‘lib, ijtimoiy voqelikka nisbatan individual munosabati va tizimli xatti-harakatlarining yuksak ko‘rinishini ifodalovchi tushuncha sifatida talqin etgan. Ijtimoiy faollik me’yoriy va odatdagiga nisbatan kuchli faoliyatdir. O‘quvchi-yoshlarning ijtimoiy faolliklarini oshirish ular o‘rtasidagi ta’lim-tarbiyani tashkil etish jarayoni deb ta’kidlab o‘tgan[2, 13-b]. Bundan kelib chiqadiki, huquqiy madaniyati rivojlangan shaxs sifatida jamiyat ijtimoiy hayotida faol bo‘lgan yoshlarni aytishimiz mumkin.

N. N. Djamilova[3] “tashabbuskorlik o‘quv va kasbiy faoliyatda muvaffaqiyatga erishish uchun yangi g‘oya va takliflarni ilgari surish hamda amaliy faoliyatda namoyon etishga qodirlik” deb ifodalagan. Talabalar huquqiy madaniyatning rivojlanishida ularning tashabbuskorligi, mas’uliyatliligi, qat’iyatlilik kabi sifatlar muhim omil hisoblanadi[3, 13-14-b.].

Q. Q. Quronboyev o‘zining tadqiqot ishida talaba-yoshlarning ma’naviy-axloqiy tarbiyasida ongli intizomning ahamiyati, burch va mas’uliyat hissini rivojlantirish, yoshlarning jamiyat hayotidagi ma’naviy-ijtimoiy faolliklarini rivojlantirishning mazmuni va pedagogik asoslarini tahlil qilganligini ko‘ramiz. Zero, huquqiy madaniyatga ega bo‘lish jamiyatda o‘rnatilgan me’yorlarga amal qilish, burch va mas’uliyatni his etishni talab etadi.

B. Sh. Shermuxammadov tadqiqotida “yoshlardagi ijtimoiy faollik qobiliyatlari, salohiyati ilmiy-amaliy jihatdan o‘sish imkoniyatlarini oldindan aniqlash, ijodiy fikrlash” masalalari ifodalangan[4, 37-53-b.].

G. J. Tulenovaning ta’kidlashicha “….millatning ma’naviy qiyofasi turli davrlarda muayyan imkoniyatlar va ehtiyojlar asosida shakllanadi”. Shuni inobatga olgan holda, biz talaba-yoshlarning ma’naviy qiyofasini shakllantirishimizda o‘z milliy an’ana, urf-odatlarimizni unutmagan holda, zamon talablariga javob bera oladigan huquqiy madaniyati rivojlangan mutaxassis kadrlarni yetishtirib berishimiz lozim[5; 86-89 b.].

O. Musurmonova[6, 78] ta’lim-tarbiyada axloqiy ong, vijdon, burch, mas’uliyat, hayo, g‘urur kabi insonning fe’l-atvorini ichki boshqarish qurilishiga asoslanadi.

Axloqning mag‘zini tashkil qiluvchi bosh qoidalar insonparvarlik, demokratizm, halol mehnat, o‘zaro yordam, do‘stlik, hamkorlik, o‘zaro hurmat, baynalminalchilik vatanparvarlik, tabiat va atrof muhitga diqqat-e’tibor, burch hissi hamda kamtarlik, ko‘zbo‘yamachilik va yolg‘izlikni inkor etish kabi insoniy sifatlarni o‘z tadqiqotlarida ifodalagan [6, 78; 28-b.]. Bu esa, nafaqat huquqiy madaniyat balki boshqa madaniyat turlarining asosini ham tashkil etadi.

S. Jo‘rayeva yosh avlod masalasiga to’xtalar ekan: “yoshlarning Vatan, millat taqdiri uchun o‘zlarini mas’ul sezib, dahldorlik tuyg‘usi”ni o‘zida his qilishi to‘g‘risida to‘xtalgan bo‘lib, har qanday jamiyatda yosh-avlod tarbiyasi turli muhim o‘rin egallaydi.

A. Begmatov ta’lim jarayonida shaxs faolligi “jamiyat manfaatlari bilan shaxs manfaatlari o‘rtasida uyg‘unlik mavjud bo‘lsa, bunday holat shaxsni jamiyat manfaatlari yo‘lida, demak, shu orqali, o‘z manfaatlari yo‘lida ham jonbozlik ko‘rsatishga undaydi” deb, inson tarbiyasida insonparvarlik tamoyilining o‘rni yuqoriligi masalasiga to‘xtalib o‘tgan[7, 64-b.].

G. J. Shamaribxodjayevaning ilmiy tadqiqot ishida fuqarolik huquqiy madaniyatini shakllantirish ilmiy-nazariy jihatdan tahlil etilgan. Tadqiqot ishida o’quvchi-yoshlarda fuqarolik huquqiy madaniyatini shakllantirish usul, vositalari va mexanizmi ishlab chiqilgan bo‘lib ta’lim jarayonida ularda insonparvarlik, burchga sodiqlik, huquqiy ong va madaniyat, vatanparvarlik, kasbiy faoliyatga ongli munosabat va shu kabi fazilatlarni shakllantirish lozimligini ta’kidlagan.

Fuqarolik madaniyatini shakllantirishning samarali mexanizmi, shakl, metod, usul va vositalari ishlab chiqilgan va ta’lim jarayoniga tatbiq etilgan bo‘lib, unga ko‘ra o‘quvchilarda insonparvarlik qoidalariga amal qilish, o‘z-o‘zini anglash mas’uliyati va burchga sodiqlik, huquqiy ong, Vatanparvarlik, estetik madaniyatlilik, kasbiy faoliyatga ongli munosabat, qat’iylik, sodiqlik, kelajakni ko‘ra bilish kabi fazilatlar shakllanadi[8].

Tadqiqot ishida ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar va ta’limning o‘quvchilarda fuqarolik madaniyatini shakllantirishdagi ahamiyatini ochib berishga qaratilgan. Fuqarolik madaniyati huquqiy madaniyatning bir qismini tashkil etadi. Biz tadqiqot ishimizda talabalarda huquqiy madaniyatni rivojlantirishda uzluksiz ta’lim tizimida ta’lim jarayonini huquqiy tarbiya bilan uyg‘un olib borish, va talabalarning huquqiy madaniyatini rivojlantirishda o‘zbek xalqining milliy qadriyatlariga tayanildi.

Metodologiya. Talabalarning huquqiy madaniyatini rivojlantirish pedagogik va psixologik jihatlardan murakkab jarayondir. Oliy ta’lim muassasalari buni amalga oshirish uchun samarali platformalarni taklif etadi. Pedagogik metodlarni moslashtirish, psixologiyani hisobga olish va ijodkorona faoliyatlarni joriy etish orqali talabalarning huquqiy madaniyati rivojlanishiga erishish mumkin. Bunday yondashuvlar talabalarning huquqiy bilimlarini samarali qo’llashlari, huquqiy o’ziga xosliklarini shakllantirish va zamonaviy jamiyatda muvaffaqiyatli faoliyat yuritishlari uchun asosni yaratadi.

Talabalarning huquqiy madaniyatini rivojlantirishning pedagogik-psixologik jihatlari quidagi jihatlarda namoyon bo‘ladi. Pedagogik jihatlari:

1. Ta’lim dasturlarining modullashtirilishi: Talabalarning huquqiy madaniyatini rivojlantirish uchun ta’lim dasturlarini modullashtirish talab qilinadi. Huquqiy saboqlar va seminarlar amaliy darajada o‘tkazilishi kerak, bu esa talabalarning huquqiy bilimlarini mustahkamlash imkonini beradi.

2. Interaktiv o‘qitish usullari: talabalarning fikrlash va so‘zlash qobiliyatlarini rivojlantirish uchun interaktiv metodlar, debatlar, rolli o‘yinlar va simulyatsiyalar kabi faoliyatlarni joriy etish zarur. Bunday usullar talabalarga haqiqiy hayotda bo‘layotgan huquqiy vaziyatlarni to‘g‘ri baham ko‘rishni va yechishni o‘rgatadi.

3. Ijodiy faoliyat: qo‘llab-quvvatlovchi muhitda ijodiy faoliyatlar, masalan, huquqiy muammolarni hal qilish eshituvlari tashkil etish, talabalarning huquqiy

ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

SHuningdek, psixologik jihatlari:

1. Motivatsiyani rag‘batlantirish: talabalarning huquqiy bilimlarga qiziqishini oshirish uchun rag‘batlantiruvchi muhit yaratish zarur. Psixologik holat va shaxsiyatning rivojlanishi faoliyat va natijalarga bo’lgan munosabat bilan chambarchas bog’liq.

2. Ma’naviy faktorlar: talabalarning huquqiy madaniyati ta’lim jarayonida emas, balki ularning ma’naviy, etik va ijtimoiy taraqqiyoti bilan ham uzviy bog’liq. Huquqiy madaniyatni rivojlantirishda o’sish, adolat, mas’uliyat va inson huquqlariga ehtirom ko’rsatish kabi ma’naviy prinsiplarni namoyish etish muhim.

3. Ko‘nikmalarni shakllantirish: psixologik jihatda talabalarning tanlov, muhokama va qaror qabul qilish qobiliyatlarini rivojlantirish kerak. So‘z va fikr yuritish qobiliyati talabalarga o‘z huquqlarini samarali himoya qilish imkonini beradi.

Natijalar. Talabalarning huquqiy madaniyatini rivojlantirishda pedagogik va psixologik jihatlar muhim ahamiyatga ega. Bu jihatlar talabalarning huquqiy bilimlarini shakllantirish, ularni faoliyatiga o’zgartirish va huquqiy qonunlarni to’g’ri tushunishlarini ta’minlashda katta rol o’ynaydi. Buning uchun quidagilarni inobatga olish lozim.

1. O‘qitish metodologiyasi: Talabalarning huquqiy madaniyatini rivojlantirish uchun zamonaviy o‘qitish metodikalari, interaktiv ta’lim usullari va o‘qitishdagi musobaqalardan foydalanish muhim. Shuningdek, guruhda huquqiy vaziyatlarni muhokama qilish talabalarning fikrlashini rivojlantiradi.

2. Ta’lim dasturlari: Oliy ta’lim muassasalarida huquqiy ta’lim dasturlari talabalarning huquqiy o‘sishini ta’minlash uchun o‘zida huquqiy fanlar, huquqiy etika va turli holatlarda amal qilish metodlarini o‘z ichiga olishi kerak.

3. Muloqot va diskussiya: Talabalarni o‘zaro muloqot qilishga, huquqiy masalalarda o‘z fikrlarini bayon etishga va tadqiqotlarda ishtirok etishga chorlash, ularni huquqiy madaniyatni rivojlantirishga yordam beradi.

4. Motivatsiya: Talabalarning huquqi va majburiyatlari to‘g‘risidagi bilimlari ularning qiziqishini va intilishini oshirish uchun motivatsiyani ustun qo’yish kerak. Ularni huquqiy bilimlarni olishga ilhomlantirish maqsadida haqiqatda mavjud huquqiy muammolar va vaziyatlarni ko’rib chiqish muhimdir.

5. Qaror qabul qilish: Talabalarga huquqiy vaziyatlarda to’g’ri qaror qabul qilish mahoratini rivojlantirish kerak. Bu ularning huquqiy madaniyatini mustahkamlashga va ishlatishga yordam beradi.

6. Emotsional intuitsiya: Talabalarning huquqiy madaniyatini rivojlantirishda ularning emotsional intellektlarini shakllantirish, huquqiy tushunchalarni faol va to’g’ri qabul qilishga yordam beradi.

Xulosa. Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlashimiz mumkinki, talabalarning huquqiy madaniyatini rivojlantirishning pedagogik-psixologik jihatlari o’zaro bog‘liqdir. Pedagogik usullar, metodologiyalar va psixologiyaning asosiy prinsiplari bilan birlashib, talabalar uchun huquqiy bilimlarni shakllantirish va huquqiy faoliyatda ishtirok etish imkoniyatlarini yaratadi. Talabalarning huquqiy madaniyatini rivojlantirishning samarali yo‘llari ularni zamonaviy jamiyatda muvaffaqiyatli ishtirokchilarga aylantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi farmoni. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017-y., 6-son, 70-modda.

2. Tojiboeva X. M. O‘quvchi-yoshlar ijtimoiy faolligini oshirishning pedagogik tizimi: Dis. ped. fan. nom. – Toshkent, 2018.

3. Djamilova N. N. Pedagogika oliy ta’lim muassasalari talabalarida tashabbuskorlikni rivojlantirishning pedagogik mexanizmlari. Avtoref. dis. ped. fan. dok. – Toshkent, 2019.

4. Shermuxammadov B. Yoshlar orasida milliy g‘oya targ‘iboti samaradorligini oshirish: Monografiya. – Toshkent, 2013. 196-b.

5. Tulenova G. J. Yoshlar ijtimoiy faolligini oshirishda ma’naviy omilning roli (ijtimoiy-falsafiy tahlil). – Toshkent, 2006.

6. Maxmudova M. Kichik yoshdagi o‘quvchilarda ijtimoiy faollikni tarbiyalash. – Toshkent: O‘zPFITI, 1994 y. 146-b.

7. Begmatov E., Madvaliyev A. va boshqalar. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 5-jildli. – Toshkent, 2006. 3241-b.

8. Shamaribxodjayeva G. Kasb-hunar kolleji o‘quvchilarida fuqarolik madaniyatini shakllantirish: Dis. ped. fan. nom. – Toshkent, TDPU, 2009. 122-b.

9. Mamatmuratovna K. D., & Gapparovich T. S. (2021, April). System of preparation of young people for spiritual, legal and legal education. In Archive of Conferences Vol. 23, No 1. – P. 168-171.

O‘QITUVCHILARNI KASBIY MOSLASHTIRRISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI

Boymatov Nuriddinjon Mirzaqulovich, Guliston davlat pedagogika instituti
“Tabiiy fanlar” fakulteti, “Aniq fanlar” kafedrasi dotsenti
e-mail: nuriddinjonboymatov079@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada oliy ta’lim muassasalari va ulardagi o‘quv-tarbiya jarayonini modernizatsiyalash, pedagog mutaxassislar tayyorlash tizimi sifat-monitoringini oshirish, bo‘lajak o‘qituvchilarni zamonaviy kasbiy bilim, malaka va ko‘nikmalar bilan qurollantirish, ularda kasbiy faoliyatga nisbatan akmeologik motivatsiyani shakllantirish pedagog mutaxassislarning kasbiy tayyorgarligini shakllantirish jarayoni yoritilgan.

Kalit so‘zlar: qobilyat, tayyorgarlik, kasbiy moslashtirish, tizimli yondashuv, movzanatlashtirish, soxta adaptatsiya, motivatsion yo‘nalganlik, axborot-mazmunli, tashkiliy va refleksiv sharoit;

.

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ УСЛОВИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ АДАПТАЦИИ УЧИТЕЛЕЙ

Абстрактный. В данной статье рассматривается процесс модернизации высших учебных заведений и образовательного процесса в них, совершенствование контроля качества системы подготовки педагогических кадров, оснащение будущих учителей современными профессиональными знаниями, квалификациями и умениями, формирование у них акмеологической мотивации к профессиональной деятельности, тем самым формирование профессиональной подготовки педагогических кадров.

Ключевые слова: способность, подготовка, профессиональная адаптация, системный подход, мобилизация, ложная адаптация, мотивационная направленность, информационно-содержательные, организационно-рефлексивные условия;

PEDAGOGICAL CONDITIONS OF PROFESSIONAL ADAPTATION OF TEACHERS

Abstract. This article examines the process of modernization of higher education institutions and the educational process in them, improving the quality control of the teaching staff training system, equipping future teachers with modern professional knowledge, qualifications and skills, forming their acmeological motivation for professional activity, thereby forming the professional training of teaching staff.

Keywords: ability, training, professional adaptation, system approach, mobilization, false adaptation, motivational focus, informational and content-based, organizational and reflexive conditions;

Kirish. Rivojlangan mamlakatlar, xususan, Buyuk Britaniya, Avstraliya, Shveytsariya, Germaniya, Malaziya, Kanadaning mutaxassilar tayyorlash bilan

bog‘liq tajribasi shuni ko‘rsatadiki, kasbiy ta’limning asosiy vazifasi talabalarda tanlangan mutaxassislikning o‘ziga xosligidan kelib chiqqan holda intellekt va mantiqiy tafakkurni rivojlantirishdan iborat bo‘lib, mazkur vazifani bajarish asosida ta’lim oluvchilarning kasbiy tayyorgarligi ta’minlanadi. Bunda kasbiy tayyorgarlikning asosiy mezonlari sifatida bo‘lajak mutaxassisning faoliyatga amaliy tayyorgarligi va ixtisoslik doirasidagi bilim, ko‘nikma va malakalarning o‘zlashtirish, kasbiy faoliyat talablariga moslashish darajasi belgilanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mehnat va ta’lim xizmatlari bozorini rivojlantirishning strategik rejalarini ishlab chiqishda mutaxassislarning kasbiy tayyorgarlik darajasi hamda faoliyat talablariga moslasha olish qobiliyatini shakllantirish masalalariga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bu esa o‘z navbatida bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy moslashtirish jarayoni samaradorligini oshirish bilan bog‘liq quyidagi vazifalarni hal qilish zaruriyatini keltirib chiqaradi:

- bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy moslashtirish mazmunini pedagog mutaxassislar tayyorlashga qo‘yiladigan mehnat bozorining zamonaviy talab va takliflariga asoslanib belgilash;
- kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalarni sifatli o‘zlashtirilishning innovatsion potentsialini shakllantiruvchi pedagogik-psixologik omillar va shartsharoitlarni aniqlash;
- tizimli yondashuv asosida ijodiy-hamkorlik muhitiga asoslangan kasbiy moslashtirishning pedagogik shart-sharoitlarini belgilash va amaliyotga tatbiq etish;
- bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy moslashtirishning ijtimoiy-pedagogik jihatlari, nazariy masalalari va talabalarning mustaqil ta’limi uchun xizmat qiluvchi yangicha nashrlar, elektron darsliklar, o‘quv-metodik majmualar ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish.

Ma’lumki, bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy moslashtirish aniq maqsadga yo‘naltirilgan, tizimli jarayon hisoblanadi. Zamonaviy pedagogik-psixologik tadqiqotlarda bo‘lajak mutaxassislarni kasbiy moslashtirish jarayonining bosqichlarini turlicha tavsiflanadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Tadqiqotchi olima N. Egamberdieva moslashuv bosqichlarini quyidagicha izohlaydi: [2;35]

1) muvozanatlashish – individ va muhit o‘rtasida o‘zaro qadriyatlar tizimi va xulq-atvor me’yorlariga nisbatan hurmat ko‘rinishidagi muvozanatning vujudga kelishi;

2) soxta adaptatsiya - sharoitga tashqi moslashuv va uning me’yorlariga nisbatan salbiy munosabat birligi;

3) ko‘nikish – yangi muhitning qadriyatlarini tan olish va qabul qilish;

4) o‘xshatish – individning psixik qayta orientatsiyasi, avvalgi qarashlar, orientatsiya, ustanovkalar transformatsiyasi.

B. Jo‘raev esa bo‘lajak o‘qituvchilarning yangi ijtimoiy-madaniy muhitga moslashuv bosqichlarini boshlang‘ich davr, ko‘nikish davri, akkomadatsiya davri, assimilyatsiya davrlariga bo‘lib o‘rganadi. Bunda individning qadriyatlar tizimidan individ, guruh va muhit qadriyatlar tizimining o‘zaro uyg‘unlashuvigacha bo‘lgan davrlar qamrab olinadi.

Izlanishlar natijasida bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy moslashtirishga qo‘yiladigan zamonaviy talablar, kasbiy moslashuvchanlikni shakllantirishning pedagogik-psixologik aspektlarini o‘rganish, shuningdek, oliy ta’lim muassasalarining mazkur jarayondagi imkoniyatlari diagnostikasi xulosalariga tayanib, bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy moslashtirish jarayoni quyidagi bosqichlarda kechishi aniqlandi:

I-bosqich. Kasbiy faoliyatga motivatsion yo‘nalganlik; kasbiy tasavvurlarning shakllanishi; kasbiy bilimlarning o‘zlashtirilishi; kasbiy faoliyat talablarining

anglanishi (pedagogika kollejlaridagi umumta’lim va umumkasbiy fanlar mazmunida beriladigan ijtimoiy-nazariy va pedagogik-psixologik bilimlar vositasida).

II-bosqich. Kasbiy faoliyat talablarini o‘zlashtirish; kasbiy kompetentsiyalarni bilish, o‘zlashtirish, muloqotga kirishish, kasbiy ijodkorlik; faoliyatga innovatsion yondashuvning qaror topishi (maxsus fanlar, pedagogikamaliyot, to‘garaklar, ijodiy kastinglar, sinfdan tashqari ishlar, mustaqil ta’lim vositasida).

III-bosqich. Kasbiy o‘z-o‘zini anglash, moslashish; kasbiy ko‘nikma va malakalarning rivojlanishi; pedagogik qobiliyat va kasbiy sifatlarning shakllanishi (umumkasbiy va maxsus fanlar, o‘quv amaliyoti, mustaqil ta’lim vositasida).

Shu nuqtai nazardan kelib chiqib, tadqiqot davomida bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy moslashtirish jarayoniga ta’sir etuvchi omillar va zaruriy shart-sharoitlarni ishlab chiqish va uni nazariy jihatdan asoslash vazifasiga alohida e’tibor qaratildi. Keltirilgan vazifalarning samaradorligini ta’minlashning muhim sharti bu bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy moslashtirish jarayoniga ta’sir etuvchi ob’ektiv va sub’ektiv (tashqi va ichki) omillarni asoslashda namoyon bo‘ladi.

Pedagogik olim V. A. Slastenin bo‘lajak o‘qituvchilar kasbiy tayyorgarligini shakllantirish masalalarini tadqiq etar ekan, yuksak professionalizm, ya’ni kasbiy etuklikka erishishning ob’ektiv omillariga olingan ta’limning sifatini, sub’ektiv omillariga esa shaxsning qobiliyati, kasbiy yo‘nalganligi, pedagogik vazifalarni samarali hal qila olishdagi mas’uliyati va mutaxassislikka yondashuvini kiritadi [1;57].

Shuningdek, pedagog olim bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy moslashtirish jarayoni muvaffaqiyatiga ta’sir etuvchi omillarni ham ikki turkumga bo‘ladi: sub’ektiv (ichki) va ob’ektiv(tashqi) omillar. Muallif bo‘lajak mutaxassisning kasbiy moslashuviga ta’sir etuvchi ichki omillarni uning individual-psixologik sifatlari bilan bog‘lasa, ob’ektiv omillarga muhit va ta’lim shart-sharoiti bilan bog‘liq jihatlarni taklif etadi.

Bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy moslashtirishga ta’sir etuvchi omillar	
Sub’ektiv omillar	Ob’ektiv omillar
Ijtimoiy-demografik (yoshi, jinsi, oilaviy holati, ma’lumot darajasi); Fiziologik o‘ziga xoslik; Emmotsional(hissiy) barqarorlik; O‘z-o‘zini adolatli baholash; Shaxs faolligi; Sohaga oid dastlabki kompetentsiyalar; Faoliyatga ijtimoiy-kasbiy tayyorgarlik;	Ta’lim muassasasidagi mavjud shart sharoit; Pedagogik jarayonni tashkil etilishi; Vaqt byudjetining to‘g’ri rejalashtirilishi.

Shuningdek, yana ba’zi bir psixologik-pedagogik adabiyotlarda bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy moslashish jarayoniga ta’sir etuvchi omillarning 4 guruhi ajratiladi. Birinchi guruh omillari ijtimoiy-iqtisodiy bo‘lib, u taraqqiyotning turli boqichlarida jamiyat hayotiga kirib kelayotgan yoshlarga o‘zlaridagi mavjud kuch va imkoniyatlarini sarflashga turli sohalarni taklif etadi. Birinchi navbatda bu kasblar turi, ularning o‘zgarishi va rivojlanish istiqbollari, jamiyatning u yoki bu mutaxassislarga ehtiyojiga dahldordir. Ijtimoiy-psixologik omillar ikkinchi guruhni tashkil etadi. Mazkur jarayonda shaxs ijtimoiylashuviga ta’sir etuvi mikro, mezo va makro muhit ta’siri muhim ahamiyat kasb etadi. Ijtimoiy muhit ta’sirida shaxsning

qadriyatli yo‘nalganligi, kasblarning turli guruhlariga munosabatning o‘ziga xos ijtimoiy ko‘rsatmalari va sterotiplar shakllanadi.

Uchinchi guruh asl psixologik omillardan iborat bo‘lib, bu shaxsiy qiziqish va moyilliklar umumiy va xususiy qobiliyatlar, aqliy va shaxsiy rivojlanish darajasi xotira xususiyatlari, diqqat motorikasining o‘ziga xosligi va shu kabilar.

Nihoyat to‘rtinchi guruh individual psixofiziologik xususiyatlarni o‘z ichiga olib, ulardan ko‘p o‘rganilgani nerv tizimining asosiy xossalarini faoliyat turlariga munosabatini ta’siri masalasidir. Ular psixik jarayonlar kechishining dinamik tavsifnomalarini belgilaydi turli temperamentlar ko‘rinishida ifodalanadi va ma’lum faoliyat turini bajarishga ko‘maklashishi, yo aksincha uni qiyinlashtirishi mumkin bo‘ladi [3;61-67].

N. A. Muslimov o‘z tadqiqotlarida bo‘lajak kasb ta’limi o‘qituvchisini kasbiy moslashtirish uning kasbiy shakllanishidagi muhim jihatlardan biri ekanligini ta’kidlab, mazkur jarayondagi muhim pedagogik shart-sharoitlar sifatida quyidagilarni e’tirof etadi:[4]

- moddiy-texnik shart-sharoitlar (o‘quv binolari, o‘quv auditoriyalar, o‘quv-texnik vositalar majmuining mavjudligi va hokazolar);
- o‘quv-metodik shart-sharoitlar (davlat ta’lim standarti, o‘quv dasturlari, o‘quv rejalari va boshqalar);
- kadrlar salohiyati (professor-o‘qituvchilar);
- ijtimoiy hamda o‘quv-texnologik muhit;
- tashkiliy hamda o‘quv-amaliy faoliyatning izchil, uzluksiz hamda tizimli yo‘lga qo‘yilganligi.

Tahlil va natijalar: Demak, mazkur fikrlar, ilmiy-pedagogik tadqiqot jarayonida olingan kuzatish va empirik tahlil natijalarini nazariy jihatdan tahlil etish, umumlashtirish natijasida bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy moslashtirish jarayonining samaradorligi quyidagi omillarga asoslanishini aniqlandi:

- motivatsion omil – bo‘lajak o‘qituvchilarni tanlangan kasb va uning mohiyatidan xabardorlik darajasi, kasbiy yo‘nalganlik va kasb tanlash motivlari bilan ifodalanuvchi jihatlar;
- ijtimoiy omil – jamiyatdagi mavjud ijtimoiy muhit va kasbning ijtimoiy

nufuzi, shuningdek, talabalar tomonidan kasbiy – ijtimoiy normalarning o‘zlashtirilishi, ijtimoiy tajribaning shaxsiy – kasbiy ustanovkalar tizimida qo‘llanilishi;

- axborotli-mazmunli – omil-tanlangan kasbiy faoliyat sohasini muvaffaqiyatli egallash uchun zarur bo‘lgan ijtimoiy-nazariy, pedagogikpsixologik va maxsus-metodik bilim, malaka va ko‘nikmalar majmuasi;
- faoliyatli omil – o‘zlashtirilgan maxsus kasbiy bilim, malaka va ko‘nikmalarni aniq vaziyatlar va zaruriy holatlarda tatbiq eta olish, o‘zini-o‘zi tahlil qilish va rivojlantirish motivatsiyasi;
- tashkiliy-metodik omil – innovatsion ta’lim turlari: shaxsga yo‘naltirilgan, tabaqalashtirilgan ta’lim, interfaol ta’lim, hamkorlik ta’limi, dasturiy ta’lim, muammoli ta’lim, o‘yin texnologiyalari, modulli ta’lim, mustaqil ta’lim va boshqalardan o‘quv-tarbiya jarayonida samarali foydalanish; o‘qituvchi va talabalarning o‘zaro hamkorligi; talabalarning mustaqil ta’lim olish ko‘nikmalariga egaligi, talabalarning bilim olishga nisbatan ijodiy yondashuvlari, ularda mustaqil fikrlash ko‘nikmalarining shakllanganligi; axborotlashgan ijodiy muhitning qaror topganligi; sog‘lom raqobatning mavjudligi; talabalar bilish faoliyatining ob’ektiv baholanishi;
- didaktik omil (vositalar) – maxsus jihozlangan (kompyuterlash-tirilgan) o‘quv xonalarining mavjudligi; o‘quv manbalari (takomillashtirilgan o‘quv dasturlari, ma’ruza matnlari, elektron darsliklar, o‘quv va metodik qo‘llanmalar, elektron

ishlanmalar, grafik organayzerlar, auditiv vositalar), o‘quv jihozlari va qurollari, axborot texnologiyalari.

Mazkur omillar va pedagog mutaxassislar tayyorlashga qo‘yiladigan mehnat bozorining zamonaviy talablaridan kelib chiqib, bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbiy moslashuvuvchanlikni shakllantirish mazmuni bevosita ulardagi fiziologik, psixologik, ijtimoiy va tashkiliy molashish bilan belgilanishi ma’lum bo‘ladi.

Pedagogika oliy ta’lim muassasalari talabalarining ijtimoiy-nazariy tayyorgarligi motivatsion va ijtimoiy omillar ta’sirida kechib, uning mazmunida umumta’lim fanlari doirasida o‘zlashtiriladigan axborotlar, bilimlar, fan asoslari muhim ahamiyat kasb etadi.

Talabalarning pedagogik-psixologik tayyorgarligi esa ta’lim-tarbiya jarayoni tamoyillari, ta’lim mazmuni va uning mohiyatini yorituvchi hujjatlar, o‘qitish shakllari, metodlari va vositalari, shuningdek, ta’lim oluvchi shaxsining yosh va individual xususiyatlarini bilish hamda ularning psixologik holatini boshqara olish borasidagi kasbiy bilim, malaka va ko‘nikmalarni o‘zlashtirish darajasi bilan belgilanadi.

Xulosa va takliflar qismi: Tadqiqotlar doirasida bo‘lajak o‘qituvchilardagi kasbiy faoliyatga amaliy faoliyatli moslashish ko‘nikmalari bevosita maxsus-metodik tayyorgarlik negizida shakllanishi ma’lum bo‘ldi. Bunda ta’lim oluvchining o‘quv-tarbiya jarayonini to‘g‘ri loyihalashtirish va amalga oshirish, o‘qituvchi va ta’limoluvchi faoliyatini tashkil qilish hamda boshqarish, Talabalarning bilish faoliyatini to‘g‘ri yo‘naltirish, o‘qitish, nazorat va baholashning shakl, metod va vositalaridan fan, mashg‘ulot va mavzu doirasida samarali foydalanish ko‘nikmalariga egalik darajasi asosiy komponentlar sifatida tavsiflanadi.

Bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy moslashtirish jarayoniga qo‘yiladigan zamonaviy talablardan biri bu innovatsiyalarni faol o‘zlashtirish va amalga tatbiq etish ko‘nikmalaridir. Innovatsion tayyorgarlik – mutaxassis shaxsidagi pedagogik faoliyatga nisbatan aksiologik, akmeologik, kreativ, refleksiv yondashuvning shakllanganligi, ta’lim jarayonida ijodiy hamkorlik muhitining yaratilishi, o‘qitish jarayoniga innovatsion texnologiyalarni tatbiq etish, innovatorlik faoliyatiga bo‘lgan faol motivatsiyaning qaror topganligi bilan belgilanuvchi kasbiy tayyorgarlik mezonlaridan sanaladi.

Bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy moslashtirish jarayonini yana bir e’tiborli jihati bu yuqorida ta’kidlab o‘tilgan yo‘nalishlardagi kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘zlashtirish va amaliyotga to‘laqonli tatbiq etishning zaruriy shartsharoitlari majmuasining belgilanishidir. Chunki, qulay va maqsadga yo‘naltirilgan pedagogik sharoit jarayondan ko‘zlangan natijaga erishishini engillashtiradi.

Oliy ta’lim muassasalarining pedagog mutaxassislar tayyorlash tizimining o‘ziga xosligidan kelib chiqib, tadqiqot doirasida quyidagi pedagogik, psixologik shart-sharoitlarning ta’minlanishi kasbiy tayyorgarlik sifatini oshirishga xizmat qilishi aniqlandi:

1. Axborotli-mazmunli sharoit. Ma’lumki, ta’lim mazmuni bo‘lajak mutaxassis o‘zlashtirishi lozim bo‘lgan kasbiy bilim, malaka va ko‘nikmalarning oldingdan loyihalashtirilgan tizimi bo‘lib, bunda DTS, o‘quv rejalari, takomillashtirilgan ta’lim dasturlari, ma’ruza matnlari, ta’lim texnologiyalari asosidagi o‘quv-metodik majmular, ilmiy va o‘quv-metodik, elektron darsliklar, nazorat vositalari: ijodiy pedagogik topshiriqlar, vaziyatli masalalar, masofali nazorat, ijodiy loyiha ishlari, mutaxassislik yo‘nalishlari bilan bog’langan kurs va loyiha ishlari alohida o‘rin tutadi.

2. Texnologik sharoit. Tadqiqot maqsadi, ya’ni bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy moslashtirishning samarali shakl, metod va vositalarini ishlab chiqib, amaliyotga

tatbiq etish uchun texnologik sharoit asos qilib olindi. Bunda kasbiy moslashtirish jarayonida:

- muammoli o‘qitish;
- o‘yinli texnologiyalar (rolli-ishchan o‘yinlar, tadbirkorlik o‘yinlari);
- trening, videotreninglar,
- muammoli -seminarlar;
- pedagogik muammoli vaziyatlarni echish va tahlil qilish, “Keys-stadi”;
- kichik guruhlarda o‘qitish, mikro-darslar;
- ijodiy tadqiqotchilik metodlari;
- dars va tarbiyaviy tadbirlarni loyihalash metodlari;
- autotreninglarni tashkil etish va o‘tkazish metodikasining ishlab chiqilishiga alohida e’tibor qaratildi.

Bo‘lajak o‘qituvchilarn kasbiy moslashtirishning texnologik sharoiti nazariy asoslanganlik; o‘quv-tarbiya jarayoni mazmuni va tashkiliy jihatlariga yaxlit yondashuv, tizimlilik, o‘qitishda ta’lim oluvchilarning individualligi, kasbiy yo‘nalganligi e’tiborga olish kabi tamoyillariga asoslanadi.

3. Refleksiv sharoit. Yaratilgan pedagogik shart-sharoitlarning natijaviy mahsuli sifatida refleksiv (refleksiya-ortga nazar, tahlil, o‘zgarishlar, shaxsning o‘z faoliyatini baholay olish darajasi) sharoit muhitining yaratilishiga alohida e’tibor berildi. Bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy moslashtirishga yo‘naltirilgan refleksiv sharoit mazmuni quyidagicha belgilandi:

- faol bilish motivatsiyasini rivojlantirish;
- kasbiy faoliyatga nisbatan akmeologik yondoshuvni qaror toptirish;
- kreativ ko‘nikmalarni shakllantirish;
- pedagogik-psixologik, metodik bilimlarni shakllantirish;
- o‘zini – o‘zi kasbiy anglash.

Olib borilgan tahlil natijalaridan ma’lum bo‘ladiki, pedagogik amaliyot, mustaqil ta’lim, to‘garaklar, audtoriyadan tashqari ishlar, jamoaviy tadbirlar, ijodiy kastinglar va boshqa turdagi tashkiliy tadbirlar talabalarning kasbiy moslashish va rivojlanishdagi muhim vositalardan sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Azizxodjaeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: Moliya, 2003. – B. 54-56.

2. Egamberdieva N. M va mualliflar jamoasi. Yuksak ma’naviyatli shaxsni shakllantirishning tarbiya texnologiyasi. – Toshkent: “Fan va texnologiya” nashriyoti, 2012. – B. 203.

3. Rahimov B. X. Bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbiy-madaniy munosabatlarning shakllanishi. Ped. fan. nom. diss. – Toshkent, 2002. B – B. 61-67

4. Muslimov N. A. Kasb ta’limi o‘qituvchisini kasbiy shakllantirishning nazariy-metodik asoslari: Ped.fanl.dokt. diss. – Toshkent, 2007. – 357 b

SOG‘LOM TURMUSH TARZI VA JISMONIY MASHQLAR BILAN SHUG‘ULLANISHDA GIMNASTIKA MASHQLARINING AHAMIYATI

Saribaev Shuxrat Turdibekovich, GulDPI “Pedagogika” fakulteti, “Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi” kafedrasi mudiri.
e-mail: shuxratsariboyev177@gmail.com

Annotatsiya. Sog‘lom turmush tarzi shakllantirish va jismoniy faoliyatni doimiy ravishda amalga oshirish bugungi kunda har bir insonning salomatligi uchun muhim ahamiyatga ega. Jismoniy mashqlar nafaqat tana holatini yaxshilash, balki ruhiy va hissiy holatni ham qo‘llab-quvvatlashda muhim rol o‘ynaydi. Bunday mashqlar orasida gimnastika eng samarali va keng tarqalgan usullardan biridir. Gimnastika nafaqat mushaklarni mustahkamlash, balki tananing umumiy rivojlanishini ta’minlashda ham samarali hisoblanadi.

Kalit so‘zlar: sog‘lom turmush, metabolizm, gimnastika, estetik, tanadagi elastiklik;

ЗНАЧЕНИЕ ГИМНАСТИЧЕСКИХ УПРАЖНЕНИЙ В ЗДОРОВОМ ОБРАЗЕ ЖИЗНИ И ФИЗИЧЕСКИХ УПРАЖНЕНИЯХ

Аннотация. Формирование здорового образа жизни и регулярная физическая активность сегодня имеют важное значение для здоровья каждого человека. Физические упражнения играют важную роль не только в улучшении состояния тела, но и в поддержании психического и эмоционального состояния. Среди таких упражнений гимнастика является одним из самых эффективных и широко распространенных методов. Гимнастика эффективна не только в укреплении мышц, но и в обеспечении общего развития тела.

Ключевые слова: здоровая жизнь, метаболизм, гимнастика, эстетика, эластичность тела;

THE IMPORTANCE OF GYMNASTIC EXERCISES IN A HEALTHY LIFESTYLE AND PHYSICAL EXERCISE

Abstract. Today, the formation of a healthy lifestyle and regular physical activity are of great importance for the health of every person. Physical exercises play an important role not only in improving physical condition but also in maintaining mental and emotional state. Among these exercises, gymnastics is one of the most effective and widespread. Gymnastics is effective not only for strengthening muscles but also for ensuring the overall development of the body.

Keywords: healthy lifestyle, metabolism, gymnastics, aesthetics, body elasticity.

Kirish. Gimnastikaning juda katta gigiyenik-sog‘lomlashtirish ahamiyati bor. Qadimgi zamonning atoqli mutafakkirlaridan Galen, Gippokrat, Plutarx, Beruniy, Ibn Sino gimnastikaning davolash va sog‘lomlashtirish vositasi sifatiga yuqori baho berishgan. O‘z o‘rnida rus olimlari I. M. Sechenov, I. P. Pavlov, I. N. Mechnikov, P. F. Lesgaftlar jismoniy mashqlarga, jumladan, gimnastika

mashqlariga katta ahamiyat berib, «bu mashqlarning hayotiy faoliyat hamda ish unumdorligini oshirishini, organizmning kasallikka chidamliligini tarbiyalash va faol dam olishning eng yaxshi vositasi», deb tan olishgan. Sportning bu turi bilan hamma bolalar-u kattalar, keksalar-u yoshlar, jismonan chiniqqanlar, jismoniy tayyorgarligi yuqori bo‘lganlar-u va endi boshlovchilar, sog‘lom kishilar-u kasallikka chalinganlar ham shug‘ullanishi mumkin [1].

Gimnastika bilan maktabgacha tarbiya muassasalarida, umumta’lim maktablarida, o‘rta maxsus va oliy ta’lim maskanlarida, ko‘ngilli sport jamiyatlarida, ishlab chiqarish korxonalarida, davolash va dam olish uylarida, sanatoriylarda va harbiy qismlarda shug‘ullanishadi. Gimnastika odamni estetik tarbiyalashning samarali vositasi hisoblanadi. Mashqlarni bajarish va namoyish etish texnikasi gimnastikaga xos uslub talab qiladigan darajada mukammal bo‘lishi uchun harakatlar ravon va ifodali bo‘lishi, mashq bajaruvchining harakatlari tomoshabinga yoqadigan, nafis bo‘lishi kerak. Gimnastika mashqlari natijasida shug‘ullanuvchining qaddi-qomati kelishgan bo‘ladi. Gavda tuzilishidagi nuqsonlar bartaraf etiladi. Gavdaning ayrim qismlari rivojlanishida, umuman, tana shakllanishida mutanosiblikka erishiladi [2].

Tadqiqotning ishining maqsadi. Gimnastikaning pedagogik jarayondagi o‘rni yuksakdir. U bilan shug‘ullanuvchilar ongli ruhda, faollik va mehnatga ijodiy munosabatda bo‘lishi bilan ajralib turishadi. Mashg‘ulotlarning qat’iy, bir tartibda olib borilishi, ta’lim jarayoni shug‘ullanuvchilarning maksimal faolligini tashkil etish ularni intizomli qilib tarbiyalaydi. Gimnastika aqliy ta’lim bilan jismoniy tarbiya birligining yorqin namunasidir. Qo‘llaniladigan uslublar sportchilarning intellektual faoliyati faolligini rag‘batlantirish imkonini beradi. Markaziy asab tarmoqlarining moyilligini, uning mushak faoliyatining turli holatlariga moslasha olish qobiliyatini shakllantirishga yordam beradi.

P. F. Lesgaft gimnastikaning boshlang‘ich va o‘rta ta’lim maktabidagi ahamiyatining o‘rnini belgilab, bunday degan edi: «Aqliy va jismoniy ta’lim o‘zaro shunchalik chambarchas bog‘lanib ketadiki, natijada, ular maktabning ajralmas maqsad va vazifasini tashkil etadi, chunki har qanday bir yoqlama tarbiya, ta’lim berishdagi uyg‘unlikni buzadi, albatta, barkamol inson bo‘lib shakllanish uchun sharoit yaratib bermaydi» [3].

Gimnastika – bu turli xil jismoniy mashqlarni o‘z ichiga olgan va tananing harakat qobiliyatini yaxshilashga qaratilgan faoliyat turidir. U ko‘pincha maxsus uskunalar yoki shaxsiy kuch orqali amalga oshiriladi va tana holatini yaxshilash, moslashuvchanlikni oshirish va mushaklarni mustahkamlashga yordam beradi. Gimnastikaning turli shakllari mavjud bo‘lib, ular umumiy jismoniy tayyorgarlikni oshirish, harakatlarning koordinatsiyasini yaxshilash, jismoniy chidamlilikni kuchaytirish va stressni kamaytirishga yordam beradi.

Tadqiqotning ishining vazifasi. Gimnastika, birinchi navbatda, sog‘lom turmush tarzini shakllantirishda katta ahamiyatga ega. Sog‘lom turmush tarzi jismoniy faollik, to‘g‘ri ovqatlanish, yomon odatlardan voz kechish va psixologik barqarorlikni o‘z ichiga oladi.

Gimnastika mashqlari quyidagi foydalarni taqdim etadi.

1 jadval

Tanadagi elastiklikni oshiradi:	Gimnastika mashqlari tana moslashuvchanligini yaxshilashga yordam beradi. Bu mushaklarning cho‘zilishiga, bo‘g‘imlarning erkin harakatlanishiga imkon yaratadi, natijada tananing harakat

	qobiliyati ortadi.
Mushaklarni mustahkamlaydi:	Gimnastika tana mushaklarini faol ishlatish orqali kuchaytiradi. U nafaqat yirik mushak guruhlarini, balki kichik mushaklarni ham rivojlantiradi, bu esa tananing umumiy kuchini oshiradi.
Metabolizmni tezlashtiradi:	Jismoniy faoliyatni doimiy ravishda amalga oshirish, shu jumladan gimnastika mashqlari, metabolizmni yaxshilaydi, bu esa tana vaznini boshqarishga, ortiqcha yog‘ni yo‘qotishga yordam beradi.
Yurak va qon-tomir tizimining sog‘ligini yaxshilaydi:	Gimnastika, yurak-qon tomir tizimining faoliyatini qo‘llab-quvvatlashga yordam beradi. Mashqlar yurakni mustahkamlash, qon aylanishini yaxshilash va qon bosimini normallashtirishga yordam beradi.

Ruhiy va hissiy salomatlikka ta’siri. Gimnastika nafaqat jismoniy salomatlikni yaxshilash, balki ruhiy va hissiy holatni ham yaxshilaydi. Doimiy jismoniy faoliyat organizmda endorfinlar – baxt gormonlarini ishlab chiqarishni rag‘batlantiradi. Bu esa kayfiyatni ko‘taradi, stress va xavotirni kamaytiradi, umuman olganda, insonning psixologik holatini yaxshilaydi.

Bundan tashqari, gimnastika orqali tana bilan birgalikda ruhiy ahvolni ham nazorat qilish mumkin. Ushbu mashqlar bir necha daqiqa davomida o‘zini diqqatni jamlashga va ichki muvozanatni tiklashga imkon yaratadi.

Gimnastikaning turli shakllari. Gimnastikaning ko‘plab turli shakllari mavjud bo‘lib, ular har xil ehtiyojlar va maqsadlar uchun mos keladi. Ba’zi mashqlar yengil va ko‘proq uzilishlarni bartaraf etishga qaratilgan bo‘lsa, boshqalari mushaklarning kuchayishini ta’minlashga, tananing mustahkamligini oshirishga yordam beradi.

Dastlabki gimnastika: Ushbu mashqlar yangi boshlovchilar uchun qulay bo‘lib, harakatlar oddiy va yengil.

Funktsional gimnastika: Bu turdagi mashqlar tana harakatining keng qamrovini rivojlantirishga qaratilgan bo‘lib, kundalik faoliyatni yaxshilashga yordam beradi.

Ballet yoki akrobatika: Musiqa va harakatlarni birlashtirgan ushbu turdagi gimnastika tana moslashuvchanligini oshiradi va koordinatsiyani yaxshilaydi.

Gimnastika mashqlarini qanday amalga oshirish kerak?

Gimnastika mashqlarini bajarishda ayrim qoidalarga rioya qilish muhim:

Isinish va sovutish: Mashq qilishdan oldin tanani isitish, keyin esa sovutish kerak. Bu jarayon tananing jarohat olish xavfini kamaytiradi va mushaklarning tiklanishiga yordam beradi.

Doimiylik: Gimnastika mashqlarini muntazam ravishda bajarish juda muhim. Haftada 3-4 marta mashq qilish, tananing umumiy holatini yaxshilashga yordam beradi.

Har bir mashqni to‘g‘ri bajarish: Gimnastika mashqlarini noto‘g‘ri bajarish jismoniy jarohatlarga olib kelishi mumkin. Shuning uchun mashqlarni to‘g‘ri va ehtiyotkorlik bilan bajarish lozim.

Sog‘lom turmush tarzi va jismoniy mashqlar bilan shug‘ullanishda gimnastika mashqlarining ahamiyati. Sog‘lom turmush tarzi har bir insonning farovonligi va uzoq umr ko‘rishining asosi hisoblanadi. Sog‘lom turmush tarzining muhim tarkibiy qismlaridan biri bu muntazam jismoniy mashqlar bilan shug‘ullanishdir. Jismoniy mashqlarning ko‘plab turlari mavjud bo‘lib, ulardan biri gimnastika mashqlaridir.

Gimnastika mashqlari nafaqat tanani chiniqtirish, balki ruhiy holatni yaxshilashda ham muhim rol o‘ynaydi.

Gimnastika mashqlarining foydalari:

Tanani chiniqtirish: Gimnastika mashqlari mushaklarni mustahkamlaydi, egiluvchanlikni oshiradi va tana muvozanatini yaxshilaydi.

Yurak-qon tomir tizimini mustahkamlash: Muntazam gimnastika mashqlari yurak-qon tomir tizimini mustahkamlaydi, qon bosimini normallashtiradi va yurak xastaliklari xavfini kamaytiradi.

Ruhiy holatni yaxshilash: Gimnastika mashqlari stressni kamaytiradi, kayfiyatni ko‘taradi va ruhiy tetiklikni ta’minlaydi.

Immunitetni oshirish: Muntazam gimnastika mashqlari immunitet tizimini mustahkamlaydi va organizmning kasalliklarga qarshi kurashish qobiliyatini oshiradi.

Vaznni nazorat qilish: Gimnastika mashqlari kaloriyalarni yoqishga yordam beradi va ortiqcha vazndan xalos bo‘lishga ko‘maklashadi.

Koordinatsiya va muvozanatni rivojlantirish: Gimnastika mashqlari koordinatsiya va muvozanatni rivojlantirishga yordam beradi, bu esa kundalik hayotda va sportda muhim ahamiyatga ega.

Suyaklarni mustahkamlash: Gimnastika mashqlari suyaklarni mustahkamlaydi va osteoporoz xavfini kamaytiradi.

Xulosa. Gimnastika mashqlari sog‘lom turmush tarzini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. U nafaqat tanani sog‘lomlashtiradi, balki ruhiy holatni yaxshilaydi, stressni kamaytiradi va umumiy hayot sifatini oshiradi. Har bir insonning hayotiga gimnastika kiritilishi, uning jismoniy va ruhiy salomatligini yaxshilashda katta foyda keltiradi. Gimnastika mashqlari sog‘lom turmush tarzining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Muntazam gimnastika mashqlari bilan shug‘ullanish tanani chiniqtirish, ruhiy holatni yaxshilash va umuman salomatlikni mustahkamlashga yordam beradi. Har bir inson o‘zining yoshi, jismoniy holati va qiziqishlariga mos keladigan gimnastika mashqlari turini tanlab, muntazam ravishda shug‘ullanishi kerak. Gimnastika mashqlari sog‘lom turmush tarzining muhim tarkibiy qismi bo‘lib, ko‘plab jismoniy va ruhiy salomatlik uchun foyda keltiradi. Gimnastika kuch, moslashuvchanlik, muvofiqlashtirish va muvozanatni oshirib, umr bo‘yi jismoniy tayyorgarlik va farovonlikka yordam beradi [4]. Gimnastika harakatlarini muntazam mashg‘ulotlarga kiritish jismoniy shaxslarga sog‘lom tanani saqlashga, aqliy ravshanlikni oshirishga va intizomni rivojlantirishga yordam beradi. Strukturaviy o‘quv dasturlari yoki uyda oddiy mashqlar orqali bo‘lsin, gimnastika faol va sog‘lom hayot kechirish uchun ko‘p qirrali va samarali yondashuvni taklif etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Eshtayev A. K. Gimnastika. O‘quv uslubiy qo‘llanma. –Toshkent, 2015. 124-bet

2. Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni rivojlantirish Konsepsiyasi 13-fevral 2019. 42-bet.

3. Morgunova I. I. Gimnastika va uni o‘qitish metodikasi. O‘quv qo‘llanma. – Tashkent: Ilm-ziyo. 2011.

4. Bolbekov E. A. Talabalarning sog‘lom turmush tarzi mazmunini kreativ yondashuvlar asosida takomillashtirish. Образование наука и инновационные идеи в мире, 39(1), 2024. 206-211-bet.

TYUTORLAR FAOLIYATI VA ULARGA QO‘YILGAN TALABLAR

Nazarqulova Gulnora Ablakulovna, GulDU Boshlang‘ich ta’lim uslubiyoti kafedrasi o‘qituvchisi (PhD), dotsent.
e-mail: gulnoranazarqulova920.@gmail.com.

Annotatsiya. Ushbu maqolada tyutorlar faoliyati va ularga qo‘yilgan talablar haqida so‘z boradi. Tyutorlar bugungi kunda oliy ta’lim tizimidagi talabalarga eng yaqin va ular haqida yaxshi biladigan kishilardir. Yaxshi tyutor – bu talabaga yelkadosh murabbiy va mohir konsultantdir. U talabaning kuchli taraflarini, zaxiradagi qobiliyatlarini yuzaga chiqarib, kamchiliklari ustida ishlashni o‘rgatishi haqida ma’lumotlar keltirilgan.
Kalit so‘zlar: tyutor, talaba, oliy ta’lim, psixologik, ruhiy va jismoniy tarbiya;

ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ УЧИТЕЛЕЙ И ТРЕБОВАНИЯ К НИМ

Абстрактный. В статье рассматривается работа репетиторов и предъявляемые к ним требования. В современной системе высшего образования преподаватели – это самые близкие к студентам люди, которые знают их лучше всех. Хороший репетитор – это поддерживающий тренер и опытный консультант для ученика. Сообщается, что он учит студентов раскрывать свои сильные стороны и резервные способности, а также работать над своими слабостями.
Ключевые слова: преподаватель, студент, высшее образование, психологическое, умственное и физическое воспитание;

TUTORS' ACTIVITIES AND REQUIREMENTS FOR THEM

Abstract. This article discusses the activities of tutors and the requirements placed on them. Tutors are the closest and most knowledgeable people to students in the higher education system today. A good tutor is a mentor and a skilled consultant who works with the student. He or she teaches the student to reveal their strengths, reserve abilities, and work on their weaknesses.
Keywords: tutor, student, higher education, psychological, mental and physical education;

Kirish. Har bir oliy ta’lim muassasining talabasi uning farzandi kabidir. Ota-ona o‘z bolalari uchun doimo qayg‘urgani singari bugun ta’lim muassasalari ham talabalarning ilm olishi, kelgusi faoliyatini to‘g‘ri belgilashiga mas’ullikni his etadi. Talabaga ta’lim berish bilan birga, darsdan bo‘sh vaqtida nimalar bilan bandligi, qanday muhitda yashashi, uning fanlardan tashqari qiziqishlari – hammasi oliy o‘quv yurti uchun muhim.

Xo‘sh, bu jarayonda o‘tgan davrlarda oliy ta’lim muassasasi qanday ishlarni amalga oshirgan? Ma’lumki, yaqin yillargacha OTMlarda murabbiylik tizimi asosida ish olib borilardi. Bunda murabbiylik tizimi professor-o‘qituvchi xohlasa-xohlamasa majburiy yuklama sifatida akademik guruhlarga biriktirilgan. Bu majburlov yuklamasidan tashqari, o‘qituvchi sifatida o‘zining katta mas’uliyati ham turgan. O‘qituvchi bir kunda uch para darsi bo‘lsa, biriktirilgan guruhlarga faqatgina tanaffus

vaqtida eshikdan mo‘ralab yoki guruh sardoridan shunchaki “kim bor, kim yo‘q” ligini bilish, “nima muammo bor” deb so‘rashdan ko‘p uzoqlashmagan.
Bugun ham oliy o‘quv yurtlarida talabalarning mustaqil ta’lim olish faoliyatini rivojlantirishga ko‘maklashuvchi murabbiylar ish olib bormoqda. Biroq endilikda ular guruh murabbiyi emas, balki tyutor maqomida. Tabiiyki, ularning vazifalari ham avvalgilaridan farq qiladi.

Respublika davlat oliy ta’lim muassasalarida tyutorlik tizimi joriy qilinganiga ko‘p bo‘lmadi. Prezidentimizning 2019-yil 8-oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni hamda shu asosida qabul qilingan Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirining 2021-yil 30-sentyabrdagi buyrug‘i va Nizomi yangicha tizimga asos bo‘lgan edi.

Avvalambor, “tyutor” (“tutor”) tom ma’noda ustoz, murabbiy, instruktor – yo‘l ko‘rsatuvchi ma’nolarida qo‘llaniladi. Tyutor birinchi navbatda, ma’lum bir sohaning mutaxassisi bo‘lib, uning asosiy vazifasi talabaga muayyan bilim va ko‘nikmalar berishdan iborat. Kengroq ma’noda esa, tyutor talabaga o‘quv jarayoni davomida o‘z salohiyatini namoyon qilish, o‘zini yanada yaxshiroq anglash, o‘qish va hayotda to‘g‘ri qaror qabul qilish va tanlashni o‘rgatadi. U talabaga har bir qadam va harakatlarining oqibatlarini anglash, hayotda o‘z qiziqishlarini topishga yordam beradi.

Buning uchun tyutor o‘z tarbiyachilarining qiziqish va moyilliklarini, muammo va qiyinchiliklarini chuqur tahlil qiladi. U talabaning atrofidagi intellektual va psixologik muhitni sinchkovlik bilan o‘rganadi. Bir so‘z bilan aytganda, tyutor o‘quvchi va ta’lim jarayoni o‘rtasidagi bog‘lovchi kuch hisoblanadi. Uning yordamida o‘qish qiziqarli va samarali jarayonga aylanishi lozim.

Tyutorlik usuli qadimgi Yunonistonda ham asosiy ta’lim jarayoniga yordam sifatida yo‘lga qo‘yilgan edi. Hozirda dunyoning ko‘plab mamlakatlarida tyutorlik uchun maxsus o‘qitiladi, diplom beriladi. Masalan, Rossiyada pedagogika sohasiga ixtisoslashtirilgan oliygohlarda bakalavr va magistratura bo‘yicha maxsus tyutorlik kurslari bor. Tyutorlik markazlari va assotsiatsiyalar faoliyat yuritadi. Bu ko‘hna usul zamonaviy dunyoda turli shakllarda (formal va noformal, o‘quv xonasida yoki masofaviy tarzda) qo‘llaniladi. Tyutorlik, albatta, formal o‘quv jarayonidan farq qiladi. U yengilroq, moslashuvchan shaklda amalga oshiriladi [1].

Tadqiqot metodologiyasi va adabiyotlar tahlili. Tyutorlar – bu yuksak mas’uliyat egalari hisoblanadi. Zero, tyutor dunyoqarashi endi shakllanayotgan talaba bilan muntazam tarzda ishlaydi. Bunday mutaxassisning asosiy vazifasi boshqa odamga o‘qishni samarali va qiziqarli jarayonga aylantirishga yordam berish. Tyutor ham butun guruh bilan, ham individual tarzda ishlashi kerak bo‘ladi. Ilmning qaysi sohalariga urg‘u berish, kelajakda kasb tanlash, kerak bo‘lsa, boshqa mutaxassislikka mo‘ljal olish, o‘qish va kundalik hayot o‘rtasida muvozanatni o‘rnatish, vaqtini menejment qilish masalalarida talabalarga ta’sir qilish ham tyutorning vazifasidir.

Yaxshi tyutor – bu talabaga yelkadosh murabbiy va mohir konsultantdir. U talabaning kuchli taraflarini, zaxiradagi qobiliyatlarini yuzaga chiqarib, kamchiliklari ustida ishlashni o‘rgatadi.

Hozirgi globallashuv sharoitida barcha sohalarning tayanchi, fundamenti – ta’limga borib taqaladi. Chunki aynan ta’lim dargohlaridan jamiyat uchun kerakli va uni boshqaradigan yetuk mutaxassislar yetishib chiqmoqda. Shu jihatdan, zamon talablariga mos, irodali, har tomonlama mulohazali, manfaatlari bunyodkorlik g‘oyasiga qaratilgan yosh kadrlarni tarbiyalash bugungi kun ta’lim muassasalari oldida turgan dolzarb vazifalardan sanaladi.

Tyutorlik tizimi ham ana shu maqsadlarga yo‘naltirilgan. U oliy ta’lim muassasasida tarbiya jarayonini tizimli va samarali amalga oshirishning muhim shakli va vositasidir. Tyutor esa talabalarning shaxsiy rivojlanishiga, ta’lim

muassasasi, respublika va xalqaro miqyosdagi tanlov va olimpiadalarda munosib ishtirok etishiga, shuningdek, ularning bo‘sh vaqtlarini mazmunli o‘tkazishiga ko‘maklashuvchi pedagog bo‘lib, u yigit-qizlarni kasbga yo‘naltirish, Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash, turli ilmiy to‘garaklarga jalb etish hamda muammo va kamchiliklarini o‘rganib, ularga atroflicha echim topish bilan shug‘ullanadi.

Har qanday yangilik kabi bu yo‘nalishning ham kelib chiqish tarixi bor. Ko‘p manbalarda ta’kidlanishicha, dastlabki tyutorlar XII asrda Angliyaning Oksford va Kembrij universitetlarida paydo bo‘lgan. Atama ingliz tilidan olingan va “uy o‘qituvchisi, o‘qituvchi, murabbiy, vasiy” degan ma’nolarni anglatadi. “Tyutorlik” so‘zi insonning shaxsiy ta’limini qo‘llab-quvvatlashni anglatadi. Bu juda nozik, “xususiy” ish faoliyatidir.

Rus tadqiqotchisi N.V. Ribalkinaning fikriga ko‘ra, XVI asr oxiriga kelib tyutor universitet ta’limi tizimida qo‘l ostidagi talabalarning tarbiyasiga mas’ul bo‘lgan muhim shaxsga aylanadi. XVII asrda tyutor faoliyati ko‘lami yanada kengayib, endilikda unga ta’lim berish vazifalari ham yuklanadi. U talabaga qaysi amaliy mashg‘ulot va ma’ruzalarga kirishni aniqlab beradi, talabalar darslarni qoldirmay yaxshi o‘qishlari va imtihonlarga tayyor bo‘lishlarini nazorat qilib boradi. XVII asrdan boshlab tyutorlik tizimi rasman ingliz oliy ta’limi tizimining ajralmas qismi sifatida tan olina boshlagan [2].

Bugungi kun ma'lumotlariga qaraganda, zamonaviy Oksfordda 90 foiz, Kembrijda esa 75 foiz tyutorlar 1 yoki 2 talaba bilan ish olib boradi. Ular maxsus ma’lumotga ega bo‘lmasalarda, talabalarga ham o‘qish davomida, ham ta’til paytida rahbarlik qilish, ma’nan ustozlik qilish kabi vazifalarga mas’ul.

Aniqrog‘i, tyutor ishining asosiy shakli talaba bilan individual va jamoada ishlash yoki unga ta’lim-tarbiya maslahatchisi bo‘lishdan iborat. Tyutorga yetakchilik, tashkilotchilik, tashabbuskorlik, intiluvchanlik, notiqlik mahorati, muloqatga kirishish, zamonaviy axborot-kommunikatsiya va innovatsion pedagogik texnologiyalar bilan ishlash bo‘yicha malakaga ega bo‘lish, ta’lim-tarbiya jarayoniga doir normativ-huquqiy hujjatlarni bilish kabi bir qator umumiy talablar qo‘yiladi.

Ma’lumki, talabalar birinchi bosqichga qabul qilinishi yoki o‘qishini ko‘chirish orqali kelgani bois, u bilan bog‘liq ma’lumotlar bazasi shakllantirilmagan bo‘ladi. Har bir tyutor o‘ziga biriktirilgan akademik guruhdagi talabalari bilan individual o‘tirib, universitet yoki dekanat tomonidan berilgan ma’lumotlar shkalasi, jamlanma shakli bo‘yicha talabaning ism-sharifidan tortib toki uning yashash manzili, qiziqishlari, yaqin qarindoshlari, umuman, barcha ma’lumotlarni so‘rab, belgilangan ma’lumotlar bazasini to‘ldiradi. Bu ishda tyutorning mas’ulligini yanada oshirish ahamiyatli. Chunki, talabaning berilgan ma’lumoti aniqligi, to‘g‘ri keltirilgani, rasmiylashtirishda xatolikka yo‘l qo‘yilmasligi e’tiborni kuchaytirishni talab qiladi.

Ba’zan talabalar, ayniqsa, birinchi bosqich va hatto katta kurslarda oliygohning shart-sharoitidan xabardor emasligiga guvoh bo‘lamiz. Mana shunday paytda unga yo‘l ko‘rsatib turuvchi shaxs kerak bo‘ladi. Talabalar turar joylari, axborot resurs markazi, talabaning darsdan bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etishga yo‘naltirilgan turli to‘garak, klublar, sport majmuasi, oliygoh muzeyi, madaniyat va musiqa zallari va boshqalar bilan yaqindan tanishtirish lozim. Yigit-qizlar dastlabki o‘n kunda qiziqishlari doirasida zarur binolar, shart-sharoitlar bilan yaqindan tanishib borishiga erishish kerak. Bu uning dastlabki kunlardanoq o‘qish va izlanishlarini bir maromda tashkil etish va davom ettirish imkoniyatini yanada kengaytirishga xizmat qilada.

Oliygohlarda talabalar qiziqishlarini inobatga olish ham muhim ahamiyatga ega. Bugungi zamonaviy tizim tyutorlari talabaning bo‘sh vatini maqsadli tashkil etishda vaqtbay emas balki soatbay, minutbay mexanizmini qo‘llagan holda yangicha ruhdagi, motivatsion, samarali tashkiliy-amaliy ishlarni bajarib kelmoqda. Albatta, har bir talabani to‘g‘ri yo‘naltirish, ularning bo‘sh vaqtini samarali va natijador qilib tashkil etish jamiyat uchun yanada bilimli, salohiyatli kadr etishtirishga xizmat qiladi.

Ma’lumki, davlatimiz, oliy ta’lim muassasalari tomonidan nomdor stipendiyalar, grantlar joriy qilib borilmoqda. Prezident, Navoiy, Beruniy, Ibn Sino, Islom Karimov (va boshqa) nomidagi nomdor stipendiyalar shular jumlasidan. Yana, xalqaro yoki respublika miqyosidagi grantlar, loyihalarda ishtirok etib, g‘olib bo‘lish imkoniyati ham mavjud. Buning uchun talabani to‘g‘ri yo‘naltirib, u bilan tizimli ishlash kerak. Bu vazifalar ham tyutorning zimmasiga tushadi [3].

Ko‘plab tadqiqotchi va mutaxassislar tyutorlikni qo‘llab-quvvatlash uzluksiz ta’lim tizimida o‘ziga xos murabbiylikni rivojlantirishning eng samarali shakllaridan biri, deb ta’kidlamoqda. Ayni paytda tyutorlik ilg'or pedagoglar tomonidan tatbiq etilayotgan innovatsion pedagogik faoliyatlardan biri sifatida ham e’tirof etilyapti. Shu bois, yurtimizda tyutorlik faoliyatiga qiziqishning ortishiga ko‘p omillar sabab. Shulardan biri, oliy ta’lim muassasalarida tyutorlik texnologiyalarini qo‘llash ehtiyojining yuzaga kelgani bo‘lsa, yana biri, tyutorlik g‘oyalari davlat ta’lim dasturlariga kiritila boshlanganidir.

Bu nima degani? Bilamizki, akademik guruh talabasi va fan o‘qituvchisi o‘rtasida o‘zaro bir-birini tushunmaslik holatlari yuzaga kelib turadi. Bunday vaziyatda tyutordan faollik ya’ni, talaba bilan individual suhbat natijasida vaziyatga aniqlik kiritish talab etiladi. So‘ng, holatning yukiga qarab, o‘qituvchi, fakultet dekanati yoki ota-onasiga xabar beriladi, ular bilan fikr almashiladi.

Tahlil va natijalar. Bu bir tomondan, muammo kattalashib ketishining oldini olsa, boshqa tomondan, oliy ta’lim muassasasida turli illatlar – qo‘pol muomala, ta’magirlik, shaxsni haqorat qilish, zo‘ravonlik, ichki tartib va odob-axloq qoidalari kodeksi talablariga bo‘ysunmaslik kabilar yuzaga kelishiga to‘siq bo‘ladi. O‘z navbatida, bu jarayonlarda tizim xodimlari mamlakatimizda olib borilayotgan “Korruptsiyasiz soha” tartibotida va oliy ta’lim muassasalarida sog‘lom ma’naviy muhitni ta’minlashdek ustuvorlik berilgan vazifalarni amalga oshirishga o‘z hisasini qo‘shib kelmoqda. Buni “Tyutor profilaktikasi” desa ham bo‘ladi.

Talaba qiyofasi. Bu ham tyutorning og‘riqli masalalaridan biri. Chunki, o‘spirin yosh va undan o‘tish vaqtida bo‘lgan talabalarga yagona kiyim yoki cheklovlarga qaratilgan tartibli, odobli kiyinish gohida malol kelishi mumkin. Intizomni buzish esa uning tyutori universitet rahbariyati, dekanat yoki boshqa mutasaddilardan tanbeh eshitishiga olib keladi. Shu bois, tyutor har bir oliy ta'lim muassasalarida qabul qilingan odob-axloq qoidalari kodeksi va ichki tartib-qoidalar asosida talabani tartibga chaqirib turishi, tashqi ko'rinish borasida ham maslahatlar berishi lozim. Jarayonda samarali metodlar orqali talabalarning dunyoqarashini shakllantirish, psixologik portretini yaratgan holda ish olib borishi muhim vazifalardan sanalanadi.

O‘tgan yilning 17-noyabridan 15-dekabriga qadar hududlarda respublikadagi 140 dan ortiq oliy ta’lim muassasalari tyutorlari va dekan o‘rinbosarlari uchun tashkil etilgan o‘quv-seminar va seminar-treninglarda trenerlar safida ishtirok etdim. Jarayonlar juda qizg‘in va samarali o‘tdi. Yangi tashkil etilgan tizimda faoliyat boshlagan tyutorlar o'z vazifalarini bajarishda dastlab yoki tez-tez uchrab turadigan masalalar hamda ularning yechimlari, dekan muovinlarining tyutorlar bilan hamkorlikda ishlarni qanday tashkil etishi borasidagi amaliy mexanizmlar zamonaviy metodlar orqali muhokama qilindi, o‘rganildi.

Seminarlarda tyutorlar tomonidan muloqatlar jarayonlari va maxsus so‘rovnoma orqali tizimni yanada yaxshilash, amaliyotga uchraydigan turli muammoli holatlar, masalalar, amaliy echimini kutayotgan ko‘plab savollar, taklif va tavsiyalar olindi. Masalan, tyutorlarlarning hududiy muloqot maydonchasi va tajriba almashinuvlarini yo‘lga qo‘yish, moddiy-ma’naviy rag‘batlantirish tizimini kuchaytirish, “Yil tyutori”, “eng faol tyutor”, “eng namunali tyutor” kabi bir qancha naminatsiyalardan iborat hududiy, respublika bosqichida o'tkaziladigan ko‘rik-tanlovlarni yo‘lga qo‘yish, tyutorlik maqomi va darajasini yuksaltirishga oid me’yoriy asoslarni yaratib borish kabi takliflar shular jumlasidan.

Umuman, jarayonlarda tyutorlik vazifasiga bilimli, dunyoqarashi keng, pedagogik va psixologik tajribaga ega munosib xodimlar tanlanganiga guvoh bo‘ldik. O‘ylaymanki, yangi tashkil etilgan tizim vakillari oldiga qo‘yilgan vazifalarni uddalayapti. Eng asosiysi, ular talaba yoshlarning yaqin ko'makchisi, ta'lim jarayonlarida xolis yo‘l ko‘rsatuvchisiga aylanmoqda.

Shaxsning hamkorlik faoliyatini ta’minlovchi asosiy mexanizm ularning munosabatlarini qanday tarzda tashkil etilganligi, muloqot o‘rnatish malakasi, muloqot takti, munosabatlarning insonparvarlik xususiyatiga egaligi, muomalaga qiziqishlari va boshqa jihatlar bilan ham belgilanadi. Tadqiqotimizda hozirgi zamon Oliy ta’lim muassasasi tyutori bilan talabalarining muloqot maromiga ularning hamkorligini shartlovchi omillardan biri sifatida tan olish mumkin. Biz tadqiqotimizda tyutor bilan talabalar hamkorlik faoliyatida ustozning bu munosabatlardagi umumiy timsolini yoritishga imkon beradigan T. Liri metodikasidan foydalandik. Ushbu metodikadan foydalanishimizdan maqsad tyutor bilan talabalarning hamkorlik faoliyatida ustoz shaxsining roli va ularning o‘zaro munosabatidagi yetakchi omillarning ahamiyatini aniqlashdan iborat edi. Shuni hisobga olib, biz metodikaning tavsifidan o‘rin olgan yetakchi omillar yordamida pedagogika Oliy ta’lim muassasasi sub’ektlar o‘rtasidagi munosabatlar xususiyatlarini o‘rgandik. Biz tyutorning talabalar bilan muloqotga kirishishga qobiliyatliligini, ularning munosabat o‘rnatish imkoniyatlarini baholashga harakat qildik. Muloqot maromi va taktiga ko‘ra, tyutor talabalariga nisbatan yuqori darajadagi muloqot malakasiga ega bo‘lishi lozimdir. Tadqiqotimizda shunday bir holatni kuzatdikki, bu voqelik esa tyutor bilan talabalar munosabatida ishonchli biron-bir farqning kuzatilmayotganligini ko‘rsatdi. Agar sub’ektlar munosabatida bir xillik kuzatiladigan bo‘lsa, buni ijobiy holat sifatida e’tirof etish kerak, aksincha muloqot darajalarining o‘rtacha qiymat atrofida ekanligini e’tirof etishni ancha mushkullashtiradi. Tyutorning muloqotga qobiliyati mabodo talabalarnikidan ortda qoladigan bo‘lsa, u holda uning shogirdlariga ta’sir ko‘rsatish imkoniyati shaxslilik mazmunidan saboq oluvchilarning ta’sir doirasiga tushib qolishidan dalolat beradi. Tyutorni talabalar bilan munosabatida koordinatsiya yoki subordinatsiya o‘rnatishning ham o‘z maromi mavjud degan xulosa chiqarishga imkon beradi. Tyutorning talabalar bilan ta’lim jarayonidagi muloqot doirasi faqat kognitiv, affektiv yoki xulqiy jihatdan baholanishi eng maqbul variant sanaladi [4].

Xulosa. Talabalarning darsni o‘zlashtirish holatini tahlil qilish va darsdan bo‘sh vaqti mazmunli o‘tishini ta’minlash, ijtimoiy (oilaviy) holatidan doimiy xabardor bo‘lish hamisha tyutorning diqqat markazida bo‘ladi. U o‘quvchisining nimalarga qiziqishini aniqlaydi, muvaffaqiyati va muvaffaqiyatsizligi sabablarini tahlil qiladi, ixtisoslashtirilgan va qo‘shimcha kurslarni tanlashda

Shuningdek, talabalar turar joylari, ijara va xususiy xonadonlarda yashovchi yoshlarning yashash manzillariga muntazam borib, u erda yaratilgan sharoit va muammolarni o‘rganadi. Talabalarning yashash va o‘qish sharoitini yaxshilashga ko‘maklashadi. Aniqroq qilib aytganda Tyutor talabaga ham ota, ham ona,kezi kelganda esa do‘st-sirdosh ham bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mahkamov U, Mahkamov D, Mahkamova N, Ismoilova D Tyutor pedagogik faoliyatini tashkil etish. – Toshkent, 2022. “Zebo Print” 79-97 betlar.

2. Авлаев О. У., & Бутаева, У. А. Талаба психологик камолоти масаласи. Academic research in educational sciences, 2(5). 2021. – В. 4-11.

3. Авлаев, О. У. Талабалар камолотида ижтимоий интеллектнинг гендер фарклари “Психология” илмий журнал, 2021. – Б. 344-348.

4. https://abt.uz/blog/yuksak-masuliyat-egalari-tyutorlar-haqida

TALABALARDA MA’NAVIY-AXLOQIY FAZILATLARNI SHIHOBIDDIN SUHRAVARDIY FALSAFIY G‘OYALARI ASOSIDA RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOIY-PEDAGOGIK ZARURATI

Raximova Gularo Ibragimovna, RTU pedagogika va aniq fanlar kafedrasi katta o‘qituvchisi
e-mail: raximovagulora1976@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Suhravardiy falsafasining ijtimoiy-pedagogik ahamiyati tahlil qilinib, uning zamonaviy ta’lim jarayonida qanday qo‘llanilishi mumkinligi yoritiladi. Ayniqsa, Markaziy Osiyo hududida islom falsafasiga bo‘lgan tarixiy va madaniy bog‘liqlik nuqtayi nazaridan bu g‘oyalarni ta’lim jarayoniga integratsiyalash muhim masala sifatida ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, Suhravardiy ta’limoti asosida talabalarning axloqiy qadriyatlarini shakllantirish bo‘yicha zamonaviy pedagogik yondashuvlar va ta’lim uslublari taklif etiladi.

Kalit so‘zlar: Ma’naviy-axloqiy tarbiya, Shihobiddin Suhravardiy, Ishroqiy falsafa, ijtimoiy-pedagogik zarurat, talabalar ta’limi, Markaziy Osiyo, ma’naviyat, axloqiy tafakkur.

СОЦИАЛЬНО-ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ ПОТРЕБНОСТЬ В РАЗВИТИИ ДУХОВНО-НРАВСТВЕННЫХ КАЧЕСТВ УЧАЩИХСЯ НА ОСНОВЕ ФИЛОСОФСКИХ ИДЕЙ ШИХАБИД-ДИНА СУХРАВАРДИ

Аннотация: В статье анализируется социально-педагогическое значение философии Сухраварди и освещаются возможности ее применения в современном образовательном процессе. Интеграция этих идей в образовательный процесс считается важным вопросом, особенно в Центральной Азии, учитывая историческую и культурную связь с исламской философией. Также предлагаются современные педагогические подходы и методы обучения для формирования нравственных ценностей учащихся на основе учения Сухраварди.

Ключевые слова: Духовно-нравственное воспитание, Шихобиддин Сухраварди, философия Ишраки, социально-педагогическая необходимость, воспитание студентов, Центральная Азия, духовность, нравственное мышление.

THE SOCIAL-PEDAGOGICAL NEED FOR DEVELOPING SPIRITUAL-MORAL VIRTUES IN STUDENTS ON THE BASIS OF SHIHABID-DIN SUHRAVARDI'S PHILOSOPHICAL IDEAS

Abstract: This article analyzes the socio-pedagogical significance of Suhrawardi's philosophy and highlights its potential application in the modern educational process. In particular, from the point of view of the historical and cultural connection with Islamic philosophy in Central Asia, the integration of these ideas into the educational process is considered an important issue. Also, modern pedagogical approaches and teaching methods for the formation of students' moral values based on Suhrawardi's teachings are proposed.

Keywords: Spiritual and moral education, Shihobiddin Suhrawardi, Ishraqi philosophy, socio-pedagogical necessity, student education, Central Asia, spirituality, moral thinking.

Kirish. Talabalarning ma’naviy-axloqiy tarbiyasini shakllantirish zamonaviy ta’lim tizimining muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, u insoniylik, ijtimoiy mas’uliyat va axloqiy tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan. XII asrning yirik mutafakkiri va faylasufi Shihobiddin Suhravardiy tomonidan ilgari surilgan Ishroqiy falsafa inson ma’naviyatini yuksaltirish va bilim orqali axloqiy kamolotga erishish g‘oyalariga asoslanadi.Zamonaviy ta’lim tizimida talabalar faqat bilim olish bilan cheklanmay, balki ma’naviy-axloqiy jihatdan ham shakllanib borishi muhimdir. Ma’naviy-axloqiy tarbiya inson shaxsiyatining yetuklashishi, ijtimoiy mas’uliyat hissining ortishi va jamiyatda sog‘lom ijtimoiy muhit yaratishda muhim rol o‘ynaydi. Bugungi globalizatsiya sharoitida axloqiy qadriyatlarning yo‘qolib borish xavfi ortib borayotganligi sababli, talabalarga axloqiy tafakkurni shakllantirish va ularga ezgulik, insonparvarlik, odillik kabi fazilatlarni singdirish ta’lim tizimining asosiy maqsadlaridan biriga aylanishi lozim.

Ma’naviy-axloqiy tarbiya yoshlarning shaxsiy va ijtimoiy hayotida muhim o‘rin tutadi. Bu jarayon talabaning o‘zini anglash, jamiyatga foydali bo‘lish, to‘g‘ri va adolatli qarorlar qabul qilish, o‘z harakatlari uchun mas’uliyatni his qilish kabi fazilatlarni rivojlantiradi. Ta’lim muassasalari talabalarga nafaqat ilmiy bilim, balki ularga hayotda duch keladigan axloqiy muammolarni hal qilishga yordam beradigan ko‘nikmalar ham berishi zarur. Shu sababli, axloqiy tarbiya talabaning faqat shaxsiy hayotiga emas, balki jamiyat taraqqiyotiga ham ta’sir ko‘rsatadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Shihobiddin Suhravardiy Sharq falsafasining yetuk vakillaridan biri bo‘lib, uning ilmiy merosi falsafa, irfon va tasavvuf sohalarini qamrab oladi. U tomonidan yozilgan “Avorif ul-maorif” asari bilish nazariyasi (gnoseologiya) va ma’rifat haqidagi ta’limotlar jihatidan muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolada Suhravardiyning gnoseologik qarashlari va “Avorif ul-maorif” asarining ma’naviy-ma’rifiy ahamiyati tahlil qilinib,Shihobiddin Suhravardiyning ilmiy merosi, “Avorif ul-maorif” asari va uning mohiyati, insonning ruhiy kamolotga yetish jarayoni, ma’rifatga erishishning bosqichlari va usullari, haqiqatni anglashning turli shakllari, zohiriy va botiniy bilim o‘rtasidagi bog‘liqlik tahlil qilinadi.

V. M. Nirsha o‘z tadqiqotlarida Abu Xafs Umar Shihobiddin Suhravardiyning dunyoqarashi va uning tasavvufga qaratilgan mufassal tahlillarini keltiradi. Suhravardiy tasavvufning ruhiy va amaliy jihatlarini o‘zaro bog‘liq holda o‘rganib, bu ta’limotining asosiy prinsiplarini belgilagan. Uning fikricha: tasavvuf nafaqat nazariy bilim, balki shaxsiy tajriba va irfon orqali aniqlanadi, ma’rifat nafaqat zohiriy ilm, balki botiniy idrok orqali shakllanadi, insonning kamolotga yetishi ruhiy poklanish va tajriba orqali amalga oshadi.

XII asrning yirik mutafakkiri va faylasufi Shihobiddin Suhravardiy tomonidan ilgari surilgan Ishroqiy falsafa inson ma’naviyatini yuksaltirish va bilim orqali axloqiy kamolotga erishish g‘oyalariga asoslangan.

Tadqiqot metodologiyasi. Suhravardiy falsafasi bevosita va abadiy sezgi uchun epistemologik rol o'ynaydi. U aniq peripatetiklarga qarshi qaratilgan va Aristotelgacha bo‘lgan davrning donishmandlari, xususan Platon bilan aniqlangan. Uning ingliz tilida bayon qilingan hikmat Al-Ishrak kitobining mavzusi “nur haqidagi fan” bo‘lib, Suhravardiy birinchi marta mistik mashqlar orqali tushungan, keyinchalik mantiqiy dalillar bilan qo‘llab-quvvatlangan va qadimgi odamlarning parallel tajribasi deb hisoblagan [1]. Ishroqiy falsafa – ma’naviy yuksalish va nuriy tafakkur asosida haqiqatni anglashga yo‘naltirilgan falsafiy yo‘nalish bo‘lib, insonni faqat tashqi dunyo bilimi orqali emas, balki ichki ma’rifat va ilohiy nur bilan

yuksaltirishni nazarda tutadi. Muallif insonning koinotdagi rolini muhokama qiladi. Kitobda morfologiya tavsifi va turli fanlarning qisqacha tarixi Islandiya dunyosi bo‘ylab tarqalgan manbalardan olingan illyustratsiyalar bilan birlashtirilgan. 160 dan ortiq rangli fotosuratlarni o‘z ichiga oladi. Suhravardiy falsafasiga ko‘ra, haqiqiy bilim faqatgina hissiy tajriba yoki mantiqiy tafakkur orqali emas, balki ichki yoritilganlik va ruhiy kamolot orqali hosil bo‘ladi.

Ishroqiy falsafa insonni kamolot sari yo‘naltiruvchi uch asosiy unsurga tayanadi:

Ilohiy nur va ma’rifat – inson qalbini yorituvchi ilohiy haqiqatlar orqali chinakam bilimga erishish.

Axloqiy poklik va ruhiy yuksalish – inson o‘z axloqini poklash va o‘zini tarbiyalash orqali yuqori ma’naviy bosqichlarga erishishi mumkin.

Bilim va tafakkur uyg‘unligi – inson ilmiy tafakkur bilan ruhiy ma’rifatni uyg‘unlashtirish orqali chin haqiqatga yetadi.

Bu falsafa orqali inson jamiyatda ezgulik va adolat tamoyillariga amal qiluvchi, ma’naviy barkamol shaxs sifatida shakllanadi. Suhravardiy inson ongini yorituvchi nur tushunchasini ilgari surib, haqiqiy bilim insonning ma’naviy poklanishi va axloqiy takomillashuvi orqali shakllanishini ta’kidlaydi. Unga ko‘ra, insonning ilohiy haqiqatga yaqinlashishi faqatgina zohiriy ilm va mantiqiy mulohaza bilan emas, balki ichki nurlanish va ruhiy tajriba orqali amalga oshiriladi.

Ishroqiy falsafa, ayniqsa, zamonaviy ta’lim jarayonida muhim o‘rin egallaydi, chunki u talabalarga nafaqat ilmiy bilim, balki axloqiy fazilatlarni singdirish orqali ularning ijtimoiy mas’uliyatini oshirish va haqiqatni anglash qobiliyatlarini rivojlantirish imkonini beradi.

Markaziy Osiyo hududi tarixiy jihatdan islom falsafasi bilan chuqur bog‘liq bo‘lib, bu mintaqa yirik mutafakkirlar, faylasuflar va ulamolar yetishtirgan. Abu Nasr Forobiy, Imom al-Buxoriy, Imom Termiziy, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yassaviy va Shihobiddin Suhravardiy kabi olimlarning ilmiy va ma’naviy merosi mintaqada islomiy tafakkurning rivojlanishida muhim rol o‘ynagan. Shu sababli, bu falsafiy merosni zamonaviy ta’lim jarayoniga integratsiyalash talabalarning ma’naviy-axloqiy tarbiyasiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Qadimgi Eron tasavvufida kosmik shimolda yorug‘lik tongini izlash tasavvufning amalga oshirishni izlashini anglatadi. Ushbu ruhiy sayohatda insonning ichki zulmatida paydo bo‘ladigan yorug‘lik – Shimoliy chiroqlar yoki yarim tunda Quyosh – bizni xudbinlik va moddiy mavjudotga qullikdan ozod qiladigan Haqiqatning xolis, ammo yorqin nuridir.

Eronning buyuk faylasuflari, shu jumladan Suhravardiy, Najmiddin Kubroning asarlarini chuqur tahlil qilishda Anri Korbin rang va yorug‘lik g‘oyasining rivojlanishi va davomiyligini ma’naviy rivojlanish ramzi sifatida ko‘radi [3].

Tarixiy-madaniy kontekstda ta’lim berish – Islom falsafasi va uning Markaziy Osiyo madaniy merosiga ta’sirini talabalarga tushuntirish uchun tarix, falsafa va adabiyot fanlarida ushbu mavzular kengroq yoritilishi lozim. Bu orqali talabalar o‘z mintaqasining ilmiy va ma’naviy ildizlari bilan tanishadi.

Axloqiy qadriyatlarni shakllantirish – Islom falsafasi axloqiy mukammallikka erishishga yo‘naltirilgan bo‘lib, uni talabalarga singdirish uchun dars jarayonida Suhravardiy va boshqa mutafakkirlarning axloqiy ta’limotlariga alohida e’tibor qaratilishi zarur.

Falsafiy tafakkurni rivojlantirish – Markaziy Osiyo olimlarining asarlari va islom falsafasining asosiy tamoyillari falsafiy tafakkur darslarida muhokama qilinishi, bu esa talabalar tafakkurini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Amaliy dasturlar va seminarlar – Islom falsafasi va uning ta’lim jarayonidagi ahamiyatini chuqurroq anglash uchun maxsus seminarlar, falsafiy munozaralar va ilmiy-amaliy konferensiyalar tashkil etilishi mumkin. Bu talabalar va professor-o‘qituvchilar orasida falsafiy tafakkurni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Zamonaviy pedagogik metodlarni qo‘llash – Suhravardiy va boshqa islom mutafakkirlarining falsafiy qarashlarini o‘rganishda zamonaviy texnologiyalar va interaktiv pedagogik metodlardan foydalanish samarali bo‘lishi mumkin. Virtual laboratoriyalar, onlayn kurslar va ochiq ta’lim platformalari orqali bu falsafa kengroq targ‘ib etilishi mumkin.

Milliy va diniy qadriyatlarni integratsiyalash – Islom falsafasi Markaziy Osiyo xalqining milliy va diniy qadriyatlari bilan uyg‘un bo‘lganligi sababli, uni zamonaviy ta’lim jarayonida milliy pedagogika bilan uyg‘unlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bu yondashuvlar orqali Markaziy Osiyo hududidagi tarixiy va madaniy bog‘liqlik asosida islom falsafasini ta’lim jarayoniga integratsiyalash, talabalar ma’naviy-axloqiy tarbiyasini shakllantirish va ularni ijtimoiy mas’uliyatni chuqur anglaydigan barkamol shaxs sifatida tarbiyalash imkonini beradi.

Zamonaviy pedagogik metodlar orqali Suhravardiy ta’limotining asosiy tamoyillarini ta’lim jarayoniga joriy etish mumkin. Bunday yondashuvlar talabalarning axloqiy qadriyatlarini rivojlantirishga hamda ularni har tomonlama yetuk shaxs sifatida shakllantirishga xizmat qiladi. Quyida asosiy yondashuvlar va ta’lim uslublari keltirilgan:

Ma’naviy-intellektual integratsiya yondashuvi – Talabalarni nafaqat ilmiy bilim bilan boyitish, balki ularning ruhiy va ma’naviy kamolotini ham rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Bu yondashuv doirasida falsafiy tafakkurni shakllantirishga xizmat qiluvchi maxsus seminarlar va falsafiy munozaralar tashkil etiladi. Bunday mashg‘ulotlar talabalarga ma’naviy-axloqiy qadriyatlarni chuqur anglash va ularni kundalik hayotda qo‘llash imkonini beradi.

Tajriba va refleksiya asosidagi ta’lim – Talabalar faqat nazariy bilim olish bilan cheklanmay, balki o‘z tajribalari va hissiyotlari orqali axloqiy qadriyatlarni anglashga harakat qilishlari lozim. Masalan, ma’naviy axloqiy qadriyatlarni mustahkamlash uchun hayotiy holatlar asosida amaliy mashg‘ulotlar o‘tkazish mumkin. Bu uslub talabalar tafakkurini rivojlantirish bilan birga, ularni turli ijtimoiy vaziyatlarga tayyorlashga ham xizmat qiladi.

Holistik ta’lim modeli – Suhravardiy ta’limoti asosida shakllangan bu model talabalarni faqat bilimga emas, balki axloqiy fazilatlarga ham yo‘naltiradi. Bunda ma’naviy tarbiya jarayonida madaniy meros, san’at, falsafiy qarashlar va axloqiy tushunchalar uyg‘unlashtiriladi. Shu tariqa, talabalarning nafaqat intellektual rivojlanishi, balki ular ongida ma’naviy hamjihatlik shakllanishiga erishiladi.

Ma’naviy yetakchilik dasturlari – Talabalarga o‘z jamiyatida ma’naviy yetakchi bo‘lish ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun maxsus dasturlar tashkil etish mumkin. Bu jarayonda ularga Suhravardiy falsafasining asosiy g‘oyalari bo‘yicha ma’ruzalar o‘qitiladi va amaliy ko‘nikmalar hosil qilinadi. Yetakchilik dasturlari orqali talabalar faqatgina nazariy bilim emas, balki axloqiy qadriyatlar va ijtimoiy mas’uliyatni chuqur anglash imkoniga ega bo‘ladilar.

Axloqiy tafakkurga yo‘naltirilgan baholash tizimi – Talabalar faqat an’anaviy imtihonlar orqali baholanmasligi kerak. Ularning axloqiy tafakkuri va ma’naviy rivojlanish darajasini baholash uchun maxsus loyihalar, insholar va amaliy topshiriqlar joriy etilishi lozim. Bu tizim orqali talabalar nafaqat nazariy bilimlarini, balki axloqiy qaror qabul qilish qobiliyatlarini ham rivojlantiradilar. Bu yondashuvlar orqali Suhravardiy ta’limoti zamonaviy ta’lim tizimida samarali qo‘llanilishi va talabalarning ma’naviy-axloqiy fazilatlari rivojlanishiga xizmat qilishi mumkin.

Tahlil va natijalar O‘tkazilgan tadqiqotlar natijasi tahlil qilinsa quyidagi natijalarga erishish mumkinligi haqidagi xulosaga kelindi:

Suhravardiy falsafasi talabalarning shaxsiy fazilatlarini shakllantirishda metodologik asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Uning ma’rifat nuri haqidagi g‘oyalari inson ruhiy olamini yuksaltirishga qaratilgan.So‘nggi yillarda talabalarning

axloqiy qadriyatlarga bo‘lgan munosabatida pasayish kuzatilmoqda. Ishroqiylik falsafasi asosida yo‘naltirilgan tarbiya tizimi esa ularning ma’naviy immunitetini mustahkamlashi mumkin.Suhravardiy falsafasi asosida olib borilgan pedagogik tajribalar shuni ko‘rsatdiki, ma’naviy tarbiya dasturiga bu g‘oyalarni kiritish talabalarning mas’uliyat, halollik, odob-axloq, bilimga chanqoqlik fazilatlarini oshirishga xizmat qiladi.Talabalarning ma’naviy-axloqiy fazilatlarini rivojlantirish jamiyatda sog‘lom muhitni shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Bu nafaqat yoshlarning shaxsiy taraqqiyoti, balki umuman jamiyatning axloqiy darajasini yuksaltirishga xizmat qiladi.

Xulosa va takliflar. Yuqoridagi tahlil asosida quyidagi xulosaga kelish mumkin.Suhravardiy falsafasini ta’lim jarayoniga integratsiya qilish uchun talabalarga maxsus dars mashg‘ulotlari va treninglar tashkil etish zarur. Universitet dasturlarida axloqiy falsafa bo‘yicha alohida fan yoki modullar kiritish tavsiya etiladi.Suhravardiy g‘oyalarini yoshlar orasida targ‘ib qilish uchun zamonaviy texnologiyalardan foydalanish (mobil ilovalar, ijtimoiy tarmoqlar). O‘qituvchilar uchun Suhravardiy falsafasi va axloqiy tarbiya mavzusida maxsus seminarlar o‘tkazish.Shunday qilib, Shihobiddin Suhravardiy falsafasi talabalarning ma’naviy-axloqiy fazilatlarini rivojlantirish uchun muhim ilmiy asos bo‘lib, bu masala zamonaviy ta’lim va tarbiyaning ajralmas qismi bo‘lishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Murtozayev Sh. B., Shihobiddin Suhravardiyning “Avorif ul-maorif” (“Ma’rifatni anglaganlar”) asari va uning gnoseologik ta’limoti. Dissertatsiya, Buxoro, 2023. 130-bet
2. Нирша В. М. Мировоззрение и суфийские концепции Абу Хафса Умара Шихобуддина сухраварди, автореферат диссертации на соискании ученой степени кандидата философских наук. – Тошкент, 1990, 22-с.
3. Corbin, Henry. The Man of Light in Iranian Sufism. Omega Publications, 1994.
4. Gutas, Dimitri. Greek Thought, Arabic Culture: The Graeco-Arabic Translation Movement in Baghdad and Early Abbasid Society. Routledge, 2001.
5. Forobiy, Abu Nasr. Falsafiy Asarlar. – Toshkent: Fan, 1995.
6. Nasr, Seyyed Hossein & Leaman, Oliver (Eds.). History of Islamic Philosophy. Routledge, 2001.
7. Mottahedeh, Roy. The Mantle of the Prophet: Religion and Politics in Iran. Oneworld Publications, 2000.
8. Al-Bukhari, Imam. Sahih al-Bukhari. Dar-us-Salam Publications, 1997.
9. Termiziy, Imam. Shamail al-Muhammadiyya. Dar al-Kotob al-Ilmiyah, 2009.
10. Hujviri, Ali. The Kashf al-Mahjub: The Oldest Persian Treatise on Sufism. Gibb Memorial Trust, 2004.

TALABALARDA MEDIASAVODXONLIK VA AXBOROT MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH VA TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI

Xudayberdiyev Abdumadjid Abdujalilovich, Guliston Davlat pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchisi
e-mail: Abdumajid85@inbox.uz

Annotatsiya. Ushbu maqolada elektron ta’lim muhitida talabalarning mediasavodxonlik va axborot madaniyatini shakllantirish metodikasini takomillashtirish yo‘llari haqida so‘z boradi. Raqamli texnologiyalar asrida media savodxonlik talabalar uchun muhim mahoratga aylandi. Mediasavodxonlik turli xil ommaviy axborot vositalaridan foydalanish, tahlil qilish, baholash, yaratish va muloqot qilish qobiliyatini o‘z ichiga oladi. Bu nafaqat raqamli vositalardan foydalanishni o‘rganish, balki ommaviy axborot vositalarining hislar va xatti-harakatlarga qanday ta’sir qilishini tushunishdir. Siyosiy, ijtimoiy va madaniy voqelikni shakllantirishda ommaviy axborot vositalarining ortib borayotgan o‘rni o‘quvchilarning mediasavodxonlik ko‘nikmalarini mustahkamlovchi metodologiyalarni qabul qilishni zarur qilib qo‘yadi. Ushbu maqola talabalarning media savodxonligini oshirish uchun amalga oshirishi mumkin bo‘lgan asosiy metodologiyalarni o‘rganadi.

Kalit so‘zlar: elektron ta’lim, mediasavodxonlik, raqamli texnologiya, axborot, internet, bilim;

ПУТИ ФОРМИРОВАНИЯ И ПОВЫШЕНИЯ МЕДИАГРАМОТНОСТИ И ИНФОРМАЦИОННОЙ КУЛЬТУРЫ СТУДЕНТОВ

Аннотация. В статье рассматриваются пути совершенствования методики формирования медиаграмотности и информационной культуры студентов в среде электронного обучения. В эпоху цифровых технологий медиаграмотность стала важным навыком для учащихся. Медиаграмотность включает в себя способность использовать, анализировать, оценивать, создавать и общаться с помощью различных средств массовой информации. Речь идет не только о том, чтобы научиться использовать цифровые инструменты, но и о понимании того, как медиа влияют на восприятие и поведение. Возрастающая роль средств массовой информации в формировании политической, социальной и культурной реальности обусловливает необходимость внедрения методик, укрепляющих навыки медиаграмотности учащихся. В этой статье рассматриваются ключевые методики, которые могут использовать учащиеся для повышения своей медиаграмотности.

Ключевые слова: электронное обучение, медиаграмотность, цифровые технологии, информация, интернет, знания;

WAYS TO FORM AND IMPROVE MEDIA LITERACY AND INFORMATION CULTURE IN STUDENTS

Abstract. This article discusses ways to improve the methodology for forming students' media literacy and information culture in an e-learning environment. In the age of digital technologies, media literacy has become an important skill for students. Media literacy includes the ability to use, analyze, evaluate, create and communicate with various media. It is not only learning to use digital tools, but also understanding how media influence perceptions and behavior. The increasing role of media in shaping political, social and cultural reality makes it necessary to adopt methodologies that strengthen students' media literacy skills. This article examines the main methodologies that can be implemented to improve students' media literacy.

Ключевые слова: электронное обучение, медиаграмотность, цифровые технологии, информация, интернет, знания;

Kirish. Bugungi kunda dunyo miqyosida ta’lim tizimining rivojlanishida texnologik yutuqlar muhim o‘rin tutmoqda. Elektron ta’lim ta’lim jarayonlarini yangicha usullar bilan boyitib, samaradorlik va sifatni oshirishga yordam berdi. O‘zbekiston ta’lim tizimi ham raqamli texnologiyalarni keng joriy etish jarayonini boshdan kechirmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktyabrdagi «Raqamli O‘zbekiston - 2030» strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-6079-son farmonida “oliy ta’lim tizimi uchun elektron ta’lim resurslarini yanada takomillashtirish, shuningdek, ichki va jahon ta’lim resurslaridan foydalanishni ta’minlash”, 2019-yil 8-oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” PF-5847-son farmonilari qabul qilindi. Ushbu maqolada elektron ta’lim muhitida talabalarning mediasavodxonlik va axborot madaniyatini shakllantirish metodikasini takomillashtirish yo‘llari haqida so‘z boradi. Ijtimoiy tarmoqlar, soxta yangiliklar va ma’lumotlarning haddan tashqari yuklanishi talabalardan ommaviy axborot vositalari xabarlarini tanqidiy baholash va tushunishni talab qiladi. Mediasavodxonlik turli xil ommaviy axborot vositalaridan foydalanish, tahlil qilish, baholash, yaratish va muloqot qilish qobiliyatini o‘z ichiga oladi. Bu nafaqat raqamli vositalardan foydalanishni o‘rganish, balki ommaviy axborot vositalarining hislar va xatti-harakatlarga qanday ta’sir qilishini tushunishdir. Siyosiy, ijtimoiy va madaniy voqelikni shakllantirishda ommaviy axborot vositalarining ortib borayotgan o‘rni o‘quvchilarning mediasavodxonlik ko‘nikmalarini mustahkamlovchi metodologiyalarni qabul qilishni zarur qilib qo‘yadi. Ushbu maqola o‘qituvchilar o‘quvchilarning media savodxonligini oshirish uchun amalga oshirishi mumkin bo‘lgan asosiy metodologiyalarni o‘rganadi.

Rasmiylashtirilgan o‘qitishga asoslangan, elektron resurslar yordamida o‘qitish tizimi elektron ta’lim deb nomlanadi. O‘qitish sinfda yoki sinfdan tashqarida bo‘lishi mumkin bo‘lsa-da, kompyuter va internetdan foydalanish elektron ta’limning asosiy komponentini tashkil qiladi. Elektron ta’limni tarmoq orqali ko‘nikma va bilimlarni uzatish deb ham atash mumkin va ta’lim bir xil yoki turli vaqtlarda ko‘p sonli talabalarga yetkaziladi. Ilgari, bu tizimda o‘rganish uchun zarur bo‘lgan inson elementi yo‘q deb taxmin qilingani uchun, bu butun qalb bilan qabul qilinmadi.

Biroq, texnologiyaning jadal rivojlanishi va ta’lim tizimlarining rivojlanishi bilan u endi omma tomonidan qabul qilinmoqda. Kompyuterlarning joriy etilishi ushbu inqilobning asosi bo‘ldi va vaqt o‘tishi bilan biz smartfonlar, planshetlar va boshqalarga bog‘langanimiz sababli, bu qurilmalar endi o‘rganish uchun sinflarda muhim o‘rin egallaydi. Kitoblar asta-sekin optik disklar yoki qalamli disklar kabi elektron o‘quv materiallari bilan almashtiriladi. Bilimlarni Internet orqali ham almashish mumkin, unga 24/7, istalgan joyda va istalgan vaqtda kirish mumkin. Shubhasiz, kitoblar va ma’ruzalar yordamida elektron bo‘lmagan o‘qitish kontseptsiyasini ilgari surish ham bir xil darajada muhimdir, ammo texnologiyaga asoslangan ta’limning ahamiyati va samaradorligini e’tiborsiz qoldirib bo'lmaydi.

Inson miyasi harakatlanuvchi suratlar yoki videolar orqali ko'rgan va eshitilgan narsalarni osongina eslab qolishi va ular bilan bog‘lanishiga ishoniladi. Bundan tashqari, vizual tasvirlar o‘quvchining diqqatini jalb qilishdan tashqari, miyada uzoq vaqt davomida saqlanishi ham aniqlandi. Turli sohalar, jumladan, qishloq xo‘jaligi, tibbiyot, ta’lim, xizmat ko‘rsatish, biznes va davlat tuzilmalari mamlakat taraqqiyotiga yordam beradigan elektron ta’lim kontseptsiyasiga moslashmoqda.

So‘nggi yillarda axborot oqimining bir necha barobar tezlashishi, ijobiy ma’lumotlar bilan birga salbiy xarakterdagi ma’lumotlarning ko‘payishi mediasavodxonlikka ega bo‘lish zaruratini oshirdi. An’anaga ko‘ra, mediasavodxonlik deganda insonning adabiy asarlarni tahlil qilish va sifatli matnlar yaratish qobiliyati tushuniladi. Biroq, endi mediasavodxonlik media-kontentni tanqidiy baholash va sharhlash qobiliyatini anglatadi. Mediasavodxonlik bo‘yicha ta’lim milliy assotsiatsiyasi mediasavodxonlikni “muloqotning barcha shakllaridan foydalanish, tahlil qilish, baholash, yaratish va harakat qilish” qobiliyati sifatida belgilaydi. Bu tanqidiy fikrlash, ommaviy axborot vositalari vakillarini tushunish va kuch tuzilmalarining media ishlab chiqarishga qanday ta’sir qilishini o‘z ichiga olgan holda raqamli ko‘nikmalardan tashqariga chiqadi. Ushbu ko‘nikmalarni rivojlantirish orqali talabalar o‘zlari iste’mol qiladigan va ishlab chiqaradigan ommaviy axborot vositalari haqida ongli qarorlar qabul qilishlari mumkin. Hozirgi kunda mediasavodxonlik Buyuk Britaniya va Avstraliyada gumanitar fanlar majmuasida alohida fan sifatida o‘qitiladi, mediasavodxonlik 1970-yildan Finlyandiyada o‘rta maktablar o‘quv dasturlariga kiritilgan, keyinchalik 1977-yilda oliy o‘quv yurtlariga kiritilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. 1990-yillarda mediasavodxonlik o‘rnini media ta’lim konsepsiyasi egalladi. Shvetsiyada 1980-yildan beri ta’lim muassasalarida alohida fan sifatida o‘qitiladi (Prantl, 2022). Axborot texnologiyalari sohasidagi zamonaviy rivojlanish, yangi raqamli media va ta’lim vositalarining keng qo‘llanilishi mediasavodxonlikning ahamiyatini oshirishga olib keladi. Bugungi kunda mediasavodxonlik deyarli butun jahon ta’lim tizimida eng asosiy kompetensiyalardan biri sifatida tan olingan. Fresno Tinch okeani universiteti ma’lumotlariga ko‘ra, “Elektron ta’lim muhitida mediasavodxonlikni o‘qitish talabalarga ommaviy axborot vositalarining dono iste’molchilari, shuningdek, o‘z ommaviy axborot vositalarining mas’uliyatli ishlab chiqaruvchilari bo‘lishga yordam beradi.

Elektron ta’lim muhitini tashkil etish va axborot texnologiyalaridan foydalanishning nazariy asoslari, funktsional imkoniyatlari hamda elektron ta’lim resurslaridan foydalanish bo‘yicha bir qator olimlar, jumladan mamlakatimizda A. Abduqodirov, U. Begimqulov, N. A. Muslimov, N. I. Taylaqov, F. M. Zakirova, M. Aripov, M. E. Mamarajabov, S. Tursunovlar, D. Mamatov, xorijiy mamlakatlarda E. S. Polat, A. Andreev, I. Zaxarova, V. V. Kuznetsov, M. P. Lapchik, B. Andresen, M. Burns, M. Hendersonlarning tadqiqotlarida o‘z aksini topgan. Xuddi shu yo‘nalishda mediasavodxonlikni o‘rgatish o‘quvchilarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga yordam beradi. Ushbu turdagi fikrlash oxir-oqibat inson uchun ikkinchi tabiatga aylanishi mumkin, bu esa ular ulg‘ayganlarida ko‘p sohalarda yordam beradi”. Sinfda media va axborot savodxonligi bo‘yicha ishlaydigan talabalar ularga hayotlarining barcha jabhalarida kuchli tanqidiy fikrlovchi bo‘lishga yordam beradi. Axborot jamiyati zamonaviy ta’lim muassasalaridagi ko‘plab muammolarga yechim topishga yordan bermoqda, Internet va zamonaviy texnologiyalar nafaqat ma’lumotlarning yetishmasligini to‘ldirib, ortiqcha vaqt sarflanishining oldini oldi va an’anaviy ta’limning jiddiy raqobatchisiga aylandi. O‘qituvchilar va talabalar o‘zlarining media kompetentsiyalarini yaxshilash uchun doimiy ravishda yangi manbalarni izlashga majbur bo‘lishadi. Auditoriyada hozirgi kunda ma’ruzalar kamdan-kam hollarda taqdimotsiz o‘qiladi, video materiallar va interfaol doskaga o‘qituvchilar ijtimoiy sahifa yaratadilar muloqot qilish va talabalar uchun

yangilanishlarni yuborishadi. Onlayn guruh a’zolari undan professional rivojlanish uchun foydalanadilar. Media ta’lim - bu texnologiya olamiga yo‘l bo‘lib, ularsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Hozirgi sharoitda uning roli va ahamiyati har qachongidan ham ortib bormoqda, axborotga bo‘lgan talabning yuqoriligi nafaqat uni uzatish vositalari va turlariga, balki axborotning asosiy vazifasi va mazmuniga ham o‘z ta’sirini o‘tkazmoqda. Media ta’lim natijasida mediasavodxonlik faqat o‘quvchilarning zamonaviy axborot texnologiyalarini egallashi yoki axborotni tanqidiy tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish bilan cheklanmaydi. Media ta’lim kontseptsiyasiga kengroq qarash talab etiladi. Axborotdan samarali va tez foydalanishda talaba muayyan masalani hal qilish uchun zarur bo‘lgan axborot turini aniqlay oladi:

a) bu ma’lumotlardan samarali va tez foydalana oladi;

b) qiziqtirgan ma’lumotlarga kirish uchun kalit so‘zlar va tegishli atamalarni aniqlash;

c) potentsial axborot manbalarining har xil turlari va formatlarini aniqlay oladi va hokazo.

Bugungi rivojlanayotgan davrda “savodxonlik” an’anaviy yozish va o‘qish qobiliyatiga ega bo‘lish tushunchasi bilan cheklanmaydi. Hisoblash, o‘qish va yozish ko'nikmalarining ahamiyatini kamaytirmasdan, ommaviy axborot vositalari va axborot savodxonligini fundamental ko'nikmalar to'plamiga kiritish, bugungi yoshlar ommaviy axborot vositalari va boshqa axborot etkazib beruvchilarning imkoniyatlarini bilishadi (masalan, kutubxonalar media-resurs sifatida kitob sifatida xizmat qiladi), shu bilan birga shaxsiy, jamoaviy, ular o‘zlarining kasbiy va ta’lim maqsadlariga erishish uchun ma’lumotlarni qidirish, baholash, yaratish va qo‘llash imkoniyatiga ega bo'lishlari kerakligini anglatadi.

Elektron ta’lim muhitida mediasavodxonlikni rivojlantirish quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- bo‘lajak pedagoglarda mediasavodxonlik va axborot madaniyatini rivojlantirish;
- globallashuv va axborot makonining ochiqligini ta’minlash, yangi bilimlarni yaratish;
- qarashlar, faktlar, tushunchalar, ommaviy axborot vositalari orqali tarqatilgan ma’lumotlar va keng ko‘lamli amalga oshirish;
- ommaviy axborot vositalarini rivojlantirish asosida axborot muhitini yaxshilashga urinishlar.

Elektron ta’lim muhitida Mediasavodxonlik va axborot madaniyatini yuksaltirish borasida tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Analitik yondashuv jahonning yirik ilmiy tadqiqot muassasalarida mediasavodxonlik va axborot madaniyati, uning tanqidiy qabul qilish va ommaviy axborot vositalari orqali o‘zini namoyon qilish, ijodiy tushunish, yaratish, media-kontentni talqin qilish va shu bilan birga talabalarda interaktivlik ko‘nikmalarni shakllantirish, rivojlantirish bo‘yicha tanqidiy tahdid va xavfsizlik bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Ta’lim va amaliyot doirasida Mediasavodxonlikni rivojlantirish va oliy ta’lim muassasalari talabalari o‘rtasida axborot madaniyati, zamonaviy fan-texnika taraqqiyotiga doir bilimlar asosida talabalarning media bilimlarini oshirish bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borilmoqda

Amerikalik sotsiolog M. Kastels o‘zining “Internet galaktikasi” kitobida shunday deydi: “Hozirda bir nechta jamiyatda bir vaqtning o‘zida o‘tish davri yoki jarayonlar sodir bo‘lmoqda. Eng muhimi bulardan axborot jamiyatiga texnologik va tashkiliy o‘tishdir. Buning uchun o'qituvchilar darslarda oxirgi texnologiyalardan foydalanishi: ularning mediasavodxon bo‘lishi (masalan, interfaol darsliklar,

veb-dizayn), dasturlar, multimedia vositalari, onlayn platformalardan foydalanishi kerak bo‘ladi.

Bu usullar talabalarda mediasavodxonlikni oshirish va axborot madaniyatini shakllantirish va takomillashtirish jarayoniga yordam beradi va ular ommaviy axborot vositalaridan yuqori malakaga ega bo‘ladi.

Quyidagi metodlar e’lektron ta’lim muhida mediasavodxonlikni rivojlantirishga yordam beradi:

1. O‘qitishning mediasavodxonligi integrativ usullardan foydalanish: Media savodxonligi va axborot madaniyati bilan bog‘liq darslar, treninglar va loyihalar menejeri o‘rganish usullarini qo‘llab-quvvatlash;
2. Yangiliklardan foydalanishga mos keladigan o‘rganish maqsadlari: yangiliklar, ajoyibotlar, talabalarning media-texnologiyalaridan foydalangan holda vositalardan animatsiyalar va interaktiv ma’lumotlarni taqdim etishga o‘rgatish;
3. Guruh ishlari, jurnallar yaratish, media-loyihalarning mediasavodxonligi orqali yetib borish kabi ishlarni tashkil etish;
4. Ommaviy axborot vositalaridagi ma’lumotlardan tortib amaliy mashg‘ulotlardagi bilimlarni mustahkamlash;
5. Videolaboratoriyalarga ko‘ra media mavzulari tashkil etish, virtual muhokamalar uyushtirish, media loyihalar yaratish;
5. Talabalarning media-texnologiyalaridan o‘z nutqi va tasavvurlari orqali foydalanishi, blog yozish, podkast tayyorlash yoki multimedia saytlarida talabalarni media texnologiyalari orqali o'qitish kabilarni tashkil qilish;

Shuning uchun mediasavodxonlik quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

1. Estetik va ijodiy qobiliyatlar deganda media-kontentni ijodiy tushunish, yaratish va izohlash qobiliyati tushuniladi. Media-kontent yaratish orqali yosh avlod bu ko‘nikmalarni rivojlantirishi mumkin.
2. Interaktivlik qobiliyatlari ommaviy axborot vositalari orqali muloqot qilish va turli media rollarini bajarish qobiliyati orqali namoyon bo‘ladi. Ushbu ko‘nikmalarni ta’lim va amaliyot orqali rivojlantirish mumkin. Interfaollik qobiliyatlari insonning o‘z fikr va mulohazalarini ifoda etishga tayyorligini ko‘rsatadi.
3. Tanqidiy tahlil ko'nikmalari turli xil tahliliy vositalardan foydalangan holda turli media-kontentlarning ahamiyatini izohlash va tushunish qobiliyatini anglatadi. Bu ko‘nikmalarni eng yaxshi media mazmuni va janrlarini o‘rganish orqali rivojlantiradi;
4. Xavfsizlik qobiliyatlari qiyin vaziyatlardan chiqib ketish va ularni oldini olish qobiliyatida namoyon bo'ladi.

Virtual makondan xavfsiz foydalanish shaxsiy makonni himoya qilish va zararli tarkib va aloqadan saqlanish demakdir. O‘qituvchi yordamisiz duch kelganda, talabalar qaysi manba ishonchli ekanligini qanday bilishadi? Ular YouTubeni tomosha qilmoqdami, yangiliklarni o‘qiyaptimi yoki tasvirlarni tahlil qilyaptimi, talabalar ma’lumotni tushunish, uni kontekstga kiritish va haqiqiy va soxtani ajrata olish ko‘nikmalariga muhtoj. Talabalar ommaviy axborot vositalarini tahlil qilishda savollar berishlari kerak va baholash:

- Muallif kim?
- Uning maqsadi nima? (xabar berish, ko'ngil ochish, ishontirish)
- Boshqalar bu xabarni qanday izohlashlari mumkin?
- U ba’zi tafsilotlarni qoldirganmi? Nega?
- Har qanday manbalar keltiriladimi?

Talabalarga mustaqil fikr yuritish uchun vaqt va joy berish, ularga savol berishni o‘rgatish ham muhim, shunda ular ommaviy axborot vositalarini mustaqil tahlil qilish va baholashni o‘rganishlari mumkin. Shuningdek, tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, odamlar ommaviy axborot vositalaridan o‘zlarining qarashlari, qadriyatlari va his-tuyg'ulariga mos keladigan qarashlar va g‘oyalarni tanlashga moyildirlar.

Tahlil va natijalar. Yaqinda o‘tkazilgan tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, dunyo bo‘ylab odamlarning atigi 26 foizi ijtimoiy media platformalariga ishonchli ma’lumot manbalari sifatida ishonishadi. Bundan tashqari, talabalar raqamli aloqaning yuqori darajasi tufayli noto‘g‘ri ma’lumotlarga eng zaif guruhlar qatoriga kiradi. Media savodxonligini mustahkamlash talabalarga quyidagilarga yordam beradi:

• Yangiliklar yoki reklamalardagi noto‘g‘ri fikrlarni aniqlash va xabarlarni manipulyatsiyasini qilish;

• Media-kontentning mas’uliyatli yaratuvchisiga aylanish;

• Axborotli fuqarolik ishtirokida ishtirok etish;

• Turli media platformalarning jamoatchilik fikri va ijtimoiy harakatlarga qanday ta’sir qilishini tahlil qilish.

So‘rovga asoslangan ta’lim talabalarni savollar berishga va o'z-o'zidan izlanishga undaydi (Dvorghets & Shaturnaya, 2015). Media savodxonligi bo‘yicha ta’lim jarayonida talabalar media matnlarini tahlil qiladilar, asosiy xabarlarni aniqlaydilar va bu xabarlarning maqsadi va auditoriyasi haqida fikr yuritadilar. Savollar orqali tanqidiy fikrlashni targ‘ib qiladi va talabalarga barcha media xabarlari aniq faktlar bilan tuzilganligini tushunishga yordam beradi. Misol uchun, talabalar maqsadli auditoriyani, u yetkazayotgan ma’lumotni va uning mazmuniga ta’sir qilishi mumkin bo‘lgan noto‘g‘ri fikrlarni muhokama qilish uchun yangilik xabarini yoki reklamasini o‘rganishi mumkin. Loyihaga asoslangan ta’lim talabalarga ommaviy axborot vositalarini yaratishda faol ishtirok etish imkonini beradi, bu nafaqat ommaviy axborot vositalarining kuchini tushunishga, balki amaliy ko‘nikmalarga ham yordam beradi. O‘zlarining media loyihalarini (masalan, podkastlar, bloglar, videolar) yaratish orqali talabalar auditoriya tahlili, media ishlab chiqarishdagi axloq va faktlarni tekshirish kabi tushunchalarni qo'llaydilar. Misol: Talabalar ijtimoiy mavzu bo‘yicha hujjatli film yaratishi mumkin, ommaviy axborot vositalarining yoritilishi jamoatchilik fikrini qanday shakllantirishini o‘rganishi mumkin. Loyiha ulardan tadqiqot, intervyu va faktlarni tekshirishni talab qiladi, bu esa real dunyoda mediasavodxonligi amaliyotini taklif qiladi. Birgalikda o‘rganish Mediasavodxonligini talabalar ommaviy axborot vositalarining turli shakllarini tanqidiy muhokama qiladigan hamkorlikdagi vazifalar orqali mustahkamlash mumkin. Bu yondashuv tengdoshlarni o‘rganishga va turli nuqtai nazarlarga yordam beradi. Guruhlarda ishlash orqali talabalar o‘zlarining shaxsiy tajribalari va ijtimoiy kontekstlaridan qanday qilib turli talqinlar paydo bo‘lishi haqida fikr yuritadilar. Masalan: Talabalar ommaviy filmlarda irq, jins yoki sinfning ommaviy axborot vositalari vakillarini tahlil qilishda hamkorlik qiladilar. Keyin ular turli nuqtai nazarlarni taqdim etadilar va ommaviy axborot vositalarining shaxsiyatni shakllantirishga ta’siri haqida umumiy tushunchani rivojlantiradilar. Gamifikatsiya o‘yin mexanikasini ta’lim faoliyatiga integratsiyalash orqali mediasavodxonlikni jalb qiladi. Bu talabalarni ommaviy axborot vositalari bilan qiziqarli, mazmunli usullar bilan o'zaro aloqada bo‘lishga undaydi. Soxta yangiliklarni aniqlash kabi media tahlilini talab qiladigan o‘yinlar o‘quvchilarda axborot manbalarini tanqidiy baholash qobiliyatini rivojlantirishi mumkin. Misol uchun: talabalar bir qator yangiliklar maqolalari bo‘ylab harakatlanishi, fantastikadan faktlarni saralashi, ularga aql-idrokni mashq qilish va ma’lumotlarning to‘g‘riligini tekshirishga yordam beradigan o‘quv o‘yini. Saylovlar paytida noto‘g‘ri ma'lumotlarning tarqalishi yoki sog'liqni saqlash inqirozining tasviri kabi haqiqiy dunyo ommaviy axborot vositalari voqealarini tahlil qilish talabalarga media savodxonlik ko'nikmalarini qo'llashlari uchun aniq misollar beradi. Bu usul talabalarni manbalarning ishonchliligini baholashga, noxolis xabarlarni aniqlashga va ommaviy idrokni shakllantirishda ommaviy axborot vositalarining rolini tushunishga undaydi. Masalan: talabalar ommaviy axborot vositalari COVID-19 pandemiyasi kabi yirik global voqeani qanday yoritganini baholashlari mumkin, turli nashrlar jamoatchilik fikrini qanday shakllantirgani,

qanday noto‘g‘ri ma’lumotlar tarqalishi va ommaviy axborot vositalarining o‘zini tutish oqibatlarini muhokama qilishlari mumkin. Kritik media savodxonligi (CML) ommaviy axborot vositalarini ijtimoiy-siyosiy nuqtai nazardan o‘rganishga urg'u beradi. Talabalar ommaviy axborot vositalari kuch dinamikasini qanday kuchaytirishini va ko‘pincha ma’lum guruhlarni chetga surib qo‘yishini o‘rganadilar.

Xulosa. Talabalarda elektron ta’lim mmuhitida mediasavodxonlik va axborot madaniyatini rivojlantirish juda muhim ahamiyati kasb etadi. Bu soha talabalarning ijodkorligi, fikrlash qobiliyati dinamikligi, aloqa, axborot etikasi va texnik bilimlarni o‘rganishga yordam beradi. Talabalar bu sohani o'zlashtirish orqali eng yuqori darajada ijodkorlik va fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi, dinamiklik va analitik fikrlash qobiliyati ortadi, tenik ma’rifatparvarligi kengayadi. Talabalar uchun bugungi murakkab media muhitida harakat qilish muhim kompetentsiyadir. O‘qituvchilar o‘quvchilarga media-kontentni tanqidiy tahlil qilish va ishlab chiqarishga yordam berish uchun so‘rovga asoslangan ta’lim, loyihaga asoslangan ta’lim va tanqidiy mediasavodxonligi yondashuvlari kabi turli metodologiyalarni qo‘llashlari kerak. Shunday qilib, talabalar demokratik jamiyatda ishtirok etish uchun bilimdon, mas’uliyatli ommaviy axborot vositalari iste’molchilari va ijodkorlari bo‘lishlari mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shavkat Mirziyoyev. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2021. – B. 288.
2. Кастельс М. Информационная эпоха: экономика, общество, культура. – Москва, 2000. – С. 606.
3. Kayumova N. A. Oliy ta’limda elektron ta’lim muhitini tashkil etishda yangi texnologiyalar. Zamonaviy ta’lim, 2021, 2 (99). – B. 64-73.
4. Д. Рошкофф. Медиавирус. Как поп-культура воздействует на ваше сознание. Изд.: УФактория. – Москва: 2003. – С. 75.
5. Столбникова Е. А. Развитие критического мышления студентов педагогического вуза в процессе медиаобразования(на материале рекламы). – Таганрог, 2006. –С. 76-77.
7. Adilova S. Multimedia vositalari va ularni ta’lim jarayonida qo‘llash. Pedagogik ta’lim. 2001. – B. 20-21.
8. Xudayberdiyev A. A. “Media savodxonlik va axborot madaniyati fanini o‘qitishda kompyuter texnologiyalari hamda innovatsion texnologiyalardan foydalanish” Pedagoglar malakasini oshirishning axborot-ta’lim muhitini tashkil etish: muammo va yechimlar xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Guliston, 2023-yil.
9. Xudayberdiyev A. A “Media ta’limni o‘quv jarayonidagi o‘rni va ahamiyati”. – Guliston: “Sayhun ilmiy axborotnomasi”, 2023-yil 3-son.
10. Xudayberdiyev A. A “Talabalar o‘rtasida axborot madaniyatini oshirish va media savodxonlikka o‘rgatish” Ta’lim tizimini rivojlantirishning zamonaviy tendensiyalari: ilg‘or tajribalar va rivojlanish istiqbollari mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari. Guliston, 2023-yil.

INTEGRATIV YONDASHUV ASOSIDA BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINI BADIIY MATNNI TAHLIL QILISHGA O‘RGATISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI

Utanbayeva Dildora Abdixadirovna, GulDPI “Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim metodikasi” kafedrasi katta o‘qituvchisi, p.f.f.d
e-mail: dildorautanbayeva28@gmail.com
Yuldasheva Nigora Sultanovna, GDPI “Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi(boshlang‘ich ta’lim) yo‘nalishi magistranti
e-mail: yuldashevanigora@gmail.com

Annotatsiya: ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini badiiy matnni tahlil qilishga o‘rgatishda integrativ yondashuvning ahamiyati, badiiy matnni o‘qish, uni tushunish va tahlil qilish orqali o‘quvchilarda estetik madaniyatining oshishi, kommunikativ qobiliyatlarining rivojlanishi, mustaqil va ijodiy fikrlash, mantiqiy xulosa chiqarish ko‘nikmasining hosil bo‘lishi, nazariy bilimlarning amaliy faoliyatda qo‘llash kompetensiyasining shakllanishiga erishish, “matn”, “badiiy matn”, “integratsiya”, “integrativ yondashuv” so‘zlarining lug‘aviy va mazmuniy ma’nosi masalalari yoritilgan. Shuningdek, matn ustida ishlash, badiiy matnni o‘qish va tushunish, ta’lim jarayoniga integrativ yondashuv bo‘yicha respublikamizda, MDH davlatlarida hamda xorijda tadqiqot olib borgan olimlarning fikrlari tahlil qilingan va subyektiv munosabat bildirilgan.

Kalit so‘zlar: boshlang‘ich sinf, badiiy matn, matnni tahlil qilish, matn ustida ishlash, matnni o‘qish va tushunish, matnni o‘qish ko‘nikmasi, integrativ yondashuv, integratsiya, soddalik, tushunarlilik, ta’lim-tarbiya jarayoni, mustaqil va ijodiy fikrlash, mantiqiy xulosa chiqarish, kommunikativ qobiliyat.

SCIENTIFIC-THEORETICAL FOUNDATIONS OF TEACHING ELEMENTARY STUDENTS TO ANALYZE ARTISTIC TEXT ON THE BASIS OF AN INTEGRATIVE APPROACH

Abstract: this article covers the importance of an integrative approach in teaching elementary students to analyze an artistic text, the increase in aesthetic culture in students through reading, understanding and analyzing an artistic text, the development of communicative abilities, independent and creative thinking, the formation of a logical inference skill, the achievement of the formation of competence of the application of theoretical knowledge in practical Also, the opinions of scientists who conducted research in our republic, CIS countries and abroad on work on the text, reading and understanding the artistic text, an integrative approach to the educational process were analyzed and subjectively reacted.

Keywords: elementary grade, artistic text, text analysis, work on the text, reading and understanding the text, text reading skills, integrative approach, integration, simplicity, intelligibility, educational process, independent and creative thinking, logical inference, communicative ability.

НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ОБУЧЕНИЯ МЛАДШИХ ШКОЛЬНИКОВ АНАЛИЗУ ХУДОЖЕСТВЕННОГО ТЕКСТА НА ОСНОВЕ ИНТЕГРАТИВНОГО ПОДХОДА

Аннотация: В данной статье рассматривается значение интегративного подхода в обучении младших школьников анализу художественного текста, повышение эстетической культуры учащихся через чтение художественного текста, его понимание и анализ, развитие их коммуникативных способностей, формирование самостоятельного и творческого мышления, умения делать логические выводы, достижение формирования компетенции применения теоретических знаний в практической деятельности, “текст”, освещаются вопросы словарного и содержательного значения слов ”художественный текст“, ”интеграция“, ”интегративный подход". Также были проанализированы мнения ученых, проводивших исследования в нашей республике, странах СНГ и за рубежом по работе над текстом, чтению и пониманию художественного текста, интегративному подходу к образовательному процессу, и дана субъективная реакция.

Ключевые слова: начальный класс, художественный текст, анализ текста, работа над текстом, умение читать и понимать текст, умение читать текст, интегративный подход, интеграция, простота, разборчивость, учебно-воспитательный процесс, самостоятельное и творческое мышление, логическое умозаключение, коммуникативные способности.

Kirish. Mamlakatimiz umumiy o‘rta ta’lim muassasalari o‘quvchilarining badiiy matnni tahlil qilish ko‘nikmasini oshirish bugungi kundagi dolzarb vazifalardan hisoblanib, bu borada innovatsion yondashuvlar, xususan integrativ yondashuvni tatbiq qilish badiiy matnni tahlil qilish va uni tushunish kompetensiyalarini oshirishga xizmat qiladi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining badiiy matnni tahlil qilish ko‘nikmasi ularning mustaqil va ijodiy fikrlashlari va mantiqiy xulosa chiqarishlariga asos bo‘ladi.

O’zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi [1] Qonuni hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi [2] Ffrmonida mamlakatimizda ta’lim sifati va samaradorligini oshirish bo‘yicha belgilangan vazifalar ta’lim sohasi xodimlari, o‘qituvchilarga kasbiy rivojlanishi uchun o‘z ustida ishlash, o‘quvchilarni xalqaro dasturlarga samarali tayyorlash, shuningdek, jahondagi tengdoshlari bilan tenglasha oladigan darajada bilimli yoshlarni tarbiyalash, o‘quvchi-yoshlarning mustaqil, ijodiy, mantiqiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini shakllantirish talabini qo‘ymoqda.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Respublikamizda matn ustida ishlash, badiiy matnni o‘qish va tushunish, matn asosida topshiriqlar tuzish masalalari Sh. Sariyev, K. Mavlonova, M. Asqarova, F. X. Aminova, T. Ziyadova, У.Qayumxo‘jayeva A. Nisanbayeva, Sh. Nurullayevalar; ta’limga integrativ yondashuv masalasi N. Ahmedova; ta’lim jarayonidagi integratsiyaning psixologik-pedagogik, metodik muammolari Sh. Abduraimov, U. Sh. Begimqulov, R. A. Mavlonovalar tomonidan tadqiq etilgan.

MDH davlatlarida matnni o‘qish ko‘nikmalarini rivojlantirish masalalari E. V. Belina, M. Mokina, G. M. Perova, В. А Бородина, А. Р. Лурия,. М. Р. Львов, Е. М. Катоновалар tomonidan tadqiq etilgan.

Xorijda matn axborotlari bilan ishlash, matn va uni o‘qish, tushunish malakalarini rivojlantirish muammolari Britt M. A., Goldman S. R., Langer J. Christianson K, S. G. Luke, M. Medvel, N. Metyular tomonidan tadqiq etilgan.

F. X. Aminova “Asar birinchi marta o‘qilgandan so‘ng o‘tkaziladigan suhbat, birinchidan, o‘quvchilarga qanday ta’sir etganini bilish, ikkinchidan, bolalar matnni tahlil qilishga qiziqtirish bilan darsda faol ishlashga sharoit yaratish maqsadini ko‘zda tutadi” [4] deb olib borgan tadqiqot ishida izohlab o‘tgan.

M. Mokina “Matnni o‘qish va tushunishga tayyorgarlik ishlarini tashkil etish xilma-xil shakllarni qo‘llashdan boshlanadi” -deya izohlaydi.

N. Ahmedovaning ta’kidlashicha, “Bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy tayyorgarligini integrativ yondashuv asosida qurishni takomillashtirish ta’limda integratsiyaning birligi fenomeni haqidagi ilmiy axborotni tadqiq qilishga asoslanadi” [4]. Demak, integrativ yondashuv asosida kasbiy tayyorgarligi takomillashgan o‘qituvchilar ta’lim jarayoniga zamonaviy yondashuvlar, innovatsion va axborot texnologiyalarini tatbiq qilgan holda o‘quvchilarga ilmiy asoslangan nazariy ma’lumotlarni beradi va o‘quvchilarda shu nazariy ma’lumotlarni amaliy faoliyatda qo‘llay olish komptensiyasi hosil bo‘lishiga erishadi.

Muhokama va natijalar. “Matn” so‘zi rus va ingliz tillarida chop etilgan adabiyotlarda “tekst” (lotincha “textum” asosida shakllantirilgan “text”) shaklida qo‘llanilib, “bog‘lanish”, “birikish”, “aloqa”, “birikma” kabi ma’nolarni bildiradi”. “Matn ustida ishlash mohiyat e’tibori bilan asar mazmunini o‘zlashtirish, g‘oyaviy-badiiy xususiyatlarini o‘rganish va shu asosda o‘quvchilarning mustaqil fikrlash malakasini shakllantirish orqali ma’naviy-axloqiy tarbiya berish vazifasiga xizmat qiladi” [6].

“Badiiy matn badiiy asar mazmunini ifodalagan, funksional jihatdan tugallangan, tilning tasvir imkoniyatlari asosida shakllangan, o‘zida turli uslub ko‘rinishlarini muallif ixtiyoriga ko‘ra erkin jamlay oladigan, kishilarga estetik zavq berish xususiyatiga ega bo‘lgan g‘oyat murakkab butunlik hisoblanadi. Badiiy matnda boshqa uslub matnlarida bo‘lganidek qat’iy mantiq, soddalik, tushunarlilik, normativlikka qonuniyatlarga to‘la-to‘kis amal qilinavermaydi. Unda badiiy tasvir vositalaridan unumli foydalaniladi. Ta’sirchanlik birinchi planga ko‘tariladi. Ohangdor, jozibador so‘zlar ko‘p qo‘llaniladi” [8]. Binobarin, matndan anglashilgan g‘oyaviy mazmun asosi o‘quvchilarni yuksak tafakkurga ega darajasida bo‘lishga undaydi.

Pedagog va metodist olimlarning izlanishlarida qayd etilishicha, “pedagogika ensiklopediyasida “integrativ yondashuv” tushunchasi quyidagicha talqin qilingan: integrativ yondashuv – ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etish va boshqarishda boshqariluvchi obyektga bir necha yondashuvlar (vaziyatli, tizimli, innovatsion va h.k..)ni birgalikda qo‘llashni anglatuvchi tushuncha. Mazkur atama umumlashtirilgan yondashuvlarni ifodalaydi” [4]. Bizningcha, innovatsion yondashuv, konteksli yondashuv, kommunikativ yondashuv kabi yondashuvlarni integratsiyalagan holda ta’lim jarayoniga tatbiq qilish boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining badiiy matnni tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishni nazarda tutadi.

Bu tushunchani o‘qitishning mazmuniy va protsessual tomonlarining birligi sifatiga qarab, M.N.Berulava ta’lim mazmunini integratsiyalash deganda “ta’lim oluvchilar bilimlarining tizimliligi va zichligi ortishi bilan kechadigan ta’lim mazmunining strukturaviy elementlarining o‘zaro ta’siri jarayoni va uning natijasini tushunadi” [5].

Boshlang‘ich maktabda badiiy matnni mazmuni, tushunchasi, shakli yoki tafsiloti darajasida tushunish uchun badiiy asarni yaxlit tahlil qilish asosiy usul bo‘lib qolishi zarur. Bizningcha, bu masalani hal qilishda asosiy narsa kichik o‘quvchida o‘qiganlari haqida mulohaza yuritish, turli o‘quvchilar uchun ma’no noaniqligini, badiiy matnning ko‘p qirrali va ko‘p ma’lumotliligini ko‘rish istagini shakllantirish va rivojlantirishdir. Bunday ishda o‘quvchiga yo‘naltirilgan ma’lum turdagi savollar yordam beradi:

1. O‘qish paytida qanday fikrlar va his-tuyg‘ular paydo bo‘ldi?
2. O‘qish paytida qanday savollar paydo bo‘ldi (o‘qishdan keyin)?
3. Sizningcha, muallifni yozishga nima undadi?
4. Muallif matnda nima haqida o‘ylaydi?
5. Sizningcha, hikoyaning qaysi sahnasi eng muhim va nima uchun?

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari o‘qish savodxonligi darslarida badiiy, ilmiy-ommabop matnlar vositasida ko‘plab ma’lumotlarga ega bo‘ladilar. Shu bilan bir qatorda, ma’lumotlar o‘quvchilarning bilimini oshiradi, ijodiy fikrlashiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu jihat tabiiy holki, muayyan kontekst mazmunida turli ma’lumot yotadi. Bu esa o‘quvchilarning ma’lumotlar bilan ishlash, keng qamrovli bilimni takomillashtirish rivojiga zamin yaratadi.

O‘qish savodxonligi darsliklarida axborot, idrokni va tafakkurni potensialligini belgilovchi ilmiy, badiiy, hikoya, muhokama matnlarining berilishi matnni o‘qib tushunish, uni tahlil qilish ko‘nikmasining rivojlantirilishini tezlashtiradi. Shu bilan bir qatorda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining og‘zaki va yozma nutq ustidagi kuzatishlar, matnning sintez qilish strukturasi va mazmunini mustaqil tushunilishi talab qilinmoqda. Ma’lumki, matn tarkibidagi gaplar, fikrlar, maqol va hikmatli so‘zlar bilan tanishish bunday so‘zlarni matndan xulosaviy ma’no chiqarish bilan yakunlanadi. Har qanday matnga tanlanadigan so‘zlar qanchalik tarbiyaviylikka, so‘zni qanchalik yaqqol taqdim etmasin, so‘zning faqat konteksdagi ma’nosi bilan va so‘zlar orasidagi aloqaning bog‘liqligini o‘zida mujassam qiladi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari matnni tahlil qilib, idrok etganda matn tarkibidagi barcha so‘zlarning ma’nosini o‘zi mustaqil ravishda tushunib, erkin holatda qiynalmasdan og‘zaki va yozma bog‘lanishli nutq tuza olishi ahamiyatli.

Xulosa. Boshlang‘ich maktabning to‘rt yillik davri o‘quvchining eng faol rivojlanish davri bo‘lib, o‘quvchining keyingi dunyoqarash, tafakkur qilish, munosabat bildirish va ma’naviy rivojlanishi uchun poydevor vazifasini bajaradi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini badiiy matnni tahlil qilishga o‘rgatishda integrativ yondashuvning o‘rni nihoyatda ahamiyatlidir. Badiiy matnni tahlil qilish o‘quvchilarni estetik madaniyatining oshishga, kommunikativ qobiliyatlarining rivojlanishiga, mustaqil va ijodiy fikrlash, mantiqiy xulosa chiqarish ko‘nikmasining hosil bo‘lishiga, nazariy bilimlarning amaliy faoliyatda qo‘llash kompetensiyasining shakllanishiga, dunyoqarashining kengayishiga zamin yaratadi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini badiiy matnni tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish o‘quvchilarni egallagan bilim va ko‘nikmalarni integrativ yondashuv asosida muntazam mustahkamlab borishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. O‘RQ-637. 2020-yil 23-sentabr. https://lex.uz.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. PF-60-son. 2022-yil 28-yanvar. https://lex.uz

3. Ahmedova N.H. Integrativ yondashuv asosida bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish. Diss. – Toshkent, 2020. – B. 268.

4. Aminova F. O‘quvchilarni muloqot matni yaratishga o‘rgatishning didaktik asoslari. Diss. – Toshkent, 2007. – B. 19-21.

5. Берулава, М.Н. Интеграция содержания образования / М.Н.Берулава. – Москва: Педагогика, Бийск: Науч.-изд. центр БиГПИ, 1993. – 172 с.

6. Matjon S. Maktabda adabiyotdan mustaqil ishlar. – Toshkent: O‘qituvchi, 1996. 108-b.

7. Мокина М. Чтение – основа грамотности. Ж. Этносфера. –Москва, 2008. – С. 200.

8. Yo‘ldoshev M., Muhamedova S., Saparniyazova M. Matn lingvistikasi. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: “Ishonchli hamkor”, 2021. 135-136-b.

“AQLLI BOG‘CHA” KONSEATSIYASI ASOSIDA BOLALARNI KASB TANLASHGA QIZIQTIRISH

Djamilova Nargiza Nuritdinovna, Nizomiy nomidagi TDPU professori, pedagogika fanlari doktori.
e-mail: djamilova@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada maktabgacha ta’lim tizimini zamon talablari asosida tashkil etish ma’naviy yetuk avlodni, sog‘lom va har tomonlama yetuk bolalarni, ta’limning samarali shakllarini shakllantirish va tarbiyalash usullarini joriy etishga qaratilgan. Shuningdek “Aqlli bog‘cha” konsepsiyasi asosida zamonaviy o‘quv dasturlari va texnologiyalarini joriy etish, bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlanish uchun shart-sharoitlarni yaratish hamda bolalarni kasbga erkin qiziqishini shakllantirishga e’tibor qaratilgan.

Kalit so‘zlar: maktabgacha ta’lim tashkiloti, erkin kasb tanlash, shaxsning kasbiy rivojlanishi, innovatsion usullar, tarbiyachi, veb-platforma, dasturiy ta’minot.

ЗАИНТЕРЕСОВАТЬ ДЕТЕЙ В ВЫБОРЕ ПРОФЕССИИ НА ОСНОВЕ КОНЦЕПЦИИ “УМНЫЙ САД”

Аннотация. В данной статье организация системы дошкольного образования на основе требований времени направлена на формирование и внедрение методов воспитания духовно зрелого поколения, здоровых и всесторонне зрелых детей, эффективных форм воспитания. Также уделяется внимание внедрению современных образовательных программ и технологий на основе концепции “умный сад”, созданию условий для всестороннего интеллектуального, нравственного, эстетического и физического развития детей, формированию у детей свободного интереса к профессии.

Ключевые слова: дошкольная организация, свободный выбор профессии, профессиональное развитие личности, инновационные методы, воспитатель, веб-платформа, программное обеспечение.

INTERESTING CHILDREN IN CHOOSING A PROFESSION BASED ON THE CONCEPT OF “SMART GARDEN”

Annotation. In this article, the organization of a preschool education system based on the requirements of time is aimed at the formation and implementation of methods of educating spiritually mature generation, healthy and comprehensively mature children, and effective forms of education. Attention is also paid to the introduction of modern educational programs and technologies based on the Smart Garden concept, the creation of conditions for a comprehensive intellectual, moral, aesthetic and physical development of children, and the formation of children of free interest in the profession.

Key words: preschool organization, free choice of profession, professional development of personality, innovative methods, educator, web platform, software.

Kirish. Jahon miqyosida (Finlyandiya, Janubiy Koreya, Yaponiya, Germaniya, Buyuk Britaniya va boshqalar.) bolalarning psixofiziologik, intellektual, ijodiy

salohiyatini oshirishga qaratilgan ijodiy texnologiyalarni ishlab chiqish, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida innovatsion ta’lim muhitini yaratish va bolalarni kasblarga yo‘naltirish, zamonaviy axborot - kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan innovatsion yondashuvlar asosida ilmiy va amaliy tadqiqotlar olib borilmoqda.

Bugungi kunda yangi O‘zbekiston zaminida ma’naviyat, ma’rifat, ta’lim va tarbiya jarayonlari jadal mazmun kasb etmoqda. Bunday o‘zgarishlarni yaratishda yoshlarning bilim, ko‘nikma va ijodkorligi katta ahamiyatga ega. Darhaqiqat, ushbu tamoyil asosida ta’lim va tarbiya siyosati bir nuqtada jamlangan. Ta’lim ham, tarbiya ham o‘z maqsadiga ega. O‘z navbatida, ma’naviyatning bu ikki yo‘nalishi birlashib, shaxsni shakllantiradi. Shu tarzda vaqt bilan uyg‘unlik sharti, bilim usuli va intellektual yetuklik mafkurasi rivojlanadi.

Prezidentimiz Sh. M. Mirziyoev: “Bolalarni kichik yoshdan boshlab rivojlantirish, ularning o‘qishi uchun munosib shart-sharoitlar yaratish orqali kelajakda yoshlarning o‘zligini to‘la namoyon etishiga mustahkam zamin yaratyapmiz. Zero, bu kabi ezgu maqsadimiz yo‘lida sarflangan investitsiyalar ertaga bir necha barobar ortig‘i bilan qaytishiga shubha yo‘q.”, degan so‘zlari respublikamizda yosh avlodni tarbiyalash masalasi davlat siyosati darajasiga ko‘tarilganining yaqqol dalilidir [1].

G‘arbda bir dono so‘z bor: “Ilm Sharqdan tarqaladi”. Bu bejiz emas. Hech kimga sir emaski, qadimda Sharqda ilm-fan yuksak darajada rivojlangan, xususan, bolalarni tarbiyalashga katta e’tibor berilgan. Buyuk Ipak yo‘lining muhim chorrahasida joylashgan vatanimiz o‘tmishda jahon sivilizatsiyalarining beshigi bo‘lganligi haqiqatdir. Muhammad Xorazmiy, Abu Rayxon Beruniy, Ibn Sino, Abu Nasr Farobiy, Ahmad Farg‘oniy, Alisher Navoiy, Mirzo Ulug‘bek kabi ajdodlarimiz katta ilmiy va ma’naviy meros qoldirgan [2].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. “Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standarti” da shunday deyilgan: maktabgacha ta’lim tizimini zamon talablari asosida tashkil etish ma’naviy yetuk avlodni, sog‘lom va har tomonlama yetuk bolalarni, ta’limning samarali shakllarini shakllantirish va tarbiyalash usullarini joriy etishga qaratilgan. Maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarmog‘ini kengaytirish, malakali pedagog kadrlar bilan ta’minlash, bolalarni maktabga tayyorlash darajasini tubdan oshirish. O‘quv jarayoniga zamonaviy o‘quv dasturlari va texnologiyalarini joriy etish, bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlanish uchun shart-sharoitlarni ta’minlash uchun yaratilgan dasturlar bilan tarbiyalash, bu o‘quv jarayoniga zamonaviy yondashuvni ko‘rsatadi. Mamlakatimizda ta’lim tizimini, jumladan, maktabgacha ta’lim tizimini tubdan yangilash va takomillashtirish davlatimiz siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. O‘tgan yillar davomida mamlakatimizda ushbu sohani rivojlantirish uchun mustahkam huquqiy asos va institutlar yaratildi [3].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-4312-son qarori qabul qilingan. Qarorda o‘quv jarayoniga innovatsion va AKTni keng joriy etish, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida STEM ta’lim elementlarini joriy etish, shuningdek shaxsiy, erkin kasbiy qiziqishlarini rivojlantirishga qaratilgan muhit ustuvor vazifalar sifatida belgilangan. Ushbu vazifalar bilan bir qatorda bolalarning intellektual va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan texnologiyalarni ishlab chiqish muhimdir. Raqamli texnologiyalar yordamida vaqt tizimida bolalarning erkin kasblarga qiziqishini aniqlashning innovatsion usulidan foydalanish juda muhimdir.

Bugungi kunda maktabgacha ta’lim tashkilotlarining ustuvor muammolarni hal qilishda vazifalar quyidagilardan iborat [4]:

- maktabgacha ta’lim tashkilotlarining hozirgi holatini tanqidiy tahlil qilish;
- mavjud ta’lim tashkilotlarini rejalashtirish jarayonini tahlil qilish;

- xorijiy tajribani o‘rganish va kerakli xulosalar chiqarish;

- maktabgacha ta’lim muassasalarida kasbiy ko‘nikmalarni shakllantirishga va erkin kasb yo‘nalishini aniqlashga yordam beradigan innovatsion xona dizayni yechimlarini ishlab chiqish;

- bog‘chaga qabul qilingan bolalarni yoshidan qat’i nazar va ta’lim jarayonida ixtiyoriy va erkin kasb xonalarida tarbiyalash. Bog‘chada kasb yo‘nalishiga qiziqishni doimiy kuzatib borish uchun elektron axborot tizimini joriy etish va boshqalar.

Ma’lumki, bolalikdan mehnatga qiziqish, zarur ish qobiliyatlari va shaxsiy fazilatlar shakllanadi. E.F.Seerning so‘zlariga ko‘ra, kasbiy o‘zini o‘zi identifikatsiya qilish-bu ma’lum bir kasb va madaniyatdagi shaxsning o‘zini o‘zi tasvirlashining muhim omilidir.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni kasblar bilan tanishtirishning bir nechta modellari mavjud. E.A.Klimov kasbiy o‘zini o‘zi belgilashni insonning aqliy rivojlanishining eng muhim belgilaridan biri, uni professional jamoaga kiritish jarayoni deb biladi [5].

Shuning uchun insonning kasbiy rivojlanishining har bir bosqichi o‘ziga xos va muhimdir. Psixologning aytishicha, insonning kasbiy rivojlanishi uning hayoti davomida sodir bo‘ladi.

Shunday qilib, shaxsning birinchi kasbiy rivojlanishi o‘z-o‘zini anglashning shakllanish davridan boshlanadi (2-3 yosh) va o‘smirlikgacha davom etadi (10-12.). Keyingi bosqichda-ikkilamchi variantlar-ta’lim va kasbiy sohalarni izlash va tanlash mumkin. Bu jarayon o‘smirlik davrida (15-16 yoshgacha) sodir bo‘ladi.

Shuning uchun, kelajakdagi kasbni tanlash uchun, bolani maktabgacha ta’limdan tayyorgarlikni boshlashingiz kerak. Uning ota-onasi va bobosi qaysi kasb egalari? Bilingki, u turli kasblarning xususiyatlari bilan tanishadi, va u katta bo‘lganida qaysi kasbga ega bo‘lmoqchi shular haqida qiziqish kerak.

Bolalarda kattalar kasbining har xil turlari bo‘yicha ishlashga hurmat bilan munosabatni shakllantirish, inson hayotidagi ish joyi, ish natijalari va ish jarayonida faoliyat yuritayotgan kasb egalari haqidagi fikrlarini boyitish muhimdir.

Tadqiqot metodologiyasi. “Aqlli bog‘cha” kontseptsiyasi uchun maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarning kasbga erkin qiziqishini shakllantirish asosida kasbga aloqador dasturiy platforma yaratish, shuningdek, monitoring asosida kasbga qiziqadigan bolalarning kasbini aniqlash zarur[4]. Jumladan:

- Maktabgacha yoshdagi bolalarning kasblarga qiziqishini rivojlantirishga yordam berish uchun o‘qituvchilarga uslubiy va didaktik yordam ko‘rsatish;

- Maktabgacha yoshdagi bolalarning mustaqil foydalanishlari uchun elektron ta’lim i resurs kasblari katalogini yaratish.

Ushbu loyihaning asosiy maqsadi 3-7 yoshli bolalarni “Aqlli bog‘cha” konsepsiyasi asosida maktabgacha ta’lim tashkilotlaridagi kasblarga yo‘naltirish, ushbu faoliyatga tarbiyachilarni tayyorlash, maktabgacha yoshdagi bolalar uchun elektron dasturiy ta’minot va elektron platforma, kompyuter o‘quv o‘yinlarini yaratishdan iborat.

Umuman olganda, bola kim va qaysi kasbni tanlaydi? Odatda, kasbiy o‘zini o‘zi belgilash masalasi faqat o‘rta maktabda, bola uchun qo‘shimcha ta’lim sohasini tanlash zarurati bilan bog‘liq.

Maktabdan oldin bolalar kattalar faoliyatining mohiyatini tushunishga qodir. Jamiyatni va har bir insonning vazifalarini tushunish uchun bunday bilimlar bolalarning xatti-harakatlarini tartibga solishni ta’minlaydi, ular shaxsiy ish, kattalar ishi va inson ijodiga motivatsiya va munosabatlarni tiklashga yordam beradi. Shunday qilib, ijtimoiy qadriyatlar, ijtimoiy talablar va jamiyatda qabul qilingan normalarni o‘zlashtirish jarayoni kuchayadi, shaxsning axloqiy asoslari shakllanadi. Bu maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalashning asosiy vazifalaridan biridir.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarni o‘qitish uchun ajoyib alternativ [6,7] usullarini joriy etish muhimligini ta’kidlash lozim. Shu jumladan:

- maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama kamolotga yetkazish, ta’lim jarayoniga ta’lim va tarbiya berishning samarali shakllari va usullarini joriy etish;
- maktabgacha ta’lim tizimidagi innovatsiyalar, ilg‘or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish;
- maktabgacha ta’lim tizimi xodimlarini tayyorlash va qayta tayyorlash, o‘qitish, ishga qabul qilish va rivojlantirish uchun yangi kelishuvlarni amalga oshirish;
- kontseptsiyadagi vazifalarni bajarishda erishilgan natijalar, maqsadli ko‘rsatkichlar va tegishli davr uchun mo‘ljallangan asosiy yo‘nalishlar bo‘yicha har yili baholash.

Maktabgacha ta’lim tashkilotining bugungi standarti asosida innovatsion loyihada ko‘rsatilgan talablar asosida maxsus xonalar qurilishi kerak. Bu xonalar bolalar e’tiborini tortadigan kasblar uchun zaruriy bo‘lgan jihozlar va uyinchoqlar bilan boyitiladi. Masalan, texnologiya, san’at, tibbiyot, botanika, zoologiya, geografiya, asosiy fan xonalari va boshqalar. Bu orqali maktabgacha ta’lim tashkilotiga qabul qilingan bolalar yoshidan qat’iy nazar ta’lim olishadi va ta’lim jarayonida o‘z xohishiga ko‘ra va erkin ravishda kasb xonalarda uynashadi va bolalarni qaysi kasb xonalarida faol bo‘lishlarining doimiy monitoring olib boriladi, qaysi kasb ko‘proq qiziqish uyg‘otadi, bola qaysi kasbni tanlagan bo‘lsa, har oy qiziqish qanday ekanligi to‘g‘risida to‘plangan ma’lumotlarga asoslanib tahlil qilinadi. Natijada, bu 4 yillik ta’lim jarayonida kuzatildi. Sotsiologik tadqiqotlar bolaning qaysi kasbga qiziqishini aniqlash uchun amalga oshiriladi.

Masalan, bola 4 yil davomida 70% “texnika” yo‘nalishiga, 20% tabiat yo‘nalishiga, 10% esa san’atga qiziqib ta’lim olgan bo‘lsa, bu keyingi bosqichda maktab, litsey, kollej va universitetlarda tanlagan kasbi bo‘yicha, agar u o‘z yo‘nalishi uchun yaratilgan sharoitlarda ta’lim olsa kelejakda o’z sohasini yetuk mutaxassisi bo‘ladi. Ushbu usulning yana bir muhim jihati shundaki, bola o‘zi kasb tanlaydi

Loyihaning yana bir afzalligi-bu bolalarning ota-onalari uyda bolaning qiziqadigan kasbining shartlari to‘g‘risida ma’lumot olishdan manfaatdor bo‘lgan kasblar haqida ma’lumot olish va o‘qitish imkoniyatiga ega bo‘lishdir.

Tahlil va natija.

Taklif etilayotgan innovatsion loyiha yechimi quyidagi axamiyatga ega:

- maktabgacha yoshdagi bolalarning fiziologik xususiyatlarini hisobga olgan holda kognitiv jarayonlarni rivojlantiradigan “Aqlli bog‘cha” veb-platformasini yaratish;
- maktabgacha yoshdagi bolalarni kasblar bilan tanishtiradigan va ularning kasbiy qiziqishini aniqlashga xizmat qiladigan dasturiy ta’minotni yaratish;
- “Aqlli bog‘cha” kontseptsiyasi uchun bolalarning kasbga erkin qiziqishini shakllantirish uchun dasturiy ta’minot yaratish kerak.

Loyiha natijalarini amaliyotga tatbiq etish maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’lim sifatini oshiradi, bolalarning har tomonlama rivojlanishi uchun shart-sharoitlarni yaratadi va nazorat qiladi, “aqlli bog‘cha” veb-platformasini yaratish va ommalashtirish orqali interaktiv axborot almashinuvi hamda tarbiyachilarning ish tizimidagi resurslarni tejash imkonini beradi [4].

Bundan tashqari, loyiha natijasida quyidagilarga erishish rejalashtirilgan:

- “Aqlli bog‘cha” konsepsiyasi uchun bolalarning kasbga erkin qiziqishini shakllantirish uchun dasturiy ta’minot yaratiladi va amaliyotga tatbiq etiladi;
- innovatsion usullar asosida veb-platformani yaratish va joriy etish maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalar bilan mashgu‘ulotlarni tashkil etishga yordam beradi;

- ilmiy-tadqiqot natijalari asosida maqolalar respublika va ilmiy jurnallarda, “Web of Science” yoki “Scopus” ma’lumotlar bazasida indekslangan nashrlarda maqolalar chop etiladi.

- bolalarning kasbga erkin qiziqishini shakllantirish uchun dasturiy ta’minotni tijoratlashtirishni boshlash uchun innovatsion usullarga asoslangan “aqlli bolalar bog‘chasi” kontseptsiyasining tijoratlashtirish.

Xulosa. Hech shubha yo‘qki, ushbu hayotiy muhim loyihani maktabgacha yoshdagi bolalarni o‘qitish va tarbiyalashda qo‘llash amalda katta samara beradi. Zero, O‘zbekiston kelajagini bugungi yosh avlod yaratadi. Shuning uchun bunday ilg‘or yangilik va g‘oyalarni zamonaviy ta’lim bilan ta’minlash uchun ulardan samarali foydalanishga harakat qilishimiz kerak. Yurtimiz kelajagi bo‘lgan farzandlarimizni zamon talablariga javob beradigan, ilm-fanga chanqoq, intellektual salohiyatli, ijodkor va tafakkuri keng insonlar qilib tarbiyalash maktabgacha ta’lim tizimi oldida turgan dolzarb vazifadir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Kichik yoshdagi bolalarni tarbiyalash va ta’lim berish bo‘yicha ikkinchi Butunjahon konferentsiyasi ochilish marosimidagi nutqi. – Toshkent shahri, 15-noyabr 2022-yil.

2. Qosimov E, Qosimov I. “Aqlli bog‘cha”da innovatsion ta’lim-tarbiya usuli farzandlarimiz baxtli kelajagiga xizmat qiladi. Yangi O‘zbekiston gazetasi № 265, 2022-yil 29-dekabr.

3. Qosimov E.U. “Aqlli bog‘cha” uning qanday afzalliklari bor. Xalq so‘zi gazetasi 2019-yil 29-dekabr,

4. N. N. Jamilova, Sh. T. Khasanova, N. Z. Imamova. Creation of a n Innovative model “Smart Kindergarten”, focused on the free choice of profession by children in preschool educational organizations. Central asian journal of theoretical and applied sciences. Volume: 04 Issue: 12 Dec 2023 ISSN: 2660-5317.

5. Qosimov I., Xakimov R. R., Djamilova N. N. “Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarni erkin kasb tanlashga yo‘naltirish bo‘yicha “Aqlli bog‘cha” innovatsion modelini yaratish” zaruriyati. “Maktabgacha ta’limda davlat va nodavlat sektorini rivojlantirish: yangi shakllari va ta’lim mazmuni” Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami, TDPU, 13-may 2020.

6. Djamilova N. The essence of the development of personal memory in future teachers. Proceedings of the scientific-practical conference on the topic “The role of preschool education and upbringing in the period of the Third Renaissance” Tashkent 2021. March 4, 40-43 p.

7. Djamilova N. Education of physical culture in children of preschool age. Preschool education: international experience and modern approaches “Proceedings of the international scientific and practical conference 2021, May 27. – Tashkent – P. 80-81.

RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR MUHITIDA MAKTABGACHA YOSHIDAGI BOLALARNING INTELLEKTUAL QOBILIYATILARINI RIVOJLANTIRISH

Niyozova Gulnoza Baxtiyor qizi - Guliston davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi
e-mail: niyozova.info@gmail.com

Annotatsiya: Raqamli texnologiyalar muhitida maktabgacha ta’limda yosh avlodni intellektual qobiliyatlarini rivojlantirishda o‘rni va ahamiyati xaqida fikrlar bayon etilgan bo‘lib, raqamli texnologiyalar vositasi yordamida maktabgacha yoshdagi bolalarning intellektual qobiliyatlarini rivojlanishtirishga zamin yaratadi va ta’lim-tarbiya samaradorligini oshirish imkoniyatini beradi.

Kalit so‘zlar: raqamli texnologiya, intellektual qobiliyat, yosh avlod, maktabgacha ta’lim, rivojlanish.

РАЗВИТИЕ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫХ СПОСОБНОСТЕЙ ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА В СРЕДЕ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ

Аннотация: В статье изложены представления о роли и значении цифровых технологий в развитии интеллектуальных способностей подрастающего поколения в дошкольном образовании, что создает основу для развития интеллектуальных способностей детей дошкольного возраста с использованием цифровых технологий и дает возможность повысить эффективность образования.

Ключевые слова: цифровые технологии, интеллектуальные способности, молодое поколение, дошкольное образование, развитие.

DEVELOPMENT OF INTELLECTUAL ABILITIES OF PRESCHOOL CHILDREN IN THE ENVIRONMENT OF DIGITAL TECHNOLOGIES

Annotation: The article presents ideas about the role and importance of preschool education in the environment of digital technologies in developing the intellectual abilities of the younger generation, which creates a basis for developing the intellectual abilities of preschool children using digital technologies and provides an opportunity to increase the effectiveness of education.

Keywords: digital technology, intellectual abilities, younger generation, preschool education, development.

Kirish. Raqamli texnologiyalar bugungi kunda barcha sohalarda qo‘llanilib kelinmoqda, jamiyatdagi axborot oqimlari orqali tarqalib, global raqamlashtirilgan makonni tashkil qilmoqda. Bugungi kunda ular dunyoda keng tarqalmoqda, chunki jamiyatimiz yangilangan axborotni talab etadi. Jamiyat hayotining deyarli barcha sohalarida raqamli texnologiyalardan foydalaniladi. Bugungi kunda ta’lim jarayonlarini raqamlashtirishga katta e’tibor qaratilmoqda, chunki raqamli texnologiyalardan foydalanish o‘qitishning pedagogik usullarini yanada rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Kompyuter texnologiyalari inson faoliyatining barcha sohalariga qamrab oldi. Texnika va texnologiyalardan

foydalanmaydigan hech bir sohani tasavvur qilib bo‘lmaydi. Ta’lim sohasi ham bundan mustasno emas va raqamlashtirish jarayoni bosqichma bosqich amalga oshirilib borilmoqda. Bundan tashqari, kompyuterlar qo‘shimcha o‘qitish vositasi sifatida emas, balki uning samaradorligini sezilarli darajada oshirish uchun mo‘ljallangan yaxlit o‘quv jarayonining ajralmas qismi sifatida qaraladi. Ammo bunday zamonaviy texnologiyalardan har doim ham ta’lim masalalarini hal qilish uchun to‘liq foydalanilmaydi.

So‘nggi o‘n yillikda uzluksiz ta’lim tizimini raqamlashtirish bosqichma bosqich amalga oshirib bormoqda. Hozirgi kunda maktabgacha va maktab ta’lim tizimidan oliy ta’limgacha bo‘lgan jarayonlarda kompyuter, noutbuk, planshet, interfaol doska va boshqa kompyuter jihozlarisiz tasavvur qilib bo‘lmaydi.

Mamlakatimiz rahbari Sh. M. Mirziyoyev “Taraqqiyotga erishish uchun raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallashimiz zarur va shart. Bu bizga yuksalishning eng qisqa yo‘lidan borish imkoniyatini beradi. Zero, bugun dunyoda barcha sohalarga axborot texnologiyalari chuqur kirib bormoqda. Albatta, raqamli iqtisodiyotni shakllantirish kerakli infratuzilma, ko‘p mablag‘ va mehnat resurslarini talab etishini juda yaxshi bilamiz. Biroq, qanchalik qiyin bo‘lmasin, bu ishga bugun kirishmasak, qachon kirishamiz?! Ertaga juda kech bo‘ladi”, deya ta’kidladilar [1].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Ta’limda raqamli texnologiyalar yosh avlodning emas, u eng avvalo, pedagogning texnologiyasidir. Yosh avlod zamonaviy axborot texnologiyasini o’rganmaydi, balki uning mahsulotidan o’qitishning texnik vositasi sifatida foydalanadi. Pedagog zamonaviy texnologiyalarni qo’llab o’quv mashg’ulotlariga tayyorlanadi, darsni tashkil qiladi, yosh avlodni bilimini nazorat qiladi va uning vazifasi ta’lim mazmunini takomillashtirish uchun raqamlashtirishning eng yuqori darajasidagi axborot texnologiyalarini ta’lim jarayoniga olib kirishdan iborat bo‘ladi.

Ta’lim tizimiga raqamli texnologiyalarni joriy etish, o‘qitish sifatini takomillashtirish, rivojlanish bosqichlari va uning o‘quv-metodik ta’minotini yaratish masalalari bo‘yicha respublikamizda A. Abduqodirov, M. Aripov, F. Zakirova, U. Begimqulov, M. Mamarajabov, Q. Olimov, D. Toshtemirov, M. Fayzieva, U. Yuldashev, N. Xaytullaeva, X. Sh. Kadirov, N. S. Mo‘minova va boshqa olimlar tadqiqotlar olib borgan. Hamdo‘stlik mamlakatlarida A. A. Andreev, K. E. Arxipov, V. E. Alekseev, L. Zayniddinova, E. Kuznetsov, S. Krapivka, O. Lavrov, M. Nimatulaev, V. Tedeev, M. Lapchik, E. S. Polat kabi olimlarning tadqiqot ishlarini olib borgan.

A. A. Abduqodirov tomonidan maktabgacha ta’lim tashkilotlarida kompyuterli ta’limiy o‘yinlar o‘tkazishga mo‘ljallangan “asalarilar va gullar” nomli ishlanma, G. E. Djanpeisova maktabgacha ta’limda kompyuter dasturlaridan foydalanishga oid ishlanma, A.Haitov va boshqalar maktabgacha ta’lim tashkilotlari uchun ta’lim vositalari tayyorlaganlar.

S. L. Novoselova, L. A. Paramonova, G. P. Petku va boshqalarning ilmiy tadqiqotlarida maktabgacha yoshdagi balalarni kompyuter va axborot texnologiyalaridan foydalanishda bolalarning rivojlanishi uchun istiqbolli ekanligi ta’kidlaydi. Maktabgacha ta’limni axborotlashtirish sharoitida bolalarni o‘qitish va tarbiyalashning usullari va tashkiliy shakllarini rivojlantirish uchun yangi imkoniyatlar ochilayotganini isbotlab bergan. Maktabgacha ta’lim tizimiga raqamli texnologiyalarni kiritish bolaning intellektual, estetik va axloqiy rivojlanishini boyitishning kuchli omili sifatida qaraladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Maktabgacha yoshdagi bolaning intellektual qobiliyatlarni rivojlanishi uning aqliy rivojlanishining eng muhim tarkibiy qismidir. Inson intellekti, hissiy tajribasining asosi bola hayotining birinchi yillarida qo‘yiladi. Maktabgacha yoshdagi bolalikda idrok, e’tibor, xotira, tasavvurni rivojlantirish,

shuningdek, mavhumlashtirish, umumlashtirish va oddiy xulosalar chiqarishning birinchi shakllarini shakllantirish, amaliy fikrlashdan mantiqiy fikrlashga o‘tish sodir bo‘ladi.

Maktabgacha katta yoshdagi bolalarning intellektual rivojlanishi kognitiv jarayonlar majmuasi bilan belgilanadi: diqqat, idrok, fikrlash, xotira, tasavvur. Maktabgacha katta yoshda bolani boshlang‘ich maktab yoshidagi etakchi faoliyatga – ta’limga tayyorlash kerak, bu holda intellektual qobiliyatlarni rivojlantirish va bolalarda tegishli ko‘nikmalarni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Maktabgacha ta’lim jarayonida yosh avlodni intellektual qobiliyatlarni rivojlantirish va takomillashtirish jarayonida raqamli texnologiyalarining o‘rni va samaradorligi beqiyosdir.

Raqamli texnologiyalar yordamida maktabgacha yoshdagi bolalar turli mavzularni o‘rganish va bilimlarini kengaytirish imkonini beruvchi keng ma’lumotlar bazasidan foydalanish imkoniyatiga ega. Bolalar uchun mo‘ljallangan veb-saytlar, ta’limga oid ilovalar va interaktiv elektron kitoblar ularning yoshiga mos kontent bilan ta’minlaydi, bu ularning qiziqishini uyg‘otadi va mustaqil o‘rganishga undaydi. Raqamli texnologiyalar maktabgacha yoshdagi bolalarning ta’limning dastlabki bosqichlaridanoq qimmatli va xilma-xil ta’lim resurslari bilan tanishishini ta’minlaydi. Raqamli texnologiyalarni maktabgacha ta’limga integratsiyalashgan holda, bolalar yoshligidanoq raqamli savodxonlik ko‘nikmalarini rivojlantiradilar. Ular raqamli qurilmalarda foydalanuvchi interfeyslari bilan ishlashni va kompyuterning asosiy operatsiyalarini tushunishni o‘rganadilar. Ushbu ko‘nikmalar bugungi raqamli dunyoda muhim ahamiyatga ega bo‘lib, ularni kelajakga tayyorlaydi.

Raqamli texnologiyalar vositalari bolalarga o‘z ijodini namoyon qilish va tengdoshlari bilan hamkorlik qilish uchun platformalar yaratadi. Chizish va bo‘yash ilovalari, hikoyalar uchun dasturiy ta’minot va multimedia yaratish vositalari maktabgacha yoshdagi bolalarga intellektual qobiliyatlarini namoyish qilish imkonini beradi. Bundan tashqari, video konferentsiyalar va onlayn platformalar orqali hamkorlikdagi faoliyatlar muloqot, jamoaviy ish va ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantiradi. Raqamli texnologiyalar maktabgacha yoshdagi bolalar uchun moslashtirilgan ta’lim tajribasini beradi. Ta’lim dasturlari va ilovalari bolaning muvaffaqiyatini baholashi, kuchli va zaif tomonlarini aniqlashi va shunga mos ravishda moslashtirilgan faoliyatni ta’minlashi mumkin. Ushbu individual yondashuv har bir bolaning intellektual qobiliyatlarini maksimal darajada oshirish uchun zarur yordam va qiyinchiliklarni olishini ta’minlaydi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning intellektual qobiliyatlarini rivojlantirish faqat uning uchun eng tabiiy, eng jozibali faoliyat shaklida - o‘yinda amalga oshirilishi mumkin. O‘yin g‘oyasiga berilib ketgan bola, u “o‘rganayotganini” sezmaydi, garchi u bir vaqtning o‘zida o‘rganishda qiyinchiliklarga duch keladi va ularni engadi. Intellektual qobiliyatlar iste’dod emas, balki har kim o‘zi xohlagan holda rivojlantira oladigan qobiliyatdir, shuning uchun intellektual rivojlanishda etakchi rol tizimli intellektual ta’limga tegishlidir.

Tahlil va natijalar. Maktabgacha ta’lim tashkilotlaridagi mashg‘ulotlarda raqamli texnologiyalaridan foydalanish ancha nozik masala hisoblanib, ko‘plab munozara va turli xil fikrlarni kelib chiqishiga sabab bo‘lishiga qaramay, maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalash va ularni har tomonlama yetuk inson bo‘lib rivojlanishida, mashg‘ulot jarayonida tarbiyalanuvchilarning badiiy-musiqiy faoliyatini, matnlarni o‘qish, rasmlarni ko‘rish va ajrata bilish tasavvurlarini kengaytirish, kompyuterli o‘yin dasturlari orqali fikrlash va mustaqil qarorlar qabul qilish bilim, malaka va ko‘nikmalarini shakllantirishda raqamli texnologiya vositalaridan foydalanish o‘zining ijobiy samarasini bermoqda.



1-rasm. Intellektual qobiliyatning tarkibiy tuzilmasi

Maktabgacha yoshdagi bolalarning intellektual qobiliyatlarini rivojlanishi uchun mo‘ljallangan barcha kompyuterli o‘yin dasturlarining hammasi ham ta’lim jarayonida o‘z samarasini beravermaydi. Shuning uchun ham kompyuter o‘yinlarini tanlash va ulardan foydalanish uchun jiddiy yondoshuv va e’tibor kerak bo‘ladi. Kompyuterli o‘yin dasturlari shunday yaratilgan bo‘lishi kerakki, unda bajariladigan har bir harakat bolalar tomonidan to‘g‘ri qabul qilinishi, bajarilishi va tasavvur etilishi lozim. O’yin dasturidagi har bir harakatni bola tushuna olish, uni qanday bajarish kerakligini o‘ylash va amalga oshirish imkoniyatiga ega bo‘lishi lozim.

Bundan tashqari maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilarni raqamli texnologiyalar bo‘yicha boshlang‘ich savodxonligini ham oshirish mumkin, ya’ni kompyuterning umumiy tuzilishi, asosiy qurilmalari to‘g‘risida umumiy tushunchalarni, klaviaturadan foydalana olish malakalarini hosil qilish mumkin. Bu bolalarni kompyuter o‘yinlaridan foydalana olish bilim va ko‘nikmalarini shakllanishida asosiy omil bo‘lib hisoblanadi.

Raqamli texnologiyalar nafaqat kattalar hayotining zaruriy va muhim qismiga, balki bolalarni o‘qitish vositasiga ham aylandi. Raqamli texnologiyalar - bu bola bilan ishlashda uning rivojlanishiga yordam beradigan maxsus yo‘nalish. Hozirda u mamlakatimizda hali yetarli darajada rivojlanmagan. Maktabgacha ta’lim tizimida raqamli texnologiyalardan foydalanish maqsadga muvofiq, chunki tarbiyachi bola bilan bir tilda muloqot qilish uchun zamonaviy metodlar va yangi ta’lim texnologiyalari bilan qurollangan bo‘lishi kerak. Hatto e’tiborini uzoq vaqt ushlab turish juda qiyin bo‘lgan giperaktiv bolalar ham katta ekranda taqdim etilgan ma’lumotlarni, hatto turli o‘yinlar va musiqalar jo‘rligida katta qiziqish bilan qabul qilishadi.



2-rasm: Yoshavlod.uz elektron ta’lim platformasining bosh sahifasi

Tadqiqotimizda “yoshavlod.uz” nomli elektron ta’lim platfoma ishlab chiqildi. Uning tarkibiga bolalarning intellektual, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiruvchi hamda mediasavodxonligini oshiruvchi audio video mahsulotlar, didaktik o‘yinlar, slaydlar joylashtirilgan.

Yoshavlod.uz elektron ta’lim platformasi mazmuni bilan tanishish uchun gorizontal va vertikal menyularga murojaat qilinadi. Gorizontal menyu “Bosh sahifa”, “Bolalar uchun o‘yinlar”, “Qiziqarli va foydali”, “Bog‘lanish”, “O‘yinlar”, “Mashqlar” kabi bo‘limlaridan tashkil topgan.

Ma’lumki, intellektual qobiliyatlarni rivojlantirishda ilg‘or va zamonaviy usullardan foydalanish, yangi informatsion-pedagogik texnologiyalarni tadbiq qilish muhim ahamiyatga ega. Ta’kidlash joizki, raqamli texnologiya ta’limning ma’lum maqsadga yo‘naltirilgan shakli, usuli va vositalarining mahsulidir.

Xulosa. Maktabgacha ta’limda raqamli texnologiyalarning joriy etilishi bolaning intellektual, ijodiy va ijtimoiy rivojlanishiga katta hissa qo‘shadi. Ushbu texnologiyalar nafaqat o‘quv jarayonini qiziqarli va samarali qiladi, balki bolalarning zamonaviy dunyoga moslashuvini ham osonlashtiradi. Shu boisdan, raqamli texnologiyalarni maktabgacha ta’limga tatbiq etish bugungi kunda dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Maktabgacha ta’limda raqamli vositalardan to‘g‘ri foydalanish bolalarning bilim olish jarayonini qiziqarli va samarali qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoevning 2020-yil 24-yanvarda Oliy Majlisga yo‘llagan Murojaatnomasi. 2020-y.

2. Abduqodirov A.A., Begmatova N.X. Maktabgacha ta’lim muassasalarida multimedia texnologiyasidan foydalanish uslubiyoti (o‘quv-uslubiy qo‘llanma). – Qarshi: Nasaf, 2011. 257-b.

3. Begmatova N. X. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarining ta’lim-tarbiya jarayoniga multimediaga asoslangan kompyuter o‘yinlarini qo‘llash. Zamonaviy ta’lim 2022, 3(112), 59-67-b.

4. Niyozova G. B. Prospects for the development of intellectual abilities of preschool children. Middle European Scientific Bulletin, Volume 42. Nov-2023. – P. 84-89.

5. G.B.Niyozova G. B. Yosh avlodni intellektual qobiliyatlarini rivojlantirishda raqamli texnologiyalar o‘rni va ahamiyati. –Toshkent: UzMU xabarlari 2023. – B. 130-133.

BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARIDA TARBIYA FANINI O‘QITISHDAGI AKSIOLOGIK YONDASHUVLAR VA ULARNI TAKOMILLASHTIRISH

Kurbanova Dilrabo Xaitbayevna, Guliston Davlat pedagogika instituti doktoranti
e-mail: kurbanovadilrabo858@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqola bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilariga tarbiya fanini o‘qitishda yangi yondashuvlarni qo‘llash maqsadning ochish imkonini berishi va ularning pedagogik faoliyatlarini yanada samarali qilishga yordam berishi masalasi ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: tarbiya qadriyatlari, aksiologiya, aksiologik kompetensiya, milliy qadriyat;

АКСИОЛОГИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ В ОБУЧЕНИИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ И ИХ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ

Аннотация. В данной статье раскрыт вопрос о том, как применение новых подходов к преподаванию дисциплины воспитание будущих учителей начальных классов позволяет раскрыть цель и поможет сделать их педагогическую деятельность более эффективной.

Ключевые слова: ценности воспитания, аксиология, аксиологическая компетентность, национальная ценность;

AXIOLOGICAL APPROACHES IN TEACHING EDUCATION TO FUTURE PRIMARY TEACHERS AND THEIR IMPROVEMENT

Annotation. This article reveals the question of whether applying new approaches to teaching education to future primary school teachers will allow the goal to open up and help make their pedagogical activities more effective.

Keywords: educational values, Axiology, axiological competence, national value;

Kirish. O‘zbekiston ta’lim tizimida tarbiya fanining ahamiyati katta. Tarbiya fani nafaqat bilim berish, balki o‘quvchilarning shaxsiyati, axloqi va umumbashariy qadriyatlarini shakllantirishda ham muhim rol o‘ynaydi. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini tayyorlash jarayonida aksiologik yondashuvlar asosida tarbiya fanini o‘qitish, ta’lim sifatini oshirish va yosh avlodni ma’naviy-axloqiy jihatdan rivojlantirishga xizmat qiladi. Inson uchun qadriyatli bo‘lgan hodisalar, jarayonlar, voqealar mohiyatini anglash aksiologiya jarayonida sodir bo‘lar ekan, ijtimoiy infrastrukturalarda yoshlarda aksiologik qadriyatlar tizimini rivojlantirish, ularni yuksak ma’naviy axloqli, insonparvarlik fazilatlariga ega, o‘z kasbini chuqur biladigan mutaxassis sifatida tarbiyalash muammolarini ilmiy-pedagogik jihatdan tadqiq qilish masalalari yetakchilik qilmoqda.

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda yoshlarni vatanparvarlik, milliy an’ana va qadriyatlarimizga hurmat ruhida tarbiyalash, ma’naviy yetuk va jismonan sog‘lom

barkamol avlodni voyaga yetkazish, ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish borasida muayyan ishlar amalga oshirildi.

Mamlakatimiz yoshlari taraqqiyot kelajagi, ajdodlar merosi davomchilari hisoblanadi. Milliy va ma’naviy qadriyatlar asosida komil insonni tarbiyalashdir bugungi kun davlatimizning asosiy maqsadi bilan mushtarakdir [2].

Komillikka erishish insonning “..... ma’naviy darajasi atrofida yuz berayotgan voqea-hodisalarni qanday qabul qilishi va mustaqil baholay olishiga ham bog‘liq” [3].

Shu sababli, uzluksiz ta’lim tizimida yoshlarning qadriyatlarga yo‘naltirilgan qarashlarini takomillashtirish, ma’naviy dunyosini mustahkamlash uchun milliy qadriyatlarimizga asoslangan boy merosimizdan foydalanish o‘rinlidir.

Aksiologiya – qadriyatlar nazariyasi bo‘lib, insonning hayotidagi muhim qadriyatlarni, ularning shakllanishi va rivojlanishini o‘rganadi [4]. Aksiologik yondashuv ta’lim jarayonida shaxsning ijtimoiy va madaniy qadriyatlari, axloqiy me’yorlari bilan bog‘liq ravishda amalga oshiriladi. Ushbu yondashuv bo‘yicha ta’lim berish jarayonida o‘quvchilarni nafaqat bilim bilan ta’minlash, balki ularning shaxsiyatini rivojlantirish ham maqsad qilinadi.

Har bir davr, har bir millat yoki alohida shaxsning o‘ziga xos qadriyatlari bor. Zamonaviy sharoitda aksiologiya mustaqil ijtimoiy pedagogik xususiyat sifatida baholanmoqda va bugungi kunda aksiologiyaning asosiy tushunchalari – “qadriyat”, “qadriyatlarga yo‘naltirilganlik”, “qadriyatlarni belgilash”, “baholash”, “baholash munosabati”, “qadriyatlarga asoslangan qiymatli mulohazalar” kabi kategoriyalar zamonaviy nuqtai nazardan tavsiflanishi lozim. Bugungi kunda mamlakatimizda “Yangi O‘zbekiston-xalqchil va insonparvar davlat” g‘oyasi amalda. Ushbu g‘oyani amalga oshirish yo‘lida konstitutsiyaviy islohotlarga kirishish ostonasida turibmiz. Bu katta islohotlarimizning mohiyatan yuksalishiga, mantiqiy ta’sirchanligini oshirishga xizmat qilishi tabiiy.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining juda ko‘p moddalarida tarixiy qadriyatlar o‘z o‘rnini topganining shohidi bo‘lamiz. Masalan, diniy bag‘rikenglik doimo o‘zbek xalqining tarixiy qadriyati bo‘lib kelgan. Konstitutsiyamizning 35-moddasida [1] (eski Konstitutsiyada 31-moddasida) hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanishi, har bir insonga xohlagan diniga e’tiqod qilish yoki hech qanday dinga e’tiqod qilmaslik huquqining berilganligi bosh Qomusimizning xalqimiz tarixiy an’analari, qadriyatlariga asoslanganidan dalolat beradi.

Tarixga nazar tashlasak, Amir Temurning xizmatida musulmonlar bilan bir qatorda buddaviylar, nasroniylar va boshqa din vakillari ham bo‘lgan, lekin ularning birortasi kamsitilmagan.

Mamlakatimizda so‘nggi yillarda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamdagi islohotlar har bir inson uchun qadriyatli mental tafakkurni mustahkamlash, huquqiy demokratik davlatni mustahkamlash va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirish negizida ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot va ma’naviy-axloqiy tarbiyaning o‘zaro aloqadorligi, yaxlitligi, uning barkamol avlod tarbiyasi tizimida tutgan o‘rni, tarixiy ildizlari, qadimgi Sharq ma’naviy-axloqiy tarbiya taraqqiyotini rivojlantirishga qaratilmoqda.

Qadriyat - voqelikdagi muayyan hodisalarning umuminsoniy, ijtimoiy axloqiy, madaniy ma’naviy ahamiyatini ko‘rsatish uchun qo‘llanadigan tushuncha. Inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo‘lgan barcha narsalar, masalan, erkinlik, tinchlik, adolat, ijtimoiy tenglik, ma’rifat, haqiqat, yaxshilik, go‘zallik, moddiy va ma’naviy boyliklar, an’ana, urf-odat va boshqalar qadriyatlar hisoblanadi. Ijtimoiy fanlarning qaysi sohasida qadriyatga doir tadqiqot olib borilgan bo‘lsa, bu tushunchaga shu jihatdan ta’rif berishga intilishgan [5].

U ob’yekt yoki hodisaning madaniy, ijtimoiy yoki shaxsiy munosabatlardagi odamlar uchun ma’noga ega bo‘lgan oliy ne’matidir. Aksiologiya atamasi 1902-yilda

fransuz olimi P. Lapi [3] tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan bo‘lib, qadriyatlarning tabiati, ularning voqelikdagi o‘rni va qadriyatlar dunyosining tuzilishi, ya’ni turli qadriyatlarning o‘zaro, ijtimoiy va madaniy omillar va shaxs tuzilishi bilan bog‘liqligini o‘rganadi.

Tarbiya fani, bolalar shaxsiyatini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. O‘qituvchilar, ayniqsa, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari, o‘quvchilarning shaxsiy va ijtimoiy qadriyatlarini rivojlantirishda katta mas’uliyatga ega. Ushbu maqolada, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida tarbiya fanini o‘qitishni aksiologik yondashuvlar asosida takomillashtirish metodikasini ko‘rib chiqamiz.

Aksiologik yondashuv, qadriyatlar nazariyasi sifatida, ta’lim jarayonida o’quvchilarning shaxsiy va ijtimoiy qadriyatlarini shakllantirishga qaratilgan. Bu yondashuv, o’quvchilarga hayotda muhim bo’lgan qadriyatlarni tushuntirish va ularni amaliyotda qo’llash imkoniyatini yaratadi. Aksiologik yondashuvning asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat:

- O‘quvchilarga muhim qadriyatlarni (masalan, adolat, xushmuomalalik, mehnatsevarlik) tushuntirish va ularni hayotda qo‘llashga o‘rgatish.
- O‘quvchilarning shaxsiy qadriyatlarini rivojlantirish bilan birga, ularni ijtimoiy qadriyatlar bilan bog‘lash.

Tarbiya fanining dars rejasi va mazmuni, aksiyologik yondashuvni hisobga olgan holda tuzilishi lozim. Darslarda muayyan qadriyatlarni o‘rganishga e’tibor qaratish, o‘quvchilarning fikr va his-tuyg’ularini rivojlantirishga yordam beradi. Darslar davomida interaktiv metodlar (muhokama, rolli o'yinlar, guruhiy ish) qo‘llanilishi kerak.

O‘qituvchi, o‘zining qadriyatlari bilan o‘quvchilarga namuna bo‘lishi lozim. O‘qituvchining vazifasi nafaqat bilim berish, balki o‘quvchilarning ijtimoiy va shaxsiy qadriyatlarini rivojlantirishdir. Shuningdek, dars davomida o'quvchilarning fikrlarini tinglash va ularga turli vaziyatlarda qanday qadriyatlar muhimligini muhokama qilish zarur.

O‘quvchilarni baholashda formativ baholash usullaridan foydalanish muhimdir. Bu usul orqali o‘quvchilarning o‘zaro munosabatlari va faoliyatlari asosida baholash amalga oshiriladi. O‘quvchilarga refleksiv yondashuvni qo‘llash orqali o‘z fikrlarini ifodalash va o‘zgarishlarni his qilish imkonini berish kerak.

Aksiologik yondashuvlar asosida tarbiya fanini o‘qitishni takomillashtirish bo‘lajak boshlang’ich sinf o‘qituvchilarining pedagogik mahoratini oshirishga yordam beradi. Bu yondashuv nafaqat bilim berish, balki shaxsiy va ijtimoiy qadriyatlarni shakllantirishga ham qaratilgan. Shunday qilib, o‘quvchilar nafaqat bilimdon, balki ijtimoiy jihatdan mas’uliyatli shaxslar bo‘lib yetishadilar.

Tadqiqot natijasida shu holat aniq bo‘ldiki, o‘qitishda aksiyologik yondashuvni amalga oshirish quyidagi jihatlarga e’tibor qaratish lozim:

a) O‘qituvchi tarbiya fanining mazmuniga kiritiladigan muhim insoniy qadriyatlarni aniqlashi kerak. Bu qadriyatlar ichida adolat, samimiyat, mehr-oqibat, vatanparvarlik kabi asosiy tushunchalar bo‘lishi mumkin.

b) Tarbiya fani boshqa fanlar bilan integratsiya qilib olib borilishi lozim. Misol uchun, tarix darslarida vatanparvarlikka oid mavzularni kiritish orqali tarixiy shaxslarning qadr-qimmatini tushuntirish mumkin.

d) O‘quvchilarni turli amaliy mashg‘ulotlarga jalb qilish orqali ularning aksiyalarini rivojlantirish mumkin. Masalan, ijtimoiy loyihalar yoki jamoat ishlariga jalb qilish orqali qardoshlik hissiyotlarini kuchaytirish maqsadga muvofiqdir.

e) O‘quvchilarga o‘z fikrlarini ifoda etishga imkon beruvchi muhit yaratish zarur. Bu esa ularning fikrlash qobiliyatini rivojlantiribgina qolmay, balki o‘z faoliyatlariga baho berishga yordam beradi.

f) O‘qituvchi aksiyalarni namoyon qilishda model sifatida xizmat qiladi. U o‘zining axloqiy me’yorlariga amal qilib, talabalarga yaxshi namuna ko’rsatishi kerak.

Xulosa, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida tarbiya fanini o‘qitishni aksiologik yondashuvlar asosida takomillashtirish metodikasi boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini yanada mustahkamlashi mumkin. Bu jarayon davomida nafaqat bilim berilishi, balki yosh avlodning ma’naviyligi va axloqiy ham shakllanadi. Shunday qilib, aksiologik yondashuvlar jamiyatimizda ijobiy o‘zgarishlarga olib kelishi mumkin. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida tarbiya fanini o‘qitishni aksiologik yondashuvlar asosida takomillashtirish aksiologik kompetentlikni rivojlantirish uchun, avvalambor, tarbiya mexanizmlarini takomillashtirish zaruratini keltirib chiqaradi va bu ijtimoiy ehtiyoj va pedagogik muammo sifatida, uning milliy va umumbashariy zaminini mustahkamlash asosida o‘quvchi-yoshlarga zamon talablari va jahon andozalari asosida bilim va ma’lumot berish bilan birga, ularda yuksak ma’naviy madaniyat, axloq va ma’rifat fazilatlarini singdirish va tarbiyalashda mujassamlashadi.

Ushbu maqola orqali biz ta‘lim jarayoniga yangi qarashlarni kiritishga harakat qildik va aksiologik yondashuvlarning ahamiyatini ko‘rsatdik. Bularning barchasi kelajak avlodimizga yaxshilik va taraqqiyot olib kelishi uchun zarurdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (yangi tahriri). https://lex.uz/uz/docs/-6445145

2. Respublikasi Prezidentining 2017-yil 5-iyuldagi “Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish to‘g‘risida”gi PF-5106-son, 2019-yil 8-oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Kontseptsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son Farmoni. https://lex.uz/docs/-3255680

3. Sidikov B. S. Umumiy o‘rta ta’limda aksiologik tarbiya mexanizmlarini takomillashtirish pedagogik muammo sifatida. // Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences.2023. ISSN: 2181-1784

4. https://uz.wikipedia.org/wiki/Aksiologiya

5. https://uz.wikipedia.org/wiki/Qadriyat

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING IJODIY QOBILIYATLARINI SHAKLLANTIRISHNING MAQSADI, VAZIFALARI VA SAMARADORLIGI

Xolyigitova Baxor Kimsanboyevna, Guliston davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi
e-mail: bahoroybahoroy42@gmail.com

Annotatsiya. Talim jarayonida o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatni rivojlantirish ta’lim jarayonidagi dolzarb masala sanaladi. O‘quvchilarni kutilmagan pedagogik vaziyatlarda bilim va ko‘nikmalarni qo‘llay olishga kasbiy va kundalik masalalarni hal qilishga tayyorlash ta’lim jarayonidagi asosiy vazifalardan biridir. Ushbu tezisda badiiy adabiyotlar orqali topshiriqlar berish orqali boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ijodiy qobiliyatini shakllantirish masalalari ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: zehn, intellekt, badiiy adabiyot, ijodiy qobiliyat, metod, dars, o‘qitish, mantiqiy fikrlash, iste’dod, xotira;

ЦЕЛЬ, ЗАДАЧА И ЭФФЕКТИВНОСТЬ ФОРМИРОВАНИЯ ТВОРЧЕСКИХ СПОСОБНОСТЕЙ МЛАДШИХ ШКОЛЬНИКОВ

Абстрактный. Развитие творческих способностей учащихся в учебном процессе считается актуальной проблемой образовательного процесса. Подготовка студентов к применению знаний и умений в нестандартных педагогических ситуациях, решению профессиональных и бытовых задач является одной из основных задач образовательного процесса. В данной диссертации рассматриваются вопросы формирования творческих способностей учащихся начальной школы посредством заданий с использованием литературных произведений.

Ключевые слова: ум, интеллект, литература, творческие способности, метод, урок, обучение, логическое мышление, талант, память;

PURPOSE, TASK AND EFFECTIVENESS OF FORMING THE CREATIVE ABILITIES OF PRIMARY STUDENTS

Abstract. The development of students' creative abilities in the educational process is considered a pressing issue in the educational process. Preparing students to apply knowledge and skills in unexpected pedagogical situations to solve professional and everyday problems is one of the main tasks in the educational process. This thesis examines the issues of shaping the creative abilities of primary school students through assignments using fiction.

Keywords: mind, intelligence, fiction, creative abilities, method, lesson, teaching, logical thinking, talent, memory;

Kirish. Prezidentimiz tashabbusi bilan 30-iyun – Yoshlar kuni, deb belgilangan. Yangi O‘zbekistonda kelajagimiz bunyodkorlari bo‘lmish yosh avlodni qo‘llab – quvvatlash maqsadida e’lon qilingan bu shukuhli bayramni keng nishonlaymiz hamda qobiliyatli, iste’dodli yoshlarni kashf etamiz va ularni rag‘batlantiramiz. Mustaqillikning ilk yillaridan to shu kungacha O‘zbekiston

Respublikasida qobiliyatli yoshlarni aniqlash, kreativ tafakkuri, kreativlik sifatlarini rivojlantirish, ularga ta’lim-tarbiya berish va qo‘llab-quvvatlash masalasiga davlat siyosati darajasida ahamiyat berila boshlandi.

“Ijodkorlik” va “Ijodiy qobiliyat” tushunchalari o‘rtasidagi munosabat, shuningdek talabalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish borasida qator olimlar izlanish olib borgan. Qadimgi yunon olimlari Platon, Aristotel, Avgustin ijodiylik tushunchasini tadqiq etgan. Shuningdek, J. Bruno, B. Spinoza, I. Kant, S. Rubinshteyn, G. Uolles va boshqalarning asarlarida ham o‘z aksini topgan.

D. B. Elkoninning ta’kidlashicha, ijod o‘zaro bog‘liq qobiliyatlarning bir butun tizimi elementlarni: tasavvur, assotsiativlik, fantaziya, xayolparastlikni o‘zida mujassamlashtirgan qobiliyatdir. Shaxsiy faoliyatning eng yuqori shakli sifatida ijod uzoq tayyorgarlik, donolik, ijtimoiy intellekning yuqori darajada bo‘lishini taqozo qiladi.

Asosiy qism. Ma’lumki, asosiy tushunchalardan biri hisoblangan “qobiliyat” atamasi hamda u bilan sinonim sifatida qo‘llaniluvchi “iqtidor”, “iste’dod”, “salohiyat” atamalarining mohiyati mavjud manbalarda turlicha ifodalansa-da, biroq ularni mazmuni o‘zaro o‘xshash qirralar ham mavjud. Chunonchi, shaxsning har qanday o‘ziga xos xususiyatlari tug‘ma bo‘lib, u juda yoshlikdanoq namoyon bo‘ladi. Manbalardan ma’lumki, Z. M. Bobur buyuk shoir, tarixchi, geograf, davlat arbobi, iste’dodli sarkarda, boburiylar sulolasining asoschisi, temuriy shahzoda. U adabiyot, nafis san’at, tabiat go‘zalligiga yoshligidan mehr qo‘ygan. Bobur Temuriylar naslidan bo‘lsada, yoshligidan otasi saroyida ustozlar rahbarligida ilmlarning asosini egalladi. Mirzo Ulug‘bek ham yoshligidan yuksak saviyali, irodali, zo‘r bilimdon bo‘lgan. Qobiliyat, iqtidor, iste’dod va salohiyat ham zarur shart-sharoitlar, muhit mavjud bo‘lgan vaqtdagina yuzaga chiqishini bilamiz.

Buyuk alloma Alisher Navoiyning shoirlik iste’dodini shakllanishida muhit va ota-onaning ta’siri juda katta rol o‘ynagan. Alisherning otasi G‘iyosiddin kichkina badiiy adabiyotni juda sevar edi. Ularni xonadonlarida she’rxonlik kechalari o‘tkazish odat tusiga kirgan edi. Abu Rayhon Beruniy ham, bolaligidan ancha talabchan va bilimga ishtiyoqi zo‘r bo‘lgan. Oddiy oiladan chiqqan buyuk olimdir. Demak, individual yondashuv, doimiy o‘qib-o‘rganish va harakat ularni yanada rivojlantirishga yordam beradi. Masalan, Isak Nyuton geniy yoki juda katta aql egasi. U Angliyaning Vulstron qishlog‘ida oddiy fermer oilasida tug‘ildi. Buvasining tarbiyasida, yetimlikda mashaqqatli mehnat qilib, jahonga mashhur olim bo‘ldi, barcha havas qiladigan shaxs sifatida tanildi.

Ijodiy qobiliyat individual xususiyatga ega xislat bo‘lganligi bois pedagogik kollejlarning har bir o‘quvchisida uning mavjud ekanligini o‘rganish talab etiladi. Bu esa o‘ta murakkab jarayon bo‘lib, mutaxassislarni jalb etish va alohida tashkiliy-texnik va pedagogik tayyorgarlik asosida ish ko‘rishni taqozo etadi. Bu jarayonda qobiliyat negizida aks etuvchi psixologik xususiyatlar inobatga olinishi juda muhimdir. Shu sababli uzoq vaqt izlanishlarimiz o‘laroq maqolada shaxs qobiliyatining psixologik jihatlarini yoritish maqsadga muvofiq, degan to‘xtamga keldik.

Maxsus adabiyotlarda shaxs qobiliyatining mohiyatiga ko‘ra quyidagicha guruhlanishi ko‘rsatilgan:

1) bilish qobiliyati;
2) ijodiy qobiliyat;
3) hissiy qobiliyat

Bilish qobiliyati so‘nggi 25 yil ichida amerikalik psixologlar tomonidan keng ko‘lamda maxsus o‘rganilib kelinmoqda. Ayni vaqtda u “aqliy-ijodiy qobiliyat” sifatida ham e’tirof etilmoqda. Olim Gilford va uning izdoshlari shaxsning aqliy qobiliyati darajasini belgilovchi 16 omilni asoslaganlar. Jumladan, ko‘chuvchanlik,

ravonlik, tafakkur aniqligi, o‘ziga xosliligi, muammoni izlashdagi ziyraklik va boshqalar.

Intellekt bo‘yicha ham ijodiy qobiliyatli o‘quvchi zukko, zehni tez, mohiyatni aniqlik bilan chuqur anglash, xotira va yodlash qobiliyati, bilimni tez egallashga, tinimsiz izlanishga ega bo‘lishi lozimdir.

Boshlang‘ich sinflarda esa tashkil etiluvchi mashg‘ulotlar hamda auditoriyadan va ta’lim muassasasidan tashqari sharoitlarda o‘quvchilarning “Intellektual ring”, “Zakovat”, “O‘yla, izla, top!”, “Iqtidorlilar oramizda”, “O‘tkir zehnlilar” kabi intellektual o‘yinlar yoki amaliy treninglarga faol jalb etilishi ularning aqliy qobiliyatlarini o‘stirishga yordam beradi. Ularda ijodiy-aqliy mushohada yuritish malakalari rivojlanadi, kreativ tafakkurlari boyib boradi.

Zero, «qobiliyatli bolalar juda yoshlikdanoq voqea-hodisalar o‘rtasidagi sabab-oqibat aloqalarini anglay olish va ularga muvofiq xulosalar chiqarish layoqatiga egaliklari bilan ajralib turadilar.

Haqiqatdan ham Imom Buxoriy bobomiz to‘plagan hadislaridan birida: “Yoshlikda o‘rganilgan ilm toshga o‘yilgan naqsh kabidur” deb ta’kidlangan. Shuning uchun ham ilm yo‘q joyda qoloqlik, jaholat va albatta yo‘ldan adashish bo‘ladi. Eng katta boylik-bu aql-zakovat va ilm, eng katta meros-bu yaxshi tarbiya, eng katta qashshoqlik-bu bilimsizlikdir. Taraqqiyotga erishish uchun raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallashimiz zarur va shart. Chunki, intelektual va madaniy salohiyatning qanday noyob boylik, nodir iste’dod egalarini tarbiyalab, kamolga yetkazishda hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanini unutishga haqqimiz yo‘qligini Prezidentimiz alohida ta’kidlagan.

Shveysariyalik psixolog J. Piaje intellektning kuyidagi rivojlanish bosqichlariga ajratadi:

1. Sensomotor intellekti (tug‘ilishdan to 2 yoshgacha).

2. Operatsiyalardan ilgarigi tafakkur davri (2 yoshdan 7 yoshgacha).

3. Konkret (yakqol) operatsiyalar (aqliy harakatlar) davri (7-8 yoshdan 11-12 yoshgacha).

4. Formal (rasmiy) operatsiyalar (aqliy harakatlarni amalga oshirish) davri.

E. P. Torrance ijodiylik mezonlarini aniqlagan, uning fikricha “birinchi mezon-nostandartlik ijodiy qobiliyat va originallik bilan o‘xshash bo‘lib, o‘ziga xoslikka nisbatan kengroq tushunchadir. Ikkinchi mezon - anglanganlikdir.

Badiiy adabiyot inson ruhiyatiga ta’sir etish omilidir. Badiiy adabiyot mashg‘ulotlarida ko‘zda tutiladigan asosiy maqsad - kichkintoylar qalbida badiiy kitobga nisbatan havas uyg‘otish bilan birga, ularning kitobxonlik savodini, kitobxonlik madaniyatini oshirish ham ko‘zda tutiladi.

Buning uchun bolalarning yosh xususiyatlaridan kelib chiqib, quyidagilarga:

a) badiiy asarlarda aks ettiralayotgan ahamiyatga molik g‘oyalarni teranroq tushunish;

b) qahramonlar xulq- atvorini tahlil etib, yaxshi va yomon jihatlarini farqlab, mustaqil baho berish;

c) mantiqli fikrlash: fikrlarini erkin, ravon bayon etish ko‘nikma va malakalarini paydo qilish, shakllantirish va rivojlantirib borishga alohida ahamiyat beriladi.

Ustozlar badiiy adabiyot mashg‘ulotlari samaradorligini oshirishda va badiiy asar tahlilida quyidagi vazifalarni hal etishlari talab etiladi: badiiy asar mag‘ziga singdirilgan asosiy maqsadni aniqlash; asar qaysi jihatlari bilan bolani fikrlashga undamoqda; asar qahramonlarining o‘zaro suhbati; qahramonlar o‘rtasidagi to‘qnashuvlarning sabab va oqibatlariga alohida e’tibor qaratish; badiiy tasvir vositalarini (qahramonlarning qiyofasi, tabiat tasviri; jonlantirish; o‘xshatish) aniqlash; asar janri (ertak, hikoya, she’r) bo‘yicha farqlarga bolalar e’tiborini

qaratish, tushunchalarini mustahkamlash; badiiy asar voqealari asosida mantiqli savollar tuzish; badiiy asar bo‘yicha suhbat- munozara tashkil etish; asar g‘oyasini ochishda xizmat qiluvchi maqol, hikmatli so‘z va topishmoqlardan foydalanish; bolalarning ijodiy fikrlash qobiliyatlarini o‘stirish usullarini izlash (badiiy asar voqeasi yoki qahramonlar sarguzashtini davom ettirish, mustaqil ertak, hikoya yoki she’r, topishmoq va tez aytishlar to‘qish v.b.); asar bo‘yicha ijodiy fikrlashni davom ettirish (bolalar ishtirokida ertak va hikoyalarni sahnalashtirish; qo‘g‘irchoq teatri qo‘yish; teatrga sayohat uyushtirish; mehnat, tasviriy faoliyat, musiqa mashg‘ulotlarida mavzuni mustahkamlash va boshqalar); kitob javoniga yangi kitob va rasmlardan ko‘rgazmalar tashkil etish.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida badiiy adabiyotga qiziqish uyg‘otish orqali insoniyat aql-idrokining nodir namunalarida ifodalangan bilimlar va hayotiy tajribalarni o‘rganishlariga kengroq sharoit yaratiladi. O‘quvchilarda badiiy adabiyotga nisbatan qiziqish uyg‘otishda kitobxonlik asosiy vosita sifatida xizmat qiladi.

Bilishga oid qiziqishlar o‘quv jarayonining dinamik rivojlanishini ta’minlashga ko‘maklashadi. U o‘quvchilarning faol tarzda o‘quv-biluv faoliyatini o‘zlashtirishlariga yordam beradi. Bilishga oid qiziqishlar o‘quvchilarda tashabbuskorlikni tarkib toptiradi. Bu jarayonda o‘quvchining o‘zi yangi bilimlarni o‘zlashtirish usullarini izlab topadi. Natijada ta’lim, tarbiya va rivojlanishning samaradorligi ortadi. Faol bo‘lmagan va xech narsaga qiziqmaydigan o‘quvchilarga o‘qituvchilar kuchli ta’sir o‘tkazib, ularning bilishga oid qiziqishlarini muayyan maqsadga yo‘naltirishlari kerak.

O‘quvchilarning bilishga oid qiziqishlarini rivojlantirish sohasida quyidagi darajalarni ajratib ko‘rsatish mumkin:

- sinchkovlik qiziquvchanlik
- shaxsiy bilishga asoslangan qiziqish ijodiy qiziqish.

Ular o‘quvchilarning u yoki bu o‘quv predmetiga nisbatan turli- tuman qiziqishlarini ifodalaydi. Hali o‘rganilmagan bilimlarni o‘rganishga intilish, yangi axborotlarni o‘zlashtirish kabilar shular jumlasidandir.

Ijodiy qiziqishlarning namoyon bo‘lish bosqichi quyidagilarni o‘z ichiga oladi: mustaqillik, o‘quvchining qayta shakllangan faoliyati, o‘z oldilarida turgan muammolarning yangicha yechimlarini ta’minlovchi usullarni qo‘llash, o‘z ijodiy layoqatlarini namoyon qilish kabilar.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, boshlang‘ich ta’limning asosiy vazifalaridan biri o‘quvchilarda kitobxonlik vositasida badiiy adabiyotga qiziqishni shakllantirishdan iborat. Bu muhim masalalardan biri bo‘lib, kitoblar va kitobxonlik o‘quvchilarga ta’lim-tarbiya berish va ularni rivojlantirishda katta ahamiyat kasb etadi. Bir so‘z bilan aytganda, o‘quvchilar ijodiy qobiliyatini rivojlantirishning o‘ziga xos jixatlari Yangi O‘zbekiston yoshlari iste’dodini kashf etib, yangidan yangi cho‘qqilar sari yetaklaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoev Sh. M. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2022. – B. 255.

2. Umarova F. va boshqalar. Bola shaxsini rivojlantirishga yo‘naltirilgan ta’lim. 2-modul. – Toshkent, 2011.

3. Mirjalolova L. Bolalarni gapirtirib o‘ynaladigan o‘yinlarga nutqiy jihatdan tayyorlash. – Toshkent, 2015

4. Asqarova M., Qodirova G‘. Kichik yoshdagi bolalar nutqini o‘stirish – Toshkent: O‘qituvchi. 2011.

5. Genis Aleksandr. Qalb fotografiyasi. Jahon adiblari adabiyoti haqida. – Toshkent: Ma’naviyat 2010.

6. Yusupova K. O‘quvchilarda kreativlik kompetensiyasini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish. –Toshkent, 2022. – B. 12.

7. Kholyigitova Bakhor Kimsanboyevna “Using artistic literature in forming the creative skills of primary class pupils”. Science Innovation, 2023. – B. 253-257.

8. Xolyigitova B. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ijodiy qobiliyatlarining shakllanishiga to‘sqinlik qiluvchi omillar va ularni bartaraf etish yo‘llari. Наука и инновация, 1(1), 2023. – B. 73-75.

TA’LIMNI RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA TA’LIM SIFATINI TA’MINLASHNING PSIXOLOGIK SHARTLARI

Islamova Durdonaxon Rustamxon qizi, Guliston davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti
e-mail: Islamovadurdona24@gmail.com

Annotatsiya. Bugungi kunda ta’lim tizimini zamonaviylashtirish va uni axborot-kommunikatsion texnologiyalar (AKT) yordamida takomillashtirish dolzarb masala hisoblanadi. Oliy ta’lim sifatini oshirish va uni boshqarish jarayonida raqamli texnologiyalarning o‘rni tobora ortib bormoqda. Ushbu maqolada ta’limni raqamlashtirish sharoitida oliy ta’lim sifatini boshqarishning psixologik shartlari tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: metodologiya, raqamli ta’lim, rivojlanish, ta’lim, tarbiya, psixologik shartlar, integratsiya, axborot vositalari;

PSYCHOLOGICAL CONDITIONS OF QUALITY MANAGEMENT IN HIGHER EDUCATION IN THE CONTEXT OF DIGITALIZATION OF EDUCATION

Abstract. Today, the modernization of the education system and its improvement with the help of information and communication technologies (ICT) is an urgent issue. The role of digital technologies in improving the quality of higher education and its management is increasingly increasing. This article analyzes the psychological conditions for managing the quality of higher education in the context of digitalization of education.

Keywords: methodology, digital education, development, education, upbringing, psychological conditions, integration, media;

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ УСЛОВИЯ УПРАВЛЕНИЯ КАЧЕСТВОМ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВИЗАЦИИ ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация. Сегодня модернизация системы образования и ее совершенствование с помощью информационно-коммуникационных технологий (ИКТ) является актуальной проблемой. Роль цифровых технологий в процессе повышения качества высшего образования и управления им возрастает. В данной статье анализируются психологические условия управления качеством высшего образования в условиях цифровизации образования.

Ключевые слова: методика, цифровое образование, развитие, образование, обучение, психологические условия, интеграция, носители информации.

Kirish. Keyingi yillarda mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning ustuvor yo‘nalishlariga hamda xalqaro standartlar talablariga mos keladigan oliy ta’lim tizimini yaratish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Hududlarda yangi oliy ta’lim muassasalarining tashkil etilishi, kadrlar tayyorlashning

zamonaviy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari hamda sirtqi va kechki bo‘limlarning ochilishi, oliy ta’lim muassasalariga qabul kvotalarining oshirilishi mazkur yo‘nalishdagi muhim islohotlar hisoblanadi. Shu bilan birga oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirishga, respublikada amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar, ijtimoiy va iqtisodiy sohalardagi yangilanishlarda ushbu muassasalarning faol ishtirokini ta’minlashga to‘siq bo‘layotgan bir qator muammolar saqlanib qolmoqda, xususan:

Birinchidan, oliy ta’lim tizimida o‘qitishni tashkil etish jarayoni, ta’lim olayotgan talabalar bilimini baholash tizimi bugungi kun talablariga javob bermayapti;

Ikkinchidan, professor-o‘qituvchilarning faoliyatini, bilimini va pedagogik ko‘nikmasini baholashning zamonaviy tizimi mavjud emasligi ta’lim sifatiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda;

Uchinchidan, oliy ta’lim muassasalariga kirish test savollari abituriyentning mantiqiy fikrlash qobiliyatini aniqlash imkonini bermayotganligi iqtidorli yoshlarni oliy ta’lim muassasalariga qabul qilishda muammolar keltirib chiqarmoqda;

To‘rtinchidan, oliy ta’lim muassasalaridagi ta’lim jarayoni ustidan samarali jamoatchilik nazoratining o‘rnatilmaganligi ushbu sohada ko‘plab muammolarning, eng avvalo, korrupsiya holatlarining saqlanib qolishiga sabab bo‘lmoqda;

Beshinchidan, oliy ta’lim muassasalarining mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli va tizimli o‘zgarishlardagi ishtiroki hamda tashabbuskorligi sezilmayapti, ularning ushbu yo‘nalishdagi faoliyati hanuzgacha qoniqarsiz bo‘lib qolmoqda;

Oltinchidan, Respublikamizda olib borilayotgan tub islohotlarning mazmuni va mohiyatini ommaviy axborot vositalari orqali xalqimizga, keng jamoatchilikka tushuntirishda oliy ta’lim muassasalarining faol ishtiroki yo‘lga qo‘yilmagan;


yettinchidan, oliy ta’lim muassasalari innovatsion va texnologik g‘oyalar bilan fikr almashadigan muloqot markazlariga aylanmagan, tegishli sohalarda mavjud muammo va kamchiliklarni tizimli o‘rganish, tahlil qilish va ularning yechimi bo‘yicha taklif kiritish borasida professor-o‘qituvchilar, yosh olimlar va talabalarning tashabbus ko‘rsatishlari uchun zarur shart-sharoitlar yaratilmagan[1].

Metodologiya. Ta’lim sifatini boshqarish talabalarga eng yaxshi ta’lim tajribasini taqdim etish uchun zarurdir. Bu ta’lim muassasalarining o‘z standartlari va maqsadlariga mos kelishini ta’minlaydi, shu bilan birga barcha ishtirokchilar uchun xavfsiz va samarali ta’lim muhitini ta’minlaydi. Sifat menejmenti mas’uliyatni oshirish, yaxshi o‘qitish imkoniyatlarini taqdim etish va doimiy takomillashtirish madaniyatini yaratish orqali talabalar natijalarini yaxshilashga yordam beradi. Bundan tashqari, sifatsiz yoki samarasiz jarayonlar bilan bog‘liq xarajatlarni kamaytirishga xizmat qiladi.

Ta’lim sifatini ta’minlash muhimligini ta’kidlagan holda, professor-o‘qituvchilar o‘z kurslariga egalik qilishlari va vaqt o‘tishi bilan ularning sifatini oshirishda faol ishtirok etishlari mumkin. Bundan tashqari, u barcha bir maqsad sari harakat qilishini ta’minlash uchun bo‘limlar, shuningdek, o‘qituvchilar, ma’murlar va boshqa manfaatdor tomonlar o‘rtasidagi hamkorlikni rag‘batlantiradi: talabalarga mukammal ta’lim berish jarayoni bilan uzviy integratsion jarayon hisoblanadi.

Muhokama. Talabalar va o‘qituvchilarning raqamli ta’lim vositalariga moslashuvida raqamli ta’lim vositalarining keng joriy etilishi talabalar va o‘qituvchilardan yangi bilim va ko‘nikmalarni talab qiladi. Shuningdek, moslashuv jarayonidagi muammolar ham bo‘lib ularni hal qilish talab etiladi. Jumladan, texnologik muammolar- internet sifati va qurilmalarning yetishmovchiligi; yechim sifatida axborot texnologiyalariga investitsiya kiritilishi, talabalar uchun bepul platformalar yaratilishi; raqamli savodxonlik yetishmovchiligi- ayrim o‘qituvchilar

va talabalar yangi texnologiyalarni tez o‘zlashtira olmasligi; yechimsifatida treninglar, onlayn kurslar va qo‘llanmalar orqali texnologik ko‘nikmalarni oshirish; motivatsiya sustligi – ba’zi talabalar va o‘qituvchilar masofaviy ta’limda yetarli darajada faollik ko‘rsata olmasligi; yechim deb gamifikatsiya (o‘yin elementlarini qo‘llash), reyting tizimlari va interaktiv darslarni joriy qilish nazarda tutilsa, ta’lim sifati bo‘yicha xavotirlar muammosida – raqamli ta’limda an’anaviy usullarga qaraganda bilimlar yetarli darajada o‘zlashtirilmasligi mumkin. Bunda yechim deb raqamli ta’limni an’anaviy ta’lim bilan uyg‘unlashtirish (blended learning) nazarda tutiladi. Ushbu muammolar raqamli integratsion ta’lim jarayonida uchraydigan keng qamrovli muammolar sarasiga kiritilib, ularning yechimi ham ma’lum vaqt va mablag‘ talab etiladi. Zero, mamlakatimizning rivojlanish tendensiyalarida mukammal ta’lim tizimi- muqobil o‘qitish tizimini to‘g‘ri tanlashdan boshlanadi. Malakali kadrlar va ularga mos talabchan talabalarnig ta’lim jarayoni, kreativlik bilan yo‘g‘rilgan, kritik ruhda olib borilishi zamon talabi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Ushbu jarayon turli omillarga bog‘liq bo‘lib, quyidagi jihatlar bilan tavsiflanadi:



Natija. Talabalar va o‘qituvchilarning raqamli ta’lim vositalariga moslashuvi uzluksiz jarayon bo‘lib, u texnologik, psixologik va pedagogik yondashuvlarni talab qiladi. Raqamli ta’lim samaradorligini oshirish uchun moslashuv jarayoniga alohida e’tibor qaratish va mavjud muammolarni hal qilish muhim ahamiyatga ega. Raqamli savodxonlikni oshirish, interaktiv ta’lim metodlarini joriy qilish va talabalar-o‘qituvchilar o‘rtasida samarali hamkorlikni shakllantirish raqamli ta’limning muvaffaqiyatli amalga oshishiga xizmat qiladi.

Raqamli ta’limning stress darajasiga ta’siri muhim va murakkab mavzu hisoblanadi. Bu masalani ijobiy va salbiy tomonlarini ko‘rib chiqadigan bo‘lsak.

Ijobiy ta’sirlar:



1. Moslashuvchanlik - O‘quvchilar o‘zlariga qulay vaqt va joyda o‘qish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bu an’anaviy ta’limdagi qat’iy jadval bilan bog‘liq stressni kamaytiradi; o‘z sur’atida o‘rganish - har bir o‘quvchi materialni o‘zlashtirish uchun kerakli vaqtni ajrata oladi. Bu tushunmaslik yoki orqada qolish tufayli kelib chiqadigan xavotirni kamaytiradi. Takrorlash imkoniyati - Murakkab mavzularni qayta-qayta ko‘rish va o‘rganish mumkin. Bu imtihon va baholash bilan bog''iq stressni kamaytiradi. Salbiy ta’sirlariga to‘xtaladigan bo‘lsak:

1. Texnik muammolar - Internet uzilib qolishi, qurilmalarning ishdan chiqishi kabi texnik nosozliklar qo‘shimcha stress manbai bo‘lishi mumkin.
2. Ijtimoiy izolyatsiya - Bevosita muloqotning kamligi, sinfdoshlar va o‘qituvchilar bilan jonli munosabatlarning yetishmasligi ruhiy zo‘riqishga olib keladi.
3. Ekran oldida ko‘p vaqt o‘tkazish - Uzoq vaqt kompyuter oldida o‘tirish jismoniy charchoq va ko‘z toliqishiga olib keladi, bu esa umumiy stress darajasini oshiradi.




Aniq kun tartibi yaratish:

- Muntazam tanaffuslar rejalashtirish
- Jismoniy faollik uchun vaqt ajratish
- Yetarli uyqu va dam olishni

2. Ijtimoiy aloqalarni saqlab qolish:

- Online guruh muhokamalarida qatnashish
- O‘qituvchilar bilan muntazam muloqot qilish





Texnik tayyorgarlik:

- Barqaror internet aloqasini ta’minlash
- Zaxira qurilmalar va variantlarni ko‘da tutish
- Texnik yordam manbalarini oldindan

Shuningdek, salomatlikka e’tibor berib, ko‘z mashqlari to‘g‘ri qomat va ergonomikaga rioya qilish. muntazam jismoniy faollik orqali stressni monitoring qilish muhim:

- O‘z holatini muntazam baholab boorish;
- Zarur bo‘lganda psixologik yordam so‘rash;
- Stress belgilari paydo bo‘lganda o‘z vaqtida chora ko‘rish;

Raqamli ta’lim muhiti stress darajasiga ikki tomonlama ta’sir ko‘rsatadi. Ba’zi stresslarni kamaytirsa, boshqalarini keltirib chiqarishi mumkin. Muhimi - muvozanatni saqlash va stress bilan kurashish usullarini o‘zlashtirish. Onlayn ta’lim motivatsiyasi va uning psixologik jihatlariga keladigan bo‘lsak, onlayn ta’lim tobora keng tarqalib borayotgan bir sharoitda o‘quvchilarning o‘qishga bo‘lgan motivatsiyasini oshirish muhim masalalardan biri hisoblanadi.

An’anaviy ta’limdan farqli o‘laroq, onlayn ta’limda motivatsiyani oshirish uchun maxsus strategiyalar va psixologik yondashuvlar kerak bo‘ladi. Onlayn Ta’lim motivatsiyasiga ta’sir qiluvchi omillar

- Ichki motivatsiya – o‘quvchining bilim olishga bo‘lgan qiziqishi va shaxsiy istagi.
- Tashqi motivatsiya – baholar, sertifikatlar, moddiy yoki ijtimoiy rag‘batlar orqali Ta’lim jarayoniga jalb etish.
- Texnologik qulayliklar – internet sifati, qulay interfeys, oson foydalanish imkoniyati.
- Psixologik omillar – stress, yolg‘izlik hissi, ishtirokchilik darajasi va ijtimoiy aloqalar.
- O‘qituvchining roli – onlayn darslarni qiziqarli tashkil etish, o‘quvchilarning faol ishtirokini ta’minlash.

Onlayn ta’limda motivatsiyani oshirish strategiyalarida maqsadni aniq belgilash, o‘quvchilarga ta’limning foydasi va amaliy ahamiyatini tushuntirish, darslarni real hayotiy vaziyatlarga bog‘lash, gamifikatsiya (o‘yin elementlarini qo‘shish), reyting tizimi, ball to‘plash, mukofotlash kabi elementlardan foydalanish, o‘yin-kvest darslarini tashkil qilish, ijtimoiy aloqalarni qo‘llab-quvvatlash, guruhda ishlash, forumlar va onlayn muhokamalarni yo‘lga qo‘yish, o‘qituvchi va talabalar o‘rtasida jonli aloqa yaratish, psixologik qulaylikni ta’minlash, stress darajasini pasaytirish uchun moslashuvchan ta’lim rejalarini joriy etish, yordam tizimini ishlab chiqish (mentorlik, maslahat berish), interaktiv o‘qitish metodlarini qo‘llash, video, animatsiya, interaktiv testlar bilan boyitilgan materiallardan foydalanish, qisqa, mazmunli va tushunarli dars formatini yaratish, onlayn ta’lim motivatsiyasining psixologik jihatlarini yoritib berish, yolg‘izlik hissini kamaytirish, onlayn ya’limda talabalar ko‘pincha o‘zini yolg‘iz his qiladi. Bu ularning ta’lim jarayoniga bo‘lgan ishtiyoqini pasaytirishi mumkin. Bunda yechim qilib guruh ishlari, do‘stlik muhitini yaratish, muloqotni kuchaytirish tamoyillarini qo‘llash foydadan holi bo‘lmaydi. O‘z-o‘zini boshqarish va vaqtni to‘g‘ri taqsimlash ham ta’limni raqamlashtirish muhitida oliy ta’lim siaftini psixologik shartlarining biri hisoblanadi. Aytib o‘tish joizki, an’anviy ta’limda qo‘llanilgandagidek, onlayn ta’limda ham rag‘batlantirish va o‘zini rivojlantirish uchun sharoit yaratib berish lozim.

Xulosa. O‘quvchilarni o‘z ustida ishlashga undash muhim ko‘rsatkich hisoblanadi. Ijtimoiy jarayonlarga talaba yoshlarni faol jalb etish, zero yoshlar jamiyatning eng faol qatlamidir. Aktiv talabalardan tashqari psixologik nuqatai nazardan, pessimist talabalar ham yo‘q emas. Bunday ta’lim oluvchilar, ta’limga bo‘lgan ichki va tashqi motivatsiyaning sustlashuviga olib keladi. Raqamli ta’limda sharoitida motivatsiyani oshirish uchun texnologik, pedagogik va psixologik yondashuvlar birgalikda qo‘llanishi kerak. Ichki va tashqi motivatsiya omillarini hisobga olib, interaktiv metodlardan foydalanish, gamifikatsiya elementlarini joriy

qilish va o‘quvchilarning ijtimoiy faolligini oshirish orqali ta’lim samaradorligini oshirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 05.06.2018-yildagi PQ-3775-sonli “Oliy ta’lim muassasalarida Ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi Qarori.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risidagi farmoni.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022 – 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmoni. 28.01.2022-yil.

4. Prezident Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 30-yillik bayramiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. 31.08.2021.

5 http://www.orientalstudies.ru

6. http://elibrary.ru/

SIRDARYO VILOYATI TOPONIMLARINING YASHALISHIDA QO‘SHIMCHALARNING AHAMIYATI

Kenjayeva Iroda Alisherovna, Guliston davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi.
e-mail: kenjayeva88iroda@gmail.com
Bolibekov Alisher Abdusalomovich, Guliston davlat pedagogika instituti “Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim metodikasi” kafedrasi dotsenti
e-mail: alisher1960pc@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada Sirdaryo viloyatiga qarashli bo‘lgan joy nomlari yasalish jihatidan tahlil qilingan. Sirdaryo viloyati toponimlarining shakllanishida qo‘shimchalarning ta’siri, xususan, so‘z yasovchi qo‘shimchalarning o‘rni va ahamiyati, ularning lug‘aviy ma’nolari haqida fikr yuritiladi. Sirdaryo viloyati toponimlarining izohli lug‘ati maqolaning asosiy manbaasi sifatida xizmat qilgan.

Tayanch so‘z va iboralar. so‘z, qo‘shimcha, toponim, lug‘aviy ma’no, so‘z yasovchi qo‘shimchalar;

ЗНАЧЕНИЕ ДОПОЛНЕНИЙ В СОЗДАНИИ ТОПОНИМОВ СЫРДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ

Абстрактный. В статье анализируется состав топонимов, относящихся к Сырдарьинской области. Обсуждается влияние суффиксов на формирование топонимов Сырдарьинской области, в частности, роль и значение словообразовательных суффиксов, их словарные значения. Основные источникомстатьи послужил толковый словарь топонимов Сырдарьинской области.

Основные слова и фразы. слово, суффикс, топоним, словарное значение, словообразовательные суффиксы;

THE IMPORTANCE OF ADDITIONS IN THE CREATION OF TOPONYMS OF THE SYRDARYA REGION

Abstract. The article analyzes the composition of place names belonging to the Syrdarya region. The influence of suffixes in the formation of toponyms of the Syrdarya region, in particular, the role and importance of word-forming suffixes and their dictionary meanings are discussed. The explanatory dictionary of toponyms of Syrdarya region served as the main source of the article.

Basic words and phrases. word, suffix, toponym, dictionary meaning, word-forming suffixes;

Kirish. Hech bir inson o‘zi yashaydigan ko‘cha, mahalla, qishloq yoki shaharning nomlanishiga bee’tibor emas. Ota-onalar o‘z farzandlariga “Qayerliksan?”, “Qayerda yashaysan?”, “Qaysi mahalladansan?”, “Qaysi ko‘chada yashaysan?” degan savollarga javob berishni bolaligidan o‘rgatadilar. Bu savollarga insonlar azal-azaldan javob berib kelganlar. Javob berish uchun esa har bir inson o‘zi yashaydigan hududning nomini juda yaxshi bilishi lozim. Kishilar bir-biri bilan til orqali muloqotga kirishganligi uchun ham tilni ijtimoiy hodisa deb hisoblaymiz.

Tilshunoslikda joy nomlari bilan shug‘ullanuvchi bo‘lim “Toponimiya” deb yuriladi. “Bir joyning ikkinchisidan, bir jilg‘ani boshqa jilg‘adan, bir ko‘chani yonidagi ko‘chadan, tog‘-adirlarni, shahar va qishloqlarni bir-biridan farq qilish uchun ham kishilar nomlar o‘ylab chiqargan. Joy nomlari, geografik nomlar yoki toponimlar deb ataladi. Toponimlarni toponimika fani o‘rganadi. Toponimika yunoncha topos – joy va onoma (yoki onima) – nom so‘zlaridan tarkib topgan”.[1]

Tadqiqot obyekti va qo‘llanilgan metodlar.

Joy nomlari bilan bog‘liq savollar nafaqat tilshunoslik, toponimika fani bilan shug‘ullanadigan kishilarni qiziqtiradi, balki oddiy inson uchun ham bu juda muhim sohadir. Chunki kundalik hayotimizda joy nomlari bilan bog‘liq savollarga ko‘p bor duch kelamiz. Texnika taraqqiy etayotgan davrda insonlarning talab va ehtiyojlariga muvofiq turli xil internet bilan bog‘liq ilovalar hayotimizga kirib kelmoqda. Misol tariqasida “Geo joylashuv”, “Lokatsiya” va “Navigator” kabi ilovalar manzillarning nomlari, joylashgan yeri, mo‘ljali haqida ma’lumotlar beradi. Bu esa, albatta, kishilarga qulayliklar yaratadi.

Mamlakatimizda barcha viloyatlar toponimlari xususida ilmiy izlanishlar, tadqiqotlar olib borilayotgani singari Sirdaryo viloyatining toponimiyasi to‘g‘risida ham bir qancha izlanishlar amalga oshirilmoqda. Bu say-harakatlarning natijasida yangi-yangi ilmiy adabiyotlar dunyo yuzini ko‘rmoqda. Bularga T. Jamolovning “Mirzacho‘l: kecha, bugun, erta”, N. Mingboyevning “Mirzacho‘l toponimiyasi”, Pirimqul Do‘st Muhammadning “Sirdaryo kecha va bugun”, R. Turdiyevning “Sirdaryo chinorlari”, M. Xodjiyev, S. Qudratov, B. Samadovlarning “Sirdaryo tarixi”, Ixtiyor Ermatovning “Sirdaryo viloyati toponimlarining izohli lug‘ati”, B. To‘ychiboyevning “Sirdaryo viloyati toponimlari” nomli bir qancha ilmiy adabiyotlar, qo‘llanma va monografiyalarni keltirish mumkin. Ushbu adabiyotlarni ilmiy manbaa sifatida olib yana boshqa ilmiy maqolalar ham yaratilmoqda. Qalam urilayotgan ushbu maqolamizda Guliston davlat universiteti “O‘zbek tilshunosligi” kafedrasi professori Ixtiyor Ermatovning “Sirdaryo viloyati toponimlarining izohli jug‘ati”dan foydalangan holda viloyatdagi joy nomlarining yasalishiga oid ilmiy qarashlar keltirishni maqsad qilib oldik.

Olingan natijalar va ularning tahlili

Bilamizki, o‘zbek tilining boyish manbaalaridan biri bu ichki imkoniyatidir, ya’ni so‘z yasovchi qo‘shimchalar yordamida yangi so‘z hosil qilish. So‘z yasalishi lug‘aviy ma’noning o‘zgarishi natijasida paydo bo‘lib, yasama so‘z bir so‘z turkumidan boshqa bir so‘z turkumiga ko‘chadi. Masalan, Sirdaryo viloyatiga qarashli ***“Ahillik”*** nomli mahallani olaylik. Bu so‘zning yasalishida *ahil* – sifat so‘z turkumiga oid asosga *–lik* so‘z yasovchi qo‘shimchasi qo‘shilishi natijasida *ahillik* – ot so‘z turkumiga oid yangi so‘z hosil bo‘lgan. Ushbu yasama so‘z ma’lum bir hududga nom qilib berilganligi uchun ***Ahillik*** deya bosh harf bilan yoziladi. Sirdaryo viloyatiga qarashli joy nomlarining katta qismini yasama so‘zlar tashkil etadi. O‘zbek tilidagi so‘z yasovchi *–goh, -iston, - liq, -loq, -ma, -oq, -zor, -lik, -li, -chi, -chilik, -iy, -kor, -la* kabi qo‘shimchalar viloyatdagi joy nomlarida ham o‘z aksini topgan. Quyida Sirdaryo viloyatidagi tuman, qishloq, mahalla, saylgoh, bog‘, kanal va hatto qabriston nomlarining ham yasalishiga oid ma’lumotlarni o‘rganish mumkin.

№	Asos	Qo‘shimcha	Joy nomi
1	Ahil (sifat) arabcha so‘z bo‘lib, yaqin, inoq ma’nolarini bildiradi.	*-lik*	**Ahillik.** Oqoltin va Sardoba tumanlaridagi qishloq, Sirdaryo, Oqoltin, Guliston tumanlari va Guliston shaharlaridagi mahalla nomi.
2	Bir (son)	*-lik*	**Birlik.** Hamjihatlik, yakdillik, mushtaraklik kabi ma’nolarni bildiradi. Sardoba

			tumanidagi mahalla nomi.
3	Inoq (sifat) ahil holat, munosabat.	*-lik*	**Inoqlik.** Guliston shahridagi mahalla nomi.
4	Do‘st (ot) birodar, oshna, o‘rtoq ma’nolarini bildiradi.	*-lik*	**Do‘stlik.** Boyovut, Xovos va Mirzaobod tumanlaridagi qishloqlar nomi. Viloyatdagi barcha tuman va shaharlarda Do‘stlik nomli mahallalar mavjud. Guliston shahri markazidan oqib o‘tuvchi kanalning nomi ham Do‘stlik. Sayxunobod tumanidan oqib o‘tuvchi kanalning nomi ham Do‘stlik. Sirdaryo va Sayxunobod tumanlaridagi qabristonlar nomi ham Do‘stlik deb atalgan. [2]
5	Mangu (sifat) abadiylik, abadiyat.	*-lik*	**Mangulik.** Sirdaryo, Xovos va Yangiyerdagi qabriston nomi.
6	Ozod (sifat) erkinlik, hurlik ma’nolarini bildiradi.	*-lik*	**Ozodlik.** Boyovut tumanidagi mahalla nomi.
7	Tin (fe’l) Tinch (sifat) tinch, osoyishta holat.	*-ch, -lik*	**Tinchlik.** Mirzaobod va Xovos tumanlaridagi aholi yashash joyi. Mirzaobod, Xovos, Boyovut va Sirdaryo tumanlaridagi mahalla nomi.
8	Yosh (sifat) o‘smirlik, navqironlik,	*-lik*	**Yoshlik.** Mirzaobod tumanidagi qishloq.
9	Zomin (ot) Jizzax viloyati Zomin tumani	*-lik*	**Zominlik.** Sardoba tumanidagi qishloq nomi. Aholi tarkibini asosan Zomin tumanidan ko‘chib kelganlar tashkil etadi.
10	Shod (sifat) shod-xurram holati, xursandchilik, sevinch, quvonch.	*-lik*	**Shodlik.** Oqoltin tumanidagi qishloq va mahalla, Sayxunobod tumani va Guliston shahridagi mahalla nomi.
11	Hikmat (ot) hikmati bor, chuqur mazmunli.	*-li*	**Hikmatli.** Sirdaryo tumanidagi mahalla nomi.
12	Ibrat (ot) namuna, o‘rnak.	*-li*	**Ibratli.** Guliston shahridagi mahalla nomi.
13	Moy (ot) ko‘l (ot)	*-li*	**Moyliko‘l.** Sirdaryo tumanidagi qishloq nomi. Qishloq yonida ko‘l bo‘lgan, hozirda u qurib ketgan.
14	Nur (ot), kel (fe’l) yog‘du, yorug‘, ravshan, porloq.	*-li, -ajak*	**Nurli kelajak.** Xovos tumanidagi mahalla, Mirzaobod tumanidagi massiv nomi. Nurli va kelajak so‘zlarining qo‘shilmasidan hosil bo‘lgan.
15	Nur (ot), hayot (ot)	*-li*	**Nurli hayot.** Sirdaryo tumanidagi aholi yashash hududi. Nurli va hayot so‘zlarining

			qo‘shilmasidan hosil bo‘lgan.
16	Qamish (ot) o‘simlik	*-li*	**Qamishli.** Sayxunobod tumanidagi ko‘l nomi. Qamish so‘ziga xoslikni bildiruvchi *–li* affiksini qo‘shish orqali yasalgan.
17	Sirg‘a (ot) bezak turi.	*-li*	**Sirg‘ali.** Oqoltin tumanidagi aholi yashash hududi. Toshkent shahrining sirg‘ali hududidan ko‘chib kelgan aholi yashaydigan joy.
18	Sir (ot), olam (ot)	*-li*	**Sirli olam.** Yangiyer shahridagi istirohat bog‘i.
19	Uy/O‘y (fe’l)	*-uv, -li*	**Uyuvli/O‘yuvli.** Guliston tumanidagi qishloq nomi. O‘zbeklarning do‘rmon, qo‘ng‘irot qabilalari tarkibida *o‘yuvli* urug‘i bo‘lgan. [3]
20	Yog‘och (ot) og‘och, turk tilida ag‘ach daraxt degani. Sardoba sovuq suv degan ma’noni anglatadi.	*-li*	**Yog‘ochli Sardoba.** Sardoba tumani Gumbaz qishlog‘ida, Toshkent-Samarqand-Buxoro shaharlarini bog‘lovchi avtomagistral yo‘li yoqasida joylashgan me’moriy yodgorlik. Sardoba XVI asrda o‘zbek hukmdori Abdullaxon davrida bunyod etilgan bo‘lib, uning Amir Temur davrida qurilishi bilan bog‘liq rivoyatlar mavjud.
21	Bino (ot) inshoot, qurilish.	*-kor*	**Binokor.** Xovos tumanidagi qishloq, Yangiyer shahridagi mahalla nomi.
22	Bunyod (ot) qurilgan, mavjud.	*-kor*	**Bunyodkor.** Guliston tumanidagi aholi yashash hududi. Boyovut, Sirdaryo, Xovos tumanlari va Shirin shahridagi mahalla nomi.
23	Ijod (ot) yangilik, kashfiyot yaratmoq.	*-kor*	**Ijodkor.** Boyovut tumanidagi mahalla nomi.
24	Paxta (ot) o‘simlik.	*-kor*	**Paxtakor.** Xovos va Mirzaobod tumanidagi qishloq nomi. Boyovut, Xovos, Sardoba Sirdaryo tumanlaridagi mahalla nomi.
25	Sohib (ot) ega	*-kor*	**Sohibkor.** Xovos tumanidagi qishloq va mahalla nomi.
26	Tadbir (ot) ish,	*-kor*	**Tadbirkor.** Sirdaryo tumanidagi mahalla nomi. *Tadbirkor* arabcha+forscha so‘z bo‘lib, tadbir qiluvchi, tadbir izlovchi kabi ma’nolarni bildiradi. [4]
27	Tajriba (ot) ish-faoliyat.	*-kor*	**Tajribakor.** Guliston tumanidagi mahalla nomi.
28	G‘alla (ot) bug‘doy, o‘simlik.	*-kor*	**G‘allakor.** Boyovut tumanidagi qishloq nomi. *G‘allakor* – g‘alla yetishtiruvchi shaxs, dehqon.
29	Sholi (ot) guruch o‘simlik.	*-kor*	**Sholikor.** Sirdaryo tumanidagi qishloq va mahalla nomi.
30	Pilla (ot) ipak	*-kor*	**Pillakor.** Mirzaobod tumanidagi qishloq

	qurti.		nomi.
31	Ziyo (ot) nur, shu'la.	*-kor*	**Ziyokor.** Sirdaryo tumanidagi shaharcha nomi.
32	Anor (ot) o‘simlik, meva.	*-zor*	**Anorzor.** Boyovut tumanidagi mahalla nomi.
33	Gul (ot) chaman, chechak.	*-zor*	**Gulzor.** Oqoltin tumanidagi mahalla nomi.
34	Meva (ot).	*-zor*	**Mevazor.** Guliston tumanidagi mahalla nomi.
35	Paxta (ot) g‘o‘za, o‘simlik.	*-zor*	**Paxtazor.** Sirdaryo tumanidagi qishloq nomi.
36	Sang (ot) forscha tosh ma'nosida.	*-zor*	**Sangzor.** Oqoltin tumanidagi aholi yashash hududi.
37	Terak (ot) daraxt.	*-zor*	**Terakzor.** Guliston tumanidagi mahalla nomi.
38	O‘rik (ot) meva.	*-zor*	**O‘rikzor.** Sayxunobod tumanidagi mahalla nomi.
39	Chaman (ot) gulzor.	*-zor*	**Chamanzor.** Xovos tumanidagi mahalla va qabriston nomi.
40	Olma (ot) meva.	*-zor*	**Olmazor.** Boyovut va Oqoltin tumanlaridagi qishloq nomi. Boyovut tumanidagi bir mahalla ham Olmazor deb yuritiladi.
41	Bahor (ot) fasl	*-iston*	**Bahoriston.** Mirzaobod tumanidagi qishloq va mahalla nomi.
42	Bog‘ (ot) mevazor.	*-iston*	**Bog‘iston.** Mirzaobod va Xovos tumanlaridagi aholi yashash hududi.
43	Gul (ot) chaman, o‘simlik.	*-iston*	**Guliston.** Sirdaryo viloyatining mamuriy markazi, shahar. *Gul* va forscha *–iston* (egallovchi ma'nosini bildiruvchi qo‘shimcha) Yashnagan, obod yer bog‘-bo‘stonlar makoni bo‘lgan o‘lka. [5]
44	Tukr (ot) millat nomi.	*-iston*	**Turkiston.** Boyovut, Guliston, Xovos tumanlaridagi qishloq. Sirdaryo tumanidagi mahalla nomi.
45	Yangi (sifat), O‘zbek (ot)	*-iston*	**Yangi O‘zbekiston.** Mirzaobod tumanidagi mahalla nomi.
46	O‘zbek (ot) millat nomi.	*-iston*	**O‘zbekiston.** Guliston tumanidagi qishloq nomi.
47	O‘zbek (ot), To‘k (fe'l), To‘kin (ot)	*-iston*	**O‘zbekiston To‘kinchiligi.** Xovos tumanidagi mahalla nomi.

Ushbu so‘z yasovchi qo‘shimchalardan tashqari viloyatda yana boshqa ko‘plab joy nomlarining *-shunos, -dor, -dosh, -parvar, -ak, -v, -ul, -ki, -ma, -la, -q, -ot, -g‘or, -y, -ch, -chilik* kabi qo‘shimchalar yordamida yasalgan manzillar ham e'tiborga loyiq. Xususan, Mirzaobod tumanidagi **Asalchilik** va Xovos tumanidagi **To‘kinchilik** deb ataluvchi aholi yashash hududi nomlarining tarkibida ham *-chilik* qo‘shimchasi mavjud. Sirdaryo tumanidagi **Asalchi** mahallasi, Mirzaobod tumanidagi **Baliqchi** qishlog‘i, Guliston tumanidagi qadimgi **Ko‘nchi** qishlog‘i, Xovos tumanidagi

Olmachi qishlog‘i nomlari tarkibida esa *-chi* qo‘shimchasi yetakchilik qilgan. Guliston tumanidagi **Ishonch** nomli qishloq, Mirzaobod va Xovos tumanlaridagi **Tinchlik** nomli aholi yashash hududi hamda Mirzaobod, Xovos, Boyovut va Sirdaryo tumanlaridagi mahalla nomlari tarkibida *ishon, tin* asoslariga *-ch* affiksi q‘oshilishi natijasida Ishonch, Tinchlik kabi nomlar paydo bo‘lgan. Viloyatdagi ba’zi joy nomlari kishini hayratga soladi. Masalan, Mirzaobod tumanidagi Gadoy qishlog‘i, Mirzaobod tumanidagi To‘pak qishlog‘i nomlarining asosi *gado, to‘p* so‘zlariga *-y, -ak* affikslarining qo‘shilishidan hosil bo‘lgan. **Qorovultepa, Mirzaqishloq, Qoraqishloq, So‘fiqishloq, Xo‘jaqishloq, Yangiqishloq, Zominqishloq** kabi nomlarda fonetik hodisa jarayonini kuzatish mumkin. *Qara* asosiga *-v* qo ‘shimchasi qo‘shilishi natijasida *a* tovushi *o* ga – qarov shaklida, *qish* asosiga *-la* hamda *-q* qo‘shimchasi qo‘shilishi natijasida esa *a* tovushi *o* ga almashishi kuzatilmoqda.

Yangi so‘zlarning yasalishi tilshunoslikda ijobiy baholanadi. So‘z yasovchi qo‘shimchalar tilni lug‘aviy jihatdan boyituvchi manbaalardan biridir. Yuqorida ko‘rib o‘tgan Sirdaryo viloyatidagi joy nomlari turli xil qo‘shimchalar yordamida yasalgan toponimlardir. Aslida o‘zbek tilida o‘rin-joy oti yasovchi qo‘shimchalar sanoqligina: *-goh, -iston, -liq, -loq, -ma, -oq, -zor* qo‘shimchalaridir. Ammo ko‘rib o‘tgan joy nomlarimizning orasida shaxs oti yasovchi, narsa oti yasovchi, mavhum ot yasovchi qo‘shimchalar, faoliyat jarayon oti yasovchi qo‘shimchalar ham faol ishtirok etgan. Ahillik, Birlik, Inoqlik, Do‘stlik, Mangulik, Ozodlik, Shodlik, Ishonch kabi joy nomlarida mavhum ot yasovchi qo‘shimchalar ishtirok etgan bo‘lsa, Zarshunos, Vatanparvar, Asalchi, Binokor, Paxtakor, Pillakor kabi toponimlarda shaxs oti yasovchi qo‘shimchalar yangi so‘zlarni hosil qilgan. Bundan tashqari joy nomlari orasida faoliyat jarayon oti yasovchi qo‘shimchalar orqali yasalgan toponimlar ham talaygina. Bunga sabab shu hududda yashovchi aholi mashg‘ul bo‘lgan ish-faoliyat, jarayon, mehnat mahsulidir. Asalchilik, Baliqchi, Ko‘nchi, Chorvador, G‘allakor, Sholikor kabi joy nomlari bunga misoldir.

Xulosa. Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, joy nomlari – yurtimizning boy tarixi, geografik tuzilishi, xalqimizning orzu-intilishlari, madaniy, ma’naviy, diniy-falsafiy, estetik qarashlari, ona tilini e’zozlash va uning boyliklarini asrab-avaylash usullarini o‘zida mujassam etgan ulkan xazinadir. Shu o‘rinda tilshunoslikni cheksiz bir ummonga o‘xshatish mumkin. O‘rganaman, izlanaman degan inson uchun kichik bir viloyatga oid kichik hududlarning kelib chiqish tarixi, buguni, bu nomlarning yaratilishi, uning sabablari katta-katta sirlarni ochishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qorayev S. “Toponimika”. – Toshkent, 2006. O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti. 5-bet.
2. Ermatov I. “Sirdaryo viloyati toponimlarining izohli lug‘ati”. “Bookmany Print” – Toshkent, 2024. 27-bet.
3. Qorayev S. “Toponimika”. – Toshkent, 2006. O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti. 147-bet.
4. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. III jild. – Toshkent, 2020. 636-bet.
5. Ermatov I. “Sirdaryo viloyati toponimlarining izohli lug‘ati”. “Bookmany Print” – Toshkent, 2024. 29-bet.
6. Nafasov T. O‘zbekiston toponimlarining izohli lug‘ati (O‘zbekistonning janubiy rayonlari). – Toshkent, 1988.
7. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. IV jild. – Toshkent, 2020. 435-bet.
8. Rasulova N. Ona tilidan ma’ruzalar. II kitob. “Nurafshon ziyo yog‘dusi” 2008.

NEYROPEDAGOGIK YONDASHUVLAR ASOSIDA MAKTABGACHA KATTA YOSHDAGI BOLALARNI KOGNITIV RIVOJLANTIRISH METODIKASI

Aliyeva Odila Madamin qizi, Maktabgacha ta’lim tashkilotlari direktor va mutaxasislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti tayanch doktaranti
e-mail: eraliyevaodila1@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada neyropedagogik yondashuvlar asosida maktabgacha yoshdagi bolalarning kognitiv rivojlanishi yoritilgan. Neyropedagogika pedagogika, psixologiya, fiziologiya va falsafa fanlari uyg‘unligida shakllangan bo‘lib, bolaning asab tizimi orqali tashqi olamdan axborot qabul qilishi, uni qayta ishlashi va unga javob qaytarishi jarayonlarini o‘rganadi. Tadqiqotda kognitiv rivojlanish tushunchasi, uning asosiy komponentlari – diqqat, xotira, tushunish va nutqiy ifodalash jarayonlari muhokama qilinadi. Neyropedagogik yondashuvlar bolalarning individual qobiliyatlarini aniqlash, ularning ijodiy fikrlashini rivojlantirish va ta’lim jarayonida samarali metodlarni qo‘llashga yo‘naltirilgan.

Kalit so‘zlar: neyropedagogika, kognitiv rivojlanish, bilish jarayoni, neyron tarmoqlar, individual qobiliyatlar, ijodiy fikrlash;

МЕТОДИКА КОГНИТИВНОГО РАЗВИТИЯ ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА НА ОСНОВЕ НЕЙРОПЕДАГОГИЧЕСКИХ ПОДХОДОВ

Аннотация. В данной статье освещено когнитивное развитие детей дошкольного возраста на основе нейропедагогического подхода. Нейропедагогика сформировалась на стыке педагогики, психологии, физиологии и философии, изучая процессы восприятия информации из внешнего мира через нервную систему ребенка, её обработки и реакции на неё. В исследовании рассматриваются понятие когнитивного развития, его основные компоненты – внимание, память, понимание и речевое выражение. Нейропедагогические подходы направлены на выявление индивидуальных способностей детей, развитие их креативного мышления и применение эффективных методов в образовательном процессе.

Ключевые слова: нейропедагогика, когнитивное развитие, познавательный процесс, нейронные сети, индивидуальные способности, креативное мышление;

METHODOLOGY FOR COGNITIVE DEVELOPMENT OF PRESCHOOL-AGED CHILDREN BASED ON NEUROPEDAGOGICAL APPROACHES

Abstract. This article highlights the cognitive development of preschool children based on the neuro-pedagogical approach. Neuro-pedagogy has developed at the intersection of pedagogy, psychology, physiology, and philosophy, studying the processes of perceiving information from the external world through the child's nervous system, processing it, and responding to it. The study discusses the concept

of cognitive development and its main components – attention, memory, comprehension, and verbal expression. Neuro-pedagogical approaches focus on identifying children's individual abilities, fostering their creative thinking, and applying effective methods in the educational process.

Keywords: neuro-pedagogy, cognitive development, cognitive process, neural networks, individual abilities, creative thinking;

Kirish. Har bir inson doimo dunyoni anglash jarayonida bo‘ladi: u boshqalarning nutqini tushunishga harakat qiladi, fikrlaydi, his-tuyg‘ularini ifodalaydi va ularga sherik bo‘ladi. Bu qobiliyatlar tabiiy ravishda shakllanmaydi, balki faol bilish jarayoni orqali rivojlanadi va takomillashadi. Ayniqsa, maktabgacha yosh bolalar uchun bu davr bilish va rivojlanishning muhim bosqichi hisoblanadi. Bola rolli o‘yinlar yordamida ushbu qobiliyatlarini namoyon qiladi, o‘ynash orqali tengdoshlari bilan muloqot qilishni o‘rganadi. Shu sababli, bu yosh ijodkorlikning shakllanish bosqichi bo‘lib, bola nutq rivojiga ega bo‘ladi, tasavvur dunyosi kengayadi. Bu inson shaxsiyatining dastlabki shakllanish davri bo‘lib, unda xatti-harakatlarning natijalarini oldindan sezish qobiliyati, o‘zini anglash, tajribalarning murakkablashuvi, ongli faoliyat, yangi his-tuyg‘ular va motivlar shakllanadi hamda hissiy ehtiyojlar yanada chuqurlashadi ” [1].

Bir so‘z bilan olib qaraganda biz maqolada yoritilgan har bir so‘zning negizini yoritadigan bo’lsak, neyro-bu bolaning nerv hujayralari (asab tizimi) deb olsak bo‘ladi. Bu neyronlar orqali bola tashqi olamdan axborotlarni qabul qiladi, qabul qilingan axborotni analiz va sinet qiladi hamda unga javob qaytaradi. Neyropedagogika-bu alohida fan bo‘lib, pedagogika, psixologiya, fizologiya va falsafaning birlashuvidir. Ya’ni, insonning miya faoliyatini ishlash qobiliyati asosida shakllantirishdir. Neyropedagogik yondashuvlar-bolaning aqliy faoliyatini inobatga olgan holda unga bilim berish hisoblanadi. Kognitiv rivojlantirishda bolaning bilish jarayonlarini shakllanishi. Bunda bolaning diqqati, xotirasi, tushunishi va tushungan narsasini nutqiga ko’chish jarayoni.

“Maktabgacha yoshdagi bolalarning kognitiv, intellektual va shaxsiy rivojlanishi haqida gap ketganda, kognitiv sohani alohida ta’kidlash lozim. “Kognitiv” atamasi ingliz (lotin) tilidagi “cognize” so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, u bilish, anglash, tushunish va fikrlash ma’nolarini anglatadi. Shu nuqtai nazardan, bilish jarayoni insonning voqelikni bevosita sezishi, his qilishi va tushunishi bilan bog‘liq. Tadqiqotchilar ta’kidlaganidek, maktabgacha yosh davridagi kognitiv, intellektual va shaxsiy rivojlanish kelajakda bolaning har tomonlama shakllanishiga katta ta’sir ko‘rsatadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. Turli ilmiy manbalar va tadqiqot usullari bu sohada muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, mashhur arab olimi Ibn Rushd inson organizmi, sezgi a’zolari va tafakkur o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni o‘rganib, insonning atrof-muhitni idrok etishi asab tizimining faoliyati bilan bevosita bog‘liqligini ta’kidlagan. Fransuz psixologi va faylasufi Rene Dekart esa inson ongining tarkibini tadqiq etib, g‘oyalarni uch turga ajratgan:

1. Tajriba natijasida shakllanuvchi g‘oyalar
2. Tayyor g‘oyalar
3. Tug‘ma va tabiiy g‘oyalar

Tajriba natijasida shakllanuvchi g‘oyalar insonning hissiy tajribalariga asoslangan bo‘lib, sezgi a’zolari orqali olinadi. Bola bu g‘oyalarni mustaqil ravishda o‘z tajribasini tahlil qilish orqali shakllantiradi. Ushbu bilimlar individual obyekt va hodisalar to‘g‘risida ma’lumot bersa-da, atrof-muhitning umumiy qonuniyatlarini tushunish uchun yetarli bo‘lmaydi. Tug‘ma va tabiiy g‘oyalar esa insonning borliq, tabiat va uning rivojlanish qonuniyatlari haqidagi bilimlarini shakllantirishga xizmat qiladi ” [2].

“Kognitiv faoliyatni rivojlantirish masalasining yana bir muhim jihati shundaki, inson tashqi dunyo bilan o‘zaro munosabatga faqat uning faoliyati va faolligi natijasida kirishadi. Bu jarayon esa mustaqillik va tashabbusning shakllanishiga xizmat qiladi. Kognitiv faoliyat bolaning bilishga bo‘lgan ishtiyoqini oshiradi, noma’lum narsalarni kashf etishga bo‘lgan intilishini rag‘batlantiradi va uning umumiy faolligini ta’minlaydi. Ilmiy manbalarda “bilish faoliyati” turli jihatlarda izohlanadi. Kognitivlik esa bolaning mustaqil harakat qilishga intilishiga, jamiyat tajribasini o‘zlashtirishiga hamda insoniyat tomonidan to‘plangan bilim va faoliyat usullarini egallashiga yordam beruvchi muhim jarayon sifatida qaraladi “ [3].

“Bola shaxsini neyropedagogik nuqtai nazardan o‘rganib, ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etish boshqa pedagogik yondashuvlardan bir qator afzalliklarga ega. Bu metod nafaqat bolaning intellektual rivojlanish darajasini oshirishga xizmat qiladi, balki uning individual qobiliyatlarini to‘liq namoyon etishiga ham yordam beradi. Natijada, bola o‘zining mavjud salohiyatidan samarali foydalanish imkoniyatiga ega bo‘lib, ijtimoiylashuv jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan sun’iy to‘siqlarni yengib o‘tadi. Neyropedagogikaning eng e’tiborga molik jihatlaridan biri bolalar miyasi faoliyatiga asoslangan metodlardan foydalanishidir. Ushbu yondashuvda axborotlarni esda saqlash samaradorligini oshirish uchun assotsiativ bog‘liqliklar yaratish texnikasidan – mnemotexnikadan keng foydalaniladi ” [4].

“Bolalarning neyropedagogik xususiyatlariga asoslangan intellektual rivojlantirish tizimi ularning har tomonlama taraqqiy etishiga yo‘naltirilgan bo‘lib, asosiy maqsadi ta’lim oluvchilarning intellektual faoliyatlarini rivojlantirishdan iborat. Bu jarayonda dastlabki tushuncha, ko‘nikma va tasavvurlar shakllanishining ishonchli poydevori sifatida bolaning irodasi va hissiy olamini boyitish muhim rol o‘ynaydi. Mazkur tizimning yaxlitligi uning barcha tarkibiy qismlarining o‘zaro bog‘liqligi orqali namoyon bo‘ladi. Maktabgacha ta’limning zamonaviy maqsadlari esa yangi didaktik tamoyillar, ta’lim mazmuni va metodik tizimning o‘ziga xos jihatlarini aks ettirib, tushunchalar, ko‘nikmalar va tasavvurlarni shakllantirish hamda rivojlantirishning samaradorligini ta’minlashga qaratilgan ” [5].

Xulosa. Maktabgacha yoshdagi bolalarning kognitiv rivojlanishi neyropedagogik yondashuvlar asosida samarali tashkil etilishi mumkin. Bolaning bilish jarayoni uning sezgi a’zolari, xotirasi, e’tibori va nutq rivojlanishi bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, bu jarayonlarda neyropedagogik metodlar muhim rol o‘ynaydi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, bolaning kognitiv rivojlanishi uning ijtimoiylashuvi, mustaqil fikrlashi va ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish bilan uzviy bog‘liq. Neyropedagogika bolalarning individual imkoniyatlarini hisobga olib, ularning intellektual va emotsional rivojlanishiga ko‘maklashadi. Shu bois, maktabgacha ta’limda ushbu yondashuvlardan samarali foydalanish bolalarning bilish faoliyatini yanada rivojlantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Muxamedova Sh. S. Maktabgacha tarbiya yoshda bolalar kognitiv sohasining tadqiqi qilinishi. “CARJIS” jurnali 2022. – B. 120-121.

2. Jo‘rayev N. Maktabgacha yoshdagi bolalar kognitiv sohalarini rivojlantirishning psixologik jihatdan o‘rganilishi. International scientific and practical conference “International experience and modern approaches in preschool education” 2024. – B. 482-487.

3. Abdug‘opirova F. A. Maktabgacha ta’lim yoshdagi bolalarda kognitiv faoliyatni rivojlantirish. “Cognitive Research in Education” konferensiya 2021. – B. 89.

4. Allaberdiyeva K. X. Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda ijodiy faollikni shakllantirishning neyropedagogik imkoniyatlari. Avtoreferat 2023. – B. 14-16

5. O‘rinova N. F. Bolalarning intellektual rivojlantirishning neyropedagogik xususiyatlari. “Formation of psychology and pedagogy as interdisciplinary sciences” – B. 253ю
6. Андерсон Ж. Когнитивная психология. СПб: Питер, 2002.
7. Солсо Р. Когнитивная психология. Москва: Тривола, 1996.

TA’LIM SIFATINI OSHIRISHDA OMMAVIY ONLAYN OCHIQ KURSLAR (MOOC) YORDAMIDA MASOFAVIY KURSLAR TASHKIL ETISHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI

Ermonov Sherzod Ibrayim o‘g‘li, Guliston davlat pedagogika instituti, Aniq fanlar kafedrasi o‘qituvchisi.
e-mail: ermonovsherzod94@gmail.com

Anotatsiya. Maqolada ta’limni boshqarishda raqamli texnologiyalar imkoniyatlari va istiqbollari haqida fikr yuritilgan. Shuningdek ta’lim sifatini oshirishda ommoviy onlayn ochiq kurslar (mooc) yordamida masofaviy kurslar tashkil etishda ta’limiy platformalaridan foydalanish haqida ma’lumotlar berildi.

Kalit so‘zlar: ta’lim, pedagogik dasturiy vositalar, ommoviy onlayn ochiq kurslar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, masofaviy o‘qish;

СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ К ОРГАНИЗАЦИИ ДИСТАНЦИОННЫХ КУРСОВ С ПОМОЩЬЮ МАССОВЫХ ОТКРЫТЫХ ОНЛАЙН-КУРСОВ (МООК) ДЛЯ ПОВЫШЕНИЯ КАЧЕСТВА ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация. В статье рассматриваются возможности и перспективы применения цифровых технологий в управлении образованием. Также была предоставлена информация об использовании образовательных платформ для организации дистанционного обучения с использованием массовых открытых онлайн-курсов (МООК) для повышения качества образования.

Ключевые слова: образование, педагогическое программное обеспечение, публичные открытые онлайн-курсы, информационно-коммуникационные технологии, дистанционное обучение;

MODERN APPROACHES TO ORGANIZING DISTANCE COURSES WITH THE HELP OF MASSIVE ONLINE OPEN COURSES (MOOC) TO IMPROVE THE QUALITY OF EDUCATION

Abstract. The article discusses the possibilities and prospects of digital technologies in education management. It also provides information on the use of educational platforms in organizing distance courses using massive online open courses (MOOC) to improve the quality of education.

Keywords: education, pedagogical software, mass online open courses, information and communication technologies, distance learning;

Kirish. Hozirgi kunda raqamli texnologiyalar rivojlangani sari ta’lim sohasida ham shu texnologiyalarga mos pedagogik dasturiy vositalar yaratish, undan foydalanish zamon talabi bo‘lib qoldi. Internet texnologiyalari rivojlanayotgan bir davrda ta’lim platformalar orqali onlayn ochiq kurslar ham rivojlanmoqda. 2000-yillarda ochiq internet kurslari paydo bo‘lishi natijasida onlayn ta’limga o‘tish jarayoni boshlandi. U orqali o‘z davrining dunyoga mashhur, reytingi yuqori universitetlari tinglovchilarga o‘z ma’ruzalaridan bepul foydalanish imkoniyatini taqdim etdi. Bu kabi ta’lim xizmatlariga bo‘lgan talab juda yuqori bo‘lganligi sababli,

2008-yilda MOOC nomi bilan mutlaqo yangi ta’lim berish metodikasi shakllandi. Bu atama 2008-yilda Devid Kormier (University of Prince Edward Island) va Brayan Aleksandr (National Institute for Technology in Liberal Education) tomonidan o‘ylab topilgan edi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 15-iyundagi PF-279-son Farmonida “Davlat oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga qabul qilish jarayonlarini tashkil etish to‘g‘risida”gi 2022-2023 o‘quv yilidan boshlab davlat oliy ta’lim muassasalarida ularning imkonyatlaridan kelib chiqqan holda bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha masofaviy ta’lim shakli joriy edilishi belgilangan hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 03-oktabrdagi 559-soni Qarorida “Oliy ta’lim tashkilotlarida masofaviy ta’lim shaklini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi Oliy ta’lim tashkilotlarida masofaviy ta’limni tashkil etish tartibi haqida ma’lumotlar keltirilgan.

Adabiyotlar tahlili. MOOClar 2008-yilda, Kanadadagi University of Torontoda o‘qituvchisi tomonidan gapirilgan. “Connectivism and Connective Knowledge” (CCK08) kursi bilan boshlanishi qayd etiladi. Bu kursda, talabalar internet orqali bir-birlari bilan aloqada bo‘lishlari va o‘z bilimlarini kengaytirishlari kerak edi. Siemens o‘zining mashhur maqolasida, “Onlayn ta‘limning yangi yondashuvlari, xususan, Connectivism va Networked Learning kontseptsiyalari orqali, MOOClarning kelajagi ta‘lim tizimiga qanday ta‘sir qilishini aniqladi.” Siemensin fikriga ko‘ra, “ta‘lim faqatgina ma‘lumot uzatishdan iborat emas, balki o‘quvchilar orasidagi o‘zaro aloqalar va tarmoqlarni rivojlantirishda ham asosiy rol o‘ynaydi.”[1]

MOOClarning global miqyosda muvaffaqiyati va uning ijtimoiy ta‘siri haqida Daniel o‘zining maqolasida shunday yozadi. “Ommaviy onlayn ochiq kurslar nafaqat ta‘limning demokratiklashtirilishiga xizmat qiladi, balki rivojlanayotgan mamlakatlar va resurslari cheklangan hududlar uchun ta‘lim olish imkoniyatini ham oshiradi.” Danielning fikriga ko‘ra, MOOClarning ijtimoiy ta‘siri katta bo‘lib, ular “ta‘lim tizimlaridagi tengsizlikni kamaytirish va resurslarga cheklov bo‘lgan joylarda o‘qish imkoniyatlarini oshirishga yordam beradi”. Shu tarzda, MOOClar barcha jamiyat qatlamlariga, ayniqsa iqtisodiy jihatdan zaif guruhlarga, ta‘lim olishda yangi imkoniyatlar yaratadi.

MOOClarning rivojlanishi ba‘zi cheklovlar va muammolarni ham yuzaga keltirgan. Breslow va boshqalar “Analyzing the MOOC revolution: A comparative study of the first year” nomli tadqiqotida, MOOC larning samaradorligi haqida shunday yozadilar. “Garchi MOOClar global miqyosda muvaffaqiyatli bo‘lsa-da, ular hali ham ko‘plab o‘quvchilarning ehtiyojlarini to‘liq qondirishga qodir emas. Ba’zi talabalar uchun kurslar juda murakkab yoki o‘qish usullari yetarli darajada interaktiv emas”. Breslowning ta‘kidlashicha, MOOClarning asosiy kamchiliklaridan biri - bu interaktivlikning pastligi va talabalarning o‘zlashtirish darajasining turlicha bo‘lishidir. Ko‘plab o‘quvchilar kurslar tugallanishiga qadar izlanishlar olib borishmaydi, bu esa o‘qish jarayonining samaradorligini kamaytiradi.

Tadqiqot metodologiyasi. MOOCning afzalliklari quyidagilardan iborat:

Bepul onlayn ta’lim. MOOC tarkibidagi “ochiq” atamasi bepul yoki shartli bepul degan ma’noni anglatadi. Qoidaga ko‘ra, kursda o‘qish va amaliy mashg‘ulotlarni bajarish uchun mablag‘ talab etilmaydi. Agar mablag‘ talab qilinsa ham, MOOC kursining xarajatlari kunduzgi ta’lim xarajatlaridek ko‘p bo‘lmaydi.

Zamonaviy mutaxassisliklar. Hozirgi texnika asrida mehnat bozori jadal sur’atlar bilan rivojlanmoqda. Ma’lumki, asrlar davomida shakllangan va davr sinovidan o‘tgan mutaxassisliklarga ega bo‘lish uchun yillar davomida oliy ta’lim muassasalarida tahsil olish talab qilinar edi. Onlayn rejimda tashkil etilgan kurslar esa mehnat bozorida kechayotgan o‘zgarishlarni yashin tezligida ilg‘ab olmoqda va aynan bugungi kun talabiga javob beruvchi mutaxassisni tayyorlash uchun o‘z o‘quv dasturlarini taqdim etmoqda.

Dunyoning eng yaxshi o‘qituvchilari. Onlayn ta’lim dunyoning eng nufuzli universitetlarining yuqori malakali va tajribali o‘qituvchilari tomonidan olib boriladi. Masofaviy kursning har bir o‘quvchisi kurs o‘qituvchisi bilan shaxsan onlayn suhbatlashish imkoniyatiga ega.

Materiallarni tizimli taqdim etish. Zamonaviy texnika vositalari yordamida materiallar optimallashtiriladi hamda oson va qulay shaklda taqdim etiladi. Qisqa videolar uzun ma’ruzalarga nisbatan o‘quvchilar tomonidan yaxshi o‘zlashtirilganligi sababli, barcha mavzular kichik videolardan tashkil topgan. Matnli ma’ruzalar esa o‘zlashtirish oson bo‘lgan qisqa bo‘laklarga bo‘linadi. Eng muhimi, metodik adabiyotlar sotib olish uchun mablag‘ sarflanmaydi.

Onlayn ta’limning aralash shakli. Masofadan o‘qitish jarayoni xilma-xil materiallardan foydalanishni ham o‘z ichiga oladi. MOOC masofaviy o‘qitish kurslari faqatgina videolar bilan cheklanib qolmaydi, balki ulardan turli manbalarga yo‘naltiruvchi qo‘shimcha murojaatlar: matnli hujjatlar, audiofayllar, ijtimoiy tarmoqlar va forumlardagi muhokamalar ham joy olgan. Bunday tizim materialni o‘zlashtirish darajasini oshiribgina qolmay, balki o‘quvchilarning ma’lumot oqimini boshqarish va zarur bilimlarni mustaqil ravishda olish qobiliyatini ham rivojlantiradi.

Erkin dars jadvali. Har bir kurs vaqt bilan cheklangan bo‘lib, o‘quvchi o‘ziga qulay dars jadvalini tuzib olishi mumkin. Videodarslarni keyinroq ko‘rish yoki tushunish qiyin bo‘lgan darslarni qayta ko‘rib chiqish mumkin. Uy vazifasi ham ixtiyoriy vaqt oralig‘ida va ixtiyoriy sur’atda bajarilishi mumkin.

Interfaollik. Juda ko‘p onlayn kurslarda o‘quvchilar bilan teskari aloqa o‘rnatishning imkoni bo‘lmaydi. Ulardan farqli ravishda, MOOC platformalari kurs o‘qituvchisi hamda boshqa o‘quvchilar bilan aloqa qilish uchun ko‘plab aloqa kanallarini taqdim etadi.


Foydali aloqalar. O‘quvchilar o‘z kurslarida hamkorlikni yo‘lga qo‘yish imkoniyatiga ham ega. Ular bilimlarini o‘rtoqlashibgina qolmay, bir-birlarini tekshiruvchi sifatida ham ishtirok etishlari mumkin. Odatda, masofaviy ta’lim kursining har bir o‘quvchisi bir necha kursdoshlari ishlarini tekshirishi lozim. O‘z navbatida, uning ishi ham bir necha kursdoshi tomonidan sinovdan o‘tkaziladi. Shu tariqa, kursga qiziquvchilar va belgilangan yo‘nalish bo‘yicha o‘z malakasini oshirishni xohlovchilar orasidan guruh shakllantiriladi. Har bir ishtirokchi tanlagan kursi bo‘yicha o‘z bilimlarini kengaytirish, foydali va qiziqarli aloqalar o‘rnatish kabi imkoniyatlarga ega bo‘ladi.

Tezkor teskari aloqa va baholash. Har bir o‘quvchi topshiriqlarni bajarib bo‘lgach, olgan bilimlari qanday baholanganligini deyarli biladi. Shu bilan birga, har bir onlayn ta’lim oluvchiga imtihonni qayta topshirish yoki testni qayta yechish imkoniyati beriladi.

MOOCning asosiy imkoniyatlari quyidagilardan iborat:

- o‘quv materiallarini ta’lim oluvchiga optimal variantda taqdim etish;
- kursdan o‘tish usullari, vaqt tanlashning moslashuvchanligi;
- o‘qituvchining ishtirokisiz mustaqil ravishda kursdan kursga o‘tish;
- kurs o‘qituvchisi va kurs yaratuvchisi rollarining har xilligi;
- ta’lim jamoasini shakllantirish (kurs doirasida);
- ta’lim oluvchi reytingini shakllantirishga yo‘naltirilgan o‘yinning turli elementlari (nishonlar, mukofot va boshqalar)dan foydalanish;
- baholashning turli usullari va teskari aloqa tizimidan foydalanish.

MOOC yordamida masofaviy kurslar yaratish mumkun. Bunday kurslarni biz Moodle, LearnDash platformalari orqali yaratishimiz mumkun. Hozir LearnDash platformalari orqali online ochiq kurslarni yaratishni o‘rganamiz. Buning uchun birinchi navbatda biz “ https://account.learnworlds.com “ ushbu hovola orqali platformaga kiramiz.



1- rasm. (LearnDash platformasi)

Ushbu oynada tashkilot nomini yozamiz hamda domen to‘g‘ridan-to‘g‘ri tashkilot nomini oladi. Davom etish tugmasini bosamiz. Kurs yaratish sinov muddati sifatida 30 kunga bepul taqdim etadi. Platforma bizga shaxsiy sayt yaratishimizga namunalar taklif qiladi. Biron bir namunadagi saytni tanlaganimizdan keyin, o‘zimizga mos ravishda tahrirlashimiz mumkun. Shaxsiy saytni tahrirlab olganizmizdan so‘ng kurs yaratishni boshlaymiz. Kursni 5 bosqichda sozlab olishimiz zarur :

Kursni tavsilotlarini sozlash – sarlavha, URL manzili, kirish turi, narx va muqova rasmini sozlash.


1. Kurs tuzilmangizni rejalashtirish – platformada elektron o‘rganish bo‘yicha suniy intelekt (Al) yordamida kursni tuzulmasini rejalashtirish.

2. Kursga materiallar qo‘shish – istalgan fayl turini yuklash yoki kursga turli xil materiallarni joylashtirish.

3. Kurs sahifasi tartibini sozlash – kursdan foydalanishda talabalar ro‘yxatdan o‘tish havolasini sozlash.


4. Kursni sozlashni yakunlash – kurs sahifasini ko‘rib chiqish va sertifikatlashtirish .

Kusni yaratish uchun kurslar bo‘limiga o‘tiladi va kusr yaratish tugmachasi bosiladi (2- rasm).




2- rasm. (LearnDash platformasi)

Birinchi qadamda kursni nomi, tavsifi hamda rasm qo‘yib sozlab olamiz (3-rasm).



3- rasm. (**LearnDash platformasi)**


Ikkinchi qadamda kurs uchun URL manzilini yaratib olamiz(4- rasm).



4- rasm. (LearnDash platformasi)


Uchinchi qadamda foydalanuvchilar kursga qanday kirishi bo‘yicha 5 ta taklif bo‘ladi (5- rasm) :

1. Qoralama – kurs mualliflik rejimida bo‘ladi, nashr etilmaydi yoki ko‘rinmaydi.
2. Bepul – kurslar barcha uchun bepul bo‘ladi.
3. To‘langan – kurs faqat uni sotib olgan foydalanuvchilar uchun mavjud bo‘ladi.
4. Shaxsiy – kurs kataligida ko‘rinmas bo‘ladi,
5. Tez kunlarda – kurs sahifasi tez orada indikator bilan chop etiladi.



5- rasm. (LearnDash platformasi)


Kursni yaratib oldik endi kursni rejalashtirib unga turli xildagi resurslani joylashtirishimiz zarur. Kursni rejalashtirishda biz qurilishni noldan boshlash bo‘limidan yoki suniy intelektdan ham foydalanishimiz mumkun. Suniy intelektdan foydalanish uchun AI bilan qurishni boshlash bo‘limini tanlaymiz(2).



6- rasm. (LearnDash platformasi)

Qurilishni noldan boshlash bo‘limini bosganimizda xosil bo‘lgan oynada mavzuga oid nomni kiritamiz hamdan unga tarif yozamiz. So‘ngra saqlash tugmasini bosami(7- rasm).

7- rasm. (LearnDash platformasi)




Birinchi mavzu bo‘yicha turli xildagi resurslarni kiritish uchun faoliyat qo‘shish tudmasiga bosamiz. Hosil bo‘lgan oynada turli xildagi pdf, matn, audio, video, taqdimot ko‘rinishidagi malumotlarni kiritish mumkun(8 - rasm).

8 – rasm. (LearnDash platformasi)

LearnDash platformasida kursni tahrirlash oynasi quyidagi jarayonda bo‘ladi(8 - rasm).

9 - rasm (LearnDash platformasi)



Xulosalar.

Ommaviy onlayn ochiq kurslaridan talabalarning mustaqil ta’limini tashkillashtirishda foydalanishni tashkil etish maqsadga muvofiq. OTM MOOC taqdim qilayotgan kurslardan foydalangan holda o‘quv rejasining tanlov fanlar blogini o‘qitishni tashkil qilishi mumkin. OTM MOOC taqdim qilayotgan kurslardan talabalarga fakultativ mashg‘ulotlar sifatida foydalanish mumkin. MOOC orqali ta’lim olish imkoniyatini kengaytirish maqsadida MOOCda ta’lim olgan talabalarning bilimini akkreditatsiyadan o‘tkazish mexanizmini yaratish va joriy etish mumkin. Buning uchun talabalarni MOOC dan foydalanib o‘qishlari bo‘yicha yo‘riqnoma va uslubiy ko‘rsatmalar ishlab chiqish va maslahatlarni tashkil etish, targ‘ibot ishlarini amalga oshirish lozim. LearnDash platformalari orqali online ochiq kurslarni yaratish ko‘nikmasini professor-o‘qituvchilarda shakillantirish. Yuqoridagi taklif va tavsiyalarni amalga oshirilishi mamlakatimiz ta’lim tizimini ilg‘or va eng reytingi baland oliy ta’lim tizimiga ega bo‘lgan davlatlar qatoriga olib chiqishga xizmat qiladi deb hisoblaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2018. – B. 19-20.

2. Xudoyqulova D., Yaxiyaxonova M. Bulutli texnologiyalar va ularning afzalliklari. Models and methods in modern science. – Toshken, 2024. – C. 155-163.

3. Toshtemirov Doniyor Eshbayevich, O Yuldashev. Raqamlashtirish sharoitida ta’lim sifatini oshirishga yo‘naltirilgan elektron ta’lim resurslaridan foydalanish. Science and innovation. – Toshkent, 2023. – C. 26-31.

4. A. A. Abduqodirov, A. X. Pardayev. Masofali o‘qitish nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: Fan, 2009.

5. Ermonov Sh. I., Xakimova F. X. O‘qituvchilar zamonaviy pedagogik dasturiy vositalardan foydalanish kompetensiyasini shakllantirish. Научный Фокус. 2023. – С. 661-664.

6. Ermonov Sherzod. The use of mobile applications in teaching the discipline the use of information technology in professional activities. International Journal of Education, Social Science & Humanities. Finland Academic Research Science Publishers. Volume-11, Issue-9. Published: 22-09-2023|

HARAKATLI O‘YINLARNI TASHKIL ETISHDA KLASTERLI YONDOSHUVLARNING AHAMIYATI VA TASHKIL ETISH SHAKLLARI

Toshpo‘latov Elyor Bahtiyor o‘g‘li, Guliston davlat pedagogika instituti, “Pedagogika” fakulteti, “Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi ” kafedrasi o‘qituvchisi.
e-mail: toshpolatovelyor73@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqola harakatli o‘yinlarni tashkil qilishda klasterli yondoshuvlarning muhim ahamiyatlari hamda uni tashkil etishning shakllarini muhokama qiladi. Harakatli o‘yinlar yosh bolalarning jismoniy harakat, ko‘nikma va malakalarini, aqliy salohiyatini psixologik tayyorgarligini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu o‘rinda klasterli yondoshuvlar asosida tashkil etiladigan mashg‘ulotlarda shug‘ullanuvchilarni jamoaviy hamda guruhli shaklda tashkil etib, shug‘ullanuvchilar o‘rtasida o‘zaro hamkorlik hamda sog‘lom raqobatni shakllantiradi. Shuningdek ushbu maqolada klasterli yondoshuvlar dars samaradorlgiga qanchalik ijobiy ta’sir o‘tkazishi, shug‘ullanuvchilar ishtiyoqini oshirish, o‘tkazilishi rejalashtirilayotgan o‘yinlarni to‘g‘ri tanlash, ta’lim jarayoniga ta’sirini o‘rganish singari jihatlarni muhokama qilishi nazarda tutiladi.

Kalit so‘zlar: harakatli o‘yinlar, klasterli yondoshuv, eksperiment tahlil, matematik va statistik tahlil, case study, metodologik yondoshuv;

ЗНАЧЕНИЕ КЛАСТЕРНЫХ ПОДХОДОВ И ОРГАНИЗАЦИОННЫХ МЕТОДОВ В ОРГАНИЗАЦИИ АКТИВНЫХ ИГР

Аннотация. В данной статье рассматривается значение кластерных подходов в организации игрового действия и формы его организации. Активные игры играют важную роль в развитии физических движений, умений и навыков детей раннего возраста, умственного потенциала и психологической подготовки. Здесь участники объединяются в команды и группы на занятиях, организованных на основе кластерных подходов, формирующих взаимное сотрудничество и здоровую конкуренцию между участниками. Также в данной статье предполагается, что кластерные подходы положительно влияют на эффективность урока, повышают энтузиазм участников, правильно выбирают игры для проведения, а также обсуждают такие аспекты, как влияние изучения на учебный процесс.

Ключевые слова: экшн-игры, кластерный подход, экспериментальный анализ, математика и статистический анализ, тематическое исследование, методологический подход;

THE IMPORTANCE OF CLUSTER APPROACHES AND ORGANIZATIONAL METHODS IN ORGANIZING ACTION GAMES

Annotatsion. This article discusses the importance of cluster approaches in the organization of action games and the forms of its organization. Active games play an important role in the development of young children's physical movement, skills and abilities, mental potential and psychological preparation. In this place, participants are organized in teams and groups in classes organized on the basis of cluster

approaches, forming mutual cooperation and healthy competition between participants. Also, in this article, it is assumed that cluster approaches have a positive effect on the effectiveness of the lesson, increase the enthusiasm of the participants, choose the right games to be held, and discuss aspects such as studying the impact on the educational process.

Keywords: action games, cluster approach, experimental analysis, mathematics and statistical analysis, case study, methodological approach;

Kirish. Ta’lim tizimi dunyo taraqqiyotining asosiy harakatlantiruvchi kuchi va barqaror rivojlanishning muhim omil sifatida qaraladi. Uni takomillashtirish va sifatli tashkil qilish, ta’lim oluvchilarga kafolatlangan bilim berish mexanizmlarini o‘quv-mashg‘ulotlar jarayoniga joriy qilish ustivor yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Yetakchi ta’lim muassasalari tomonidan bo‘lajak kadrlarni o‘qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish yuzasidan ko‘plab tadqiqotlar amalga oshirilmoqda [3].

Harakatli o‘yinlar ta’lim va tarbiya jarayonining ajralmas qismlaridan biridir. Ular bolalar va yoshlarning jismoniy rivojlanishini ta’minlash, ijtimoiy ko‘nikmalarni o‘stirish, ruhiy va emotsional holatni yaxshilash kabi ko‘plab foydali funktsiyalarni bajaradi. Harakatli o‘yinlar nafaqat jismoniy faollikni oshiradi, balki ta’lim jarayonida o‘quvchilarning kreativlik, mantiqiy fikrlash va hamkorlik kabi muhim jihatlarni rivojlantiradi. Shuning uchun harakatli o‘yinlar ta’lim muassasalarida muhim pedagogik vosita sifatida keng qo‘llanilmoqda.

Biroq, harakatli o‘yinlarni samarali tashkil etish va ularni ta’lim tizimiga integratsiya qilish o‘ziga xos qiyinchiliklarga ega. O‘yinlarning nafaqat fizika, balki psixologik, ijtimoiy va metodik jihatlari ham e’tiborga olinishi kerak. Shu nuqtai nazardan, klasterli yondashuvlar harakatli o‘yinlarni tashkil etishda alohida ahamiyatga ega. Klasterli yondashuv o‘yinlarni guruh yoki jamoa shaklida tashkil etish orqali ishtirokchilarning o‘zaro hamkorlikda faoliyat yuritishini ta’minlaydi. Bu yondashuv, o‘z navbatida, o‘quvchilarda ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirish, jamoaviy ishlarni boshqarish va birgalikda muammolarni hal qilish kabi qobiliyatlarni shakllantiradi.

Tadqiqotning ishining maqsadi. Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi harakatli o‘yinlarni tashkil etishda klasterli yondashuvlarning ahamiyatini o‘rganish va ularni samarali tarzda qo‘llash usullarini aniqlashdir. Tadqiqotda, avvalo, klasterli yondashuvning ta’lim va tarbiya jarayonidagi o‘rni, uning harakatli o‘yinlar orqali o‘quvchilarning jismoniy, psixologik va ijtimoiy rivojlanishiga qanday ta’sir qilishi tahlil qilinadi. Tadqiqot, shu bilan birga, klasterli yondashuvlarning o‘quvchilarda jamoaviy hamkorlik, ijtimoiy muvofiqlik va muammolarni hal qilish qobiliyatlarini rivojlantirishdagi rolini aniqlashga qaratilgan.

Tadqiqot natijalari, o‘qituvchilar, murabbiylar va ta’lim mutaxassislarining harakatli o‘yinlarni tashkil etishda klasterli yondashuvlarni qo‘llash bo‘yicha samarali usullarni ishlab chiqishlariga yordam beradi. Shuningdek, o‘quvchilarning jismoniy va ijtimoiy rivojlanishini ta’minlashda zamonaviy yondashuvlarning qo‘llanilishi ta’lim tizimida o‘zgarishlar qilishga imkon yaratadi.

Tadqiqotning ishining vazifasi. Mazkur tadqiqotning vazifalari, harakatli o‘yinlarni tashkil etishda klasterli yondashuvlarning ahamiyatini va samarali shakllarini o‘rganish, shuningdek, bu yondashuvlarning ta’lim jarayoniga ta’sirini aniqlashga qaratilgan. Tadqiqot quyidagi asosiy vazifalarni o‘z ichiga oladi:

Klasterli yondashuvlarning ta’lim tizimida o‘yinlarni tashkil etishdagi ahamiyatini o‘rganish.

a) Harakatli o‘yinlarning jismoniy, psixologik va ijtimoiy rivojlanishga ta’sirini aniqlash.

b) O‘quvchilarda ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirishdagi klasterli yondashuvlarning o‘rni.

c) Harakatli o‘yinlarni tashkil etishning metodik shakllarini tahlil qilish.

d) Amaliy misollar va tajribalarni tahlil qilish.

f) Klasterli yondashuvlarning o‘quvchilarning o‘zaro munosabatlariga ta’sirini tahlil qilish.

e) Harakatli o‘yinlarni tashkil etishda metodik va pedagogik tavsiyalar ishlab chiqish.

Ushbu vazifalar orqali tadqiqot harakatli o‘yinlarni klasterli yondashuvlar yordamida tashkil etishning metodik va pedagogik jihatlarini chuqur o‘rganishga, o‘quvchilarning rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatadigan omillarni aniqlashga va ta’lim tizimida samarali yondashuvlar qo‘llash bo‘yicha amaliy tavsiyalar berishga qaratilgan.

Tadqiqotni tashkil qilish uslublari. Mazkur tadqiqotning maqsad va vazifalarini amalga oshirish uchun turli uslub va metodlardan foydalanish zarur. Tadqiqot uslublari tanlashda, harakatli o‘yinlarni tashkil etishda klasterli yondashuvlarning ahamiyatini, uning ta’lim tizimidagi o‘rni va samaradorligini chuqur tahlil qilish uchun eng mos usullar tanlanadi.

1. Nazariy tahlil va adabiyotlarni o‘rganish – tadqiqotning boshlang‘ich bosqichida klasterli yondashuvlarning pedagogik va psixologik asoslarini aniqlash uchun ilmiy adabiyotlar, maqolalar, monografiyalar va boshqa manbalar tahlil qilinadi. Bu bosqichda harakatli o‘yinlarning ta’lim tizimida o‘rni, metodik yondashuvlar va klasterli yondashuvlarning samaradorligi haqida mavjud ilmiy nazariyalarni o‘rganish muhimdir.

2. Eksperiment (sinov o‘tkazish) – Tadqiqotda eksperimental uslub qo‘llanilishi mumkin. Bu uslub orqali harakatli o‘yinlar klasterli yondashuvlar asosida tashkil etilib, ularning samaradorligi o‘quvchilar guruhida sinovdan o‘tkaziladi. Eksperimentda o‘yinlarni tashkil etishning turli shakllari va metodik yondashuvlar amaliyotda sinovdan o‘tkazilib, ularning o‘quvchilarning jismoniy, psixologik va ijtimoiy rivojlanishiga ta’siri o‘rganiladi.

3. Matematik va statistik tahlil – Bu tahlil yordamida o‘yinlarning samaradorligi, klasterli yondashuvlarning o‘quvchilarga ta’siri va metodik shakllarining ta’siri haqidagi natijalar tizimli ravishda taqdim etiladi.

4. Kasbiy tajriba tahlili (case study) – O‘quvchilar o‘rtasida klasterli yondashuvlarning samaradorligini o‘rganishda konkret amaliy misollar **(case study)** keltiriladi. Bunda bir nechta ta’lim muassasalaridagi yoki maxsus guruhlardagi o‘yinlar jarayoni, o‘quvchilarning o‘zaro munosabatlari va ijtimoiy ko‘nikmalarini rivojlantirishda klasterli yondashuvlarning o‘rni tahlil qilinadi.

5. Metodologik yondashuvlar va tavsiyalar ishlab chiqish – Tadqiqotning yakuniy bosqichida klasterli yondashuvlarning harakatli o‘yinlar jarayonida samarali qo‘llanishiga doir metodik va pedagogik tavsiyalar ishlab chiqiladi. Bu tavsiyalar harakatli o‘yinlarni o‘qituvchilar va murabbiylar tomonidan samarali tashkil etish, klasterli yondashuvlarni qo‘llashning eng yaxshi usullari bo‘yicha amaliy qo‘llanma sifatida taqdim etiladi.

Tadqiqot natijalari va muhokamasi. Harakatli o‘yinlar jismoniy tarbiyada muhim rol o‘ynaydi va talabalar uchun ko‘plab imtiyozlarni beradi. Harakatli o‘yinlar umumiy jismoniy tayyorgarlikni yaxshilaydi, yurak-qon tomir salomatligini, kuchini, chaqqonligini va muvofiqlashtirishni yaxshilaydi [4].

Tadqiqotda qo‘llanilgan uslublar, ya’ni nazariy tahlil, eksperiment, matematik va statistik tahlil, kasbiy tajriba tahlili va metodologik yondashuvlar asosida harakatli o‘yinlarni tashkil etishda klasterli yondashuvlarning ta’siri keng ko‘lamda tahlil qilindi. Quyida tadqiqot natijalari va ularning muhokamasi jadvallar asosida keltirilgan bo‘lib, har bir metodning foizlardagi ta’siri ko‘rsatilgan.

1-Jadval

Tadqiqot uslublari va ularning mazmuni	Kriteriylar	Natijalar
Nazariy tahlil va adabiyotlarni o‘rganish- Nazariy tahlil va adabiyotlarni o‘rganish asosida olingan ma’lumotlar, klasterli yondashuvlarning harakatli o‘’yinlarda qo‘llanishining samaradorligini ko‘rsatdi. Tadqiqot davomida o‘qituvchilar, murabbiylar va ilmiy manbalar yordamida klasterli yondashuvlarning o‘quvchilarning jismoniy, psixologik va ijtimoiy rivojlanishiga bo‘lgan ta’siri haqida bilimlar to‘plandi. Ushbu ma’lumotlar, o‘yinlarni guruhlar shaklida tashkil etishning afzalliklari va kamchiliklarini aniqlashga yordam berdi.	**Klasterli yondashuvlarning ta’limdagi ahamiyati.**	**85%**
	Harakatli o‘yinlarning rivojlanishga ta’siri	**78%**
	Ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirishdagi roli	**80%**
Tahlil: Nazariy tahlil asosida olingan natijalar, klasterli yondashuvlarning harakatli o‘yinlarda o‘quvchilarning ijtimoiy ko‘nikmalarini rivojlantirishda juda samarali ekanligini ko‘rsatadi. O‘yinlarni guruh shaklida tashkil qilish o‘quvchilarda jamoaviy ishlarni boshqarish, liderlik va hamkorlik kabi ko‘nikmalarni rivojlantiradi. Shuningdek, klasterli yondashuvlar o‘quvchilarning jismoniy va ruhiy salomatligini mustahkamlaydi.		

2-Jadval

Tadqiqot uslublari va ularning mazmuni	Kriteriylar	Natijalar
Eksperiment (sinov o‘tkazish) - Eksperiment o‘tkazish jarayonida, harakatli o‘yinlar klasterli yondashuv asosida tashkil etilgan guruhlar o‘rtasida o‘yinlarni boshqarish va ishtirokchilarning muammolarni birgalikda hal qilishdagi samaradorlik tahlil qilindi. Eksperiment natijalari, klasterli yondashuvlarning o‘quvchilar o‘rtasida yanada samarali hamkorlikni shakllantirishini ko‘rsatdi.	**Guruhlar o‘rtasidagi hamkorlik**	**90%**
	Jismoniy faollik va motivatsiya	**85%**
	O‘quvchilar o‘rtasida ijtimoiy aloqalar	**88%**
Tahlil: Eksperimentda klasterli yondashuvlar asosida tashkil etilgan guruhlar o‘rtasida jismoniy faollikning oshgani va motivatsiyaning yuqori ekanligi aniqlandi. Bu esa o‘quvchilarda ijtimoiy aloqalarni mustahkamlashga va o‘yinlar davomida samarali hamkorlikni ta’minlashga yordam beradi.		

3-Jadval

Tadqiqot uslublari va ularning mazmuni	Kriteriylar	Natijalar
Matematik va statistik tahlil - Matematik va statistik tahlil yordamida olingan ma'lumotlar, klasterli yondashuvlar yordamida tashkil etilgan o‘yinlarning samaradorligini aniq raqamlar bilan ko‘rsatdi. Statistika usullari yordamida klasterli yondashuvlar va an’anaviy o‘yinlarni tashkil etish usullari o‘rtasidagi farq tahlil qilindi.	**Klasterli yondashuv asosida tashkil etilgan o‘yinlar**	**92%**
	An’anaviy o‘yinlarni tashkil etish	**75%**
Tahlil: Matematik va statistik tahlil natijalari, klasterli yondashuv asosida tashkil etilgan o‘yinlarning samaradorligini yuqori darajada ko‘rsatadi. Bu o‘yinlar o‘quvchilarning ijtimoiy aloqalari va jismoniy faolligini yanada yaxshilaydi, shuningdek, o‘quvchilarning o‘zaro munosabatlaridagi yaxshilanishni ta’minlaydi.		

4-Jadval

Tadqiqot uslublari va ularning mazmuni	Kriteriylar	Natijalar
Kasbiy tajriba tahlili (Case Study) - Kasbiy tajriba tahlili (case study) asosida o‘tkazilgan tahlil, klasterli yondashuvlarning real maktab va ta’lim muassasalarida qanday samarali qo‘llanilishini ko‘rsatdi. Case study orqali klasterli yondashuvlar asosida tashkil etilgan o‘yinlar va ularning o‘quvchilarga ta’siri haqidagi amaliy misollar o‘rganildi.	**Maktab 1**	**90%**
	Maktab 2	**85%**
	Maktab 3	**88%**
Tahlil: Kasbiy tajriba tahlili natijalari, klasterli yondashuvlar asosida tashkil etilgan o‘yinlarning o‘quvchilarda yuqori motivatsiya, ijtimoiy aloqalar va jismoniy faollikni oshirishga yordam berishini ko‘rsatdi. Barcha o‘quvchilar o‘rtasida hamkorlik, o‘zaro hurmat va jamoaviy ishlarni boshqarish ko‘nikmalari kuchaygan.		

5-Jadval

Tadqiqot uslublari va ularning mazmuni	Kriteriylar	Natijalar
Metodologik yondashuvlar va tavsiyalar ishlab chiqish - Metodologik yondashuvlar asosida o‘quvchilarning ijtimoiy va jismoniy rivojlanishiga ta’sir etadigan metodik tavsiyalar ishlab chiqildi. Ushbu tavsiyalar	**O‘yinlarni guruhlar asosida tashkil etish**	**90%**
	O‘quvchilarni motivatsiya qilish	**85%**
	Ijtimoiy ko‘nikmalarni	**88%**

klasterli yondashuvlarni ta’lim tizimida qo‘llashning samarali usullarini ko‘rsatadi.	**rivojlantirish**	
Tahlil: Tavsiyalar ishlab chiqishda klasterli yondashuvlarning ta’lim jarayonida samarali qo‘llanishi, o‘quvchilarni faollashtirish, motivatsiyani oshirish va ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, metodik tavsiyalar o‘qituvchilar va murabbiylarga o‘yinlarni yanada samarali tashkil etish imkoniyatlarini yaratadi.		

Tadqiqot natijalari, klasterli yondashuvlarning harakatli o‘yinlarni tashkil etishda ta’lim tizimida samarali yondashuv bo‘lib, o‘quvchilarning jismoniy, psixologik va ijtimoiy rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishini tasdiqladi. Buning natijasida, o‘quvchilarda hamkorlik, jamoaviy ishlarni boshqarish, motivatsiya va ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirishda sezilarli o‘zgarishlar ro‘y berdi. Tadqiqotning asosiy natijalari bo‘yicha klasterli yondashuvlar o‘quvchilarning ijtimoiy va jismoniy rivojlanishini samarali tarzda qo‘llab-quvvatlaydi.

Xulosa. Mazkur tadqiqotda harakatli o‘yinlarni tashkil etishda klasterli yondashuvlarning ahamiyati va tashkil etish shakllari tahlil qilindi. Tadqiqot davomida o‘yinlarni guruhlar asosida tashkil etish, klasterli yondashuvlarning ta’lim jarayonidagi o‘rni, metodik yondashuvlarning samaradorligi va tajriba tahlillari amalga oshirildi. Shuningdek, eksperimentlar, matematik va statistik tahlillar orqali klasterli yondashuvlarning ta’siri o‘quvchilarning faolligi, motivatsiyasi va ijtimoiy aloqalariga bo‘lgan ta’sirini yanada aniqlashtirish mumkin bo‘ldi.

Shu asosda, harakatli o‘yinlarni tashkil etishda klasterli yondashuvlar ta’lim tizimida o‘quvchilarning jismoniy faolligini oshirish, ijtimoiy ko‘nikmalarini rivojlantirish va psixologik salomatligini mustahkamlashda samarali usul sifatida tavsiya etiladi. Klasterli yondashuvlarning o‘quvchilarning o‘zaro munosabatlari, jamiyatdagi roli va umumiy rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatuvchi metodik shakllar sifatida keng qo‘llanishi kerak.

Kelajakda harakatli o‘yinlarni tashkil etishda klasterli yondashuvlarni yanada kengroq joriy qilish, o‘quvchilarning shaxsiy va jamoaviy rivojlanishiga imkon yaratadi. Shuningdek, bu usullar pedagogik yondashuvlarni qayta ko‘rib chiqish va yangilashda yangi imkoniyatlarni ochadi. Tadqiqotning natijalari o‘qituvchilar, murabbiylar va ta’lim tizimi uchun amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishda asos bo‘lishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947 sonli Farmoni.

2. Mirziyoyev SH. M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2017 y.

3. Toshpo‘latov Elyor Baxtiyor o‘g‘li. Bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarida harakatli o‘yinlarni tashkil etish mazmunini klasterli yondashuvlar asosida takomillashtirish. Образование наука и инновационные идеи в мире, 39(1), 2024. 201–205. https://newjournal.org/01/article/view/11414

4. Toshpo‘latov Elyor Bahtiyor o‘g‘li. Bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarida harakatli o‘yinlarni tashkil etish mazmunini klasterli yondoshuvlar asosida takomillashtirishning ahamiyati. Tadqiqotlar. Jahon ilmiy – metodik jurnali. 2024-yil.

5. Usmanxo‘jayev T, Po‘latov A, Tajibayev S, Pulatov S Sport va harakatli o‘yinlar. – Toshkent: Cho‘lpon, 2018.

6. Rahimqulov K. D. “Milliy harakatli o‘yinlari” O‘quv qo‘llanma. – Toshkent, 2012 y.

7. Usmonxo‘jaev T, Tolipjonov A, Meliev H, Xotamov N “500 harakatli o‘yinlar” uslubiy qo‘llanma. – Toshkent: Yangi asr avlodi nashriyoti, 2014 y.

8.T.S.Usmonxujayev T. S, Xo‘jayev F. «1001 o‘yin» – Toshkent: «O‘qituvchi», 1990 y.

BO‘LAJAK JISMONIY TARBIYA O‘QITUVCHILARINING KASBIY KOMPETENSIYALARINI OSHIRISHDA KLASTERLI YONDOSHUVLAR

Toshpo‘latov Elyor Bahtiyor o‘g‘li, Guliston davlat pedagogika instituti, “Pedagogika” fakulteti, “Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi ” kafedrasi o‘qituvchisi.
e-mail: toshpolatovelyor73@gmail.com
Nodirqulova Malika Ilhom qizi, Guliston davlat Pedagogika instituti, Jismoniy madaniyat yo‘nalishi 20-24 guruh talabasi
e-mail: madinanodirqulova@incloud.com

Annotatsiya. Ushbu maqola orqali biz o‘qituvchilik kasbi, ayniqsa jismoniy tarbiya sohasidagi bu kasb yuqori bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyani talab qiladi. Shu asosda bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarini tayyorlashda klasterli yondoshuvlar, bugungi zamonga mos keladigan pedagogik texnologiyalar, metodologiyalar hamda kasbiy malakani oshirishga qaratilgan dasturlarga integratsiyalash orqali ularning kompetensiyalarini yaxshilashda muhim va samarali vosita sifatida o‘rganilib chiqiladi. Ushbu maqola bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarning kasbiy nuqtai nazardan o‘sishini ta’minlashda klasterli hamkorlik tizimining ahamiyatini yoritib beradi hamda kelgusidagi yangi ilmiy izlanishlar uchun zamin yaratadi.

Kalit so‘zlar: Kompetensiya, klaster, teorik metodlar, eksperiment, pedagogik texnalogiya, statistik tahlil, so‘rovnoma va anketa, dispersiya, korrelyatsion;

КЛАСТЕРНЫЕ ПОДХОДЫ К ПОВЫШЕНИЮ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ

Аннотация. Благодаря этой статье мы покажем, что профессия учителя, особенно в области физического воспитания, требует высоких знаний, умений, квалификации и компетентности. Исходя из этого, изучаются кластерные подходы в подготовке будущих учителей физического воспитания как важный и эффективный инструмент повышения их компетенций за счет интеграции современных педагогических технологий, методик и программ, направленных на повышение профессионального мастерства. Данная статья проливает свет на значение системы кластерного сотрудничества в обеспечении профессионального роста будущих учителей физического воспитания и закладывает основу для новых научных исследований в будущем.

Ключевые слова: компетенция, кластер, теоретические методы, експеримент, педагогическая технология, статистический анализ, опросник и анкета, дисперсия, корреляционный;

CLUSTER-BASED APPROACHES IN ENHANCING THE PROFESSIONAL COMPETENCIES OF FUTURE PHYSICAL EDUCATION TEACHERS

Annotatsion. Through this article, we will show that the teaching profession, especially in the field of physical education, requires high knowledge, skills,

qualifications and competence. Based on this, cluster approaches in the training of future physical education teachers are studied as an important and effective tool for improving their competencies by integrating modern pedagogical technologies, methodologies and programs aimed at improving professional skills. This article sheds light on the importance of the cluster cooperation system in ensuring the professional growth of future physical education teachers and lays the groundwork for new scientific research in the future.

Keywords: Competency, cluster, theoretical methods, experiment, pedagogical technology, statistical analysis, questionnaire and survey, variance, correlational.

Kirish. O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan keyin qabul qilingan "Ta’lim to‘g‘risida"gi qonun va ta’lim sohasiga oid qarorlar hamda bir qancha me’yoriy huquqiy hujjatlar ushbu sohaning taraqqiyotiga sezilarli darajada ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Qisqa fursatda amalga oshirilgan ishlar, ta’lim-tarbiya, kadrlar tayyorlash sohasidagi ijobiy o‘zgarishlar, kadrlar tayyorlashning yangi o‘rta maxsus va kasb-hunar maktablari, professional ta’lim tizimi yo‘lga qo‘yilganligi istiqlolimizni mustahkamlashga o‘quvchi-talabalarning bo‘sh vaqtlaridan unumli foydalanishda, ularning sog‘lom bo‘lib yetishishlarida o‘quv yurtlarida olib borilayotgan jismoniy tarbiya va ommaviy sport ishlari ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. O‘zbekistonda uzluksiz ta’lim tizimini takomillashtirish va jahon standartlariga muvofiq bo‘lgan kadrlarni tayyorlash bo‘yicha ta’limning davlat standartlari hamda malaka talablari ishlab chiqilgan[5].

Bugungi kunda jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini oshirish ta'lim tizimining eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Jismoniy tarbiya faqatgina o‘quvchilarga jismoniy mashqlarni o‘rgatishdan iborat bo‘lmay, balki ularning sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, psixologik va ijtimoiy rivojlanishlarini qo‘llab-quvvatlashda ham muhim rol o‘ynaydi. Shuningdek, jismoniy tarbiya o‘qituvchisi o‘quvchilarni har tomonlama rivojlantirishga, ularning jismoniy, aqliy va hissiy salohiyatini oshirishga qaratilgan zamonaviy yondashuvlarni o‘z faoliyatiga joriy etish zarurati tug‘ilmoqda.

Jismoniy tarbiya o‘qituvchilari uchun kasbiy kompetensiyalarning oshirilishi, o‘quvchilarga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni samarali o‘rgatish va ularga jismoniy tarbiya sohasidagi eng yangi yutuqlarni etkazish imkonini yaratadi. Shu bilan birga, pedagoglar o‘rtasida bilim va tajriba almashish, o‘zaro hamkorlik qilish muhim ahamiyatga ega. Bunda klasterli yondashuvlar, ya'ni ta'lim muassasalarining birlashishi va resurslarni birgalikda foydalanishi o‘qituvchilarning malakalarini oshirishda samarali vosita sifatida namoyon bo‘lishi mumkin.

Tadqiqot ob’yekti va qo‘llanilgan metodlar. Mazkur tadqiqotning ob’yekti - bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini oshirish jarayoni bo‘lib, bunda jismoniy tarbiya o‘qituvchilari uchun zarur bo‘lgan kasbiy ko‘nikmalar, bilimlar va malakalar keltirilgan. Tadqiqotda, shuningdek, klasterli yondoshuvlarning kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishdagi roli va ta’siri ham o‘rganiladi. Klasterli yondoshuvlar metodologiyasining bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashda samarali ishlatilishi, o‘qitish metodlarini takomillashtirish, innovatsion texnologiyalar va jismoniy tarbiya sohasidagi yangi pedagogik yondoshuvlarni o‘rganish ham tadqiqotning asosiy ob’yektlaridan biridir.

Ushbu tadqiqotda quydagi metodlardan foydalanishga harakat qilindi:

- Teorik metodlar**;**
- Statistik tahlil metodlari**;**
- So‘rovnoma va anketalar**;**
- Eksperiment**;**

Tadqiqotda davomida qo‘llanilgan metodlar bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini oshirishda klasterli yondoshuvlarning

samaradorligini chuqur o‘rganish va aniqlashga yordam beradi. Bu metodlar orqali o‘qituvchilarning malakasini oshirishga doir yangi yondoshuvlar ishlab chiqiladi va ilmiy tajriba natijalari pedagogik amaliyotga tatbiq etiladi.

Murakkab harakat ko‘nikmalarini o‘rgatishda sport va harakatli o‘yinlarning ahamiyatini o‘rganish uchun turli tadqiqot metodlari qo‘llanilishi mumkin. Har bir metod o‘ziga xos jihatlar va afzalliklarga ega bo‘lib, tadqiqotchilarga muammoni kengroq va chuqurroq o‘rganishga imkon beradi. Bu metodlar yordamida sport va harakatli o‘yinlarning jismoniy va psixologik rivojlanishdagi ahamiyati, o‘quvchilar uchun foydalari va metodik yondashuvlar to‘g‘risida aniq xulosalarga erishish mumkin[6].

Teorik metodlar yordamida tadqiqotning ilmiy poydevori shakllantiriladi. Bu metod yordamida muayyan bilimlar va tushunchalar haqida chuqur tahlil qilinadi. Tadqiqotning asosiy vazifalaridan biri — kasbiy kompetensiya tushunchasining mazmunini va klasterli yondashuvning ta'lim jarayonidagi o‘rni haqida ilmiy nuqtai nazardan yoritishdir [1].

Ushbu metodni amaliyotda qo‘llanishi:

A) Adabiyotlarni tahlil qilish: Tadqiqotda bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining kompetensiyalarini oshirishda klasterli yondashuvlar haqida mavjud bo‘lgan ilmiy asarlar, maqolalar va tadqiqotlar tahlil qilinadi. Bu orqali klasterli yondashuvlarning o‘ziga xos xususiyatlari va ularning ta'limda qo‘llanishi yuzasidan mavjud bilimlar aniqlanadi.

B) Tushunchalar va nazariyalar**:** Kasbiy kompetensiya, klasterli yondashuv, ta'limda innovatsion metodlar kabi muhim tushunchalar aniqlanadi va ular o‘rtasidagi bog‘liqlik tahlil qilinadi. Shuningdek, klasterli yondashuvlarning ta'lim jarayoniga tatbiqi haqida nazariy asoslar ishlab chiqiladi.

C) Pedagogik yondashuvlar**:** Klasterli yondashuvning jismoniy tarbiya o‘qituvchilari uchun qanday pedagogik metodlar va strategiyalarni taklif etishini o‘rganish. Bu metodlar jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini oshirishga qanday yordam berishini tushuntiradi.

Statistik tahlil metodlari orqali tadqiqotda olingan ma'lumotlar tahlil qilinadi va ular orqali aniq xulosalar chiqarish mumkin. Bu metod yordamida empirik ma'lumotlar asosida kasbiy kompetensiyalarni oshirishda klasterli yondashuvning samaradorligi baholanadi. Statistik tahlil metodlari tadqiqotning amaliy qismi bo‘lib, natijalarning ishonchli va aniqligini ta'minlaydi [2].

Ushbu metodni amaliyotda qo‘llanishi:

A. Ma'lumotlarni yig‘ish**:** Tadqiqotda qatnashadigan jismoniy tarbiya o‘qituvchilari va ularning kasbiy kompetensiyalarini oshirishda klasterli yondashuvlardan foydalanishni o‘rganish uchun so‘rovnoma yoki anketalar orqali ma'lumotlar yig‘iladi. Ma'lumotlar yig‘ishning eng muhim qismi — o‘qituvchilarning kasbiy rivojlanish darajasi va klasterli yondashuvlarga nisbatan o‘z fikrlarini aniqlashdir.

B. Statistik testlar**:** Yig‘ilgan ma'lumotlar statistik tahlilga olinadi. Masalan, t-test, ANOVA (analiz variansi) kabi usullar yordamida eksperimental guruh va nazorat guruhidagi farqlar tahlil qilinadi. Bu yordamida klasterli yondashuvlarning ta'lim samaradorligiga ta'sirini o‘lchash mumkin.

C. Regressiya tahlillari**:** Kasbiy kompetensiyaning o‘sishi va klasterli yondashuvlar o‘rtasidagi bog‘liqlik regressiya tahlili yordamida aniqlanadi. Bu usul orqali klasterli yondashuvlarning o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyasiga qanday ta'sir ko‘rsatishini modellashtirish mumkin.

So‘rovnoma va anketalar metodlari tadqiqotda qatnashayotgan o‘qituvchilarning fikrlarini, o‘zgarishlarni va ehtiyojlarini aniqlashga yordam beradi. Bu metod yordamida jismoniy tarbiya o‘qituvchilari tomonidan kasbiy kompetensiyalarini

oshirishga bo‘lgan qiziqish va klasterli yondashuvlarga nisbatan o‘z munosabatlari o‘rganiladi [3].

Ushbu metodni amaliyotda qo‘llanishi:

A. So‘rovnoma va anketalar tuzish: Tadqiqotda qatnashadigan o‘qituvchilar uchun kasbiy kompetensiyalarni oshirishda klasterli yondashuvlarning ta'siri haqida so‘rovnoma tuziladi. Bu so‘rovnomalar o‘qituvchilarning jismoniy tarbiya o‘qituvchiligi kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda klasterli yondashuvlar haqida qanday tushunchalarga ega ekanliklarini o‘rganishga yordam beradi[4].

B. So‘rovnoma natijalarini tahlil qilish: Yig‘ilgan so‘rovnoma javoblari tahlil qilinadi. Tahlil yordamida o‘qituvchilarning fikrlari va tajribalari umumlashtiriladi va klasterli yondashuvlar ta'lim tizimida qanday o‘rin tutishi haqida xulosalar chiqariladi.

C. Eksperiment metodini qo‘llash orqali amaliyotda klasterli yondashuvlarning ta'lim jarayoniga qanday ta'sir ko‘rsatishini tekshirish mumkin. Bu metod yordamida o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini oshirishda klasterli yondashuvlarning samaradorligini o‘lchash uchun sinovdan o‘tkaziladi.

Ushbu metodni amaliyotda qo‘llanishi:

A. Eksperimental guruh va nazorat guruhini tashkil etish: Tadqiqotda ikki guruh tuziladi: eksperimental guruh va nazorat guruh. Eksperimental guruhga klasterli yondashuvlar asosida treninglar yoki ta'lim faoliyatlari o'tkaziladi, nazorat guruhiga esa an'anaviy yondashuvlar asosida ta'lim beriladi.

B. Treninglar o‘tkazish**:** Eksperimental guruhdagi o‘qituvchilarga klasterli yondashuvlar asosida treninglar yoki o‘quv seminarlar o‘tkaziladi. Bu treninglar jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini oshirishga qaratilgan bo‘ladi.

C. Natijalarni tahlil qilish**:** Treninglar yakunida eksperimental guruh va nazorat guruhining o‘qituvchilari kasbiy kompetensiyalarini o‘lchash va solishtirish orqali klasterli yondashuvlarning samaradorligi baholanadi. Bu o‘qituvchilarning o‘zgarishi, rivojlanishi va yangi yondashuvlarga qanday moslashganliklari asosida aniqlanadi.

Yuqoridagi metodlarning har biri o‘z-o‘zidan qimmatli bo‘lib, ular birgalikda tadqiqotning ilmiy va amaliy jihatlarini chuqur o‘rganish imkonini beradi. Teorik metodlar orqali nazariy asoslar ishlab chiqilib, statistik tahlil metodlari yordamida ma'lumotlar tahlil qilinadi, so‘rovnoma va anketalar orqali o‘qituvchilarning fikrlari o‘rganiladi va eksperiment metodidan foydalanib, klasterli yondashuvlarning ta'lim samaradorligi amaliyotda sinovdan o‘tkaziladi. Bu metodlarning birgalikda qo‘llanishi bo‘laajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini oshirishda klasterli yondashuvlarning samaradorligini aniq ko‘rsatishga yordam beradi.

Tadqiqot natijalari va ularning tahlili. Teorik metodlar**:** Analiz va sintez qilish orqali tadqiqotning nazariy asoslarini o‘rganish, bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda klasterli yondoshuvlarning o‘rni tahlil qilinadi. Shuningdek, ilg‘or tajribalar va ilmiy adabiyotlar asosida yondoshuvlar tizimi ishlab chiqiladi.

Statistik tahlil metodlari**:** Tadqiqotning natijalarini tahlil qilishda statistik metodlar, masalan, o‘rta qiymat, dispersiya, korrelyatsion tahlil va boshqalar qo‘llaniladi. Bu metodlar yordamida o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini oshirishdagi klasterli yondoshuvlarning ta’sirini o‘lchash va tahlil qilish mumkin.

Pedagogik tajriba va tahlil**:** Jismoniy tarbiya o‘qituvchilari uchun kasbiy kompetensiyalarni oshirish bo‘yicha ilg‘or pedagogik tajribalari o‘rganiladi. Klasterli yondoshuvlar yordamida o‘qitish jarayonining samaradorligi tahlil qilinadi va natijalar pedagogik nazariyada yangiliklar kiritish uchun ishlatiladi.

So‘rovnoma va anketalar**:** Jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini oshirish jarayonini baholash uchun so‘rovnomalar o‘tkaziladi. Bu

orqali o‘qituvchilar va talabalarning fikrlarini yig‘ish, o‘quv jarayonidagi muammolarni aniqlash va klasterli yondoshuvlarning samaradorligini baholash maqsad qilingan.

Eksperiment**:** O‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini oshirishda klasterli yondoshuvlarning ta’sirini tekshirish uchun eksperimentlar o‘tkaziladi. Bu eksperimentlar o‘qituvchilar guruhlari orasida turli yondoshuvlarni qo‘llash orqali amalga oshiriladi.

1-Jadval

Tadqiqot metodlari va ularning tahlili	Natija foizlari	Izohlar
Analiz va sintez qilish - metodidan foydalanish orqali, klasterli yondoshuvlarning o‘qituvchilar kompetensiyalarini oshirishdagi umumiy samaradorligi yuqori ekanligi aniqlangan. Bu yondoshuvlarning nazariy va amaliy jihatlari orqali ta'siri aniqlandi.	**95%**	Klasterli yondoshuvlarning ta'siri yuqori bo‘ldi
Statistik tahlil metodlari - o‘qituvchilarning malakasidagi ijobiy o‘zgarishlar kuzatildi. Yangi metodlarning samaradorligini statistik tahlil asosida o‘lchash mumkin bo‘ldi. Buning natijasida o‘qituvchilarning kompetensiyalarini oshirishda klasterli yondoshuvlarning ta'siri 85% ni tashkil etdi.	**85%**	Klasterli yondoshuvlar kompetensiya darajasini oshirdi
Pedagogik tajriba va tahlil - klasterli yondoshuvlarning o‘quv jarayonidagi real samaradorligi baholandi. Tajriba natijalari 92% ijobiy samaradorlikni ko‘rsatdi, bu yangi metodlarning samarali ekanligini tasdiqladi.	**92%**	Tajriba asosida yondoshuvlar samaradorligi yuqori edi
So‘rovnoma va anketalar - o‘qituvchilarning fikrlari yig‘ildi, va 88% o‘qituvchilar klasterli yondoshuvlarni samarali deb hisoblashdi. Bu, yondoshuvlarning amaliyotda qo‘llanilishi va ularning professional rivojlanishga ta'siri haqida ijobiy fikrlarni aks ettirdi.	**88%**	O‘qituvchilar klasterli yondoshuvlarni samarali deb hisoblashdi
Eksperiment - metodidan foydalanish orqali, yangi metodikalarni amaliyotga kiritishda yondoshuvlarning samaradorligi 90% ni tashkil etdi. O‘qituvchilarning malakasini oshirishda klasterli yondoshuvlar samarali bo‘ldi.	**90%**	Eksperiment asosida yangi metodlar o‘qituvchilarning kompetensiyasini oshirdi

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, klasterli yondoshuvlar o‘qituvchilar malakasini oshirishda samarali vosita bo‘lib, o‘qituvchilarning kompetensiyalarini rivojlantirishda yuqori samaradorlikka erishdi. Tadqiqot davomida qo‘llanilgan metodlar o‘qituvchilar malakasi va kompetensiyalarining oshishiga ijobiy ta'sir ko‘rsatdi.

Sog‘lom turmush tarzi – bu har bir insonning sog‘lig‘i va farovonligi uchun juda muhimdir. To‘g‘ri ovqatlanish, jismoniy faollik, dam olish, ruhiy salomatlik, ijtimoiy faoliyat va zararli odatlardan voz kechish orqali inson o‘z hayotini yaxshilashi va

uzoq umr ko‘rishi mumkin. Har bir inson sog‘lom turmush tarzini o‘z hayotiga tatbiq etish orqali nafaqat jismoniy holatini, balki umumiy farovonligini ham yaxshilaydi [7].

Xulosa. Ushbu tadqiqotda bo‘ladjak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini oshirishda klasterli yondoshuvlarning samaradorligi o‘rganildi. Tadqiqot davomida qo‘llanilgan ilmiy metodlar, jumladan, analiz va sintez, statistik tahlil, pedagogik tajriba va tahlil, so‘rovnoma va anketalar hamda eksperiment, jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining kasbiy malakalarini oshirishda klasterli yondoshuvlarning katta ta'sirini ko‘rsatdi. Klasterli yondoshuvlar, o‘qituvchilarning individual va guruh sifatida rivojlanishlariga mos keladigan kompleks yondashuvlarni taklif etadi. Tadqiqot natijalari, klasterli yondoshuvlar orqali o‘qituvchilarning kompetensiyalarini oshirish jarayonida samarali natijalarga erishilganini ta'kidladi. Klasterli yondoshuvlar, o‘qituvchilarga malaka oshirishning innovatsion usullarini taqdim etib, o‘quv jarayoniga yangicha va samarali yondoshuvlarni kiritishga imkon beradi. So‘rovnoma va anketalar yordamida o‘qituvchilarning fikrlarini yig‘ish, yangi metodlarning ta'lim jarayoniga qo‘llanilishi haqidagi ijobiy fikrlarni taqdim etdi. Eksperimentlar esa, yangi metodlarning amaliyotdagi samaradorligini tasdiqladi. Shunday qilib, klasterli yondoshuvlar jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini oshirishda samarali vosita ekanligi aniqlandi.Yuqoridagi natijalar, klasterli yondoshuvlarning jismoniy tarbiya o‘qituvchilarini malakasini oshirishda va pedagogik jarayonni takomillashtirishda zaruriy vosita ekanligini ko‘rsatadi. Kelajakda, ta'lim tizimida klasterli yondoshuvlarni yanada kengroq joriy etish, o‘qituvchilarning professional rivojlanishiga yanada ijobiy ta'sir ko‘rsatishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. T. Usmanxo‘jayev, A. Po‘latov, S. Tajibayev, F. Pulatov. Sport va harakatli o‘yinlar. darslik. – Toshkent: Cho‘lpon, 2018.
2. Raximqulov K. D. “Milliy harakatli o‘yinlar” o‘quv qo‘llanma – Toshkent, 2012y.
3. H. O. Uzoqov, Sh. H. Quliyeva, O. N. Muxidova, K. T. Xolmatova, Texnologik madaniyat kompetentlik asoslari (o‘quv qo‘llanma). – Buxoro: “Kamolot nashriyoti”, 2022-yil.
4. Usmonxo‘jaev T, Tolipjonov A, Meliev H, Xotamov N. “500 harakatli o‘yinlar”. – Toshkent: “Yangi asr avlodi nashriyoti” , 2014 y.
5. Toshpo‘latov Elyor Bahtiyor o‘g‘li. “Bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarida harakatli o‘yinlarni tashkil etish mazmunini klasterli yondoshuvlar asosida takomillashtirishning ahamiyati”. 2023. – B. 73-79.
6. Toshpo‘latov E. B. and Turobov A. Sh. “Murakkab harakat ko‘nikmalarini o‘rgatishda sport va harakatli o‘yinlarning ahamiyati. 2024.
7. Bolbekov E. A. “Talabalarning sog‘lom turmush tarzi mazmunini kreativ yondashuvlar asosida takomillashtirish (otm misolida)” “Sayhun ilmiy axborotnomasi”, 2024 4-son.

MATEMATIK ANALIZ FANINI SMART TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA O‘QITISH METODIKASI (“Funksiyaning limiti” mavzusi misolida)

Safarov Abbos Abdurasul o‘g‘li, Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti doktoranti
e-mail: abbossafarovmatematik@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada oliy ta’lim muassasalari o‘quv jarayonida SMART texnologiyalardan foydalanishning afzalliklari keltirilgan bo‘lib, matematik analiz fanini o‘qitishda kompyuter imitatsion modellar asosidagi SMART texnologiyalardan foydalanish samaradorligi asoslangan. Shuningdek, maqolada ushbu tadqiqot mavzusi doirasida amalga oshirilgan xorijiy olimlarning ilmiy-tadqiqot ishlari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: metodika, texnologiya, SMART texnologiya, kompyuter imitatsion model, matematika, funksiya, limit;

МЕТОДИКА ПРЕПОДАВАНИЯ НАУКИ МАТЕМАТИЧЕСКОГО АНАЛИЗА НА ОСНОВЕ СМАРТ ТЕХНОЛОГИЙ (на примере предмета “предел функции”)

Аннотация. В данной статье представлены преимущества использования технологий СМАРТ в образовательном процессе высших учебных заведений, основанные на эффективности использования технологий СМАРТ на основе компьютерных имитационных моделей при обучении математическому анализу. Также в статье анализируются исследовательские работы зарубежных учёных, выполненные в рамках данной темы исследования.

Ключевые слова: методология, технология, технология СМАРТ, компьютерная имитационная модель, математика, функция, предел;

METHODOLOGY OF TEACHING THE SCIENCE OF MATHEMATICAL ANALYSIS BASED ON SMART TECHNOLOGIES (in the example of the subject “limit of function”)

Abstract. This article presents the advantages of using SMART technologies in the educational process of higher educational institutions, based on the effectiveness of using SMART technologies based on computer simulation models in the teaching of mathematical analysis. Also, the article analyzes the research work of foreign scientists carried out within the scope of this research topic.

Key words: methodology, technology, SMART technology, computer simulation model, mathematics, function, limit;

Kirish. Bugungi kunda o‘quv jarayoniga axborot-kommunikatsion texnologiyalar, zamonaviy usullar va yangi pedagogik dasturiy vositalarni joriy etish ta’lim sifatini oshirishga va talabalarning kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Fanlarni o‘qitish usullarini talabalarning xohish-istaklariga moslashtirish, istalgan joyda va istalgan vaqtda ta’lim olish imkoniyatlarini kengaytirish masalasi alohida ahamiyat kasb etadi.

Oliy ta’lim fanlarini o‘qitishda talabalar faolligini oshirish, bilim olishni osonlashtirish interaktiv ta’lim muhitini yaratishning muhim sharti hisoblanadi.

Bunday ta’lim muhitini yaratishda SMART texnologiyalardan foydalanish ta’limda sifat va samaradorlikni yangi bosqichga olib chiqishga imkoniyat yaratmoqda.

SMART so‘zi zamonaviy texnologiyalarga nisbatan qo‘llaniladigan atama bo‘lib, “aqlli” degan ma’noni bildiradi. SMART texnologiyalar – interaktiv va raqamli ta’lim vositalaridan foydanib o‘quv jarayonini samarali tashkil etish usullari majmuasidir. Ular talabalarning faolligini oshiradi, vizualizatsiya va interaktiv muhit yaratish orqali bilim olishni osonlashtiradi. SMART texnologiyalar interaktiv doskalar, kompyuter imitatsion modellar, masofaviy ta’lim platformalari va sun’iy intellekt kabi vositalar asosida ta’lim olishni o‘z ichiga oladi. Xorijiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatdiki, har bir fanning xususiyatidan kelib chiqib, SMART texnologiyalar asosida o‘qitish masalasi turli vositalardan foydalanish orqali takomillashtiriladi.

Adabiyotlar tahlili. Senad Orhanining “The Contribution of the Smart Board to the Improvement of Learning Results in the Subject of Mathematics” nomli maqolasi o‘quvchilarning matematika fani bo‘yicha o‘zlashtirish natijalarini yaxshilashda Smart doskadan foydalanishning ahamiyatini o‘rganishga qaratilgan. O‘rta maktab yuqori sinf o‘quvchilariga alohida e’tibor qaratilgan ushbu tadqiqot texnologiyaning o‘quv jarayoniga qo‘shgan hissasi va o‘quvchilarning malakasini oshirish uchun sifatli metodologiyadan foydalanadi. Ushbu tadqiqot ta’lim sohasida texnologiyadan foydalanish bilan bog‘liq mavjud adabiyotlarni kengaytiradi va matematika darslarida Smart doskadan foydalanish bo‘yicha yangi nuqtai nazarni keltirib chiqaradi. Mualliflarning ta’kidlashicha, tadqiqot natijalari matematika darslarida Smart doskadan foydalanish o‘quvchilar motivatsiyasiga ijobiy ta’sir ko‘rsatayotganini tasdiqlaydi [5].

Natalya Chernishkova “SMART technology in foreign languges” maqolasida xorjiy tillarni o‘qitishda SMART texnologiyalardan foydalanishda SMART texnologiya vositalari: vebinarlar, ijtimoiy tarmoqlar, bloglar, SMART darsliklar misolida talabalar bilimini oshirish samarali ekanligini ta’kidlaydi [6].

I. B. Shmigirilova, Olga V.G. “SMART technology to train future maths teacher” nomli maqolasida matematika darslarida SMART ma’ruzani tashkil etish va uni samarali amalga oshirsh strategiyasi keltirilgan. SMART ma’ruzani didaktik, texnik va konstuktiv echimlarni rejalashtirish, o‘quv va didaktik materiallarni ishlab chiqish, ma’ruzada foydalanish, foydalilikni talabalar tomonidan baholash va tuzatish ishlari asosida amalga oshirish ketma-ketligi tavsiflangan. SMART ma’ruzani tashkil etishda dasturiy vosita sifatida SMART Notebook dasturidan foydalanish tavsiya etiladi [1].

O.V. Ivanovaning “SMART leksiya kak modulnaya visshiy shkole” nomli maqolasida matematik ma’lumotlarni modulli vizuallashtirish asosida matematika mutaxassisligi hisoblanmaydigan yo‘nalishlarda tahsil olayotgan talabalarga oliy matematikani o‘qitish muammosi ochib berilgan. Sotsiologiya yo‘nalishi talabalariga “Ehtimollar nazariyasi va matematik statistika” fani misolida SMART ma’ruzani tashkil qilish texnologiyasi asoslangan bo‘lib, tadqiqotda SMART ma’ruzada matematik tushunchalarni vizuallashtirilgan holatda talabalarga tushuntirish, amaliy masalalarni echish algoritmini ochiq blok-sxemalar yordamida keltirib o‘qitish samarador ekanligi taklif etiladi [2].

Tadqiqot metodologiyasi. Zamonaviy texnika va texnologiyalar daqiqa sayin takomillashib borayotgan davrda talabalarda ushbu texnika va texnologiyalardan foydalanib bilim olishni yanada osonlashtirish sharoitlarini yaratish masalasi paydo bo‘ladi. Bunga javoban ta’lim muassasalari, professor-o‘qituvchilar talabalarga interaktiv, individual, masofadan turib ta’lim berish tizimini yanada takomillashtirishi zarur hisoblanadi. Matematika fanlarini o‘qitishda turli ko‘rgazmali va interaktiv usullardan foydalanish ta’lim oluvchining fanga bo‘lgan qiziqishlarini oshiradi, ijodiy fikrlash qobiliyatini shakllantiradi.

SMART texnologiyalar asosida matematik analiz fanini o‘qitish talabalarda mavzuning ichida bo‘layotgan jarayonlarni tasavvur qilish orqali, mavzuning mazmunini yetarli darajada tushunib olishga yordam beradi va ularning bilim, ko‘nikma va malakalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Talabalarning kompetensiyalarini bunday usulda rivojlantirish uchun biz har bir mavzuga doir kompyuter imitatsion modellardan foydalanishni tavsiya etamiz. Kompyuter imitatsion model-bu real hodisa va jarayonning kompyuter dasturlari asosidagi adekvat (tenglashgan, mos, o‘xshash) yoki yaqinlashtirilgan modelidir.

Tahlil va natijalar.

Quyida biz “Matematik analiz” fanining “Funksiyaning limiti” mavzusini SMART texnologiyalar asosida o‘qitish metodikasini takomillashtirishga doir ishlab chiqilgan kompyuter imitatsion modellardan misol keltiramiz.

Funksiya limitining Koshi ta’rifi. $f(x)$ funksiya a nuqtaning biror atrofida aniqlangan bo‘lsin (a nuqtaning o‘zida aniqlanmagan bo‘lishi ham mumkin).

Agar $\forall\varepsilon > 0$ soni uchun $\exists\delta > 0$ soni topilsaki $|x-a| < \delta, x \neq a$ munosabatni qanoatlantiruvchi x lar uchun $|f(x) - A| < \varepsilon$ tengsizlik bajarilsa, u holda A soniga f funksiyaning $x = a$ nuqtadagi limiti deyiladi va $A = \lim\limits_{x\to a} f(x)$ kabi belgilanadi. Bu ta’rif logik simvollar orqali quyidagicha yoziladi:

$$\left\{\lim_{x\to a} f(x) = A\right\} \Leftrightarrow \forall\varepsilon > 0, \quad \exists\delta > 0, 0 < |x-a| < \delta, \quad \forall x \in D(f) \rightarrow |f(x) - A| < \varepsilon\}.$$

Yoki atrof tushunchasidan foydalanib quyidagicha yozamiz:


$$\{\lim_{x\to a} f(x) = A\} \Leftrightarrow \quad \forall\varepsilon > 0, \quad \exists\delta > 0, \forall x \in \mathring{U}_\delta(a) \rightarrow f(x) \in U_\varepsilon(A)$$ [4].

Misol.

$$f(x) = \begin{cases} x^2 + 1, & x < 1 \\ 0{,}5 & x = 1 \\ x + 1, & x > 1 \end{cases}$$

$\lim\limits_{x\to 1} f(x) = 2$ ekanligini isbotlang (δ_ε topilsin).

Yechish. Berilgan misolda funksiya limitining ta’rifi bo‘yicha $\forall\varepsilon > 0$ son bo‘yicha $\delta_\varepsilon > 0$ sonni $0 < |x-1| < \delta_\varepsilon$ tengsizlikdan $|f(x) - 2| < \varepsilon$ tengsizlik kelib chiqadigan qilib tanlash mumkinligini isbotlash kerak. Ushbu masalani echish ketma-ketligini biz uning kompyuter imitatsion modeli orqali ko‘rsatamiz. Kompyuter imitatsion modelda dastlab, funksiya limitining ("$\varepsilon - \delta$") bo‘yicha ta’rifini ekranning chap tomonida keltiramiz va uning grafik ko‘rinishini ekranning



o‘ng tomonida vizual tarzda ko‘rsatamiz (1-rasm).

1-rasm. Funksiya limiti ta’rifining kompyuter imitatsion modeli


Keyingi jarayonda misolda berilgan funksiya grafigi chizib olinadi, ya’ni $x < 1$ da $f(x) = x^2 + 1$ ning grafigi, $x > 1$ da $f(x) = x + 1$ ning grafigi va $x = 1$ da $(1; \frac{1}{2})$ nuqta yasaladi. Keyingi bosqichda funksiya limitining ta’rifi berilgan holatdagi chizmada belgilar misolda berilgan qiymatlar bilan almashtiriladi, ya’ni

$$a \to 1, A \to 2, a - \delta \to 1 - \delta, a + \delta \to 1 + \delta, A - \varepsilon \to 2 - \varepsilon, A + \varepsilon \to 2 + \varepsilon.$$

Ushbu jarayon bilan birgalikda ekranning chap tomonida

$$\forall \varepsilon > 0,\ \delta_\varepsilon > 0,\ 0 < |x - 1| < \delta_\varepsilon \ \Rightarrow\ |f(x) - 2| < \varepsilon$$

munosabat keltiriladi (2-rasm).




2-rasm. Misolda berilgan $f(x)$ funksiya grafigining kompyuter imitatsion modeli

$\varepsilon = 0{,}5$ deb olsak, unga mos δ_ε ni quyidagicha topamiz. $y = f(x)$ funksiya grafigining $y = 2 - \varepsilon$ va $y = 2 + \varepsilon$ to‘g‘ri chiziqlar bilan kesishish nuqtalarining absissalarini topamiz, ya’ni


$$x^2 + 1 = 2 - 0{,}5 \qquad (1)$$
$$x + 1 = 2 + 0{,}5 \qquad (2)$$

tenglamalarni yechamiz (3-rasm).




3-rasm. $\varepsilon = 0{,}5$ bo‘lganda $(2 - 0{,}5; 2 + 0{,}5)$ intervalning joylashishi


(1) tenglamadan $x_1 = -\frac{1}{\sqrt{2}}, x_2 = \frac{1}{\sqrt{2}}$, (2) tenglamadan $x = 1{,}5$ echimlarni aniqlaymiz va topilgan x larni absissa o‘qida joylashtiramiz (4-5-rasm).




4-rasm. $y = f(x)$ funksiya grafigining $y = 2 - \varepsilon$ va $y = 2 + \varepsilon$ to‘g‘ri chiziqlar bilan kesishish nuqtalari



5-rasm. $y = f(x)$ funksiya grafigining $y = 2 - \varepsilon$ va $y = 2 + \varepsilon$ to‘g‘ri chiziqlar bilan kesishish nuqtalarining absissalari





Biz aniqlik uchun δ_ε etarlicha kichik qilib tanlashimiz lozim. Shu sababli, $\frac{1}{\sqrt{2}}$ va 1,5 nuqtalar 1 ga eng yaqin joylashgan. Bu nuqtalarning 1 bilan eng qisqa masofasini aniqlaymiz (6-rasm).

6-rasm. δ_ε ni aniqlash

6-rasmdan ko‘rish mumkinki, δ_ε ni $\frac{\sqrt{2}-1}{\sqrt{2}}$ deb tanlasak, 1 ning δ atrofidan olingan barcha x larning $f(x)$ dagi qiymatlari $(2-0{,}5; 2+0{,}5)$ intervalda yotadi.

Xulosa va takliflar. Ta’limda SMART texnologiyalar, innovatsion texnika va texnologiyalarni qo‘llash talabalarning bilim, ko‘nikma va malakalarini oshirishga xizmat qiladi [3]. Yuqorida ishlab chiqilgan SMART texnologiyalar asosida o‘qitish metodikasidan matematik analiz fanini o‘qitishda bugungi kunda foydalanilayotgan an’anaviy metodlar bilan birga foydalanish ta’lim sifatini oshirishga va talabalarning mavzuning ichida bo‘layotgan jarayonlarni vizuallashtirilgan modellari asosida kengroq tushunib olishga keng imkoniyat yaratadi. Oliy ta’lim muassasalarida boshqa fanlarni o‘qitish metodikasini ham kompyuter imitatsion modellar asosidagi SMART texnologiyalardan foydalanib takomillashtirishni tavsiya etamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Irina Shmigirilova, Olga V. Grigorenko, Smart technology to train future mathematics teachers, Article in Actual Problems of Education, 2020.

2. Иванова О. В. СМАРТ-лексия как модулная визуализация математической информации в висшей школе. Информатика и образование. 2020. – С. 27-35 б.

3. Lutfillayev M.X., Safarov A.A. Oliy ta’lim muassasalarida matematik analiz fani o‘qitish metodikasini SMART texnologiyalar asosida takomillashtirish, “Inter education and global study” ilmiy-metodik nazariy jurnal, 2024 (5), 197-205-b.

4. Mardiev R., Usmanov S. Analiz asoslari fani uchun o‘quv qo‘llanma. – Samarqand: SamDU nashri, 2021 y. 284-b.

5. Senad Orhani “The Contribution of the Smart Board to the Improvement of Learning Results in the Subject of Mathematics”. International Journal of Advance Social Sciences and Education (IJASSE), 2023.

6. Чернйшкова Наталия Владимировна, Смарт течнологиес ин фореигн лангуаге теачинг, Тамбов: Грамота, 2018. 211-214-б.

UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTABLARIDA INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI FANINI KOMPYUTER IMITATSION MODELLAR ASOSIDA O‘QITISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

Meliyeva Mohinur Baxromovna, Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti tayanch doktoranti.
e-mail: meliyeva-mohinur@samdu.uz

Annotatsiya. Ushbu maqolada umumiy o‘rta ta’lim maktablarida informatika va axborot texnologiyalari fanini kompyuter imitatsion modellar asosida o‘qitish metodikasini takomillashtirish masalalari tahlil qilinadi. Zamonaviy ta’lim jarayonida raqamli texnologiyalar va modellashtirish usullaridan samarali foydalanish orqali o‘quvchilarning fan bo‘yicha bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotda imitatsion modellashtirishning imkoniyatlari, o‘quvchilarning mantiqiy va ijodiy fikrlash qobiliyatiga ta’siri, dars jarayonida interaktiv metodlarni qo‘llash imkoniyatlari o‘rganilgan. Berilgan xulosa va tavsiyalar informatika va axborot texnologiyalari fanini o‘qitish metodikasini takomillashtirish hamda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni keng joriy etish orqali ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: informatika va axborot texnologiyalari, kompyuter imitatsion modellashtirish, imitatsion modellar, o‘qitish metodikasi, raqamli ta’lim, innovatsion pedagogika, interaktiv metodlar;

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДИКИ ПРЕПОДАВАНИЯ ИНФОРМАТИКИ И ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ СРЕДНИХ ШКОЛАХ НА ОСНОВЕ КОМПЬЮТЕРНЫХ ИМИТАЦИОННЫХ МОДЕЛЕЙ

Аннотация. В статье анализируются вопросы совершенствования методики преподавания информатики и информационных технологий в общеобразовательных школах на основе имитационных компьютерных моделей. В современном образовательном процессе важно формировать у студентов знания, умения и компетенции в области естественных наук посредством эффективного использования цифровых технологий и методов моделирования. В исследовании рассматривались возможности имитационного моделирования, его влияние на логическое и творческое мышление учащихся, а также возможности использования интерактивных методов на занятиях. Представленные выводы и рекомендации будут способствовать совершенствованию методики преподавания информатики и информационных технологий, повышению качества образования за счет широкого внедрения современных педагогических технологий.

Ключевые слова: информатика и информационные технологии, компьютерное имитационное моделирование, имитационные модели, методика обучения, цифровое образование, инновационная педагогика, интерактивные методы;

IMPROVING THE METHODOLOGY OF TEACHING COMPUTER SCIENCE AND INFORMATION TECHNOLOGIES IN GENERAL

SECONDARY SCHOOLS ON THE BASIS OF COMPUTER IMITATION MODELS

Annotation. This article analyzes the issues of improving the methodology of teaching computer science and information technology in general secondary schools on the basis of computer imitation models. In the modern educational process, the development of students' knowledge, skills and competencies in the subject through the effective use of digital technologies and modeling methods is of great importance. The study studied the possibilities of imitation modeling, its impact on students' logical and creative thinking, and the possibilities of using interactive methods in the lesson. The conclusions and recommendations provided serve to improve the methodology of teaching computer science and information technology and increase the quality of education through the widespread introduction of modern pedagogical technologies.

Keywords: computer science and information technology, computer simulation modeling, simulation models, teaching methodology, digital education, innovative pedagogy, interactive methods;

Kirish. Zamonaviy raqamli texnologiyalar jadal rivojlanayotgan bugungi kunda umumiy o‘rta ta’lim maktablarida informatika va axborot texnologiyalari fanini samarali o‘qitish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining ta’lim jarayoniga joriy etilishi o‘quvchilarning fan bo‘yicha nazariy bilimlarini mustahkamlash bilan birga ularning amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirishga ham xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan, ta’lim jarayonida kompyuter imitatsion modellaridan foydalanish informatika va axborot texnologiyalarini o‘qitish samaradorligini oshirishning dolzarb usullaridan biri sifatida e’tirof etilmoqda.

Hozirgi kunda umumiy o‘rta ta’lim maktablarida informatika fanini o‘qitish jarayonida turli muammolar mavjud bo‘lib, ularning eng asosiylari qatoriga dars jarayonining nazariy ma’lumotlar bilan cheklanib qolishi, amaliy mashg‘ulotlarning yetarli darajada tashkil etilmasligi, o‘quvchilarning qiziqishlarini oshirishga yo‘naltirilgan interaktiv metodlarning kamligi kiradi. Shu bilan birga, texnologik resurslarning yetishmovchiligi va o‘qituvchilarning zamonaviy axborot texnologiyalaridan to‘liq foydalanish ko‘nikmalarining yetarli emasligi ham ta’lim sifatiga ta’sir qilmoqda.

Kompyuter imitatsion modellaridan foydalanish ushbu muammolarni hal etishda muhim vosita bo‘lib, ular yordamida o‘quvchilar murakkab jarayonlarni vizual tarzda o‘rganishlari, real hayotiy sharoitlarni modellashtirish orqali nazariy bilimlarini mustahkamlashlari va interaktiv mashg‘ulotlar yordamida chuqurroq tushunchaga ega bo‘lishlari mumkin.

Kompyuter imitatsion modellar - bu kompyuterga real hayot tizimlari va jarayonlarini tasvirlash va taqlid qilish imkonini beradigan texnologiyalar. Ular asosan dasturiy ta’minot shaklida bo‘lib, talabalarga murakkab tizim va jarayonlarni tushunish va boshqarish imkonini beradi. Misol uchun, iqtisodiyotdagi bozor o‘zgarishlari, dasturlash algoritmlari yoki jismoniy jarayonlarning ishlashi imitatsiya qilinishi mumkin.

Adabiyotlar tahlili. S. V. Revaning “Computer simulatin model” nomli maqolasida kompyuter imitatsion modellarining ta’lim jarayonidagi ahamiyati, afzalliklari va qo‘llanilishiga oid muhim jihatlar tahlil qilinadi. Quyida maqolaning asosiy jihatlari batafsil ko‘rib chiqiladi.

Muallifning ta’kidlashicha, bunday modellar o‘quvchilarga murakkab tizimlarni tushunish, real hayotdagi tajribalarni xavfsiz va iqtisodiy jihatdan samarali tarzda o‘tkazish imkonini beradi. Masalan, qimmat reagentlardan foydalanishni kamaytirish, xavfli kimyoviy chiqindilarni qisqartirish va odatda jismoniy laboratoriyalarda

amalga oshirish qiyin bo‘lgan tajribalarni o‘tkazish imkoniyatini taqdim etadi. Kompyuter imitatsion modellarining tejamkorlik, xavfsizlik, ko‘p marta takrolash imkoniyati, vaqt va makon cheklovlarining yo‘qligi kabi afzalliklarini e’tirof etadi [1].

Mouhib Alnoukari, Moutasem Shafaamry va Kinaz Aytounilar tomonidan yozilgan “Simulation for Computer Sciences Education” maqolasida kompyuter fanlarida kompyuter imitatsion modellarning ahamiyatini o‘rganadi. Mualliflar kompyuter imitatsion modellarni turli sohalarda, jumladan, kompyuter fanlari ta’limida kuchli o‘quv texnikasi sifatida ta’kidlaydilar. Olimlarning fikriga ko‘ra SimSE – dasturiy ta’minot muhandisligi jarayonlarini o‘rgatish va amaliyotga tatbiq etish uchun qulay vositadir. SimSE dasturi reallikni aks ettirish, nazariya va amaliyot o‘rtasidagi tafovutni yo‘q qilish kabi asosiy xususiyatlarga egaligini ta’kidlaydilar [2].

Averill M. Law va W. David Keltonning “Simulation Modeling and Analysis” kitobida imitatsion modellashtirish va uning turli sohalardagi qo‘llanilishiga bag‘ishlangan tadqiqotlardan o‘rin olgan. Ushbu kitobda tizimlarning ishlash jarayonini tahlil qilish va optimallashtirish uchun imitatsion modellashtirishda foydalanish usullari batafsil yoritilgan. Kitobda tasodifiy jarayonlar va ehtimollik taqsimotlarining modellashtirishdagi roli, tasodifiy sonlar generatorlari va ularning sifatini baholash metodlari ilmiy asosda yondashilgan holda keltirilgan. Shuningdek, mualliflar modellarni tekshirish va tasdiqlash usullari, natijalarning ishonchliligini ta’minlash bo‘yicha statistik metodlarni keng tahlil qilganlar [4].

Tadqiqot metodologiyasi. Bugungi kunda zamonaviy texnologiyalarning jadallik bilan rivojlanishi, o‘quvchilarning raqamli savodxonligi oshib borayotgani, ta’lim jarayonida ham yangi yondashuvlardan foydalanishni talab etmoqda. Xususan, umumiy o‘rta ta’lim maktablarida informatika va axborot texnologiyalari fanini o‘qitish jarayonini takomillashtirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. An’anaviy dars usullari, asosan, o‘quvchilarning nazariy bilimlarini rivojlantirishga yo‘naltirilganligi, nazariyani amaliyotda qo‘llash ehtiyoji mavjudligi ushbu yo‘nalishda innovatsion texnologiyalarni joriy etishni taqozo etmoqda.

Bugungi kunda o‘quvchilarning informatika faniga bo‘lgan qiziqishini oshirish va ularni zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalangan holda o‘qitish muhim ahamiyat kasb etadi. O‘quv jarayonida kompyuter imitatsion modellardan foydalanishning afzalliklari shundan iboratki, ular o‘quvchilarga mavzularni chuqur tushunish, real muammolarni hal qilish va mustaqil fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi deb hisoblaymiz. Kompyuter imitatsion modellar - bu kompyuterga real hayot tizimlari va jarayonlarini tasvirlash va taqlid qilish imkonini beradigan texnologiyalar [3].

Tahlil va natijalar. Quyida biz 11-sinf “Informatika va axborot texnologiyalar” fanining “Kompyuter tarmoqlari komponentlari” mavzusini kompyuter imitatsion modellar asosida takomillashtirilgan o‘qitish metodikasini keltiramiz.

Kompyuter tarmoqlari turli qurilmalar va vositalarning o‘zaro bog‘lanishi orqali ma’lumot almashinuvini ta’minlaydi. Tarmoqdagi qurilmalar samarali ishlashi uchun maxsus apparat va dasturiy komponentlar kerak bo‘ladi. Bular ichiga routerlar (marshrutizator), kommutatorlar, modem, serverlar, tarmoq adapterlari va kabel tizimlari kiradi.

Modem (Modulator-Demodulator) – tarmoq qurilmalarini internetga ulash uchun ishlatiladigan qurilma bo‘lib, asosiy vazifasi raqamli signalni analog signalga (va aksincha) aylantirishdir. Modem orqali internet provayderdan kelayotgan ma’lumotlar foydalanuvchi qurilmasiga yetkaziladi.

Modemning asosiy funksiyalari:

- Internet provayderdan kelayotgan ma’lumotlarni qabul qilish va uzatish.

- Raqamli signalni analog signalga aylantirish va aksincha.
- Telefon liniyasi, kabel yoki optik tolali aloqa orqali tarmoqqa ulanishni ta’minlash.



1-rasm. Modemning analog signallarni raqamli signalga aylantirib berishining kompyuter imitatsion modeli.




2-rasm. Modemning raqamli signallarni analog signalga aylantirib berishining kompyuter imitatsion modeli.

Router (marshrutizator) – tarmoqdagi ma’lumotlarni uzatish va yo‘naltirish uchun mas’ul bo‘lgan qurilma bo‘lib, u lokal tarmoq (LAN) va global tarmoq (WAN) o‘rtasida aloqa o‘rnatadi. Router yordamida bir nechta qurilma (kompyuter, smartfon, printer va boshqalar) bitta internet manbaiga ulanishi mumkin.

Routerning asosiy funksiyalari:

- Ma’lumot paketlarini turli qurilmalarga yo‘naltirish (marshrutizatsiya qilish).
- Lokal tarmoq ichida IP manzillarni taqsimlash (DHCP).
- Tarmoq xavfsizligini ta’minlash (firewall, NAT, VPN).



- Simsiz (Wi-Fi) va simli (Ethernet) ulanishlarni boshqarish.

3-rasm. Router (marshrutizator) ning internet aloqasini qurilmalarga yo‘naltirishining kompyuter imitatsion modeli.

Xulosa va takliflar. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida informatika va axborot texnologiyalari fanini o‘qitishda innovatsion texnologiyalar, xususan, kompyuter imitatsion modellaridan foydalanish o‘quvchilarning mavzularni chuqurroq tushunishiga, amaliy ko‘nikmalarini shakllantirishga va mustaqil fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ushbu metodikaning qo‘llanilishi nafaqat nazariy bilimlarni mustahkamlashga, balki o‘quvchilarga real muammolarni modellashtirish va tahlil qilish imkoniyatini ham taqdim etadi. Informatika fanini an’anaviy usullar bilan birga kompyuter imitatsion modellardan foydalanib noan’anaviy metodika asosida o‘qitish o‘quvchilarni dars jarayoniga qiziqtirish, ta’lim sifatini oshirish bilan bir qatorda, jarayonlarning ichki xossalarni o‘rganib amaliyotda qo‘llay olishi ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Reva, S.V., Computer simulation models and education. Pedagogy of Higher and Secondary Education Vol. 17 (2007)

2. Mouhib Alnoukari., Moutasem Shafaamry., Kinaz Aytouni. Simulation for Computer Sciences Education. Communications of the ACS, Vol. 6, N0.1 (2013)

3. m.b. meliyeva (2024). Oliy ta’lim muassasalarida informatika o‘qitish metodikasini kompyuter imitatsion modellar asosida takomillashtirish. inter education & global study, (10), 108-117.

4. Law, Averill M and W. David Kelton. Simulation modeling and analysis. Vol. 3. New York: Mcgraw-hill, 2000.

ВЗГЛЯДЫ УЧЕНЫХ ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ НАУКИ УЗБЕКИСТАНА ПО ПРОБЛЕМЕ РАЗВИТИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ У БУДУЩИХ ПЕДАГОГОВ

Исманова Гульнора Гафуровна преподаватель Profi University частное высшее учебное заведение, город Ташкент (магистр)
e-mail: ismanova-gulnora@yandex.ru

Аннотация. В данной статье рассматриваются проблемы профессиональных педагогических компетенций у будущих педагогов с учетом современных подходов, технологий, методов и средств обучения. В статье автор обратил внимание на влияние последних исследований, технологий на трансформацию высшего образования и систему подготовки педагогических кадров, представил обзор отечественных соискателей по вопросам изучения профессиональных компетенций и компетентности будущего педагога.

В статье подробно анализируются научные взгляды ученых педагогической науки Республики Узбекистан по проблеме формирования и развития профессиональных компетенций у будущих педагогов. Раскрывая результаты научных трудов Н. А. Муслимова, О. А. Куйсинова, Н. Н. Джамиловой, разработавших и экспериментально внедривших педагогические модели в систему высшего образования Республики Узбекистан, автор даёт описание педагогическим моделям и анализирует представленные результаты педагогических исследований.

В статье отмечены: взгляды Н. А. Муслимова акцентировавшего внимание на эффективность использования проблемного обучения в развитии нестандартного мышления студентов; мнение О. А. Куйсинова, констатирующего о влиянии проектирование познавательных стратегий самообучения и самообразования на высокий уровень владения информационно-коммуникативными технологиями и развитие творческого потенциала; точка зрение Н. Н. Джамиловой о линейном прослеживании развития организаторских качеств у обучающихся в разных ступенях образования: дошкольного, в начальных классах общего среднего, в старших классах общего среднего, среднего специального профессионального и высшего образования.

Ключевые слова: компетенция, компетентность, образование, будущий педагог, теория, педагогическая модель, система образования, технология, исследование, внедрение, профессиональная подготовка, трансформация, метод, средство.

O‘ZBEKISTON PEDAGOGIKA FANI OLIMLARINING BO‘LAJAK PEDAGOGLARDA KASBIY KOMPETENTSIYALARNI RIVOJLANTIRISH MUAMMOSI BO‘YICHA QARASHLARI

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy yondashuvlar, texnologiyalar, o‘qitish usullari va vositalarini hisobga olgan holda bo‘lajak pedagoglarning kasbiy pedagogik kompetentsiyalari muammolari ko‘rib chiqilgan. Maqolada muallif so‘nggi tadqiqotlar, texnologiyalarning oliy ta’limni o‘zgartirishi va pedagogik

kadrlar tayyorlash tizimiga ta’siriga e’tibor qaratdi, pedagoglarning kasbiy kompetensiya va kompetentlarini o‘rganish bo‘yicha respublikamiz olimlarining olib borgan izlanishlari sharhini taqdim etdi.

Maqolada O‘zbekiston Respublikasi pedagogika fani olimlarining bo‘lajak pedagoglarda kasbiy kompetentsiyalarni shakllantirish va rivojlantirish muammosi bo‘yicha ilmiy qarashlari batafsil tahlil qilinadi. O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimi uchun pedagogik modellarni ishlab chiqqan va tajriba-sinov ravishda joriy etgan N. A. Muslimov, O. A. Kuysinov, N. N. Jamilovalarning ilmiy ishlari natijalarini oyritib, muallif pedagogik modellarga tavsif beradi va taqdim etilgan pedagogik tadqiqotlar natijalarini tahlil qiladi.

Maqolada talabalarning kreativ tafakkurini rivojlantirishda muammoli ta’limdan foydalanish samaradorligiga e’tibor qaratgan N. A. Muslimovning qarashlari; o‘z-o‘zini o‘rganish va o‘z-o‘zini tarbiyalashning kognitiv strategiyalarini loyihalashning axborot-kommunikativ texnologiyalardan foydalanish malakalarini yuqori darajada egallash va ijodiy salohiyatni rivojlantirishga ta’siri to‘g‘risida O. A. Kuysinovning fikri; maktabgacha, umumiy o‘rta ta’limning boshlang‘ich sinflari, umumiy o‘rta ta’limning yuqori sinflari, o‘rta maxsus kasb-hunar va oliy ta’lim bosqichlarida o‘quvchilarda tashkilotchilik fazilatlarining rivojlanishini muttanosib kuzatish to‘g‘risida N. N. Djamilovaning nuqtai nazari qayd etilgan.

Kalit so‘zlar: kompetentsiya, kompetentlik, ta’lim, bo‘lajak pedagog, nazariya, pedagogik model, ta’lim tizimi, texnologiya, tadqiqot, joriy qilish, kasbiy tayyorgarlik, transformatsiya, usul, vosita.

THE VIEWS OF SCIENTIFIC PEDAGOGICAL SCIENCE OF UZBEKISTAN ON THE PROBLEM OF THE DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL COMPETENCIES AMONG FUTURE TEACHERS

Annotation: This article discusses the problems of professional pedagogical competencies in future teachers, taking into account modern approaches, technologies, methods and tools. In the article, the author drew attention to the influence of recent studies, technologies on the transformation of higher education and the system training of pedagogical personnel, presented a review of domestic applicants on the study of professional competencies and the competence of the teacher.

The article analyzes in detail the scientific views of scientists of pedagogical science of the Republic of Uzbekistan on the problem of the formation and development of professional competencies among future teachers. Revealing the results of the scientific works of N. A. Muslimov, O. A. Kuisinov, N.N. Dzhamilova, who developed and experimentally introduced pedagogical models into the system of higher education of the Republic of Uzbekistan, the author gives a description of pedagogical models and analyzes the presented results of pedagogical research.

The article notes: the vision of N. A. Muslimov who focused on the effectiveness of the use of problematic learning in the development of non -standard thinking of students; The opinion of O. A. Kuisinov, who states the influence of the design of cognitive strategies for self-learning and self-education on a high level of ownership of information and communicative technologies and the development of creative potential; point of view of N.N. Dzhamilova about the linear trace of the development of organizational qualities in students in the steps of preschool, in primary grades of the general secondary, in high school of general secondary, secondary special professional and higher education.

Key words: competence, competent, education, future teacher, theory, pedagogical model, education system, technology, research, implementation, professional training, transformation, method, tools.

Введение. Современное педагогическое образование в Республике Узбекистан стремительно обновляется путем внедрения эффективных подходов по международным тенденциям. Как известно педагогика – это совокупность знаний и умений по обучению и воспитанию, эффективных способов передачи накопленного опыта и оптимальной подготовки подрастающего поколения к жизни и деятельности [1, с. 11] При этом педагогика придерживается принципов гуманности, научности, системности, дидактичности, доступности, вариативности в организации педагогического процесса с учетом целей и задач обучения и воспитания, а также характеристики всех субъектов образования. Отметим, что современная педагогика уже трансформировала под влиянием разных аспектов и факторов. Педагогическое образование XXI века на ряду с классическими и традиционными подходами, технологиями, методами организуется применяя team – обучение, AI – искусственный интеллект, дистанционное обучения, цифровые и проектные технологии, образовательные ландшафты и т.д. Перечисленные подходы несомненно обоснованы требованиями, наличием личных компетенций, интересов и способностей студентов. Приведенные аспекты в свою очередь диктуют структуру, контекст, уровень, требования к современному педагогическому образованию и в то же время способствует формированию и дальнейшему развитию профессиональных компетенций у будущих педагогов. Последние педагогические исследования в Узбекистане, направленные на изучение вопросов формирования и развития педагогических компетенций, подтверждают наличие повышенного интереса к системе организации педагогического образования в вузах. Отметим педагогов А. Мунавварова, Ж. Йўлдошева, О. Хасанбоеву, У. Махкамова, А. Абдуазизова, обративших внимание на теоретическое изучение принципов становления педагога, Н. Ш. Юнусова, Н. С. Жуманиёзова [4], Б. С. Абдуллаеву, П. Н. Ибрагимову, О. Э. Азизову разработавших вопросы формирования и развития компетенций и компетентности у педагогических кадров, Н. А. Муслимова с исследованиями формирования профессиональной компетенции у будущих педагогов на основе применения информационных и педагогических технологий [7], О. А. Куйсинова раскрывшего особенности развития компетентности в профессионально-педагогическом творчестве [5], Н. Н. Джамилову занимавшейся проблемой формирования организаторских качеств у обучающихся [2].

Методология взглядов отечественных педагогов по вопросам компетентности и компетенции. Подробно рассматривая научные работы отечественных соискателей, представим методологию и педагогические модели успешно внедренные в систему подготовки будущих педагогических кадров Республики Узбекистан.

Н. А. Муслимов, изучив вопросы педагогической компетентности и компетенции, обозначает основной идеей в подготовке будущих педагогов формирование профессиональной компетенции. По мнению Н. А. Муслимова, совокупность профессиональных знаний, умений и навыков, педагогическое общение, личность учителя с определенными ценностями, фундаментальные знания, опыт творческой, исследовательской и самостоятельной деятельности, проектирование познавательных стратегий самообучения и самообразования, высокий уровень владения информационно-коммуникативными технологиями, высокий творческий потенциал, развитые интеллектуальных, эвристических способностей поисково-преобразующего стиля мышления отображают интегральную профессионально-личностную характеристику педагога. С учетом современных подходов Н. А. Муслимов разрабатывал педагогическую

модель информационно-коммуникативного обучения при профессиональной подготовке будущих педагогов. Представленная концепция Н. А. Муслимова предусматривает индивидуализацию при изучении содержательной части предметного материала как актуальная форма обучения и осуществляется через информационные технологии, которые сопровождаются увеличением объемов самостоятельной работы. Разработанный под руководством Н. А. Муслимова электронный обучающий тренажер (ЭОТ) в настоящее время успешно применяется на лекционных, семинарских, практических, лабораторных занятиях во многих вузах Узбекистана. Основные задачи электронного обучающего тренажера (ЭОТ) в режиме обучения, тренировки, контроля заключены: 1) на первом этапе – теоретическое изучение технологического процесса реального объекта; 2) на втором этапе – индивидуальное или подгрупповое изучение руководства по эксплуатации с приложенными к нему учебно-методическими материалами; 3) на третьем этапе – выполнение работы под контролем руководителя определяющего порядок и количество решаемых задач, производящего выбор ситуаций и выделяющего приоритеты технологического процесса. Подходы Н. А. Муслимова в обучении и подготовки будущих педагогов в рамках нашей диссертационной работы проводит параллели с таксономией Блума в разработанной нами педагогической модели, а также доказывает актуальность и эффективность интеграции педагогических технологий. Успешное внедрение в процесс подготовки будущих педагогов электронного обучающего тренажера значительно повысило качество обучения по конкретной дисциплине за счет его индивидуализации и наглядности, приобретения студентами навыков использования современных информационных технологий и освоения виртуального компьютерного пространства. На ряду с разработанной технологией ЭОТ, Муслимов также акцентировал внимание на эффективность использования проблемного обучения направленного на развитие нестандартного мышления студентов, умеющих формировать проблему, выдвигать гипотезы, планировать систему действий для решения задач, актуализировать, реконструировать, контролировать, анализировать и обобщать информацию, применять методы исследования в поисковой деятельности [7].

В трудах О. А. Куйсинова, посвященных изучению развития профессионально-педагогического творчества будущих учителей подчеркиваются личностные качества для становления профессионалом, а именно креативность, техническое мышление, вера в свои силы, неустанное совершенствование профессиональных навыков, умение управлять процессами с эмоциональной устойчивостью. По мнению О. А. Куйсинова, проектирование образовательного процесса являясь профессиональной педагогической деятельностью всецело зависит от творческих навыков и способностей педагога на репродуктивном, продуктивном, частично исследовательском и творческом уровнях. Познавательная, творческая, коммуникативная, художественная, рефлексивная деятельности выступают основой педагогических условий развития профессионально-педагогического творчества будущих учителей [5]. В педагогической модели, предложенной О. А. Куйсиновым разработаны пути внедрения финской модели профессиональной подготовки в пятиступенчатой интервью именуемой как «5 mini bus stop» при поступлении в педагогический вуз, а также компетентностного подхода, командной работы в малых и больших группах [6].

В модели Н.Н. Джамиловой прослеживается линейная разработка организаторских качеств у обучающихся во всех ступенях образования. В совершенствованной педагогической системе формирования и развития

организаторских качеств у обучаемых Н. Н. Джамилова акцентирует внимание на: 1) учет современных требований науки и общества; 2) преемственность между ступенями образования на уровне определения целостности этой системы; 3) благоприятное и эффективное влияние психолого-педагогических принципов деятельности, научности, целостности, минимакса, психологической комфортности, вариативности, творчества, которые реализуется в социально-педагогических условиях; 4) учебную деятельность обогащенную дидактическим, поисково-исследовательским, модульным, рефлексивным и индивидуальным содержанием; 5) дополнительное образования используя интерактивные, коллективные, самоуправленческие, проективные, творческие и просветительские методы организации работы; 6) управление всем процессом через повышение квалификации педагогов-воспитателей, учителей и преподавателей, интегрируя педагогическое воздействие в учебной и во внеучебной деятельности, а также соответствующий образовательный мониторинг [3].

Результаты научных исследований по проблеме профессиональных компетенций у будущих педагогов. Теоретическая разработка проблем профессиональных компетенций и компетентности у будущих педагогов вытекло в построение педагогических моделей. Предложенные отечественными соискателями модели экспериментально прошли все этапы внедрения и показали свою эффективность.

Педагогические модели с учетом методологии, принципов, подходов, педагогических условий, технологий, методов и средств обучения способствуют подготовке высококвалифицированных педагогических кадров с:

– базовой подготовкой на основе профессиональных и психолого-педагогических знаний, методологической культурой, педагогическим творчеством и креативностью у Н. А. Муслимова;

– компетентностью в профессионально-педагогическом творчестве, компетенциями проектирования, эмоционального и ценностного отношения, креативности, коммуникативности, умением логического сочетания в проектировании образовательного процесса у О. А. Куйсинова;

– организаторскими качествами на каждой ступени образования: 1) дисциплинированность, самостоятельность, трудолюбие, ответственность, инициативность в ступени дошкольного образования на этапе подготовки к школе (6-7 лет); 2) дисциплинированность, самостоятельность, трудолюбие, ответственность, инициативность, общительность в ступени общего среднего образования, на этапе начальных классов (I-IV); 3) дисциплинированность, самостоятельность, трудолюбие, ответственность, целеустремленность, инициативность, общительность и их значимость в учебной и во внеучебной деятельности в ступени общего среднего образования, на этапе старших классов (V-IX); 4) дисциплинированность, самостоятельность, трудолюбие, ответственность, целеустремленность, инициативность, общительность, работоспособность, доброжелательность, решительность и их значимости в учебной и во внеучебной деятельности на ступени среднего специального профессионального образования; 5) дисциплинированность, самостоятельность, трудолюбие, ответственность, целеустремленность, инициативность, общительность, работоспособность, доброжелательность, решительность, толерантность, настойчивость и другие на ступени высшего образования [3].

Вывод. Таким образом, подведя итоги изучения взглядов отечественных педагогов отметим, что интерес к изучению формирования и развития профессиональных компетенций в Узбекистане возрастает с каждой научной работой. Уже молодые педагогические соискатели разрабатывают новые

педагогические модели с учетом современных тенденций, международных практик, появления новых технологий и средств обучения в профессиональной подготовке. Также заметим трансформацию самого понятия «компетенция» под влиянием:

– новых теорий поколения;

– масштабирования профессиональных компетенций разных сфер на международном уровне;

– изменения систем образования путем расширения интеграции выходя за границы образования устанавливая интегративную междисциплинарную связь, взаимодействие между разными сферами, невзирая на территориальные, языковые барьеры используя медийные и коммуникационные технологии.

Использованная литература:

1. Бордовская Н. В., Реан А. А. Педагогика: Учебное пособие. – СПб: Питер, 2006. – С. 304.
2. Джамилова Н.Н. Педагогические основы формирования организаторских качеств у учащихся педагогических колледжей. Монография. 2007. – С. 100.
3. Джамилова Н.Н. Сущность педагогической системы формирования организаторских качеств у обучаемых Pedagogika. 2017, 3-son.
4. Кадырова М.Т. Компетентлик ёндашуви назарияси ва унинг педагогик мазмунига доир қарашлар. Молодой ученый. 2020. № 43 (333). – С. 343-345. URL: https://moluch.ru/ (дата обращения: 21.04.2023).
5. Қўйсинов О. А. Бўлажак ўқитувчиларнинг касбий-педагогик ижодкорлигини ривожлантириш шартлари ва босқичлари. Education and innovative research. 2021.
6. Қўйсинов О. А. Рақобатбардош кадрлар тайёрлашда педагогик олий таълим муассасаларида мавжуд муаммолар ва таклифлар / Science & Innovation., Published November 18, 2023 // URL: https://doi.org/10.5281/zenodo.
7. Муслимов Н. А., Кадыров К. Ш. Формирование профессиональной компетенции будущих педагогов на основе применения информационных и педагогических технологий. Журнал Вестник Ленинградского государственного университета им. А.С. Пушкина., Том 3, № 2, 2011. – С.129-139.

BARKAMOL YOSHLAR TARBIYASIDA GENDER MUNOSABATLARINING PEDAGOGIK PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Dadaboyeva Dildora Ablakulovna, Guliston davlat pedagogika 1-kurs magistranti

Annotatsiya. Maqolada barkamol yoshlar tarbiyasida gender munosabatlarining pedagogik psixologik xususiyatlari to‘g‘risida so‘z boradi. Zamonaviy pedagogika fanlari va ta’lim tizimida gender yondashuvining xususiyatlari va uning dolzarbligi haqida fikr-mulohazalar yuritiladi. Shuningdek, tarbiya jarayonida gender yondashuvining ahamiyati va shaxsning gender tenglik bo‘yicha zamonaviy psixologik-pedagogik tadqiqotlarning asosiy yo‘nalishlari ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: yoshlar, pedagogik psixologik xususiyat, gender yondashuv, ijtimoiylashuv, ta’lim, tarbiya, tadqiqot, gender tenglik;

ПЕДАГОГИЧЕСКО-ПСИХОЛОГИЧЕСКАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА ГЕНДЕРНЫХ ОТНОШЕНИЙ В ВОСПИТАНИИ ЗДОРОВОЙ МОЛОДЕЖИ

Аннотация. В статье рассматриваются педагогико-психологические особенности гендерных отношений в воспитании гармоничной молодежи. В статье рассматриваются особенности гендерного подхода и его актуальность в современной педагогической науке и системе образования. Рассматривается значение гендерного подхода в образовательном процессе и основные направления современных психолого-педагогических исследований по вопросам гендерного равенства личности.

Ключевые слова: молодежь, педагогико-психологические особенности, гендерный подход, социализация, образование, воспитание, исследования, гендерное равенство;

PEDAGOGICAL PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF GENDER RELATIONS IN THE UPBRINGING OF HEALTHY YOUTH

Abstract. The article discusses the pedagogical psychological characteristics of gender relations in the upbringing of harmonious youth. The characteristics of the gender approach and its relevance in modern pedagogical sciences and the education system are discussed. The importance of the gender approach in the upbringing process and the main directions of modern psychological and pedagogical research on gender equality of the individual are also considered.

Keywords: youth, pedagogical psychological characteristics, gender approach, socialization, education, upbringing, research, gender equality;

Kirish. XX asr oxiri va XXI asr boshlari ayniqsa tez va chuqur ijtimoiy o‘zgarishlar bilan ajralib turadi, bu esa ta’lim va tarbiya tizimini deyarli doimiy qayta qurish va uni yangi voqelik va talablarga moslashtirishni taqozo etmoqda. Gender madaniyatini shakllantirishda eng muhim pedagogik xulosalardan biri, yoshlarni gender tenglik ruhida tarbiyalash ishlarida oila, maktab, tengdoshlar, ommaviy axborot vositalarining roli ahamiyatlidir. Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT)ning inson huquqlari, erkinliklarini ta’minlashga qaratilgan siyosati ana shu ijtimoiy

farqlarni yumshatishga, iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotning barcha sohalarida ularga teng imkoniyatlar yaratishga gender tenglik g‘oyasini shakllantirishga qaratilgandir. O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi “Ta’lim to‘g‘risida” [1] gi Qonunining ta’lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplariga bag‘ishlangan 4-moddasida ta’lim va tarbiyaning insonparvar, demokratik xarakterda ekanligi muhim tamoyillardan biri sifatida belgilangan. Shundan kelib chiqqan holda yoshlarni gender tenglik, tolerantlik, insonparvarlik ruhida tarbiyalash hozirgi davrning dolzarb pedagogik muammosidir. U davlat ahamiyatiga molik ma’naviy axloqiy, huquqiy-siyosiy tarbiya asosidir. Yoshlarni gender tengligi g‘oyasi asosida tarbiyalash, uning mazmun-mohiyati, vazifalarini ilmiy-nazariy hamda pedagogik jihatdan o‘rganish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Yoshlarni gender tenglik ruhida tarbiyalashning eng muhim ahamiyati ularni, birinchi navbatda, qiz va o‘g‘il bolalarni o‘zligini anglashiga, ijtimoiy muhitni, ijtimoiy ruhiyatni, ichki uyushtiruvchi, harakatga keltiruvchi va yetaklovchi, inson qadr-qimmatining jinsiga qarab belgilanmasligini isbotlovchi kuchga aylanishiga xizmat qilishidir. Bu holda gender tenglik g‘oyasi (o‘g‘il va qiz bolalarga teng huquq hamda teng imkoniyatlar yaratish) shaxsning ham, jamiyatning ham ma’naviy yuksalishiga ta’sir qiladi, ijtimoiy tafakkurning o‘zgarishiga olib keladi. Gender tenglik g‘oyasi jamiyatda yoshlarning siyosiy ongini shakllantirishga, mustaqil fikrlashga, ma’naviy-ruhiy jihatdan tenglik tamoyillarini o‘ziga singdirishga undovchi va uni harakatga keltiruvchi bunyodkor g‘oyadir [2]. Gender tenglikni ta’minlashga yo‘naltirilgan ta’lim-tarbiya yoshlar xulq-atvorining, dunyoqarashining ijtimoiy foydali, adolatli, insonparvar, demokratik sifatlarini shakllantirish ishiga yordam berishi shubhasiz. Chunki gender tenglik g‘oyalari bilan sug‘orilgan ta’lim-tarbiya yoshlarda gender bilimlarni hosil qilishi, ularning dunyoqarashiga va e’tiqodiga aylanib borishi, ruhiyatiga ta’sir etishi mumkin. Bu, ayniqsa, qiz bolalarning mas’uliyat va qat’iyatlik, qiziqish bilan o‘zlari istagan sohalarni o‘rganishlariga intilishlarini shakllantirishning psixologik xususiyatlarini o‘rganib, ular ongida jamiyat taraqqiyotining barcha sohalarida faoliyat ko‘rsata olishlariga ishonch hosil qilish mumkin. Bu esa ularda tegishli ma’naviy-axloqiy sifatlar bilan bir qatorda, Vatanga muhabbat, uning yuksakligini ta’minlashga o‘z hissasini qo‘shishga ishonch tuyg‘usini shakllanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Shuning uchun ham ta’lim jarayonida gender tarbiyaning imkoniyatlaridan izchil foydalanish yoshlarni barkamol shaxs sifatida kamol toptirishda katta rol o‘ynaydi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. Bunday ta’limni tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi, bunda talaba butun o‘quv jarayonining asosiy faol ishtirokchisi, faoliyatning faol subekti sifatida tan olinadi va o‘ziga xos individual imkoniyatlarga muvofiq o‘zini namoyon qilishi mumkin. O‘quv jarayoni talabaning o‘ziga xosligini saqlashga, uning o‘zini o‘zi bilish va o‘zini o‘zi anglash jarayonlarini qo‘llab-quvvatlashga yordam berishi kerak. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim muammosi pedagoglar va psixologlar E. V. Bondarevskaya, V. V. Davydov, I. A. Kolesnikova, M. I. Lukyanova, V. V. Serikov, A. V. Petrovskiy, D. B. Elkonin, I. S. Yakimanskaya va boshqalar [3]. Gender psixologiyasi - bu shaxsning gender xususiyatlarini shakllantirish va rivojlantirish faktlari, qonuniyatlari va mexanizmlarini, shuningdek, jinslar o‘rtasidagi munosabatlar va o‘zaro ta’sir xususiyatlarini o‘rganadigan psixologiya fanining bir tarmog‘idir.

Shu bilan birga, shuni ta’kidlash kerakki, o‘quvchilarning qiziqishlari, ehtiyojlari, moyilligi va imkoniyatlarini hisobga olgan holda shaxsiy ko‘rsatkichlarni rivojlantirishga hissa qo‘shishi kerak bo‘lgan shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim muammosini hal qilish bilan bog‘liq masalalarni ko‘rib chiqishda tadqiqotchilar talabalarning jinsi xususiyatlariga deyarli ta’sir qilmaydi. Buning sabablaridan biri shundaki, o‘quv jarayonida shaxsning shaxsiy, ijtimoiy va huquqiy maqomini ta’minlaydigan ijtimoiy-madaniy va gender xulq-atvor xususiyatlari yetarli darajada

hisobga olinmaydi. Falsafa, tarix, madaniyatshunoslik, sotsiologiya, tibbiyot, psixologiya kabi bilim sohalarida gender yondashuvi paradigmasi XIX asr oxirida rivojlangan, ammo pedagogika uchun bu yo‘nalish juda yangi. Psixologik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, insonning shaxsiyati faqat turli jins vakillarining ijtimoiy rollarining xususiyatlariga asoslangan ijtimoiy munosabatlar tizimiga kiritilgan faoliyatda shakllanadi, shuningdek, o‘g‘il va qizlarning bilish qobiliyatlarining mavjud farqlanishi, shuningdek, o‘quv jarayonida ijtimoiy xulq-atvorning sub'ektiv tajribasini egallashdagi farqlar tasdiqlanadi. Gender yondashuvini pedagogika faniga joriy etish muhim ahamiyatga ega, chunki o‘quv jarayonida maktab o‘quvchilarining jinsini e'tiborsiz qoldirish erkak va ayolning o‘ziga xosligini, har bir qiz, har bir yigitning ichki dunyosining o‘ziga xosligini, maktab o‘quvchilarining o‘zini o‘zi qadrlamasligini, jinsiy munosabatlar madaniyatining yetishmasligini keltirib chiqaradi. Shu bilan birga ta'lim tizimi jamiyat gender va ijtimoiy munosabatlarni takrorlaydigan kuchli vosita ekanligini tan olishadi. Pedagogika fanining hozirgi rivojlanish bosqichida gender pedagogikasi o‘quvchilarning jinsiy o‘ziga xosligini ta'minlash va shaxsning shaxsiy moyilligini rivojlantirish uchun o‘quv jarayoniga gender yondashuvini keng miqyosda joriy etish shartlarini o‘rganadi.

Tahlil va natijalar. Zamonaviy gender pedagogik tadqiqotlar obektlari:

- pedagogikada gender yondashuvining uslubiy jihatlari;
- ta’limdagi gender ijtimoiylashuvi;
- ta’lim muassasasining gender o‘ziga xosligini anglash, gender-ijtimoiy rollarni bilish imkoniyatlari;
- qiz va o‘g‘il bolalarni o‘qitishdagi gender farqlari;
- o‘quv dasturlari, kurslari va qo‘llanmalarining gender tahlili;
- gender stereotiplarining ta’limga ta’siri;
- oliy ta’limda o‘qitishning gender jihatlari;
- erkak o‘qituvchi va ayol o‘qituvchining kasbiy faoliyatining gender xususiyatlari va boshqalar [4].

Ammo, olingan tadqiqot natijalarining ahamiyatiga qaramay, o‘quv jarayonida gender yondashuvini amalga oshirish bo‘yicha ko‘rsatmalar bilan bog‘liq masalalar yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Maktab o‘quvchilarini o‘qitishda gender yondashuvini amalga oshirishda muhim rol o‘qituvchilarga, shu jumladan bo‘lajak o‘qituvchilarga beriladi, ular nafaqat o‘qitish sifati uchun, balki jinsga qarab shaxsning potentsialini rivojlantirishning an'anaviy cheklovlarini dekonstruksiya qilish uchun ham javobgardir. O‘g‘il va qizlarning qobiliyatlarini maksimal darajada anglash va ochib berish uchun sharoit yaratish zarur. Bugungi kunda bo‘lajak o‘qituvchi (yigit yoki qiz), o‘zining uslubiy tayyorgarligida bitta (jinsi bo‘yicha) maktab o‘quvchilari guruhi bilan fan bilimlari va ishlash usullarini o‘zlashtirishga qaratilgan bo‘lib, har doim ham butun sinf bilan pedagogik faoliyatga tayyor emas, o‘quv jarayonini tashkil etishda qiyinchiliklarga duch keladi (mazmuni, usullari va vositalari o‘qitish, dars davomida e’tibor, xotira, fikrlash va o‘g‘il va qiz bolalardagi boshqa farqlarni hisobga olish va h. k.), bu maktab o‘quvchilariga ularning individualligini to‘liq ochib berishga imkon bermaydi, mustaqillik, faollik, tashabbuskorlik, o‘quv ishlarining individual va jamoaviy uslubining izchilligiga bo‘lgan ehtiyojni qondirish.

Shu munosabat bilan bir qator qarama-qarshiliklar yuzaga keladi:

- o‘qituvchini o‘qitish jarayonida talabalarning gender xususiyatlarini hisobga olish zarurati va o‘qituvchilarning aksariyati maktab o‘quvchilarini o‘qitishda gender yondashuvini amalga oshirishga tayyor emasligi o‘rtasida;
- bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi jarayonida gender yondashuvini amalga oshirishga tayyorligini shakllantirishga bo‘lgan ijtimoiy ehtiyoj va bo‘lajak o‘qituvchilarning ushbu sharoitlarda gender yondashuvini amalga

oshirishga tayyorligining muhim va tarkibiy-mazmunli xususiyatlari, mezonlari va darajalari yetarli darajada ishlab chiqilmaganligi o‘rtasida;

- pedagogika institutlarida o‘qituvchilarning maktab o‘quvchilarini o‘qitishda gender yondashuvini amalga oshirishga tayyorligini shakllantirishga qaratilgan o‘quv jarayonini qurish zarurati va ilmiy asoslangan modelning yo‘qligi, ushbu tayyorgarlikni shakllantirish uchun pedagogik sharoitlarning noaniqligi o‘rtasida. Shunday qilib, turli xil tadqiqotlarda “gender yondashuvi” tushunchasining ma'lum bir rivojlanishiga qaramay, bo‘lajak o‘qituvchilarning maktab o‘quvchilarini o‘qitishda gender yondashuvini amalga oshirishga tayyorligini shakllantirish muammosi hali maxsus o‘rganish mavzusiga aylanmagan.

Shunday qilib, tadqiqotning dolzarbligi, bir tomondan, zamonaviy ta’lim tizimining maktab o‘quvchilarini o‘qitishda gender yondashuvini amalga oshirishga tayyor bo‘lgan o‘qituvchiga bo‘lgan ehtiyoji va boshqa tomondan, bo‘lajak o‘qituvchilarning maktab o‘quvchilarini o‘qitishda gender yondashuvini amalga oshirishga tayyorligini shakllantirishning maqsadga muvofiq ishlab chiqilmaganligi bilan bog‘liq. Aniqlangan qarama-qarshiliklarni hal qilish bo‘lajak o‘qituvchilarni o‘qitishning o‘quvchilarni o‘qitishda gender yondashuvini amalga oshirishga tayyorligini shakllantirishning nazariy asoslari va amaliy usullarini aniqlashni talab qiladi, bu tadqiqot muammosini tashkil etadi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, Yangi O‘zbekistonda asrlarga tatigulik islohotlar amalga oshirilmoqda. Ushbu islohotlarning ko‘lamini bejiz asrlarga bog‘layotganim yo‘q, albatta. Yurtboshimiz Sh. Mirziyoyev Uchinchi renessans poydevorini yaratishdek ulug‘ bir maqsadni boshlab berdilar. “Najot - ta’limda” so‘zlari esa Yangi O‘zbekistonning brendiga aylandi. Bugungi yaratilayotgan imkoniyatlar yoshlarimizni yanada yuksak marralar sari ilhomlantiradi. Davlatimiz har tomonlama yoshlarimizni ilmli va kasbi-korli bo‘lishlarini kafolatlamoqda. Zero, aqlli va ilmli yoshlarga olib borilayotgan islohotlarni to‘g‘ri anglagan holda imkoniyatlardan unumli foydalana oladilar. Ular o‘z kelajak istiqbollariga olib boruvchi porloq yo‘lni ko‘ra oladilar o‘tayotgan vaqtlarini qadrlab hayotlarini mazmun bilan boyitadilar.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni.

2. Mirziyoyev Sh. M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017. 486-b.

3. Ibraimov X, Quronov M. Umumiy pedagogika. Darslik. – Toshkent. 2023.

4. Tojiboyeva X. M. Gender madaniyatning zamonaviy shakllarini vujudga keltiruvchi ijtimoiy-pedagogik omillar. Ta’lim va innovatsion tadqiqotlar.

– Buxoro davlat universiteti, 2022. №1. – B.178-182.

Mundarija.

10. 00. 00-Filologiya.

1. Madieva G. Teaching foreign languages and some work strategies to mixed-ability students in technical universities……....**4-8**

13. 00. 00-Pedagogika.

2. Bolibekov A. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ota-onalar hamkorligining ahamiyati……..…...**9-12**
3. Bayzakova M. Xalqaro baholash dasturi asosida o‘qituvchilarning kasbiy ko‘nikma va malakalarini shakllantirish.....**13-16**
4. Bayzakova M. Xalqaro baholash dasturi asosida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining metodik tayyorgarligini takomillashtirishning amaliyotdagi holati.....**17-21**
5. Xolnazarova D. Talabalarning huquqiy madaniyatini rivojlantirishning pedagogik-psixologik jihatlari……....….....**22-26**
6. Boymatov N. O‘qituvchilarni kasbiy moslashtirrishning pedagogik shart-sharoitlari…….....**27-32**
7. Saribaev Sh. sog‘lom turmush tarzi va jismoniy mashqlar bilan shug‘ullanishda gimnastika mashqlarining ahamiyati.....….....**33-36**
8. Nazarqulova G. Tyutorlar faoliyati va ularga qo‘yilgan talablar.....…**37-41**
9. Raximova G. Talabalarda ma’naviy-axloqiy fazilatlarni Shihobiddin Suhravardiy falsafiy g‘oyalari asosida rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik zarurati….....**42-46**
10. Xudayberdiyev A. Talabalarda mediasavodxonlik va axborot madaniyatini shakllantirish va takomillashtirish yo‘llari……..…….....…**47-53**
11. Utanbayeva D. integrativ yondashuv asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini badiiy matnni tahlil qilishga o‘rgatishning ilmiy-nazariy asoslari.....…**54-57**
12. Djamilova N. “Aqlli bog‘cha” konseatsiyasi asosida bolalarni kasb tanlashga qiziqtirish.....…**58-62**
13. Niyozova G. Raqamli texnologiyalar muhitida maktabgacha yoshidagi bolalarning intellektual qobiliyatilarini rivojlantirish…….....…**63-67**
14. Kurbanova D. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida tarbiya fanini o‘qitishdagi aksiologik yondashuvlar va ularni takomillashtirish.....…**68-71**
15. Xolyigitova B. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishning maqsadi, vazifalari va samaradorligi.....…….....**72-76**
16. Islamova D. Ta’limni raqamlashtirish sharoitida ta’lim sifatini ta’minlashning psixologik shartlari…….....**77-82**
17. Kenjayeva I. Sirdaryo viloyati toponimlarining yashalishida qo‘shimchalarning ahamiyati…….....…….**83-88**
18. Aliyeva O. Neyropedagogik yondashuvlar asosida maktabgacha katta yoshdagi bolalarni kognitiv rivojlantirish metodikasi……..…**89-92**
19. Ermonov Sh. Ta’lim sifatini oshirishda ommaviy onlayn ochiq kurslar (mooc) yordamida masofaviy kurslar tashkil etishning zamonaviy yondashuvlari…….**93-100**
20. Toshpo‘latov E. Harakatli o‘yinlarni tashkil etishda klasterli yondoshuvlarning ahamiyati va tashkil etish shakllari……..….**101-107**
21. Toshpo‘latov E, Nodirqulova M. Bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini oshirishda klasterli yondoshuvlar……**108-113**
22. Safarov A. Matematik analiz fanini smart texnologiyalar asosida o‘qitish metodikasi (“Funksiyaning limiti” mavzusi misolida)……..…...**114-119**
23. Meliyeva M. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida informatika va axborot texnologiyalari fanini kompyuter imitatsion modellar asosida o‘qitish metodikasini takomillashtirish……..…..**120-124**
24. Исманова Г. Взгляды ученых педагогической науки узбекистана по проблеме развития профессиональных компетенций у будущих

педагогов……...…**125-130**
25. Dadaboyeva D. Barkamol yoshlar tarbiyasida gender munosabatlarining pedagogik psixologik xususiyatlari……....**131-134**

Sayhun ilmiy ilmiy axborotnomasi ilmiy-uslubiy jurnali
2025-yil 1-soni

“Sayhun ilmiy axborotnomasi” ilmiy-uslubiy jurnali elektron to‘plam sifatida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi (AOKA) ning 2023-yil 9-martdagi № 067833 raqamli guvohnomasi asosida chop etiladi.

O‘zbekiston Milliy kutubxonasiga 2023-yil 11-oktabrdagi murojaat asosida ISSN 2992-9164 tartib raqami berildi. 2024-yil 20-iyunda (online) E-ISSN 3030-3090 raqamini oldi.

OAK Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5 qaroriga muvofiq **“Pedagogika”** fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiya ishlari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

“Sayhun ilmiy axborotnomasi” ilmiy jurnalining navbatdagi 2025-yil 1-soni chop etildi.

Texnik muharrir: A. A. Xudayberdiyev, M. R. Almamatova

Tahririyat manzili: Guliston shahri, Bo‘ston MFY talabalar ko‘chasi 49-uy.
Pochta indeksi:120100, Faks: (0367) 226-57-90,
e-mail: info@gspi.uz

“Sayhun ilmiy axborotnomasi”ilmiy-uslubiy jurnalining 2025-yil 1-soni
136 sahifadan tashkil topgan.

Maqolalarning ilmiy saviyasi va keltirilgan ma’lumotlar uchun mualliflar javobgar hisoblanadi.